" ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI "

mavzusidagi Respublika ko`p tarmoqli, ilmiy konferensiya

№ 5
YANVAR
2023 yil

https://ojs.rmasav.com

Tahririyat a’zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадумаров Т.Т. yur.f.d., prof.
Мирзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas’ul kotib: ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI

№ 5-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
17-YANVAR 2023-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES

5th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
JANUARY 17, 2023

ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Б.К.Хожанов
Ажиниёз номидаги НДПИ Бошланғич таълим кафедраси ассистент ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада экологияга оид олиб бориладиган дарсдан ташқари машғулотларининг аҳамияти, мазмуни, ҳажми, ташкилий шаклларини ишлаб чиқиш ва унинг самарадорлиги ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Экологик тарбия, экологик билим, дарсдан ташқари машғулотлар, давра суҳбатлари, илмий-амалий анжуманлар, экологик хафталиклар, экологик кечалар, экспедиция.

Экологик таълим ва тарбиянинг туб маъноси — табиат ва жамият ўртасидаги доимий бирлик ва уларни бир-бирларига боғловчи табиий ҳамда ижтимоий қонунларни ўрганиш, ҳаётга татбиқ қилишдан иборатдир.

Инсонни ўраб турган табиий муҳит ва унинг бойликларини биладиган, ундан тежамкорлик билан фойдаланадиган, сақлайдиган, табиат бойлигига, гўзаллигига гўзаллик қўшадиган, ижтимоий ва табиий қонунларни биладиган билимдон шахсни етиштириш экологик тарбиянинг мақсади ҳисобланади.

Экологик вазиятнинг ниҳоятда кескинлашуви, ишлаб чиқариш муносабатларининг мураккаблашуви инсоннинг табиатга нисбатан илмий-амалий фаолиятини қатъий равишда тартибга солишни талаб этмоқда. Мазкур талаблар Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқиймеъёрий ҳужжатлари мазмунида ўз аксини топган. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (XI боб, 50модда) да: «Фуқаролар атроф, табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар» деб кўрсатилган. Бу ҳар бир фуқаронинг ҳаёт тарзига айланиши лозим.

Табиатга нисбатан ҳурмат ва эътибор билан қарайдиган инсонлар, унинг ҳар бир қарич ерида бўлаётган ижобий ва салбий ўзгаришларни сезади, кузатади, табиатга ёрдамга боради, яъни йиқилган бутани тиклайди, касал ҳайвонни тузатади, даволайди, ифлос сувни тозалашга ҳаракат қилади, ёнғинни ўчиради ва ҳоказо.

Табиатни севиш, сув, тўпроқ, олов ва ҳавони эъзозлаш, дунёдаги жамики эзгу амалларни пок ва бус-бутун сақлашга даъват этиши, инсоният ўзи ўсиб улғайган она – заминни, атроф муҳитни юксак эътиқод-ила ардоқлашга ҳозирги авлодларга ўтмиш аждодлардан қолган меросдир. Ер, ҳаво, сув ва олов(Қуёш) Марказий Осиёда қадимдан эъзозлаб келинган, аждодларимизниниг зардуштийликдан тортиб, то исломгача бўлган барча динлар томонидан муносиб қадрлаб келинган Мактаб ўқувчилари аввало,

инсон, унинг маданиятини, табиат, табиатни ташкил этувчи (қуёш, ҳаво, сув, тупроқ) компонентларини ва табиат муҳофазасига оид энг зарур тушунчалар моҳиятини билишга ҳаракат қилишлари керак бўлади.

Ана шундагина, ўсимликларни пайҳон қилмаслик, гулларни юлмаслик, ўрмонлар, кўчаларда юрганда шовқин чиқармаслик; атрофга ахлат тўкмаслик, ёнғин чиқармаслик, дарахтларни кесмаслик; тўпроқ, ҳаво, сувни ифлос қилмаслик, йиртқич ҳайвонларни ўлдириш мумкин эмаслиги, энергия, Ер ва сувдан унумли фойдаланиш зарурлиги англаб етади. Бу эса, ўқувчида ўз Ватани шарафини онгли равишда ҳимоя қилишга, унинг қонун, қарорларини сидқидилдан бажарадиган инсон сифатида табиат ва унинг компонентларини қўриқлашга, унинг энг яқин ишончли дўсти ва ҳимоячиси бўлишга даъват этади.

«Табиатшунослик», «Эколог» каби тўгаракларини ташкил этиш асосида ўқувчиларнинг табиатга бўлган қизиқиши ошади, унга муносабати онгли равишда шаклланади ва бошқа ўтиладиган ўқув фанларига янада қизиқиши ортади. Экологик тарбия ҳақидаги фикрлар табиатни севиш, уни ардоқлашга бўлган хоҳиш-истак, маъсулиятни сезиш, муаммо ҳақидаги мустақил тафаккур, мушоҳада қилиш, ижобий хулосалар чиқаришдан, тасаввурларини кенгайтирувчи сайёҳатлар, об-ҳаво ва табиатни кузатишдан, ўзи яшаётган муҳитни кўкаламзор қилиш, мевазорлаштириш, меҳнат кўникмаларини шакллантиришдан, оромгоҳлар фаолиятини ривожлантиришдан бошланади.

Ўқувчиларга экологик билим бериш мактаб раҳбарлари, ўқитувчилар зиммасига жуда катта масъулият юклайди.

Ўқитувчи ҳар бир дарс мавзусининг экологик мақсади, мазмуни, вазифалари ва истиқболларини кўра билиши, мавзунинг экологик мақсади таълим-тарбия жараёнининг умумий манфаатларига мос бўлиши ва у билан узвий боғланганлигини аниқ тасаввур қилиши зарур.

Ўқитувчи дарсдан ташқари ишларда олиб бориладиган экологияга оид машғулотларнинг мазмуни, ҳажми, ташкилий шаклларини ишлаб чиқиш ва унинг самарадорлигини кўз олдига келтира олиши лозим.

Табиатни асраш, аждодларимиздан мерос бўлиб қолган она еримиз, сувимиз ва ер ости бойликларимизни муҳофаза қилиш масалалари қадимдан бугунги кунгача асосий долзарб вазифалардан бири бўлиб қолгани ҳаётимиз қадриятининг муҳим омилларидир.

Экологик таълим-тарбия энг аввало дарс жараёнида, сўнгра дарсдан ташқари машғулотларда давра суҳбатлари, илмий-амалий анжуманлар, экологик хафталиклар, экологик кечалар, экспедиция ва экскурсиялар орқали амалга оширилади.

Дарсдан ташқари машғулотларнинг асосий мақсади ўқувчиларни ҳар томонлама баркамол ривожлантиришдан иборат бўлиб, экология фани бўйича олган билимларини чуқурлаштириш, уларда табиатни асрашга бўлган қизиқишларини фаоллаштиришдан иборат.

Дарсдан ташқари машғулотларнинг таълимий-тарбиявий вазифалари фаннинг умумий мақсади ва вазифаларидан келиб чиқади. Дарсдан ташқари машғулотлар ўқувчиларда ҳамкорлик, дўстлик, меҳнатсеварлик, касб-ҳунарга қизиқиш ҳислатларини тарбиялайди. Ўқувчиларни табиат ва инсон ҳаётига оид бўлган қизиқарли фактлар, тушунчалар, кўникмалар билан қуроллантиради. Энг муҳими ўқувчиларни экологияга бўлган қизиқишларини оширади.

Экология тўгараги ўқувчиларнинг илмий жамиятлари, факультатив машғулотлар, табиатни севувчилар клуби ва музейлар, экологиядан ўтказиладиган дарсдан ташқари машғулотлар шакллари, доимий ўтказиладиган дарсдан ташқари машғулотлар жумласига киради.

Дарсдан ташқари машғулотлар сифатида олимпиадалар, экологик хафталиклар, экологик кечалар, экскурсия, экспедицияларни кўрсатиш мумкин.

Дарсдан ташқари машғулотларни ташкил этиш усулларидан табиатда олиб бориладиган ишлар: кузатиш, сайр-саёҳат, экологик адабиётлар билан ишлаш, маърузалар, рефератлар, газеталар, стендлар тайёрлаш кабилар амалиётда кенг тарқалган. Шунингдек, экологик тарбияда ўйинлардан фойдаланиш: кечалар, олимпиадалар, викториналар, турли хил ўйинлар уюштиришга катта эътибор берилади.

Ўқувчиларда табиатга нисбатан онгли муносабатни шакллантира олсак, бу билан бир қаторда Ватанга муҳаббат, яқинларига нисбатан ҳурмат-иззат, ҳар бир нарсадан оқилона фойдаланиш барча мавжудотга нисбатан нафосат ва ғамхўрликни ҳам тарбиялаш имконига эга бўламиз.

Фойдаланган адабиётлар

1. Эргашев А. Умумий экология.-Тошкент: Ўзбекистон, 2003
2. Ўзбекистон экологик ҳаракати дастури. Тошкент: «Chinor ENK» экологик нашриёт компанияси, 2009.
3. «Узлуксиз экологик таълим: муаммолар ва ечимлар», Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, Тошкент, ЎзПФИТИ, 2007 йил

ИЧКИ ИШЛАРДА ФАОЛИЯТ ЮРИТУВЧИ ХОДИМЛАРНИНГ ПСИХОЭМОЦИОНАЛ ХОЛАТИНИ БАҲОЛАШ

Хаитов Мурод Атаназарович
Тошкент Тиббиёт академияси Урганч филиали

Мавзунинг долзарблиги. Жаҳон цевилизациясининг хозирги кундаги жадал ривожланиш холати, яшаш шароити, турмуш тарзи ва даражаси, шунингдек, иш фаолияти каби омиллар мунтазам равишда инсоннинг психоэмоционал холатига таъсир кўрсатади ва натижада стрессларнинг келиб чиқишига сабабчи бўлади. Бундай омилларнинг таъсири айниқса ички ишлар органлари ходимлари фаолиятида яққол номоён бўлади. Психоэмоционал холатлар инсоннинг фаоллиги, ўзини хис қилиши ва кайфиятига боғлиқ бўлгани ҳолда, узоқ муддат давомида шахс сифатида ривожланишига, жисмоний ва руҳий саломатлигига ўз таъсирини кўрсатади. Бу эса ўз навбатида ходимларнинг фаолиятига салбий таъсирини кўрсатади.

Тадқиқотнинг мақсади. Ички ишлар тизимида фаолият юритаётган ходимларнинг психоэмоционал холатини ўрганиш.

Тадқиқотнинг материал ва услублари. Психоэмоционал статусни баҳолаш ва таҳлил қилиш учун Нукус шаҳар ва Нукус тумани ички ишлар органлари тизимидаги ходимларга ўтказилган психологик семинар-тренинг машғулоти натижалари ва самарадорлигини ўрганилди.

Натижалар. Меҳнатга қобилиятли аҳоли саломатлигини ўрганишда биринчи навбатда меҳнат фаолиятига доимий равишда таъсир қилувчи носоғлом ижтимоий ва бошқа турдаги салбий омилларни илмий жиҳатдан ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Айнан шу қатламга жамиятда ички ишлар ходимлари ҳам киради. Уларнинг меҳнат фаолияти давомида мавжуд кўплаб омиллар, айниқса асабий зўриқиш билан бевосита боғлиқ омиллар таъсирида организмда узоқ давом этувчи, аксарият ҳолларда сурункали кўринишга ўтадиган касалликлар шаклланади. Бу ўз навбатида уларнинг саломатлигига салбий таъсир қилувчи омилларни комплекс ижтимоий-гигиеник жиҳатдан ўрганишни талаб қилади ва Ички ишлар ходимлари орасида касалланишни камайтиришга йўналтирилган зарур чора-тадбирларни ишлаб чиқишда қўл келади.

Ички ишлар органларида ишловчи ходимлар орасида баъзи ижтимоий аҳамиятга эга бўлган соматик касалликларнинг тарқалиш сабабларидан бири, уларнинг хизмат давомида доимий тарзда юқори асабий зўриқишлари билан кечиши ва ўз вақтида улар орасида тиббий ва психологик реабилитация тадбирларининг олиб борилмаслигидадир.

Таҳлил қилинган материаллардан, маълум бўлдики, республикамизда ҳамда ҳорижий давлатларда, шу жумладан тадқиқот ўтказиш режалаштирилган Хоразм вилояти Ички ишлар тизими ходимлари орасида сўнгги йилларда хизмат даврида руҳий зўриқиш ҳолатларининг кескин ошиши туфайли баъзи ижтимоий аҳамиятга эга бўлган, соматик касалликлар ва жароҳатланишлар ўсиши кузатилмоқда. Хоразм вилояти Ички ишлар бошқармаси, даволаш-профилактика муассасалари тиббиёт бўлимининг жорий йилда қайд қилган касалланган контингентлар орасида юрак ишемик касалликлари, артериал гипертензия, овқат ҳазм қилиш тизимлари билан боғлиқ носоғлом турмуш тарзи билан бирга нотўғри овқатланишлар туфайли келиб чиққан семизлик аломатлари ҳам нисбатан юқорироқ кўрсаткичда келтирилган. Юқоридаги ҳолатлар, айниқса вилоят ИИБ, Урганч шаҳар ва туман, Гурлан туманлари ИИБ ходимлари орасида нисбатан кенг тарқалган.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2017 йил 31 декабръ кунидаги 292-сонли буйруғига асосан, жорий йилнинг 3 июн куни ИИВ Малака ошириш институти ҳудудий филиалида Нукус шаҳар ИИО ФМБ билан ҳамкорликда Нукус шаҳар ва Нукус тумани ички ишлар органлари тизимидаги ходимларга психологик семинар-тренинг машғулоти ўтказилди.

Ўқув машғулоти давомида ички ишлар органлари ходимлари томонидан психологик усул ва методлардан тўғри фойдаланиш ҳамда экстремал ҳолатларда тўғри қарор қабул қилиш бўйича психологик билимларини ошириш, шунингдек, жамоада маънавий-руҳий муҳитни яхшилаш ҳамда турли ҳил руҳий зўриқишнинг олдини олиш орқали ходимларнинг руҳий барқарорлигини таъминлаш масалаларига эътибор қаратилди.

Машғулотда тажрибали психологлар томонидан “стресс ва унинг пайдо бўлиш омиллари, даражалари ва вазиятлар”, “стресс оқибатлари, унинг эмоция ва ҳиссиётларга таъсири”, “стрессни енгиш усуллари ва уни бошқариш”, шунингдек, “ички куч ва мулоқот одоблари” ҳақида маълумотлар етказилди ҳамда стресснинг олдини олиш бўйича турли амалий машқлар ўтказилди.

Хулоса. Ички ишлар ходимларида юзага келувчи стрессни даволашда психотерапия ва психофармакотерапияга асосий урғу бериш лозим. Ҳар қандай стресс ва депрессияда психофармакотерапия психотерапия билан бошланиши ва психотерапия билан тугалланиши керак. Фармакотерапиядан олдин ўтказилган психотерапия даволаниш жараёнини енгиллаштирса, ундан кейин ўтказилган психотерапия эса депрессия қайталанишининг олдини олади.

BOSHLANG'ICH TAEKVONDOCHILARGA OYOQ UDARLARINI ÓRGATISHDA MURABBIYNING SALOHIYATI

Axmedov Asilbek
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Po'latov L.T.
Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Mazkur materialda boshlang'ich taekvondochilarga oyoq udarlarini órgatishda murabbiyning salohiyatining ahamiyati haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: Sport , Taekvondo , amaliy , texnik , murabbiy , psixolog , zamonaviy taekvondo ,

Sport texnikasi sportchiga g'alabaga erishish uchun asosiy qurol sifatida xizmat qiladi. Taekvondoda asosiy usullar texnikasi - bu sport turining asosiy tarkibini belgilab beradi, o'z mazmun- mohiyatiga ko'ra uning asosiy o'qini belgilaydi va o'z tarkibiga sportchi tayyorgarligining barcha jihatlarini qamrab oladi. Shu sababli sportchilaming texnik jihatdan mahoratining asosiy qonuniyatlarini chuqur o'rganish va tushunib yetish talab qilinadi.Amaliyot natijalari asosida malumki, hatto tashqi sharoitlaming sezilarsiz darajadagi o'zgarishlari ham usulning oqilona tizimiga chalg'ituvchi ta'sir ko'rsatadi va tabiiyki, uning bajarilish samaradorligiga ta'siri qayd qilinadi. Amaliy jihatdan usulning bajarilish texnikasi ko'nikmalarida chalg'ituvchi ta'sirlarga nisbatan malum bir darajada barqarorlik mavjud bolishi juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.Biroq, bu holat harakatlaming har vaqt doimiy holatda qolishi kerakligini anglatmaydi. Harakatlar jang davomida qulay holatda yuzaga keluvchi vaziyatlarning hisobga olinishi asosida o'zgartiriladi. Ushbu ko'rinishdagi ziddiyatli holat asosida harakatlar ko'nikmalarining bir butun yagonaligi kelib chiqadi.Asosiy chalg'ituvchi omillarni tizimlashtirishda kuchli ta'sirga ega bo'lgan va jang davomida ko'p uchrovchi omillar qayd qilinadi. Bu haqda murabbiy bilishi kerak va mashq qiluvchilarda sevimli usullari bajarilishi barqarorligiga nisbatan chalg'ituvchi ta'sirga ega bo'gan omillarni ishlab chiqish zarar hisoblanadi.

Murabbiyning salohiyati boshlang'ich va yosh taekvondochilarga oyoq udarlarini órgatishda katta ahamiyatga ega. Nafaqat murabbiy o'z sportining mutaxasisi ,balkim shu bilan birgalikda psixolog bo'lishi ham zarurdir.Bu nima uchun kerak? Boshlang'ich taekvondochilarda zerikish paydo bo'lmasligi va oyoq udarlarini tez va oson o'rganishlari uchun kerakdir.

Murabbiy boshlang'ich taekvondochilarga oyoq udarlarini órgatishda xar bir udarni tushuntirib , zamonaviy taekvondoda bu udar qayerda, qanaqa ishlanishi va qanday vaziyatda qo'llanishi ,nechta bal berishi haqida , o'z salohiyatidan va sportchilarning psixologiyasidan kelib chiqib o'rgatadi.

Xulosa va fikrlarim: Agar murabbiy ham o'z sportining mutaxasisi ham psixolog bólib boshlang'ich taekvondochilarga naziriy,psixologik va amaliy , sportchining xarakteri va psixologiyasidan kelib chiqib oyoq udarlarini o'rgatsa ko'zlangan maqsadga erishish tezroq va osonroq bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Бабак Ю.М., Константинова Ю.А., Волкова И.Н., Пашков И.Н., Мутьев А.В. Таэквондо: Методика построения тренировочного процесса в начальньтх и учебно- тренировочньгх группах. Киев, 2010, 88 с.
2. Лигай В.Таэквондо-путьк совершенству. Т., Шарк, 1994, 159 с.
3. Кадочников А.А. Динамика ударов ногами. Ростов-на- Дону, Феникс, 2003, 145 с.
4. Карас Е. Техника таэквондо. Кишинёв, 1999, 143 с.
5. Кьенг Ли, Новицкий Д. Таэквондо. Варшава, 1988, 174 с.

BOSHLANG'ICH TAEKVONDOCHILARDA OYOQ UDARLARINI TARBIYALASHDA AHAMIYATLI JIHATLAR

Axmedov Asilbek
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Po'latov L.T.
Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Mazkur materialda boshlang'ich taekvondochilarda oyoq udarlarini tarbiyalashda ahamiyatli jihatlar va foydali mashqlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Oyoq udarlari , jismoniy sifatlar , kuch , chidamiylik , tezlik , chaqqonlik , egiluvchanlik , namunali mashqlar .

Boshlang'ich taekvondochilarda oyoq udarlarini tarbiyalashda ahamiyatli jihatlar : yosh va boshlang'ich taekvondochilarga avvalo nazariy bilib berish , oyoq udarlarini texnikasini to'g'ri o'rgatish va ko'p takrorlash , jismoniy sifatlarga ko'proq e'tibor berish ,kuch , chidamiylik , tezlik , chaqqonlik, egiluvchanlik shular jumlasidandir.

Taekvondo bo'yicha o'quv-mashg'ulotlar jarayonida foydalaniluvchi jismoniy mashqlarning tasniflanishi.Bu mashqlar sportchilaming malakasi

bo‘yicha ham turli xilda foydalaniladi. Ushbu ko‘rinishda, bir xildagi barqaror shart-sharoitlarda kichik razryadga ega bo‘lgan sportchilarda katta razyardli sportchilarga nisbatan bu yo‘nalishdagi mashqlar ko‘proq qismni tashkil qiladi.

Boshlang’ich taekvondochilarda oyoq udarlarini jismoniy sifatlar (kuch , chidamiylik , tezlik) bilan rivojlantirishda namunaviy mashqlar .

Kuch : Bitta va ikkita oyoqda o‘tirib turish; bitta yoki ikkita oyoqda sakrash mashqlari; o‘tirgan holatda sakrash mashqlari; tizzada - oyoq osti bilan va teskari yo‘nalishdagi holatda sakrash; suvda yugurish, qorda yugurish (barcha sanab oTilgan mashqlar ogTrlik yuklamasi bilan birgalikda bajarilishi mumkin.

Chidamiylik : Yotgan holatda, bmsda, devorga qo‘l kafti bilan suyanib turgan holatda qo‘llami bukilishi va yozilishi mashqlari. Qo‘llami to‘g‘ri holatda uzatib, sekin-asta va tezkorlikda yuqoriga ko‘tarish, yon tomonlarga yoyish, og‘irlik yuklamasi: gantel, shtanga bilan orqaga yo‘naltirish, bukish va yozish mashqlari, shuningdek, bunda qarshilikni yengib o‘tish, rezina amortizatordan foydalanish va boshqa maxsus sanaryadlar va yuklardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Tezlik : Kutilmagan holatda beriluvchi buyruq bo‘yicha gavdaning turish holati tezkorlikda o‘zgartirish amalga oshiriladi (tirish, turish, yotish va hokazo). Tezkorlik harakatlarini o‘ta yuqori tezlikda bajarishni ta’minlash uchun buyruqlar bitta harakat oldindan beriladi. 20-30 metr masofaga odatdagi yugurish va to‘siqlar oqrali yugurish mashqlari. Turli xidagi start holatidan yugurish.

Xulosa va fikrlarim : Bu mashqlar sportchilaming malakasi bo‘yicha ham turli xilda foydalaniladi. Ushbu ko‘rinishda, bir xildagi barqaror shart-sharoitlarda kichik razryadga ega bo‘lgan sportchilarda katta razyardli sportchilarga nisbatan bu yo‘nalishdagi mashqlar ko‘proq qismni tashkil qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабак Ю.М., Константинова Ю.А., Волкова И.Н., Пашков И.Н., Мутьев А.В. Таэквондо: Методика построе- ния тренировочного процесса в начальнмх и учебно-тре- нировочнмх группах. Киев, 2010.
2. Зациорский М.В. Физические качества спортсмена. М., Физическая культура, 1970.
3. Куликов А.Н. Таэквондо. М., Агентство ФАИР, 1997.
4. Лигай В. Таэквондо - путь к совершенству. Т, Шарк, 1994.
5. Платонов В.Н., Булатова М.М. Физическая подготовка спортсмена. К., 1995.

TAKTIKANI O'RGATISHNING ASOSIY VOSITALARI

Turganbekov Otabek
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondo sport turida taekvondochilarni taktikani o'rgatishda asosiy psixologik omillar va uning turli usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: taktika , murabbiy, diqqatchanlik, kuzatuvchanlik , psixologik, taktik tayyorgarlik, intuitsiya, , taekvondochi, musobaqa, antitsipatsiya , taktikani rivojlantirish.

Sport turlarida musobaqa oldidan taktikani ahamiyati kattadir. Bu ilmiy tadqiqotlar orqali asoslangandir. Misol uchun B.Teplovni fikriga ko'ra, sportchining tahliliy tafakkurga ega ekanligi uning aql-idrokidan darak berib, uning sportda yutuqlarga erishishida, sportchining tabiiy kuchi kamlik qiladi va bunda unga qo'shimcha ravishda katta hajmdagi maxsus bilimlar, shuningdek yuqori va keng qamrovli taktik fikrlash zarur hisoblanadi.

Taekvondoda taktik tayyorgarlikda taktik rejani muvaffaqiyatli ravishda tuzish va amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan muayyan psixologik omillarni rivojlantirish kerak. Taktik harakatlarni muvaffaqiyatini ta'minlovchi psixologik omillar quyidagilardir: kuzatuvchanlik va diqqatchanlik, antitsipatsiya, tafakkur va xayol, jangovor ruh va g'alabaga ishonch, konseptual modellarni namoyon etish, shuningdek uzoq muddatli va operativ xotira, intuitsiya. Ushbu omillar birgalikda musobaqa oldi mashg'ulotda taktik jihatni muvaffaqiyatida psixologik asosi hisoblanadi.

Kuzatish bu atrofdagi narsa va hodisalarni taekvondochi ongli ravishda kuzatib, uni tahlil qilgan holatda maqsadiga yo'naltirib idrok qila olishi desak hato bo'lmaydi. Kuzatuvchanlik bilan diqqatchanlik yonma-yon yuradi. Sababi mashg'ulotlarda taekvondochilar o'z raqiblarini kuzatib taktik usullarini bilib olishi mumkindir. Buning uchun diqqat bilan fikrlarini bir nuqtaga qaratishi zarurdir. Bu ikkisi birgalikda musobaqa jarayonida raqibni kuzatib taktik maqsadini bilib, uni taktikasini bilib olish uchun zarur bo'ladi.

Antitsipatsiya bu jarayonlarni oldindan ko'ra olish hisoblanadi. Murabbiy va sportchi taktik tayyorgarlik jarayonida qisman antitsipatsiyaga amal qiladi. Biroq bu har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi.

Musobaqa oldidan taktik tayyorgarlik har doim ehtimollikka asoslangan bo'ladi. Bu taktikalar musobaqa paytida juda ko'p marotaba o'zgarishi mumkindir. Buni samaradorligini oshirish uchun taktik taffakkur muhim hisoblanadi. Bu orqali nisbatan yaxshiroq qarorlarni tez va oson topish mumkindir.

Taekvondochilarni taktik taffakkurida konseptual modellar ham muhim hisoblanadi. Chunki qisqa vaziyatlarda bo'ladigan harakatlarga qarshi harakatni tez tanlay olish zarurdir. Bunda bu vaziyat oldin bo'lgan bo'lsa, unga ko'rsatilgan taekvondochining harakatidan nusha olish mumkin bo'ladi. Bu albatta taekvondochining malakasi va tajribasiga asoslanadi.

Taekvondochi qanchalik malakali va tajribali bo'lsa, shunchalik intuitsiyasi baland bo'ladi. Intuitsiya bu oldinni ko'ra olish va unda qarshi texnikani tayyorlashi hisoblanadi. Bu jarayonda taekvondochi o'zining tajribasiga asoslanib taktik reja tuzadi va uni amalga oshiradi. Intuitsiyani musobaqadan oldin shakllantirish uchun murabbiy sportchini turli vaziyatlarda fikrlashini tezlashtirish va yaxshilash taktikasi.

Taekvondochilarni taktik tayyorlashning asosiy vositalariga jangovor ruh va g'alabaga ishonchni ham kiritish mumkindir. Bu orqali taekvondochi o'zining psixologik holatini yanada mustahkamlaydi. Sportchilarni psixologik holati qanchalik mukammal bo'lsa, o'zining minimal imkoniyatidan maksimal darajada foydalanishi mumkin bo'ladi.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma'lumotlarni asosida shuni aytishimiz mumkinki, taekvondochilarda taktik salohiyatni yanada rivojlantirish uchun ma'lum bir psixologik omillar ham zarurdir. Bu psixologik omillarini rivojlantirish kerak bo'ladi. Buni taekvondochi va sportchi birdgalikda bajarishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Ташкент – "LIDER PRESS" , 2008.
2. Калмиков Е.В. Индивидуальный стиль деятельности в спортивных единоборствах.-М,:РГАФК,1996
3. Санг Х. Ким. Растяжки, сила, ловкость в боевой практике. – К.: Освіта, 1996.–247с.
4. Чой Сунг Мо, Глебов Е. И. Тхэквондо: основы олимпийского спарринга. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2002. – 320 с.
5. Arabboyev Q. T. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanidan ma'ruzalar to'plami. Qo'qon.2015 y.
6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent.,
7. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. & Усмонхужаев, С. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В ТАЕКВОНДО.

TAKTIK TAYYORGARLIKDA MUSOBAQANING AHAMIYATI

Turganbekov Otabek
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondo sport turida taekvondochilarni taktik tayyorgarligini shakllantirishda musobaqaning ahamiyati haqida va bu taktikalardan bir nechtasi yoritib berilgam.

Kalit so'zlar: taktika , murabbiy, Jahon chempionati, Osiyo chempionati , Kubok musobaqalari, taktik tayyorgarlik, Olimpiyada, , respublika chempionati, musobaqa , taktikani rivojlantirish.

Taekvondo sport turida musobaqa oldidan taktik tayyorgarlik qilish muhimdir. Bu tayyorgarlik ko'zlangan natijaga erishishda yordam beradi. Biroq har doim hamma musobaqaga ham bir hil taktik tayyorgarlik olib borilmaydi. Bunda musobaqaning nufuzi va taekvondochiga qanchalik muhim yoki yo'qligi inobatga olinishi zarur bo'ladi. Misol uchun nufuzli musobaqalarga yaxshi taktik tayyorgarlik kerak bo'ladi, lekin bazi musobaqalar borki bu musobaqalarda sportchining qatnashishi va ko'rsatadigan natijalari ahamiyati muhim bo'lmaydi. Shu holatda musobaqa oldidan ko'p vaqt taktik tayyorgarlik qilish yoki yangi taktikalarni qo'llashga zaruriyat bo'lmaydi. Bularni inobatga olib turlicha taktikalardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Barcha sport turlarida sportchilar uchun nufuzli musobalarga mamlakat chempionatlari, jahon chempionatlari, osiyo chempionati, tanlangan sport turiga hos musobaqalar, ochiq musobaqalar va Olimpiyada musobaqalarini aytib o'tishimiz mumkin.

Taekvondo sport turida Jahon chempionati, Islom o'yinlari, kubok musobaqalari va olimpiyada kabi nufuzli musobaqalar mavjud. Shuni unutmaslik kerakki dastlab bu musobaqalarga choqish uchun taekvondochilar bor taktik texnik va psixologik imkoniyatlarini va tayyorgarligini Respublika musobaqasiga qaratadi. Bu musobaqada g'olib bo'lib nufuzli musobaqalarga yo'llanma olish muhimdir.

Taekvondo sport turi Olimpiyada sport turi sirasiga kiradi. Olimpiyada musobaqasining nufuzi baland hisoblanib, bu musobaqa uchun taekvondochilar 4 yil tayyorgarlik olib boradilar. Taekvondochilar kerakli reyting ballari uchun baxs olib boradilar. Bu musobaqalardan boshlang'ichlarida yaxshi reyting ballarni yig'ish foydali bo'ladi. Chunki so'ngi yillarda taekvondochilar bir birlarini barcha imkoniyatlarini o'rganishqa harakat qilishadi. Ohirgi musobaqalarda sportchi pik formasida bo'ladigan bo'lsa, boshqa taekvondochilar bu sportchining pik formasiga qarshi taktikalarni tayyorlashadi va bu ularga qo'l kelish ehtimoli baland

bo’ladi. Shuning uchun bu nufuzli musobaqalardan oldin sportchilar va murabbiylari o’rtasida taktik kurash bo’ladi. Bunda sportchilar o’z imkoniyatlarini to’laqonli ko’rsatmasligiga harakat qilishadi. Bu ularni natijalarini balandligiga olib kelishi mumkindir.

Bu nufuzli musobaqalar oldidan bazi murabbiylar va mamlakatlar taktik usullardan foydalanish mumkin bo’ladi. Chunki olimpiyada musobaqasi uchun sportchilar tayyorgarligida barcha sportchilarni o’rganib, barchasiga qarshi taktik rejalar tuzishadilar. Bu tayyorgarlikni kamaytirish maqsadida mamlakatlar o’z sportchilarini formasi pasayganligi haqida fikrlarni e’lon qilishlari va bu sportchiga bo’lgan tayyorgarlikni pasaytirishiga olib kelishi mumkin.

Olimpiyada musobaqasiga yetarli reyting balni egallagan sportchi keyingi musobaqalarda o’z usullarini, texnikalarini bir xil qo’llashi mumkin. Bu murabbiyning aqlliy taktikalaridan biridir. Sababi boshqa sportchilar bu sportchini ayni shu uslub, texnika va taktikasiga moslashishadi. Ohirgi musobaqalarda bu sportchi g’alabasidan keyin o’zini bemalol tutishi ham mumkin bo’ladi. Biroq taekvondochi o’zlari tanlagan va maqsad qilib olgan musobaqasida butunlay boshqa taktikalardan va texnikalardan foydalanishi mumkin. Bu murabbiyning taktikasi sportchining imkoniyatini yanada yaxshilanishida katta hissa qo’shadi. Bu murabbiy musobaqalarda faqat shogirtini jangini emas balki raqiblarini jangini diqqat bilan kuzatib, kuchli va kuchsiz taraflarini hisoblashlari zarurdir.

Taekvondo sportida Olimpiyada musobaqasiga taktik tayyorgarlikni asosi Respublika musobaqasidan oldin yaratilgan bo’ladi. Taekvondochi Respublika musobaqasida g’olib bo’lganida unda o’ziga hos taktik tayyorgarlik shakllangan bo’ladi. Shuning uchun uni nufuzli musobaqalarga yanada rivojlantirish kifoya bo’ladi.

Xulosa va fikrlarim : Bulardan kelib chiqadiki barcha musobaqalar uchun taktik tayyorgarlik bir hil bo’lavermaydi. Bu sportchi va murabbiyning maqsad qilib qo’ygan musobaqasiga bog’liq bo’ladi. Taekvondochini taktik tayyorgarligining turlicha ekanligi yaxshi natijaga erishishini ehtimolini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонходжаев Т.С. ва бошқа. Болалар ва ўсмирлар спорти машғулотлари назарияси ва услубиятлари. 2005 й. Тошкент.
2. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Учебное пособие. 2001 г. Ташкент.
3. Саломов Р.С. Спорт машғулотларининг назарий асослари. Дарслик. 2000 й. Тошкент.
4. Керимов Ф.А. Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. Дарслик. 2000 й. Тошкент.

TAEKVONDOCHILARNING EGILUVCHANLIK SIFATINI TARBIYALASH USULLARI

Abriqulov Odiljon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondochilarni egiluvchanlik sifatining tarbiyalash usullari va egiluvchanlikni tarbiyalashda muhim jihatlarni hisobga olish haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: egiluvchanlik , qayishqoqlik, elastiklik, umumiy egiluvchanlik, oyoqning elastikligi , gavda egiluvchanligi, maxsus egiluvchanlik , sportchi, taekvondochi , yosh sportchilar, oyoq zarbalari, shpogat, rostayashka.

Taekvondo sport turida har bir mashg'ulot ma'lum bir vazifaga yo'naltirilgan bo'ladi. Shular jumlasiga egiluvchanlik sifatini ham aytishimiz mumkin bo'ladi.

Taekvondo sport turida egiluvchanlik sifati muhimdir. Egiluvchanlik sifatini olsak yosh kattarishi bilan, bu qobiliyat pasayib boradi. Shuning uchun taekvondochilar yoshlikdan bu sport turiga kelishadi. Lekin sportchilarda har doim ham hammada bir xil bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, sportchilarning har birida to'g'ri mashg'ulot orqali egiluvchanlik sifatini tarbiyalash mumkin. Egiluvchanlikni tarbiyalash mashg'ulotlarini har doim to'xtatmasdan bajarib borish zarur bo'ladi. Aks holada sportchining egiluvchanligi, bo'g'imlarining qayishqoqligi va muskullarning cho'ziluvchanlik xususiyati yana avvalgi holatiga qaytib qoladi.

Egiluvchanlikni taekvondochilarda tarbiyalash uchun juda ko'p uslublar mavjud. Bularni qaysilaridan foydalanish murabbiy tomonidan tanlanadi. Lekin bu mashqlar sportchining umumiy tana, oyoq va gavda qismlarini egiluvchanligiga qaratilgan bo'ladi. Bu egiluvchanlik xususiyatini tarbiyalash jihatlarida inobatga olinadigan jihatlar:

1.Taekvondochilarni umumiy tanasining elastikligini oshirish. Bu uslub taekvondochilarda yoshlik paytida ko'proq amalga oshiriladi. Sababi yosh taekvondochilarda egiluvchanlik yaxshi darajada bo'ladi. Shuning uchun yosh taekvondochilarda bu egiluvchanlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirish uchun ushbu uslubdan foydalanish o'rinli bo'ladi.

2.Oyoq paylarini egiluvchanligini shakllantirish usuli. Bu usul taekvondo sporti bilan shug'illanuvchilarni barchalarida o'tkiziladiman mashg'ulotlar sirasiga kiradi. Chunki taekvondo sportining asosiy zarbalari oyoq orqali beriladi. Bu esa oyoq zarbalari aniq chiqishi va erkin harakat qilishiga imkon beradi. Oyoq zarbalarini berishda egiluvchanlik qaysi tarafga bosim tushirishiga qarab, shu oyoq bo'g'imiga yuklamalarni qabul qilish orqali buni yaxshilash mumkin bo'ladi. Oyoq

harakatlarini elastikligini va qayishqoqligini tarbiyalashda ma’lum bir usullar umumiy jihatga qaratiladi. Oyoq harakatlari egiluvchan bo’lishi uchun, taekvondochida bazaviy usullarni bajara olishi kerak. Bu usullar:

•Taekvondochilar oyoqlarini yoyib “shpogat” holatini bajara olishi zarurdir. Bu taekvondochilarga oyoq zarbalarini bajarishda oyoqni yon tomondan ko’tarib zarba berishini osonlashtiradi va raqibning bosh qismiga oson zarba bera olish imkonini beradi.

•Taekvondochilar oyoqlarini yoygan holatda yuklama olib rostayashka mashqlarini bajara olishi kerak. Bu orqali sportchi raqibga to’g’ridan bosh qismiga oyoq zarbalarini berishi mumkin bo’ladi. Bu zarbalarga misol tariqasida neryo zarbasini aytishimiz mumkin. Bu zarbalar raqibga yaqin va uzuq masofadan ham hujum qilish imkonini beradi. Bu usulda oyoqning tizza orti paylari egiluvchanligi muhim ro’l o’ynaydi.

3.Bel muskullarini egiluvchanligini ta’minlash uchun qo’llaniladigan mashqlar. Bu mashqlar taekvondochilarga oyoq zarbalarini berganda muzanat saqlash imkonini beradi.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma’lumotlardan shuni aytish mumkinki taekvondo sport turi egiluvchanlik sifati turli yoshlardagi sportchilarda turlicha bo’ladi. Bu sifatni tarbiyalash uchun turli usullardan foydalanish mumkin. Bunda murabbiyning ro’li ham mavjud. Egiluvchanlik yosh bolalardan to katta taekvondochilarga ham egiluvchanlik mashqlari zarur bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maksimenko, A.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi asoslari: O'quv qo'llanma. qadash uchun qo'llanma. Universitetlar / A.M. Maksimenko. - M.: Harbiy nashriyotning 4-filiali bosmaxonasi. - 2001. - 320p.
2. Matveev, L. P. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: Darslik. nat uchun. kult / L.P. Matveev. - M.: Jismoniy madaniyat va sport 1991. - 543s.
3. Майфат С.П. Сравнительное значение паспортного возраста и длины тела для оценки результатов контрольных испытаний при отборе в СДЮСШ. Журнал ТиПФК №12 , 1981 й
4. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999 й
5. Матвеев Л.П., Мельников С.Б. Методика физического воспитани с основами теории. Учебное пособие. Москва., «Просвещение», 1991 й
6. Назаренко Л.Д. Оздоровительные основы физических упражнений. Москва. ФиС, 2002 й
7. Набатникова М.Я. Основы управления подготовкой юных спортсменов. Москва, ФиС, 1982 й

TAEKVONDODA EGILUVCHANLIK SIFATINI FOYDALI JIHATLARI

Abriqulov Odiljon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondochilarni egiluvchanlik sifati taekvondo sportidagi faoliyatida muhim ekanligi, egiluvchanlikni vazifalari va foydali jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: egiluvchanlik , qayishqoqlik, elastiklik, maksimal amplituda, oyoqning elastikligi , qisqa masofadagi egiluvchanlik, egiluvchanlik darajalari , sportchi, taekvondochi , bo'g'im, oyoq zarbalari, kirugi, pumse, fristayl.

Egiluvchanlik sifati sportchilarda erkin harakat qila olish imkonini beradi. Taekvondo sport turida egiluvchanlik sifatiga yaxshi e'tibor qaratiladi. Egiluvchanlik sifati taekvondo sportida ishlatiladigan boshqa sifatlarning asosi desak ham hato bo'lmaydi. Bunga sabab qachonki taekvondochi erkin harakat qila olsa, chaqqonlik va tezkorlik kabi sifatlarni ham ko'rsata oladi. Egiluvchanlik kuch sifatiga ko'pincha mutanosib kelmaydi. Egiluvchanlik taekvondochilarda kuch sifatini kam ishlatgan holatda amalga oshiriladi. Agar kuch sifati bilan majburiy egiluvchanlikni amalga oshirishsalar jarohat ortirib olishlari mumkindir. Chunki egiluvchanlikda bo'g'imlar va paylarning cho'zilishi, qisqarishi va kengayishi orqali amalga oshadi. Kuch bilan majburlash orqali mashq amalga oshirilsa jarohat yuzaga kelish mumkin.

Taekvondo sportida egiluvchanlikning eng yuqori darajasi bu oyoqlarni yuqoriga iloji boricha tekis holatda ko'tarish va ushlab turish bilan baholanadi. Bu paytda oyoq ikkinchisidan 180° ga ko'tarilari. Hozirda egiluvchanlikni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Shu sababli hozirda egiluvchanlik sifati yaxshi bo'lgan taekvondochilar oyoqlarini bundanda yuqori darajaga ko'tara oladilar. Taekvondo WT sport turining ichiga bir qancha yo'nalishlar kiradi. Misol uchun kirugi, pumse va fristayl yo'nalishlari. Bulardan pumse yo'nalishida taekvondochilarning bu darajani qanchalik yaxshi bajara olishi muhim hisoblanadi. Chunki taekvondochi o'zining ko'rsatgan dasturidagi elementlarni aniq bajarishiga qarab baholanadi. Yurtimizda Taekvondo WT sport turining kirugi yo'nalishiga yaxshi e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishda mamlakatimizda yuqori natijalarni qo'lga kiritga sportchilarimiz mavjutdir.

Taekvoldochilarga egiluvchanlik sifati muhimdir. Egiluvchanlik sifati orqali sportchilar qisqa masofada oyoqlarini yuqoriga turli usullarda ko'tara oladilar. Jang vaqtida bu turdagi zarbalar tomoshabinlarni olqishiga sazovor bo'ladi va taekvondo sportini chiroyini ko'rsatadi. Taekvondochilar egiluvchanligi orqali maksimal amplitudali harakatlarni bajara olishdagi. Bu ularga ustunlik beradi.

Taekvondochilarni yana bir egiluvchanligini ko’rsatadigan jihat mavjud. Bu sportchilarning oyoq harakatlarini havoda elastikligi va osonlikcha turli zarbalarni bera olishidir. Bu jihatda oyoq mushaklarining elastiklik xususiyati katta ro’l o’ynaydi. Bunday harakatlarni amalga oshira olish taekvondochilarga, raqibni aldamchi harakatlar bilan chalg’itgan holatda o’z zarbasini belgilangan joyga tekkiza olishni ta’minlaydi. Agar taekvondochi bu harakatlarni qila olmasa raqibdan ochko olishi mushkul bo’ladi. Taekvondochilar egiluvchanlik orqali uzoq masofadan cho’zilib raqibga zarba bera oladilar. Bu zarba qanchalik samarali bo’lishi uning malakasiga bog’liq bo’ladi.

Egiluvchanlik sifati yaxshi rivojlangan taekvondochilarda tezkorlik va chaqqonlik kabi sifatlarni shakllantirish oson bo’ladi. Chunki egiluvchanlik bilan bajarilgan zarbalarda to’siq bo’luvchi omillar bo’lmaydi. Muskullar to’liq va maksimal ishlaydi. Chaqqonlik mashqlarini bajarayotganda bir holatdan ikkinchi holatga o’tishda sportchilarga qiyinchilik tug’dirmaslik uchun egiluvchanlik sifati as qotadi. Egiluvchanlik sifatiga orqali bajarilgan texnikalar sifatli va tez amalga oshiriladi. Aks xolatda sportchi oyoq zarbalarini kerakli balandlikda va havoda oyoq zarbalarini ko’p bajara olmaydi.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma’lumotlardan shuni aytish mumkinki taekvondo sport turi egiluvchanlik sifati taekvondochilarning erkin harakat qilib , turli zarbalarni berishida muhim ro’l o’ynaydi. Taekvondochilar yaxshi va chiroyli harakatlar bilan jang olib borishi uchun egiluvchanlik yaxshi rivojlangan bo’lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Верхошанский Ю.В. Спортчининг махсус жисмоний тайёргарлигини асослари. –М.: Жисмоний тарбия ва спорт, 1988. -331 б.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. –М., 1991. -544 б.
3. Саломов Р.С. Спорт фаолиятининг назарий асослари. –Т., 2005.
4. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –Т.: «Иқтисод молия», 2007.
5. Maksimenko, A.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi asoslari: O'quv qo'llanma. qadash uchun qo'llanma. Universitetlar / A.M. Maksimenko. - M.: Harbiy nashriyotning 4-filiali bosmaxonasi. - 2001. - 320p.
6. Matveev, L. P. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: Darslik. nat uchun. kult / L.P. Matveev. - M.: Jismoniy madaniyat va sport 1991. - 543s.
7. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999 й

TAEKVONDODA EGILUVCHANLIK SIFATINI SHAKLLANTIRISHDA NOTO'G'RI YUKLAMALARNING OQIBATLARI

Abriqulov Odiljon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondochilarni egiluvchanlik sifatini shakllantirishda hato usullar va buning oqibatlari nimalar bo'lishi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: egiluvchanlik, oyoqning elastikligi, noto'g'ri yuklama, egiluvchanlik darajalari , sportchi, taekvondochi , bo'g'im, oyoq zarbalari, jismoniy sifatlar, hato uslublar, murabbiy, jarohat.

Taekvondo sport turida barcha jismoniy jihatlar ahamiyatli hisoblanadi. Taekvondochilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishi uchun dastlab egiluvchanlik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Egilubchanlik sifatini taekvondochilarda shakllantirishning turli usullar mavjud va murabbiylar imkon qadar barcha usullardan foydalanishadi.

Lekin bazi holatlarda murabbiyning sportchilarga berilgan egiluvchanlikni rivojlantirish uchun yuklamalar sportchilarga foydali emas, zararli bo'lishi ham mumkindir. Bu holatlarda taekvondochilar turli jarohatlar olishlari mumkin. Muskullar va paylardan olingan jarohatlarning bitishi juda qiyin va ko'p vaqtni talab qiladi. Bitgan joylarga keyinchalik tushadigan yuklamalar yana jarohatni yangilashi mumkin. Bunday jarohatlarga sabab bo'luvchi holatlarga quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1.Taekvondo mashg'uloti olib boriladigan zal yoki xonalarning harorati sovuq bo'lishi. Bu holat egiluvchanlikka qaratilgan mashg'ulotni sifatiga katta tasir ko'rsatadi. Sababi sovuq havoda bo'g'im, pay va muskullar elastiklik xolatini susaytiradi. Bu vaqtda esa sportchilar egiluvchanlik sifatini kuch bilan bajarishga majbur bo'lishadi. Buning oqibatida jarohatlar ko'payishi mumkin bo'ladi.

Taekvondochilarga beriladigan asosiy yuklamalar uchun sportchilar qizigan holatda bo'lishlari shart. Sovuq sharoitda esa sportchilarning qizish jarayoni qiyin kechadi va ko'proq vaqt ta'lab qiladi. Lekin ko'p vaqt qizishga ketgani uchun mashg'ulot vaqti tugashi yoki sportchilar energiyasini sarflab bo'lishlari holati kuzatilishi mumkin. Bu holatlarda yuklamalar to'liq berilmaydi.

2.Murabbiylar sportchi bilan ishlashda bosqichma bosqich mashg'ulot olib bormasligi ham sabab bo'ladi. Egiluvchanlik mashqlarini tezroq samara berishi uchun ko'p bajartiradigan bo'lsa, muskullarda toliqish bo'lib, sportchida turli og'riqlar, jarohatlar paydo bo'lishi mumkin. Yosh sportchilarga bu yomon ta'sir

qilib, taekvondo sportini tashlab ketish holatlari ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun mashg'ulotda yuklamalarning hajmini aniq bilish zarur hisoblanadi.

3.Noto'g'ri yuklama berish oqibatida sportchilarda egiluvchanlikni shakllantira olmaslik mumkin. Bu holatlarda taekvondochilarning holatiga mos bo'lmagan mashqlarni bajartirish hatodir. Masalan yangi kelgan sportchiga qiyin mashq, malakali sportchiga esa uning holati uchun osson bo'lgan mashqni berish noto'g'ri. Agar yuklama hato beriladigan bo'lsa sportchining egiluvchanligi yaxshilanish o'rniga yomonlasha boshlaydi. Bu holat keyinchalik sportchining sog'lig'iga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Murabbiylar sportchilar bilan ishlaganda faqat sportchilik davrini emas, balki uni sog'ligini ham o'ylashlari kerak. Bu murabbiyning burchidir. Murabbiy vaqtinchalik natijalar uchun sportchining salomatligini qurbon qilib yuborishi to'g'ri bo'lmaydi. Sport turlarida har doim natija bilan sog'lik bir darajada turadi. Natija qilish uchun sportchini qurbon qilish hatodir.

Taekvondochilarni egiluvchanligini rivojlantirish uchun yuqoriga zarba berish usulidan foydalanishadi. Bu usulda har doim sportchini imkoniyatini hisobga olish kerak. Ya'ni sportchi qaysi balandlikga tepa olsa shu balandlik uning uchun norma qilib olinishi kerak. Bu albatta sekinlik bilam oshib boradi. Agar uni imkoniyatidan balandroqqa tepishga majbur qilinsa, u egiluvchanlikni kuch bilan oshirishga harakat qiladi. Bu esa zarbaning sifatini buzadi va malakaga shu tarzda tepish o'rnashib qolishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki taekvondochilarni yuqoriga zarba berishida dastlab balandlik emas usulni to'g'ri bajarishiga e'tibor qaratish zarur. Bu keyinchalik samarali bo'lishini ta'minlaydi. Taekvondochilarni tanasining barcha bo'g'imlari harakatda bo'ladi. Ularning birontasiga shikast yetsa barchasini ish faoliyatiga ta'sir o'tkizadi. Shuning uchun taekvondochilarda egiluvchanlikni shakllantirishda bosqich bilan yuklamani oshirib borish ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki taekvondo sport turi egiluvchanlik sifatini shakllantirish va rivojlantirishda shoshilish va noto'g'ri usullardan foydalanish turni jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuklamalar hajmi har doim inobatga olinishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саенко В. Г., Гончаров С. М. Теоретические особенности развития гибкости у тхэквондистов // Олимпизм и молодая спортивная наука Украины: Сб. науч. тр. V Регион. науч.-практ. конф. – Луганск: ЛНПУ им. Тараса Шевченко, 2007. – С. 153-156.

2. Санг Х. Ким. Растяжки, сила, ловкость в боевой практике. – К.: Освіта, 1996. – 247 с.
3. Чой Сунг Мо, Глебов Е. И. Тхэквондо: основы олимпийского спарринга. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2002. – 320 с.
4. Верхошанский Ю.В. Спортчининг махсус жисмоний тайёргарлигини асослари. –М.: Жисмоний тарбия ва спорт, 1988. -331 б.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. –М., 1991-544б.
6. Саломов Р.С. Спорт фаолиятининг назарий асослари. –Т., 2005.

TAEKVONDO SPORTIDA EGILUVCHANLIK SIFATINING AHAMIYATI

Abriqulov Odiljon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondochilarni egiluvchanlik sifatining ahamiyati, ma'lum bir turlari va egiluvchanlik taekvondochilarga qanchalik foyda berishi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: egiluvchanlik , passiv egiluvchanlik, nofaol egiluvchanlik, aktiv egiluvchanlik , faol egiluvchanlik, umumiy egiluvchanlik, maxsus egiluvchanlik , sportchi, qayishqoqlik , cho'ziluvchan, taekvondochi .

Egiluvchanli jismoniy qobiliyatlardan biri hisoblanadi. Egiluvchanlik tayanch harakatlarining funksional xususiyatlari demakdir. Bu xususiyatlar shu aparat bo'g'inlarining harakatchanligi, uning maksimal amplitudasi ya'ni og'ishi, egilishi, cho'zilishi, buklana olishi, qayishqoqligi bilan o'lchanadi.

Taekvondo sport turida egiluvchanlik muhim jismoniy qobiliyatlardan biridir. Chunki taekvondo harakatlari va zarbalarining katta qismi oyoq zarbalaridan iboratdir. Bunda oyoq raqibning bosh qismigacha osonlik bilan ko'tarilishi va oyoq orqali turli harakatlarni amalga oshirish mumkin. Shuning uchun egiluvchanlik taekvondo sport turida muhimdir.

Egiluvchanlik taekvondochilarda ikki hil ya'ni aktiv va passiv bo'ladi.

O'z muskul kuchi bilan egilish aktiv yoki faol egiluvchanlik deyiladi. Taekvondochilarda aktik egiluvchanlik darajasigacha chiqgan bo'lishi muhim hisoblanadi. Ularda oyoq harakatlari va zarbalari chiroyli va aniq chiqadi. Faol egiluvchanlikka erisha olgan taekvondochilar ko'pgina usullarni osonlik bilan o'zlashtiradi va bajaradi.

Tashqi qarshilikni yengish evaziga ro'y beradigan egiluvchanlik passiv yoki nofaol egiluvchanlik deyiladi. Passiv egiluvchanlikda taekvondochilar mashg'ulotda kimdirning yordami bilan, bosimi bilan egiluvchanlikni namoyon

qiladi. Bu taekvondochilar mashg'ulotlarda texnikalarni va usullarni bajarishda qiyinchiliklarga uchraydi. Sportchining harakatlari nisbatan noaniq chiqish ehtimoli ham mavjud. Chunki taekvondo sportida ma'lum bir texnik usullarni egiluvchanlik sifatisiz bajarib bo'lmaydi.

Egiluvchanlik sifati taekvondochiga erkin harakat qilish, erkin zarba berish imkonini beradi. Shuning uchun taekvondochilar oyoqlarini ko'tarishi orqali bir nechta oyoq zarbalarini amalga oshira oladilar.

Egiluvchanlik sifati sportchilarda umumiy va maxsus bo'g'imlarda bo'lishi mumkindir.

Umumiy egiluvchanlikda sportchining tanasidagi barcha bo'g'im va muskullar egiluvchan bo'lib, bukilish, cho'zilish harakatini osonlikcha amalga oshira oladi. Taekvondochilarda umumiy egiluvchanlik sifati mavjud bo'lsa istalgan texnikadan keyingi texnikaga osonlikcha o'ta oladi. Bu esa taekvondochiga texnikalardan turlicha kombinatsiyalarni osongina bajarishiga yordam beradi. Tezkorlik bilan bir elementdan ikkinchisiga o'tish taekvondo sportida tez zarba berish imkoniyatini yaratadi.

Mananing ma'lum bir bo'g'imlarida egiluvchanlik mavjud bo'lishi ham mumkin. Bu taekvondo sportida bunga misol sifatida bazi sportchilarda oyoq bo'g'imlari, bel mushaklarining harakatlarining egiluvchanligi shakllanganligini aytib o'tishimiz mumkin bo'ladi. Bunday egiluvchanlikka ega taekvondochilar bir texnikadan ikkinchisiga o'tishi bir oz ko'proq vaqtni talab qiladi. Chunki taekvondo sportida butun tana harakatda bo'ladi. Bir holatda ikkinchisiga o'tish jarayonida egiluvchanlikni nisbatan bosim bilan shakllantirish hosil bo'ladi. Buning uchun esa qisqa vaqt talab etiladi. Shuning uchun dastlab o'rganayotgan sportchilarda egiluvchanlik harakatlari qanchalik yaxshi shakllantirilsa texnikalarni oson o'zlashtirishlariga olib keladi va bu orqali tezroq natijaga erishishi mumkin. Taekvondo sport turida egiluvchanlik sifati bazi bir sport turlaridan ko'ra ko'proq talab qilinadi desak hato bo'lmaydi.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma'lumotlardan shuni aytish lozimki taekvondo sport turi uchun egiluvchanlik sifati muhimdir. Bu orqali oyoq harakatlarini erkin amalga oshirish va taekvondochi oyog'ini erkin harakatlantirishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баскакова И.Л. Внимание дошкольника, методы его изучения и развития. Изучение внимания школьников. - М.: Издательство «Институт практической психологии», Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995.- 64 с.

2. Глазырина Л.Д. Физическая культура дошкольникам. Старший возраст: Пособие для педагогов дошк. учреждений.- М.: Гуманит. изд. центр «Владос», 2001.-264 с.
3. Goncharova.O.B. Yosh sportchilarning jismoniy qobilyatlarini rivijlantirish. O'quv uslubiy qo'llanma Toshkent. O'zDJTI, 2005 yil. 171 bet.
4. Salomov.R.S, Sharipov.A.K. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati. 2 jild. Darslik. Toshkent. "ITA-PRESS" 2015. 182 bet.
5. Усманходжаев Т.С. Народные игры, национальные виды спорта и пути их использования в физическом воспитании детей и молодёжи / СоГлом авлод тарбияси буюк давлат куриш заминидир. Илмий амалий анжуман материаллари. 2-кисм. Тошкент. 1994, - Б. 165-166.

TAEKVONDO SPORTIDA EGILUVCHANLIK SIFATINI YOSHGA DOIR XUSUSIYATLARI

Abriqulov Odiljon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur materialda taekvondochilarni egiluvchanlik sifatining yoshga doirlik xususiyatlari, qizlar va bollardagi egiluvchanlik darajasi va yangi kelgan sportchikarda egiluvchanlikning holati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: egiluvchanlik , passiv egiluvchanlik, nofaol egiluvchanlik, aktiv egiluvchanlik , faol egiluvchanlik, umumiy egiluvchanlik, maxsus egiluvchanlik , sportchi, qayishqoqlik , cho'ziluvchan, taekvondochi .

Egiluvchanlik sifati turli yosh toifalarida turlicha rivojlangan bo'ladi. Huddi shunday taekvondo sport turida ham taekvondochilarda egiluvchanlik turlicha bo'ladi. Ularni yosh darajalarida va taekvondo sport turiga tashrif buyurishiga qarab turlicha bo'lishini aytimishim mumkindir.

Yosh bolalar taekvondo sport turiga kelganlarida ularda egiluvchanlik sifati yaxshi shakllangan bo'ladi. Yosh taekvondochilarda egiluvchanlik bilan muammo uncha bo'lmaydi va shuning uchun mashg'ulot jarayoni barcha jismoniy sifatlar va taekvondo sport turining bazaviy mashqlariga asoslangan bo'ladi. Yosh taekvondochilar egiluvchanlikka yo'naltirilgan mashqlarni osonlik bilan bajarishadi. Ularda zarbalar aniq bo'lmasada egiluvchanlik yaxshi bo'ladi. Lekin bazi yosh bolalar taekvondo sport turiga kelganida egiluvchanlik sifati yaxshi bo'lmaydi. Biroq bu kabi bolalarda egiluvchanlik mashqlari orqali osonlik bilan egiluvchanligini yaxshilab olish mumkin bo'ladi. Bunga sabab yosh bolalarda hali suyaklar qotmagan bo'ladi.

Taekvondo sport turiga har doim ham qatnashchilar yoshligidan kelishmaydi. Yoshi kattaroq bolalarda egiluvchanlik qobiliyati ancha past bo'lishi mumkindir.

Bu bolalarda egiluvchanlik mashqlari bajarilishida turli og'riqlar bo'lishi mumkin. Va sekinlik bilan egiluvchanlik sifati tarbiyalana boradi. Bunday sportchilarda egiluvchanlik sifatini tarbiyalanishi qiyin bo'ladigan bo'lsa, ularda faqat taekvondo sporti uchun zarur bo'g'imlar yani asosan oyoq va belning egiluvchanligiga e'tibor berishlari mumkin bo'ladi. Bu holatida ham taekvondochi yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu ularning o'zlariga bog'liq bo'ladi. Chunki bazi o'smirlar taekvondo sport turiga qatnashishni boshlashdan oldin, boshqa sport turi bilan shug'illangan bo'lishi mumkin. Bunda holatda bu sportchida egiluvchanlik sifati pas bo'lsa ham boshqa ya'ni , kuch, tezkorlik, chaqonlik va chidamlilik sifatlari shakllangan bo'lishi mumkin. Va bu sportchi taekvondo sport turiga qatnashib ma'lum bir vaqtdan so'ng egiluvchanlik sifatini yaxshilashga erishib, musobaqalarga qatnashishi va yaxshi natijalarni qo'lga kiritishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun taekvondo sport turiga kelgan sportchilarni murabbiylar biroz vaqt shug'illantirib ko'rishadi va shundan so'ng uni bu sport turida qolishida yoki boshqa sport turi bilan shug'illanib ko'rishida o'z fikrlarini bildirishadi.

Taekvondo sport turi bilan nafaqat o'g'il bolalar balki qiz bolalar ham shug'illanishadi. Qizlar va bollarda har doim jismoniy qobiliyatlar ikki hil bo'ladi. Taekvondo sportida kuch , tezkorlik , chaqqonlik va chidamlilik kabi sifatlarda o'g'il bolalar yaxshiroq natija ko'rsata olishadi. Bu ko'rsatkichlar taekvondo sporti bilan shug'illanishni endi boshlagan yosh bolalar va yosh qizlarda bir hil bo'lishi mumkin. Lekin keyinchalik bu farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ilmiy tadqiqotlar orqali asoslangandir. Lekin taekvondo sportida birgina egiluvchanlik sifatida qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan yaxshiroq natijani ko'rsata oladilar. O'smir taekvondochilarda sekinlik bilan umumiy egiluvchanlik susayishi mumkin, lekin qizlarda egiluvchanlik deyarli pasaymaydi. Shuning uchun qiz bolalar taekvondo sportida egiluvchanlikka yo'naltirilgan mashqlarni osonlik bilan bajarishlari mumkin. Buni birgina misol bilan ko'rsatadigan bo'lsak, taekvondo musobaqalarida jangdagi klinch holatlarida qizlar raqibasini bosh qismiga osonlik bilan zarba berishlarini aytishimiz mumkin bo'ladi.

Egiluvchanlik sifatiga taekvondo sportida doimo ahamiyat qaratiladi. Chunki egiluvchanlik sifatiga yuklama berib turilmasa yosh kattarishi bilan egiluvchanlik qobiliyati susayib boradi. Bu esa taekvondochilarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Xulosa va fikrlarim : Ushbu ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki taekvondo sport turi egiluvchanlik sifati turli yoshlardagi sportchilarda turlicha bo'ladi. Qizlar va bollarda egiluvchanlik sifati farq qiladi. Bu o'z navbatida suyaklarning qotishiga bog'liqdir. Shuning uchun taekvondoda har doim ediluvchanlikka e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maksimenko, A.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi asoslari: O'quv qo'llanma. qadash uchun qo'llanma. Universitetlar / A.M. Maksimenko. - M.: Harbiy nashriyotning 4-filiali bosmaxonasi. - 2001. - 320p.
2. Matveev, L. P. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: Darslik. nat uchun. kult / L.P. Matveev. - M.: Jismoniy madaniyat va sport 1991. - 543s.
3. Karpushko N.A. Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasiga bag'ishlangan "Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti" jurnali (1925-1994) // Nazar. va amaliy. jismoniy kult - M.: 1995 yil
4. Salomov R.S. “Jismoniy madaniyat nazariyasiga kirish” Tosh. 2002y. O‘quv qo‘llanma.
5. Salomov R.S., Ro‘zioxunova M.M. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” Tosh. 1995 yil. O‘quv qo‘llanma.
6. Xonkeldiev Sh.X., Abdullaev A.A. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” Tosh. 2005 yil.
7. Matveev L.P. “Teoriya i metodika fizicheskoy kul'turo‘” FiS. 1995g.

TRANSFORMATSIYA USULIDA BOLALAR KIYIMINI LOYIHALASHNING AFZALLIGI

Saloxiddinova Maxliyo Nurmuxammad qizi
Namangan muhandislik texnologiya instituti PhD,katta o’qituvchi

Isroilova Moxinur Oybek qizi
Namangan muhandislik texnologiya instituti magistranti

Annotatsiya. Maqola bolalar kiyimini transformatsiya usulida loyihalashning afzalligi masalasiga bag’ishlangan bo’lib, ko’p funksiyali bolalar kiyimiga qo’yiladigan talablar va transformatsiya usuli o’rganib chiqildi. Transformatsiya usulida loyihalangan bolalar kiyimi, ishlab chiqarish sanoatining kelajagi ekani va bugungi kundagi zamonaviy moda tendensiyasi nafaqat katta yoshdagilar balki bolalar kiyimida ham transformatsiyaning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: transformatsiya, bolalar kiyimi ko’p funksiyali, dizayn, loyiha.

Bugungi kunda Respublikamizda yengil sanoat sohasida jadal suratda olib borilayotgan islohotlar olib borilmoqda hamda ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmoqda, natijada ish samaradorligi oshib mahsulot sifati jahon bozor talablariga mos bo’lishiga xizmat qilyapti.

Bolalar kiyimi ishlab chiqarish sanoati ham rivojlanib borayotganiga qaramay, yechimi topilmagan muammolari ko’p. Shunday kamchiliklarni inobatga olib,mualliflar tomonidan 3-6 yosh oralig’idagi bolalar mavsumiy kiyimlarida uchraydigan muammolarga yechim topishni maqsad qilingan.

Ma’lumki, 3-6 yosh oralig’idagi bolalar, serharakat,tez o’suvchan,bahor-kuz mavsumida ob-havoning tez o’zgarishiga juda ta’sirchan bo’ladilar. Yuqoridagi muammolarni yechimini topish uchun transformatsiya usulidan foydalanib, ko’p funksiyali bolalar kiyimi loyihasini ishlab chiqish taklif etildi.

Transformatsiya bu- (lot. Transformation-o’zgartirish)-faoliyatning maqsad yo’nalishini o’zgartirib, tuzilmalarni, shakl va usullarni o’zgartirish; yoki biror narsaning o’zgarishi, tashqi ko’rinishi, shakli, muhim xususiyatlari o’zgarishi. Shunga o’xshash so’zlar-o’zgarish, o’zgartirish, namoyish qilish, to’ntarish, qayta tug’ilish,qayta qadoqlash kabi ma’nolarni bildiradi **[1]**.

“Transformatsiya” atamasining eng keng tarqalgan ta’rifi quyidagilardan iborat:" transformatsiya-biror narsaning shakli, ko‘rinishi, muhim xususiyatlarining o‘zgarishidir"**[2-3-4]**. Ushbu atamani kiyim dizaynining bir qismi sifatida hisobga olsak, biz quyidagi ta’rifga egamiz: "transformatsiya-bu obyekt-fazoviy dunyo obyektlarining mavjudlik yoki operatsiya jarayonida asl shakllari va parametrlarini o‘zgartirish xususiyatidir" **[5-6]**.

O‘zgaruvchan narsalar, xususan kiyim-kechak, uzoq vaqt davomida paydo bo‘lgan. Turli xil transformatsiya variantlari haqida ma’lumotni keng doiradagi bilim va fanlarning texnik adabiyotlarida topish mumkin**[7-8]**. Ushbu ma’lumotlar modifikatsiyaga qodir bo‘lgan dizayn bilan obyektlarni loyihalash kostyum dizayni dizaynida shakllantirishdagi yo‘nalishlardan biri deb taxmin qilishga imkon beradi. Ushbu tendensiya inson hayotining ko‘plab funksiyalarini ta’minlash bilan ham bog‘liq.

Bu yo’nalishda Xusseyn Chalayan (Buyuk britaniya), Djeyn Chan (Jane Chung), Blessus (Polsha) brendi doimiy faoliyat olib borishadi.

Kostyumda transformatsiyani ta’minlovchi bir qator texnika mavjud: cho’zilish-siqish; ajratib olish-birlashtirish; yo’naltirish-mahkamlash (fiksatsiya); bukish (yopish)-ochish(yoyish); yo’q bo’lish(yashirish)- paydo bo’lish; detallarni almashtirish; joyini almashtirish**[9]**.

Bog’cha yoshidagi bolalar uchun taklif qilinayotgan modelimizni ishlab chiqishda, bolalarning faol jismoniy harakati, kiyim konstruksiyasi, faol harakat natijasidagi fiik mehanik xususiyatlari, gigienik ko’rsatkichlari hisobga olingan. Shuningdek, bolalar kiyimlari o’zining estetik ko’rsatkichlari, material sifati, ranglar uyg’unligi, fakturasi, bezaklari va bezak sifatida qo’yilgan rasmlari bilan bolalar e’tiborini jalb qilishga xizmat qiladi.

Bolalar kiyimida siluet va shakl katta ahamiyatga ega. Uning tuzilishi, harakat qilish, nafas olish va organizmda qon aylanishini erkin ta’minlash darkor. Bolalar ustki kiyimi issiq, yengil bo’lishi va eng asosiysi bolaning erkin harakatlanishiga xizmat qilishi kerak.

Tor va zich yopishib turuvchi kiyim bolaning erkin harakatlanishiga qarshilik qilish bilan birga kayfiyatining yomonlashishiga ham sabab bo'ladi **[10]**.

Natijada yosh o'sib kelayotgan bolalar asab tizimiga salbiy ta'sir etib, injiq bo'lib qolishiga olib keladi. Bundan tashqari erkin harakatlanishiga qarshilik qilishi va ayrim xollarda qon tomirlarinong siqilishi natijasida qon aylanish tizimida muammolar kelib chiqishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Biz taklif qilayotgan modelda yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, bolalar ko'p funksiyali mavsumiy kiyimini loyihalashda, mamlakatimiz iqlim sharoitida, havo haroratining fasllarda tez-tez o'zgarishi natijasida ko'proq bolalarda shamollash kuzatiladi, Bog'cha yoshidagi bolalar juda tez fursatda o'sib borishi ularning kiyimlarini tana o`lchamlariga mos kelmasligiga olib keladi, natijada bir mavsumning o'zida kiyimlarining kichik bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bizni bolalar uchun tavsiya etayotgan yangi dizayndagi ustki kiyimimizning mavjudlaridan farqi transformatsiya usulidan foydalanib, yilning uchta fasli: bahor, kuz va qishki mavsumga mo`ljallanganligi hamda transformatsiyalanish natijasida taklif modelimiz 4 xil kiyim assortimenti sifatida foydalanish mumkinligidadir,ya'ni maxsus taqilmalar yordamida yeng va shim qismi olinadi, natijada iste'molchi extiyojiga ko'ra kombinizon, kurtka va nimcha shaklida, bundan tashqari shim qismiga belbog'li tasmasini qadash orqali boshqa turdagi kiyimlar bilan kombinatsiya qilib foydalanish mumkin. Bu esa bolalar uchun yechib-kiyishga,boshqa turdagi kiyim assortimentlari bilan foydalanishlariga, ota-onalar uchun esa iqtisodiy tomondan qulaylik yaratadi. Shu muammolarni yechimi sifatida bolalar ko'p funksiyali kiyimini loyihalashda transformatsiya usulidan foydalandik.(1-rasm)

1-rasm. Asosiy taklif model

Taklif modelimizga, tanlangan mavzudan yiroqlashmagan holda, ijodiy manba sifatida “ASALARI” tanlab olindi (2-rasm). Ijodiy manba sifatida asalarini tanlashimizning asosiy sababi, tabiatdan ma’lumki asalarilar mehnatkash va bir oila bo’lib ahil yashashlari bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi bilan birga o’zining yorqin ranglari bilan bolajonlar e’tiborini o’ziga jalb etadi. Tanlangan ijodiy manbamizdagi asalari badiiylashtirilib loyihalanayotgan bolalar ustki kiyimiga bezak sifatida foydalanildi. Ustki kiyimdagi bezak sifatida qo’llangan qaviqlarga esa asalari uyasi shakli tanlandi.

2-rasm. Ijodiy manba sifatida tanlangan rasm

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *www.cyberleninka.ru*
2. Давлятшаев.А.А & Жамолиддинова.М. (2022). РАЗВИТИЯ Интернационализационных процессов образования в условиях расширения глобализационных взаимоотношений. Gospodarka i Innowacje, 22, 133-139.
3. Qudbiyev.N.T, Qudbiyeva.G.A. & Abduraximov.B.U.O (2022). Logistikada raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan Foydalanishning dolzarbligi. Scientific progress, 3(1), 133-142.
4. Davlyatova.G.M. & Abdullaeva.S.H. (2020). Economic perspectives of using the model "UNIVERSITY 3.0"in the education system of Uzbekistan. Экономика и бизнес: теория и практика, (2-1).
5. Davlyatova.G.M. & Tolibov.I (2019). SH.Abdullaeva Lizing ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilishning asosi sifatida. Molodoy ucheniy, 471-475.
6. Якубов.В.Г.(2021). Повышение качества высшего образования в республике узбекистан. Central asian journal of theoretical & applied sciences, (7), 37-40.
7. N.S.Gaipova, M.Z.Ismatullayeva, A.S.Axmetova, X.Z.Ismatullayeva “Tikuvchllik texnologiyasi asoslari” O‘quv qo‘llanma. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006, 112 bet
8. Харьковская Галина Германовна (2016). Из опыта проектирования трансформируемой одежды элементарного кроя. Вестник Амурского государственного университета. Серия: Естественные и экономические науки, (73), 109-117.
9. “Проектирование женской трансформируемой одежды” Л.М.Тухбатуллина
10. “Materiallarni konfeksiyalash” o’quv uslubiy majmua J.S.Ergashev, N.B.Maqsudov

BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI G’AZNA IJROSINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Islamov Abror Zafarovich
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi
abrorrislamovv@gmail.com

Har bir mamlakat iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirish kerak bo’ladi. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini

boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o‘zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

O’zbekiston Respublikasida ham davlat byudjeti orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashda, respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosatning ta’sirchanligi va aniq tarzda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishda mahalliy byudjetlar samarali ijrosining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotida davlatning moliyaviy resurslarni boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli respublikamizda Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda g‘aznachilik tizimini yanada takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjetlar tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining byudjet tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

Byudjet birinchi navbatda aniq olingan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni prognoz qiladi. U shu bilan birga asosli huquqlar asosida xarajatlar qilish va daromadlarni yig‘ish demakdir. Davlat byudjeti o‘zining resurslari hisobi va bu resurslarni ma’muriy va ijtimoiy talablar uchun katta miqdordagi xarajatlarning qoplanishidir. E.Bukning fikriga ko‘ra, byudjet 3 ta komponentdan tashkil topgan, bular:

1.moliyaviy reja;

2.bajariladigan ish tartibini tuzish,

3.tasdiqlash,

Rejani ijro etish va nazorat qilish va ayrim hukumat vakillari bu har bir rejani bajarishga va shu tartibda ijro etishga mas’uldirlar

Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Moliyavazirligi G‘aznachiligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. G‘aznachilik tizimida Davlat byudjeti xarajatlarini, birinchi navbatda, birinchi darajali xarajatlarni o‘z vaqtida to‘lash, kassaviy uzilish holatlarining oldini olish, bir mintaqaga tushadigan resurslarni boshqa mintaqaning majburiyatini ta’minlash uchun yo‘naltirish yo‘li bilan markazlashgan tarzda urli darajadagi byudjetlarning daromadlarini boshqarish mexanizmini joriy qilish mumkin.

Hozirda O’zbekistonda Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta’minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g‘azna ijrosi yo‘li bilan amalga oshiriladi. G‘azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjetmablag‘lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.

Davlat byudjeti ijrosi g‘aznachilik tizimining rivojlantirsh orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi:

1-jadval

□ davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;
□ davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
□ davlat byudjeti daromad va xarajatlari kassa ijrosining har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o‘tkazish;
□ tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
□ moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va manzilli moliyalashtirish orqali byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suiiste’mol qilish va noto‘g‘ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;
□ byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag‘larini G‘aznachilik hisobraqamidan to‘g‘ridan to‘g‘ri tovar yetkazib beruvchilar hisobraqamiga o‘tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish;
□ o‘z vaqtida to‘lovni amalga oshirish orqali ta’minotchilarning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;
□ g‘aznachilik tizimining bir pog‘onasidan ikkinchi pog‘onasiga pul mablag‘lari o‘tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag‘larining tezkor harakat qilishini ta’minlash.

Shuni ham nazarda tutish kerakki byudjet ijrosini tashkil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi

byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar uchun shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi. Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar o‘z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri bo‘lib, bu davr mobaynida o‘tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo‘shimcha vaqt davridagi ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi. Lekin olib borilayot bu operatsiyalar davomida hozirda o’zimizda vazifalarni bajarish ko’p qismi inson omili orqali amalga oshiriladi shu sababli bir nechta kamchiliklar ham ko’rinib qolmoqda. Bu kamchiliklarni oldini olishda inson omilidan chekinib imkoniyat boricha axborotlashtirilgan tizmga,barcha byudjet tashkilotlati va byudjetdan mablag’ oluvchilarni ham bosqichma-bosqich o’tkazish orqali erishish mumkin.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ВАЛЕОЛОГИК ВА ЭКОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Алмаматова Зебо Худойбердиевна
Жиззах давлат педагогика институти ўқитувчиси

Педагогик тажрибалардан маълумки, педагог фаолияти ўзига хос мураккаб жараён бўлиб, у ўқитувчидан нафақат олий маълумотга, балки етарли касбий тайёргарликка, педагогик ва касбий тайёргарлик йўналишидаги билим, кўникма ва малакаларга, шунингдек, маълум тажрибага ҳам эга бўлишни талаб этади. Таълим-тарбия жараёнида ўқитувчиларнинг энг асосий ва муҳим аҳамият касб этувчи функцияларини амалга ошириш жараёни бир қанча вазифаларнинг бажарилишини, яъни педагогик жараён субъектларига зарурий шарт-шароитларни яратиш, уларнинг фаолиятини ташкил этиш, мувофиқлаштириш, назорат қилиш таҳлил қилиш ва баҳолаш, шунингдек, янги педагогик ва ахборот технологиялари билан қуроллантириш каби қатор вазифаларни ҳам амалга оширишни назарда тутади [1; 95]. Зеро, таълим тизимининг самарадорлиги педагог кадрларнинг тайёргарлик даражаси билан бевосита боғлиқдир.

Замонавий шароитда олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларни касбий ва педагогик тайёрлашнинг асосий мақсади мустақил ижодий тафаккурга эга бўлган кадрлар тайёрлашдир. Фақатгина махсус билимларга эга бўлиш яхши битирувчини тайёрлаш учун етарли эмас, шахснинг интеллектуал компетентликка эга бўлиши, ижодий салоҳиятига

эгалик даражасини ҳисобга олиш керак [3; 16]. Таълим жараёнини самарали ташкил этиш педагогик изланишларни ҳам кўзда тутади.

Педагогнинг ижтимоий нуқтаи назари умумий ўрта таълим мактаби чоғларидаёқ, қарашлар, қадриятлар тизими тарзида шаклланади ва ривожланиб боради. Педагогик фаолиятга нисбатан қадриятли муносабат, кенг маънода ўқитувчи шахсининг негизини ташкил этувчи йўналганликни ифодалайди [5].

“Қадриятлар тизими” барқарор, доимий ва динамик-функционал алоқадорликка эга ва қадриятга йўналтирилган фаолият асосида касбий тайёргарлик жараёнида шаклланадиган қадриятнинг мажмуидир [4].

Бўлажак ўқитувчиларда ривожлантириладиган ижтимоий аҳамиятли қадриятлар тизими атроф-муҳит ва ўз-ўзига нисбатан муносабат тавсифини акс эттирувчи ва касбий фаолиятга тайёргарлик жараёнида намоён бўладиган, педагогик тайёргарликнинг ўзаро алоқадор аксиологик компонентларида сифат ўзгаришларини ҳосил қилишга йўналтирилган обьектив жараён эканлиги аниқлаштирилди.

Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилган. Масалан, З.Рахимов томонидан бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг ижодкорлигини ривожлантиришнинг дидактик хусусиятлари ўрганилган [6].

Н.А.Муслимов бўлажак ўқитувчининг касбий фаолиятга тайёргарлигининг тузилмаси ҳақидаги фикрга қўшилади ва мотивацион, билиш-йўналтиришли, операционал-ҳатти-харакатли, ҳис-туйғули-иродали ва баҳолаш компонентларини ажратиб кўрсатади.

М.Б.Ўразова “Бўлажак касб таълими педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш” мавзусида тадқиқот олиб бориб, педагогика фанларини ўрганишда бўлажак касб таълими ўқитувчисининг педагогик лойиҳалаштиришлар билими асосида тайёргарлиги моделини педагогик лойиҳалаштириш, бўлажак касб таълими педагогининг тайёрлигини босқичма-босқич ривожлантириш технологияси ишлаб чиқилган. [7].

Касбий тайёргарлик – динамик ҳодиса бўлиб, кўпгина ички ва ташқи омиллар билан детерминация қилинган. Шунинг учун ҳам унинг моҳияти ва кўрсаткичларини аниқлашда кўпгина қийинчиликларга дуч келамиз. Тизимли-тузулмавий таҳлил ва фаолиятли ёндашув касбий тайёргарликни қуйидаги босқичлар орқали тавсифлаб бериш имконини беради: 1) касбга мослашиш; 2) талабанинг билиш-касбий фаолиятида ўз-ўзини долзарблаштириши; 3) талабаларда касбий-педагогик фаолиятнинг

шакллантирилиши билиш-фаолиятли ёндашувда юз бериши (бу босқични биз малакавий амалиётга тенглаштирамиз); 4) ижодий педагогик фаолиятнинг барча қадамларини бажариш зарурлигини ҳис қилишни кўзда тутувчи педагогик тадқиқотни бажаришдаги шахсий сифатларнинг шаклланиши, ижодий руҳланиш.

Касбий тайёргарлик - таълим олувчиларнинг муайян иш ёки ишлар мажмуини бажариш учун зарур малакаларни жадал эгаллаш мақсадини назарда тутадиган педагогик жараён.

Талабаларда экологик тайёргарликка қуйидагича таъриф келтирилган:

1. Тайёр ҳолга келиш, келтириш ишлари; тайёрлаш, тайёрланиш ҳаракати; ҳозирлик.

2. Тайёрлик, ҳозирлик ҳолати.

С.С.Салаватова “касбий тайёргарлик” тушунчаси мазмунига касбий қизиқишлар, қарашлар, тасаввурлар ва уларга мос келувчи хулқ-атвор меъёрларини ҳам шакллантиришни киритишни таклиф этади.

Масалан, Қ.Т.Олимов шахснинг ўқитувчи касбига тайёргарлигини шакллантириш жараёнини таҳлил қилиб, педагогик фаолиятга тайёргарлик мураккаб тузилмавий жараён бўлиб, унинг ядросини бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг бўлажак касбига ижобий муносабати, фаолиятнинг етарлича турғун мативлари, шахснинг касбий аҳамиятга эга сифатлари, касбий-педагогик билим, малака ва кўникмаларнинг маълум тўплами, уларни амалда қўллашга интилиш ҳосил қилади, деган хулосага келади.

Фойдаланган адабиётлар

1. Баевский, Р.М. Валеология и проблемы самоконтроля здоровья в экологии человека: Учебно-метод. пособие в 2-х ч. Магадан: Сев.-вост. науч. Центр ДВОРАН, 1996. – 53 с.
2. Брехман, И.И. Валеология – наука о здоровье. М., 1990.
3. Валеология: Учебное пособие / Под ред. В.П. Соломина СПб: Образование, 1995–205 с.
4. Казначеев, В.П. Экология человека: проблемы и перспективы./ В кн. Экология человека. Основные проблемы. М.: Наука, 1988. – С. 5–28.

MAKTABLARDA UMUMTA'LIM FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH VA ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Axmedova Yulduz Qosimovna
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Maktablarda umumta`lim fanlarni yuqori saviyada shakllantirish, zamonaviy darslarni tashkil etish bu jarayonda umumta`lim fanlarini o'qitish sifatini ta`minlashda turli innovatsion metodlardan foydalanish orqali belgilangan natijalarga erishish.

Kalit so'z: ta`lim, inovatsiya, zamonaviy dars, globallashuv, interfaol usul, ta`lim texnologiyasi, didaktik, strategik yondashuv, dars.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-Texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga, jumladan idrok eta olish, tasavvur va tafakkurlash, aqliy qobilyatining rivojlanishiga olib keladi. O'quvchining olamini bilishga bo'lgan ehtiyoji avvalgi yillarga nisbattan keskin oshganligi hech kimga sir emas.

Ta'limning interfaol metodi asosiy maqsadi yagona bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o'z ustida ko'proq ishlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, zamon bilan hamnafas ta'lim-tarbiyaga, mustaqil fikr yurita oladigan komil insonni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Interfaol — "o'zaro harakat qilmoq" yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni bildiradi.

O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Innovatsiya, bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" — deb aytganlari umumta`lim fani o'qituvchisini ma`lum zaruriy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi bilan birga shu bilimlarni o'quvchi ongiga singdirishda yangi texnologiyalar, innovatsiyalar olib kirmog'i lozimligini ta`kidlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va

o’quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi .

Zamonaviy talim oldida turgan eng muhim vazifa oquvchi shaxsining ilm olishga bo’lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Biz kimni tarbiyalashimiz kerak?-degan savol zamonaviy pedagogik, didaktik, fanlarni o’qish metodikalarining bosh masalasiga aylandi. Talim tizimi oldiga maqsad qilib yani, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo’yildi. Bu ezgu maqsadni bajarish eski ananaga kirib qolgan ta’lim tarbiyaviy usullar vositasida emas, balki zamonaviy yangi dars hamda usullari vositasida amalga oshirilishi shart.

Zamonaviy darsga qo’yilgan talab asosan jamiyatimizning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyatning rivoji hayotning barcha jabhalariga shu jumladan talim mazmuniga dars tuzilishiga, qolaversa, insonning kundalik faoliyatiga albatta, o’z tasirini o’tkazishi tabiiydir. O’zbekistondagi pedagog olimlar, ham o’z tadqiqotlari davomida zamonaviy dars muammolariga etiborini qaratib “Zamonaviy dars –eng avvalo, o’quvchi shaxsining talim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o’rgatuvchi usullar majmui” yani interfaol metodlar deb ko’rsatishadi.

Mazkur fikrlar, darsdagi asosiy etiborni o’qituvchi faoliyatidan o’quvchilar faoliyatiga ko’chirish lozimligini ko’rsatib turibdi. O’qituvchi darsda o’zi so’rab o’zi gapirib beruvchi bo’lmasligi kerak, balki o’quvchilarga yangi bilimlarni o’zlashtirishida yaqindan turib turli interfaol metodlarni qo’llab ko’maklashuvi lozim. Zamonaviy darslarning asosiy maqsadi o’quvchilarning mustaqil bilim olish mexanizmiga asoslanganligidadir. Zamonaviy dars deganda, faqat uning nomiga qarab baholash yoki ularni alohida dars tipiga kirish yaramaydi. Bunday darslar mazmunan hamda tuzilishi jihatidan obdon o’rganilib keyinchalik bir ilmiy xulosa yasalishi kerak. Eng asosiysi, bunday darslar o’quvchining ilm olish imkoniyatlarini kengayishiga, ularning mustaqil fikrlashiga, o’z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo’shimcha talim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga, uning bilim va istedodiga qarab faoliyatini obyektiv baholanishiga asoslangan bo’lishi kerak.

Zamonaviy darslarni tashkil etishda yuqorida aytganimizday inovatsiyaning ahamiyati katta. Innovatsiya bu yangilik kiritish ma`nosini anglatadi. Pedagog o’z mahorati, tajribasi va aql-zakovati bilan darsga ijodkorona yondoshib, yangilik olib kirishi lozim. Bu borada darsda interfaol metodlardan foydalanish ko’zlangan natijani beradi. Interfaol metodlar — bu jamoa bo’lib fikrlashdir, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo’lib ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida ta`lim berishning ma`nosi shuki, yangilikka intilgan holda darsni mahorat bilan o’tish qobiliyatidir. Bunda an`anaviy ta`limdan farqli o’laroq, ta`lim oluvchining mustaqil fikr yuritishiga

keng imkon beriladi. O’quvchilarning dars jarayoniga, fanlarga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “3×4”, “Breynrayting”, “Bahs-munozara”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Aqliy hujum—— Bevosita jamoa bo`lib «fikrlar hujumi»ni olib borish. Bu uslubdan maqsad-mumkin qadar katta miqdordagi g`oyalarni yig`ish, talaba (yoki o`quvchi)larni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo`lgan fikrlarni yengishdir.

“Tarmoqlar” metodi — o’quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o’rgatishga qaratilgan;

“3×4” metodi — o’quvchilarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g’oyalarni bera olishi, ta`lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta`rif bera olishiga qaratilgan;

Breynrayting——Ushbu uslubning qo`llanishi breynstorming uslubiga o`xshash bo`lib, faqat unda barcha g`oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o`z g`oya va fikrlarini og`zaki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan be`zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talaba (yoki o`quvchi)lar tomonidan yozilgan fikrlar, g`oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e`tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo`sh joylar ham qoldiriladi. Talaba (yoki o`quvchi)lar o`z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladilar. G`oyalar tahlili keyinroq o`tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

Bahs-munozara (discussion method) ——Usulida guruh a`zolari biror muammoni yechish (yoki bilimlarini oshirish, yoki mavzuni tushunish) maqsadida o`z g`oyalarini og`zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo`lishlari lozim. Bu usul kattalar ta`limida ko`proq samara beradi.

“Blits-o`yin” metodi — harakatlar ketma-ketligini to’g’ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma-xil fikrlardan, ma`lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan.

6x6x6 uslubi—6x6x6 uslubida o`qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o`rgatish va ular ko`pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo`ladi. 6 ta guruh (har birida 6 kishidan) ishtirokchilari o`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar. Shundan keyin o`qituvchi 6

ta yangi guruhni shunday to`zadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashganlardan birontasi albatta bo`ladi. Yangi guruh qatnashchilari o`z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar.6x6x6 - guruhining barcha a`zolarini faollashtiruvchi uslubdir. Qatnashchilardan har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham so`zlovchisi rolida bo`ladi.Guruhlar bitta muammoni yoki bir muammoning turli jihatlarini muhokama qilishlari mumkin. 6x6x6 uslubi o`qituvchi va guruhlarning faol ishtirokini talab qiladi.

Olmos—Har bir juftlikka 9 ta jumla (hikoya) bo`lgan konvert beriladi va ularni olmos shaklida joylashtirish topshiriladi. Masalan: Eng muhim, ma`noli va qiziqarli jumla olmosning uchiga joylashtiriladi. Keyingi 2 tasi bir xil ikkinchi o`ringa qo`yiladi. O`rtadagi 3 tasi to`rtinchi, keyingi 3 tasi esa, yettinchi daraja hisoblanadi. Olmosning pastiga qo`yilgan jumla, guruh tomonidan eng muhim, ma`noli va qiziqarli bo`lmagan jumla deb hisoblanadi. Juftliklar o`z mashqlarini tamomlaganlaridan so`ng, ular 6 ta bo`lib guruhga bo`linadilar. Guruhdagi har bir juftlik qanday tanlanganligini boshqa ikkita guruhga tushuntirib beradi. Shundan so`ng, umumiy 6 ta talaba (yoki o`quvchi), kelishuv asosida bir fikrga kelishadi. Fikrlarini navbatdagi guruhga aytib, shu tariqa suhbat davom etadi. Mashg`ulot oxirida juftliklar bir-birlariga baho beradilar va o`qituvchi fikrlarni umumlashtiradi.Jumlalar o`rniga 9 ta turli rasmlar ishlatilishi mumkin. Bunday holda, mezonlar ham «o`ziga xos», «chiroyli», «kulgili», «ajoyib» yoki «o`zgacha» liklari bilan baholanadi. Joylashtirish piramida shaklida (oltita jumla, rasm va sh.k.) bo`lishi ham mumkin.Talaba (yoki o`quvchi)lar jumla (yoki rasm)larni katta formatli qogozga «Zina» yoki «Narvon» shaklidagi chizma ko`rinishida ham joylashtirishlari mumkin.

Akvarium—o`quv xonasida stullardan iborat ikki doira tashkil etilib, birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkarisiga qarab joylashtiriladi. Talaba (yoki o`quvchi)lar teng ikki guruhta bo`linadilar: biri ichki stullar aylanasiga, boshqasi esa, tashqi stullar aylanasiga o`tiradilar. Bunda har kim o`z sherigiga qarab o`tiradi. Talaba (yoki o`quvchi)larga muhokama qilish uchun savol beriladi.Yaxshilab o`ylab olganlaridan so`ng talaba (yoki o`quvchi)larga sheriklari bilan savolni muhokama qilish uchun bir yoki ikki daqiqa vaqtt beriladi.Ma`lum signaldan so`ng tashqi aylanadagilar bir o`rin chapga surilishadi va ayni savolni yangi sheriklari bilan muhokama qilishadi. Tashqi aylanadagi talaba (yoki o`quvchi)lar o`zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yetarlicha yangi sheriklari bo`lgungacha faoliyat davom ettiriladi.Shu uslubni tashki doiradagilar tanqidchi sifatida ichki doiradagilar himoyachi sifatida «doiraviy rolli o`yin» shaklidagi mashg`ulotlarda ham qo`llash mumkin.

Kungaboqar—Talaba (yoki o`quvchi)lar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi o`quv predmeti mavzusidan kelib chiqib, o`rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi.Mavzuga qarab, doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yetarli miqdorda qog`oz barglar oldindan tayyorlab qo`yilishi kerak).Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo`yicha fikr almashmoqchi bo`lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o`sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo`yadilar va har bir guruhning «muammoli guli» vaqt o`tishi bilan o`sib boraveradi.O`qituvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammoning eng qulay yechish yo`llarini topishga doim yordam berib boradi.Bu uslubdan o`tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talaba (yoki o`quvchi)lar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Uslub, talaba (yoki o`quvchi)larga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o`rgatadi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o’quvchining ustunlik qilishi, uning o’z fikrini o’tkazishiga yo’l qo’yilmaydi. Interfaol usullar qo’llanilganida o’quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o’rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko’nikmalarini egallaydi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедова Ю.Қ., Холиқова М.О., Олий таълим муассасаларида география фани ўқитишнинг назарий асослари // Тошкент Давлат Педагогика Университети Илмий ахборотлари илмий-назарий журнал ISSN 2181-9580, 2022й, 1-сон. 18-23 б (13.00.00;№5)
2. Ahmedova Yu.K., History of Ancient of Ancientand Medieval stage development of general earthquake // Academicia: an International Multidisciplinary Research Journal ISSN:2249-7137 vol.12, 05. May 2022 SJIF 2022-8.252 509-512
3. Ahmedova Yu.Q., Xoliqova M, Shirinova M, Rahmonova S // Theoretical Fundamentals of Improving the professional Competence of Geography Teachers in Educational Institutions// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN:1308-5581vol 14, 03.2022 2022. 10015-10017.
4. Ахмедова Ю.Қ. “География фани дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари”

International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Berlin, Germany June 3rd 2022 conferencezone.org.,
5. Ахмедова Ю.Қ “География фанини ўқитиш методлари” International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences.

MECHANISMS FOR INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF EXPORTING ENTERPRISES THROUGH BANK LOANS

Zulfiya Khalilullaevna Zakhidova
Tashkent State University of Economics
independent researcher

In Uzbekistan, strengthening consistent efforts towards economic reform and modernization, raising them to a new, higher level is a priority task. In order to ensure the implementation of these tasks, it is aimed at increasing the development of our country and increasing the well-being of our people, and as a decisive factor, increasing the export capacity of small business entities and increasing the role of commercial banks in strengthening their financial situation is of great importance. It is well known from the experience of developed countries that the growth of the export potential of each country is inextricably linked with the financial stability of the banking system. Because banks play an important role in structural restructuring of economic sectors, modernization of production, establishment of new enterprises, development of small business entities and attraction of foreign investments.

The amount of investment loans allocated by commercial banks for the development of the export potential of small business entities in the Republic of Uzbekistan is 12.2 trillion soums, and this figure is 13.2 percent of the total loans [1]. The same indicators are 32.5 percent in the USA, 41.5 percent in Germany and 15.3 percent in China [2]. As can be seen from these indicators, it is necessary to increase the amount of investment loans allocated for the development of export of enterprises in our Republic by at least two or three times.

It is important to fundamentally increase the competitiveness of the economy, to strengthen all-round support for small business entities that produce products for export, to ensure the practical participation of farms and business entities in the foreign market, and to create favorable conditions for them. Therefore, measures are being taken by our government to stimulate the production of new products for the foreign market by exporting small business entities, regardless of their size. Until now, if increasing the efficiency of lending activities of commercial banks in strengthening the export potential of small business entities does not become an important priority task for the state, it is inevitable that such a state will be excluded from the path of world development.

The role of export-import banks and export lending agencies is very important in allocating long-term loans for export operations and diversifying export risks. By the end of 2020, the members of the Berne Union and the Prague Club (Uzbekinvest member) spent 1.84 trillion, respectively, for crediting and insurance of export operations. and 30.85 billion. provided funds in the amount of US dollars. [6] In 2018, this indicator made up about 11% of the entire world export. [7] It can be seen that the role of export credit agencies in export operations is increasing. In recent years, special attention has been paid to increasing the share of high-value-added products and high technologies in exports of world countries. Loans provided for export-import operations are divided by the Berne Union into the following 3 main classifications:

– Short-term export credits;
– Medium and long-term export credits;
– Insurance of export operations.

Table 1.Loans provided by export-import banks for small business entities in foreign countries

	Short term	Medium and long term	Insurance
China Export Import Bank	Allocation of loans for short-term export operations. For exporters who have not paid on time for export goods and services	Credit for Chinese exporters Credit for importers from China	Insurance of risks according to types Insurance of political and commercial risks Disaster insurance
Export Import Bank of India	Pre-shipment/post-shipment credits for products and services Lending to importers of raw materials	Loans for Indian exporters Credit for importers from India Credit lines	Insurance of political and commercial risks Disaster insurance
Export Import Bank of Vietnam	Pre-shipment/post-shipment credits for products and services Lending to importers of raw materials	Loans for Indian exporters Loans for importers from India	Insurance of political and commercial risks Disaster insurance

Source: ***www.sinosure.com.cn*****,*** ***www.eximbankindia*****,*** ***www.eximbank.com.vn*** ***compiled by the author using his data.***

In addition, short-term loans are also provided to small business entities. Because small business entities engaged in export-import need working capital faster than large enterprises. In order to solve the problem of shortage of working capital, banks provide loans. Exim banks insure export-import operations according to risk types. These risks can be political, commercial and economic.

According to statistics, the largest amount of political risks is insured around the world. (Table 1).

In conclusion, it can be said that taking into account the fact that a lot of positive work is being done in this direction and free economic zones are being established in our country, we consider it necessary to implement the following measures:

1. We believe that it is necessary to allocate loans not only to industries with a relative advantage, but also to the export of products and services produced in free economic zones. Because such a mechanism is widely used in China, India and Vietnam.

2. It is desirable to introduce the provision of loans to importers of raw materials. In this case, the remanufacturing industry will develop on the territory of the country. Also, the desire to make competitive products will increase, and the production of ready-made products that will replace imports will be launched. This method is working well in China and India.

3. Provision of long-term loans and insurance services to exporters of small business entities of Uzbekistan can serve to increase the share of high technologies in the country's exports. This, in turn, ensures that the level of diversification of our economy will increase even more.

4. We believe that it is necessary to develop the concept of "Economic development in regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing the export attractiveness of small business entities.

References

1. Information of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan www.cbu.uz
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the new development strategy of Uzbekistan for 2022-2026" No. PF-60.https://lex.uz/docs/5841063.
3. Altowaim S. 2016. Financial development and export diversification in resource-rich developing countries. Department of Economics, University of Glasgow.
4. Beck, T. (2002). Financial development and international trade: is there a link?. Journal of international Economics, 57(1), 107-131.
5. Rajan, R. and Zingales, L.,1998, Financial dependence and growth, American Economic Review 88(3). pp.559-586.
6. Mazzucato, M. (2013). “Fanancing innovation: creative destruction vs. destructive creation”. In: Industrial and Corporate Change 22.4, pp.851-867

7. The technological level of export is classified as follows: raw materials, low-tech, medium-tech, high-tech and resource-intensive export products. For more details: Lall, S.2000. The technological structure and performance of developing country manufactured exports, 1985-98. Oxford Development Studies, 28(3), 337-369.

ПСИХОЛИНГВИСТИКАДА НУТҚНИ ШАКЛЛАНИШ ЖАРАЁНИ

Ахмедова Муяссар Хадиматовна
ТДПУ Умумий психология кафедраси доценти, п.ф.д.

Психолингвистика ва этнопсихология соҳаларининг туташган жойда турли халқларнинг нутқий хулқ-атворини ўрганиш муаммоси мавжуд. Бугунги кунда нутқ фаолияти ва нутқ маданиятининг ижтимоий диалектлари ривожланишини илмий тадқиқ этишга эътибор юқори.

Нутқ фаолиятини тушуниш учун аввало инсон фаолияти ва билимининг нутқда изоҳланишини англаш муҳим. Айнан бир инсон ёки оммадаги ҳар қандай фаолият талаб этадиган хусусиятларни белгилашда аввало ҳиссий сабаблар аниқланади. Инсон ушбу ёки бошқа юзага келадиган сабабга кўра ўзига мос келадиган ҳаракатни, қониқарли талаблар билан таъминланган ва шунга ўхшаш бўлган ишларни амалга оширади.

Ҳар бир ҳаракат ўзининг белгиланган мақсадига эга. Ёки бошқача қилиб айтганда ана шу мақсадининг ютуқларига йўналтирилган бўлади. Масалан, бунинг учун Герострад ўз олдига номини улуғлаш ва абадийлаштириш мақсадини қўйди ва бу мақсади йўлида (дунёнинг етти мўжизасидан бири бўлган) Ефискоф Артемид ибодадхонасини ёқиб юборди. Унинг ўйлашича бу иши унинг ҳохишини қондирилишига сабаб бўлди. Бу сабаб туфайли Герострад ушбу ишни амалга оширган эди. Бу мақсадга мақсадга эришиш учун ўз навбатида бир қатор катта-кичик ҳаракатлар қилишга тўғри келади. Маълумки, бирор бир ҳаракатни амалга ошириш учун қўшимча меҳнат талаб этилади. Ана шу Геростратдга чековни ёқиш учун ёқилғи жамлаши, черковга кириши, кириш учун қулай вақт бўлиши ва ҳоказолар керак бўлган[3.192].

Фаолиятнинг қисмлари иерархия принципи бўйича тузилганлигини кўриш қийин эмас. Шунинг учун ҳар хил даражалар ҳақида гапириш мумкин. Ҳаракатлар бошловчи ва қўшимча даражаларга ажратилади. Бошловчи даража бу мақсадга эришиш учун олиб боради. Масалан, агар инсон автомобилни бошқарса, бирор бир йўналишни танлаши учун бошловчи ҳаракат бўлиши лозим. Буни амалга ошириши учун инсон бир қатор ҳаракатларни бажариши керак. Рулни ўнга ёки чапга буриши, тезликни

ошириши ва ҳоказолар. Бу ҳаракатларни ҳаммаси бошловчи ҳаракатларга киради. Лекин қўшимча фон ҳаракатлари ҳис этилмайди.

Ҳар бир даража ўзини аспектларига эга бўлган ҳолатда амалга ошириладиган ҳаракатларда ўз ҳиссасини қўшади. Кўзланган ҳаракат ўзини натижасига эга бўлиши учун бир нечта ҳаракат ва аспектларни талаб этади. Мақасдга эришиш учун қилинаётган бажарилаётган ҳаракат вақтида бир нечта ҳаракатларга ўзгартиришлар киритилади.

Нутқнинг ташкил этилиш жараёни албатта мураккаб, кўп даражали ҳаракатларни талаб этади. “Маънодан матнга” ўтиш жараёни учун турли даражалар, бошланғич нуқтасида психик жараён, якуний қисмида эса артикулятрларнинг физик жараёни бўлиши керак. Нутқ пайдо бўлиши учун узоқ муддат ва мураккаб бир-бирига боғланган қайта кодлаш тизими талаб этилади. Бу жараён то нутқ тайёр бўлгунча давом этади.

Нутқ туғилишининг бошқа муҳим жараёни тўғри мақсадга эришишда натижаларнинг тўғрилигига ишонч ҳосил қилиш керак. Нутқни шакиллантириш учун: луғатдан сўз ажратиш ва у сўзларни синонимларини тасаввур этиш, сўзларни шаклини тузиш каби бир қатор мустақил ишлар бажарилиши лозим. Нутқнинг равон бўлиши учун инсон тафаккури ҳар доим сигналлар қабул қилиб туриши керак. Ҳар бир тизим остида жавоб сигналлари мавжуд бўлиши лозим. Бу сигналлар нутқнинг хатоларини ислоҳ этилишига ёки хатолигига буйруқ бериб туради.

Юқорида кўрсатилган фикр бўйича нутқ ҳар доим бошловчи даража билан боғлиқ. Дарҳақиқат, нутқ фаолияти учун эса бу маънолар даражасидир. Синтактик, морфологик ва бошқа операцияларни пастги даража бўйича тақсимлаш жараёни содир бўлган пайтда, бу инсоннинг фаол этиборини тортмайди. Инсон нутқи амалга оширилган ҳаракатларга боғлиқ бўлган ҳолда ҳар бир ҳаракат автоматик текширилади ва бунда инсон онги иштирок этмайди.

Ҳар қандай фаолият каби нутқ фаолиятини пайдо бўлиши учун бирор бир истак, сабаб яъни сабабнинг пайдо бўлиши, инсонга керак бўлганда маълумотларни етказиш, ҳаракатга ундашдан бошланади. Нутқ фаолияти жуда юқори ҳамда мураккаб тартибли ҳаракатлардан иборат. У бирор бир иш-ҳаракат режаларини бажариши иерархик сабалар орқали амалга оширилади.

Нутқ маъносининг шакилланиши иккита даражада белгиланади. Биринчисида айтиладиган фикрнинг мавзуси пайдо бўлиб ва бу мавзу эълон қилинади. “Маъно” ва “аҳамият” терминлари бир-биридан фарқ қилмаган ҳолатда синонимда ишлатилган. Лекин, психолингвистикада мулоҳаза қилиш

учун унинг иккови синоним бўла олмайди. Мисол учун баҳор сўзи битта маънони англатади. Лекин, деҳқон ва шаҳарлик учун ҳар ҳил маъноларга эга. Мана шу жараён ҳам тилгача бўлган жараёнга киради.

Хуллас, мотивация жараёни бу тилгача бўлган жараён. Сабаб пайдо бўлгандан кейин аниқ айтилиши керак бўлган нутқ шакилланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедова М. Замонавий педагог нутқи // Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2021-yil, 25-26 iyun Chirchiq. B.1209-1213.
2. Ҳозирги замон ёшлар нутқидаги жаргонлар. ЎзМУ хабарлари. 2022. 1/9. Б. 255-259.
3. Касевич В.Б. Введение языкознание. Москва С-Петербург 2011.
4. Ушакова Т. Н. и др. Слово в действии. СПб.: Алетейя. 2000.

MUSOBAQA OLDI TAEKVONDOCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

Axmedov Maxmudxon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti
301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchi yoshlarning mashg'ulot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jismonan va ruhan toliqishlari, ayniqsa kata musobaqalar oldidan ularda yuzaga keladigan psixologik muammolar stress holatlari ularni oldini olish kabi jarayonlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sport murabbiysi, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, Stress, sport psixologiyasi, Chempion sportchi.

Respublikamizda sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligi hamda buning har tomonlama mukammal qonuniy va tashkiliy asoslari yaratilganligi tufayli sport talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi, ularni jismoniy hamda ma'nan barkamol etib tayyorlash borasida asosiy omilga aylanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning sportga qaratayotgan e'tiborlari sportchilarimizga hech kimdan kam bo'lmagan sharoitlarning yaratib berilishi ularning jahonda yetakchi bo'lgan davlatlarning sportchilari bilan tengma teng hatto ulardan ancha ildamlab ketishini yaqqol misol qilib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi.

Sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish uchun hozirda nafaqat jismoniy holat balki yangi innovatsiyalarning kirib kelishi ham juda muhim rol o'ynamoqda. Ya'ni sportni ilmiy metodologik jihatdan ham o'rganish natijalarning

keskin o’zgarishiga sabab bo’lishini aytish joiz. Bunga misol qilib Rio-2016 olimpiadasini bundan tashqari Tokio-2020 olimpiadalarini ko’rsatishimiz mumkin bo’ladi. Oxirgi ikki olimpia o’yinlarida ham mamlakatimiz sportchilari eng yuqori ko’rsatkichlarga erishayotganligi innovatsiyani sportga jalb etishning sportdagi holatlarni ilmiy jihatdan tadbiq etishning yaqqol misoli desak mubolag’a bo’lmaydi.

Eng muhim faktorlar sifatida yetishib kelayotgan yosh avlodni hozirgi championlarimizga munosib zahira qilib tarbiyalash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Ko’p hollarda kata musobaqalar oldidan bo’li o’tadigan tayyorgarlik jarayonida yosh sportchilarimizning psixologik zo’riqishga uchrashini ko’rishimiz mumkin bo’ladi. Bu nima degani ? Ya’ni sport musobaqalarining faktoriga qarab sportchi yoshlar o’z ruhiyatini jilovlay olishi uchun sportdagi psixologning o’rni juda nuhim bo’lishi ko’p hollarda alohida ta’kidlab o’tiladi.

Juda ko’p ta’kidlab o’tiladi ya’ni bizdagi sport holatlarida murabbiy ko’p qirrali rolni bajaradi:

1. Sport murabbiysi murabbiy sifatida.
2. Sport murabbiysi psixolog rolida.
3. Sport murabbiysi ota-ona sifatida.
4. Sport murabbiysi doctor sifatida.

Albatta o’z shogirdini murabbiy kabi hech bir shaxs tushuna olishi juda qiyin. Ko’plab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki murabbiy shaxsi o’z shogirdini qaysi bir musobaqaga tayyorlamasin uni har bir atrofdagi holatdan qizg’anishi va atrofdagi hech bir shaxsni unga yordam berishini xohlamasligi juda ko’p marotaba o’z isbotini topgan.

Sportchining oldindagi musobaqalarga taktik harakatlarini rejalashtirish antitsipatsiya, ya'ni oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish jarayonlariga asoslanadi. Ko’p hollarda yosh sportchilarda bu jarayon murabbiy yordamida olib boriladi. Umuman olganda, antitsipatsiya - bu odamning muayyan fazo va vaqtda ilg'orlik bilan harakatlanish qobiliyatidir. Sportchi faoliyatining antitsipatsiya diapazoni nihoyatda kengdir. Ana shunday, oldindan harakatlanish davornida fazo va vaqt noaniqligi, ya'ni to'p hozir chap tomonga uchadimi yoki o'ng tomonga uchadimi degan savolga javob beriladi. Oldindan bilish samaradorligi va qabul qilingan qarorning to'g'riligi aksariyat hollarda to'pni tepayotgan o'yinchining ko'z orqali bilish mumkin bo'igan belgilarini aniq ajrata bilishiga asoslanadi.

Xulosa va fikrlarim. Xuddi mana shu ma'iumotiar va belgilarni his etish darvozabonga, hali to'p tepilmasdan turib uning qaysi yo'nalishga (chapgami, o'nggami) harakatlanishini bilish va unga munosib tarzda javob harakatini qilish

imkoniyatini beradi. Raqibning hali bajarmagan harakatlarini aniqlash jarayonini oldindan qilinayotgan bashorat sifatida ko'rib chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмадов, Н. Р. (2022). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ДИЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL
1. JOURNAL, 3(3), 79-84.
2. Ахмадов, Н. Р. (2022). Социально-психолого-педагогическая реабилитация дезадаптированных подростков. Science and Education, 3(2), 10451053.
3. Axmadov, N. R. (2022). Dezadaptatsiya va uning o'smir xulqida na'moyon bo'lishi. Science and Education, 3(3), 389-395.
4. Рустамов, Ш. Ш. (2022). ОСОБЕННОСТИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ
5. КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРАКТИЧЕСКИЙ ПСИХОЛОГОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL
6. JOURNAL, 3(3), 59-64.
7. 5. Рустамов, Ш. Ш. (2022). Корреляционный анализ пример по психологии. Корреляции в психологии. Science and Education, 3(3), 1100-1106.

TAEKVONDO SPORT TURIDA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

Axmedov Maxmudxon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti
301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Annotatsiya. Mazkur maqolada Taekvondo sport turida boshlang‘ich tayyorgarlik va uning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Taekvondo, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, sportchi.

Taktika turlari. Sportchining taktikasi ko‘p jihatdan uning individual xususiyatlariga bog‘liq hisoblanadi. Amaliyotda biz har bir malakaga ega bo‘lgan sportchi faqatgina ungagina xos bo‘lgan jangni amalga oshirish manyovrlarini egallashlarini kuzatishimiz mumkin. Biroq barcha sportchilar uchun foydalanuvchi asosiy taktika turlari ham mavjud hisoblanadi. Ularga hujumga o‘tish, qarshi hujum va himoyaga o‘tish taktikalari kiritiladi.

Sportchi jangni qat’iyat va jusurlik bilan raqibga hujum qilish asosida o‘tkazishi talab qilinadi. Bu ko‘rinishdagi taktika uchun quyidagi tavsiflar xos

hisoblanadi: bevosita o‘zini erkin his qiluvchi turish holati; jangni erkin holatda olib borish manyovri; o‘zining sevimli usullarini amalga oshirish bilan uyg‘unlashtirilgan holatda bajariluvchi turli xildagi taktik manyovrlardan tashkil topgan kombinatsion harakatlar. Tajribali raqibga nisbatan muvaffaqiyatli jang olib borish - bu oddiy ish emas. Bunda ikkita imkoniyat mavjud hisoblanadi: ulardan birinchisi, kuchga tayanilgan manyovrga mustahkam himoyani to‘qnash ko‘rinishda ro‘para qilish; ikkinchisi - aldamchi harakatlar asosida raqibning ochilishi, uning xatoga yo‘l qo‘yishiga majburlash. Sanab o‘tilgan oxirgi variant nisbatan samaraliroq hisoblanadi va jismoniy jihatdan baquvvat, shuningdek, kuchsizroq sportchilar bilan ham fbydalanilishi mumkin.

Yuqori sur’atdagi jang fonida epizod ko‘rinishidagi hujum harakatlaridan foydalanishning ustuvorligi shundaki, bu vaziyatda raqib ketma-ketlikdagi hujumlarda charchashi natijasida borgan sari kamroq darajada himoyaga o‘tishi kuzatiladi. Ushbu qoidadan foydalanib, bu ko‘rinishdagi taktikaga amal qiluvchi sportchi ikkinchi yoki uchinchi hujum qilishda barchasini hal qilib qo‘ya qolishi mumkin. Epizod ko‘rinishidagi hujum turlari musobaqalarga yetarlicha darajada tayyorlanishga ega bo‘lmagan va chidamlilik va chaqqonlik yuqori darajada rivojlanmagan raqiblarga qarshi samarali qurol sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, agar sportchi bu turdagi taktikaga butun jang davomida qat’iy tarzda amal qilsa, o‘z navbatida, bu holat uni muqarrar mag‘lubiyatga olib kelishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Bu taktikaga jang davomida raqibning hujumga o ‘tishi oldidan kuchni qayta tiklab olish maqsadlarida, qisqa muddat davomiyligida amal qilinishi, shuningdek, raqibni hujumga o‘tish uchun majburlash maqsadlarida, faol harakatga chorlash uchun qo‘llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taktikaning qanchalik darajada to‘g‘ri belgilanishi ko‘p jihatdan jangning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini aniqlab beradi. Jangning taktik rejasini tuzib chiqishda jangning borishi bo‘yicha nisbatan ehtimollik darajasi yuqori bo'lgan variantlarini oldindan ko‘ra olish va ulaming har biri uchun o‘zining xattiharakatlarini belgilay olish talab qilinadi. Sportchi jang davomida bajarilishi kerak bo‘lgan, o‘z oldiga qo‘yuvchi vazifalar, ulaming belgilanishi shakli, jangni olib borish usullari va vositalari albatta sportchining imkoniyatlari darajasiga muvofiq kelishi talab qilinadi. Notanish raqib bilan jang rejasi jang maydoniga chiqishdan uncha ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida tuzib chiqiladi va bunda sportchining o‘zi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ish olib boriladi (uning taktik, texnik, jismoniy va irodaviy jihatidan tayyorgarligi hisobga olinadi) shuningdek, bunda musobaqada vujudga keluvchi aniq vaziyatlardan kelib chiqib qarorlar qabul qilinadi. Notanish raqib bilan jang olib borishda oldindan tuzib

chiqilgan jangni olib borish rejasi chuqur taxminiy tavsiflarga ega hisoblanadi. Shu sababli asosiy vazifalardan biri - bu bevosita jang borishi davomida sportchining o‘zi uchun sevimli bo‘lgan usullari amalga oshirilishi uchun nisbatan qulay vaziyatlami yaratib bemvchi taktik harakatlami razvedka qilish yo‘li orqali aniqlash bilan bog‘liq hisoblanadi.

Taekvondo usullarini maqsadli o‘rgatishda maktab, oliy o‘quv yurti, maxalla bazalaridan foydalanish. Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlantirish jarayonida ish qobiliyatlarini oshirishda turli tiklanish vositalarini qo‘llash va ulardan foydalanish.

Xulosa. Shuni aytish kerakki, taekvondoda jismoniy mashqlar-elementar harakatlar, ulardan tuzilgan harakat holatlari va ularning majmualari, jismoniy rivojlanish maqsadlarida tizimlashtirilgan unsurlardir. Taekvondo amaliyotida jismoniy mashqlar, insonning kunlik mehnat, maishiy, harbiy faoliyat turlaridan (yugurish, yurish, sakrash, irg‘itish, og‘irliklar ko‘tarish, suzish va boshqalar) o‘zlashtirib olingan va tashkiliy uslubiy ravishda gimnastika, yengil va og‘ir atletika, harakatli va sport o‘yinlari, sport turizmi va boshqalar sifatida rasmiylashtirilgan, harakatlar va holatlar asosiga qurilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekistonda “Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi. 2002 yil, 30 oktyabrь
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda) 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil qilish to‘g‘risida»gi farmoni. T., 2002 y. 24 oktyabr.
4. “Karate-do”- G.Funakosi. M. Ayama.
5. “Taekvondo (vtf)”-metodicheskie posobie. T. 1991 y.
6. 6.“Taekvondo (vtf)”- pravilo provedeniya sorevnovaniy. Moskva -1990 y

O‘SMIR YOSHDAGI TAEKVONDOCHILARDA IRODA VA KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Axmedov Maxmudxon
O’zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘smir yoshdagi taekvondochilarda iroda va kuch sifatlarini rivojlantirish ochib berilgan.

Kalit so’zlar: iroda, yoshlar irodasi, tirishqoqlik, sobitqadamlik, qat’iy ishonch, mustaqillik, abuliya.

Iroda - bu kishining o‘z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-xarakat va xulqi atvorining amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o‘tishga-qaratilgan jarayonlar. Iroda tufayli inson o‘z faoliyatini ongli boshqaradi, maqsad qo‘yadi, maqsadni amalga oshirish mobaynida uchraydigan to‘siqlarni, qiyinchiliklarni yengishga xarakat qiladi.

Insonning o‘z faoliyatini va xulqi atvorini shaxsiy xoxish irodasiga bo‘ysundirish, ro‘yobga chiqarish mustaqil fikrlashni barqarorlashtirish ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirladi.

Yoshlarni irodasi avvalo ularning ijtimoiy faoliyatida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladi. Yoshlarimizda irodaning bir qancha sifatlari ko‘zga tashlanadi. Bular: qattiyatlilik, tashabbuskorlik, dadillik, mustaqillik, tejamkorlik, intizomlilk, tirishqoqlik, javobgarlilik, jasoratlilik, ishonch va o‘zini irodalashlilik kabilar. Bugungi kunda yoshlarimizning bilim olishga ehtiyojining kuchayishi ulardagi aqliy salohiyati o‘sishi ko‘p jihatdan ularning irodaliy bo‘lishini talab etadi. Chunki iroda tufayli inson biron-bir maqsad asosida ko‘zlangan ishini hatti-harakatlarini bajarishga intiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularni o‘quv faoliyatlarida duch keladigan tusiq va qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatish, ta’lim jarayonida muvaffaqiyatlik tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi tashabbuskorlik talabaning o‘z xoxishini amalga oshirish o‘quvchida, mustaqil bilim olish va fikrlashdagi qattiyatlilik - talaba yoshlar tomonidan jiddiy qaror qabul qilish uni izchil xayotga tadbiq etish xislati sanaladi. Tirishqoqlik talaba yoshlarning qiyinchiliklarni yengish uchun kurashida sir va izoh hujjat maqsadiga erishish uchun intilish ko‘nikmasi xisoblanadi.

Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo‘lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarish sifatida dastavval o‘ziga, o‘z shissiyotiga va xattiharakatlariga shukmronlik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir.

Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo‘lib, ular abuliya (yunoncha abulia - qat'iyatsizlik degan ma'noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma'nosini bildiradi) atamalari bilan ifodalanadi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabshalarini yoritayotib, u shunday g‘oyani ilgari suradi, insoning ongini jarayonlar, holatlar, hislatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o‘zining tuzilishiga ko‘ra, u bir davrning o‘zida ham aqliy, ham shissiy, ham irodaviy hisoblanadi. Tadqiqotchi V.A.Ivannikov esa irodani motivasiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi, shuningdek, harakat

ma'nosining o‘zgarishi shisobiga uni tormozlovchi yoki qo‘shimcha turtki yaratuvchi imkoniyat, yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqariluv esa harakatni "ixtiyoriy boshqariluv ko‘rinishlarining bittasi sifatida" tushuniladi, bunda boshqariluv motivasiyaning ixtiyoriy o‘zgarish orqali amalga oshirilishi ta'kidlaniladi.

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, psixologiya fanidan irodani tushunish, ta'riflash bo‘yicha bir xil munosabat yaratilmaganiday, irodaviy sifatlarning ma'noviy asosini tashlil qilish yuzasidan ham umumiylik, umumiy qarashlar majmuasi mavjud emas. Jumladan, V.A.Krutetskiy o‘z asarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
2. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари.
3. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
4. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
5. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари.
6. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
7. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов O.P. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
8. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

MASHG‘ULOT JARAYONLARIDA MURABBIY VA SPORTCHINING O‘ZARO MUNOSABATLARI

Axmedov Maxmudxon
O’zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti
301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Annotasiya. Sportchilarni tayyorlash, qoida tariqasida, umumiy va maxsus bo'linadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik tanlangan sport turi bo'yicha mushaklarning muayyan turini bajarish natijasida erishiladi Maxsus tayyorgarlik mashqlarining tarkibi hal qiluvchi darajada tanlangan sport intizomining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Kalit so’zlar: sport, sportchi, mashg’ulot

Sportchilarni tayyorlash, qoida tariqasida, umumiy va maxsus bo'linadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik tanlangan sport turi bo'yicha mushaklarning muayyan turini bajarish natijasida erishiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik, birinchi navbatda, sportchining tanasining a'zolari va tizimlarining funktsional imkoniyatlarini oshiradigan va sog'lig'ini mustahkamlaydigan umumiy rivojlanish xarakteridagi mashqlar ta'sirida shakllanadi.

Tayyorgarlikning har bir tomoni uning boshqa tomonlarining mukammallik darajasiga bog'liq bo'lib, ular tomonidan belgilanadi va o'z navbatida ularning darajasiga ta'sir qiladi. Masalan, sportchining texnik jihatdan takomillashishi turli harakat sifatlari - kuch, tezlik, moslashuvchanlik, muvofiqlashtirish qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Umumiy tayyorgarlik mashqlari asosan sportchining umumiy tayyorgarligi vositalaridir. Shunday qilib, juda ko'p turli xil mashqlardan foydalanish mumkin - ularning ta'siri bo'yicha maxsus tayyorgarlikka yaqin va ulardan sezilarli darajada farq qiladi (shu jumladan qarama-qarshi yo'naltirilganlar). Umumiy tayyorgarlik mashqlarini tanlashda odatda quyidagi talablarga rioya qilinadi sport yo'lining dastlabki bosqichlarida sportchining umumiy jismoniytayyorgarligi unga imkon beradigan vositalarni o'z ichiga olishi kerak.har tomonlama jismoniy rivojlanish muammolarini samarali hal qilish sportni chuqur ixtisoslashtirish va takomillashtirish bosqichlarida sport natijalarini belgilovchi raqobatbardoshlik va jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish uchun asos bo'lishi kerak:

- o'ziga xos bo'lmagan ta'lim berishda, ya'ni. umumiy, chidamlilik, o'rtacha intensivlikdagi uzoq yugurish, chang'i uchish, suzish;
- haqiqiy kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda - og'ir atletikadan olingan shtanga bilan mashqlar, shuningdek, har xil turdagi og'irlik va qarshilik bilan sport va yordamchi gimnastika mashqlari;

- harakat tezligini va vosita reaktsiyasini o'rgatishda - sprint mashqlari, sport o'yinlari va ochiq o'yinlarning turlarini o'rgatish;
- muvofiqlashtirish qobiliyatlarini tarbiyalashda - gimnastika, akrobatika elementlari, harakatlarni muvofiqlashtirish uchun yuqori talablarga ega o'yinlar.

Ammo shuni esda tutish kerakki, umumiy tayyorgarlik mashqlari bir vaqtning o'zida sport ixtisosligining xususiyatlarini ham ifodalashi kerak. Har xil jismoniy mashqlar o'rtasida turli jismoniy fazilatlar va motorli ko'nikmalarning ijobiy va salbiy "o'tkazish" naqshlari tufayli ham ijobiy, ham salbiy o'zaro ta'sirlar mumkin. Faqat shu sababdan umumiy jismoniy tarbiya vositalari turli sport fanlari uchun bir xil bo'lishi mumkin emas.

Sport amaliyotida qo‘llaniladigan vizual usullarga quyidagilar kiradi:

1) odatda murabbiy yoki malakali sportchi tomonidan bajariladigan alohida mashqlar va ularning elementlarini uslubiy jihatdan to‘g‘ri ko‘rsatish;

2) o'quv filmlarini namoyish qilish, o'quvchilarning harakat harakatlari texnikasini video yozuvlar, o'yin maydonchalari va maydonlar maketlari bo'yicha taktik sxemalar va boshqalar;

3) harakat yo'nalishini, bosib o'tgan masofani va boshqalarni cheklaydigan eng oddiy nishonlardan foydalanish;

Sport mashg'ulotlari tamoyillari mashg'ulot jarayonini oqilona qurishning eng muhim pedagogik qoidalari bo'lib, unda ilmiy ma'lumotlar va murabbiylikning ilg'or amaliy tajribasi sintezlanadi. Mumkin bo'lgan maksimal yutuqlarga, chuqur ixtisoslashuvga va individuallashtirishga e'tibor qarating. Agar jismoniy mashqlarni sport maqsadlarisiz qo'llashda faqat ma'lum, cheksiz mumkin bo'lgan yutuq darajasi amalga oshirilsa, sport mashg'ulotlari uchun maksimal darajada aniq e'tibor berish odatiy holdir.

Xulosa. Shuni xulosa qilish mumkinki, maksimallikka yo'naltirilganlik u yoki bu tarzda sport mashg'ulotlarining barcha o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi - yuklarning ko'tarilgan darajasi, o'zgaruvchan yuklar va dam olishning maxsus tizimi, aniq sikllik va boshqalar. Sport mashg'ulotlarining bu modeli uzoq muddatli sportni

Faydalanilgan adabyotlar ro‘yxati

1. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического твоспитания и спорта: учебное пособие для студ.высш.учеб.завед. – М.: Академия, 2004. – 480 с.
2. Хозяинов Г.И., Кузьмина Н.В., Варфоломеева Л.Е. Акмеология физической культуры и спорта: учебное пособие для студ.высш.учеб.завед. – Академия, 2007. – 208 с.
3. Барчуков И.С., Нестеров А.А. Физическая культура и спорт:

4. методология, теория, практика: учебное пособие для студ.высш.учеб.завед. – М.: Академия, 2006. – 528 с.
5. Туревский И.М., Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Самостоятельная работа студентов факультетов физической культуры по дисциплинам предметной подготовки: учебное пособие для студ.высш.учеб.завед. – М.: Академия, 2003. – 320 с.
6. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: учеб. для интов. физ. культуры. – М.: Физкультура и спорт, 1991. – 543 с.

13 - 14 YOSHDAGI TAEKVONDOCHILARDA TEZLIK SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Maxmudxon
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti 301-guruh talabasi
Toshkent. Uzbekistan

Annotatsiya. Mazkur maqolada 13 14 yoshdagi taekvandochilardagi masqlar sifatini yaxshilash va ulardagi tezlik sifatini oshirish bo'yicha ma'lumotlar yoritib beriladi. Va bundan tashqari 13-14 yoshli yigitlarning tezkor fazilatlarini tarbiyalash metodikasi haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Raqobatdosh, masqlar bajarish,tezlikni oshirish, oyoq harakatlari.

Taekvondo jang san'ati sport turi sifatida butun dunyo miqyosida o'z o'rni va mavqiyega ega. Ushbu sport bilan shug'ullanish vaqtida yosh toifasiga qarab mashqlar bajariladi. Asosan mashqlar esa tezlikni oshirish va takomillishtirishga doir. Bu borada esa yosh toifasiga qarab aniqroq aytadigan bo'lsak maktab davridanoq taekvondo bilan shug'ullanadigan maktab o'quvchilarida tezlik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar to'plamini ishlab chiqib kelimoqda. Dairesel mashg'ulot usuli bir qator tashkiliy va uslubiy qoidalarga rioya qilishga asoslangan. Isitish amalga oshiriladi, bu tezlik yo'nalishiga ega bo'lishi kerak. Shundan so'ng, guruhlar tashkil etiladi, unda bir necha kishi bor.

Dam olgandan so'ng, kichik guruhlar yana dumaloq usulda mashq qilishadi. Shunday qilib, mashg'ulotning umumiy vaqti taxminan 27 minut. Davra mashg'ulotlari vaqti, murabbiy har bir "stantsiya" da topshiriqning to'g'riligini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak, bunda asosiy e'tibor sportchilar tomonidan yuqori tezlikda va to'g'ri mashq qilish texnikasida bajarilishi kerak. Haqiqat shundaki, harakatlarning maksimal tezlikda nisbatan standart takrorlanishi erishilgan darajadagi tezlikni barqarorlashtirishga, "tezlik to'sig'i"ning paydo bo'lishiga yordam beradi. Shunga ko'ra, tezlikni tarbiyalash metodologiyasida nisbatan standart va o'zgaruvchan mashqlar shakllarini o'z ichiga olgan usullarning

maqbul kombinatsiyasi muammosi Markaziy o'rinni egallaydi. 1.5 jang san'atlarida tezlik fazilatlarini tarbiyalash xususiyatlari.

Jang san'atlarida murakkab reaktsiya eng o'ziga xosdir, chunki sportchi doimiy ravishda eng kutilmagan signallarning paydo bo'lishini kutishi kerak (zarbalar, himoyalar, manevralar, fintlar - yolg'on harakatlar va boshqalar) va har qanday javob (yoki qarshi, oldinga) texnikasi bilan javob berishga doimo tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun vaziyatni baholab, tegishli harakatlarni tanlash (eng yaxshisi) va ularni samarali bajarish kerak. Reaksiya tezligini (harakatlanuvchi ob'ektga reaktsiya) o'rgatishda mashg'ulot harakatlanuvchi ob'ektni va reaktsiyaning motor fazasini ko'rish qobiliyatiga yo'naltirilishi kerak. Harakat boshlanishidan oldin ob'ektni ko'z bilan tuzatish kerak, keyin amalga oshirish vaqti sezilarli darajada kamayadi. Trening talablari doimiy ravishda murakkablashishi ke

-harakat tezligini bosqichma-bosqich oshirish;

-ob'ektning to'satdan paydo bo'lishi;

-javob berish masofasini qisqartirish;

Siz dushmanning rejasini hal qilishingiz, u qanday hujum qilishini va qanday maqsadda ekanligini aniqlashingiz mumkin, ammo ajablanib qolmaslik uchun siz ham tegishli javobni tanlashingiz kerak. Bundan tashqari, uni o'z vaqtida, kech emas, balki raqibdan oldinda bajarish kerak. Va nafaqat o'z vaqtida bajarish, balki ma'lum bir effekt bilan, ya'ni.tez, aniq, kuchli. Reaktsiya vaqti taktik mahorat asosida yotadi, maxsus harakatlarning tezligi (zarbalar, mudofaa harakatlari va boshqalar) sportchining taktik jang shaklini tanlashiga olib keladi, yuqori intensiv zarba berish qobiliyati jangda jangovar harakatlarning yuqori zichligini saqlashda namoyon bo'ladi, bu ringdagi muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o‘rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. Mustaqillik yillarida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi. Iste’dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo‘yicha uzluksiz tizim yaratildi.

Xulosa va fikrlarim. 13 14 yoshdagi bolalar orasida tezlik mashiqlarini oshirish bo'yicha qiziqib ko'raylik bunga ko'ra kutilmagan xolatda berilivchi buyruq bo'yicha gavdaning turish holati teskorlikda o'zgartirish amalga oshiriladi. Turib o'tirish, yotish kabi mashqlar birin ketin bajariladi. Tezkor harakatlarni o'ta yuqori tezlikda bajarishni ta'minlash uchun mashq larda bitta harakat oldindan bajariladi. 20-30 metr masofaga odatdagi yugurish va to'siqlar orqali yugurish mashqlari bajariladi.bundan tashqari chaqqonlik kordinatsiya uchun bajariladigan mashqlar ham taekvandochilarimiz uchun ayni muddao. Bunga zigzaksimon ko'rinishda yugurish, sakkiz raqami shaklida yugurish, moksimon yugurish, boshqa sport turlarida bajariladigan o'rinli mashqlardan ham foydalaniladi. Akrobatik mashlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak bu mashqlar taekvandochilarda qon aylanishini yaxshilaydi.

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar

1. Taekvando nazariyasi va uslubiyati muallif G.Abdurasulova
2. arm.sies.uz veb sayti
3. umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv qo'llanma darsliklari
4. ziyouz.com veb sayti
5. Olamsport.com
6. Yuz.uz. com
7. Taekvando.uz
8. Lex.uz

KIBERXAVFSIZLIK VA VIRUS BO'LMAGAN KIBERTAHDIDLARNING BIZNES JARAYONLARGA TA'SIRI

Musayev Anvar Isakovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi (PhD)
anvarmuso73i.@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirda juda keng tarqalgan kiberxavfsizlikning jamiyat xayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi lekin virus xarakteriga ega bo'lmagan kibertaxdidlar tahlil qilinadi. kiberxavfsizlik ta'minlashda axborot xavfsizligining qo'llanilishi ham sinonim sifatida qo'llaniladi, ammo axborot texnologiyalari sohasidagi tahdidlarni yangi turdagi tahdid turlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq hozirgi davrda klassik hisoblangan "axborot xavfsizligi" tushunchasi bilan izohlash qiyinroq hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, kiberxavfsizlik atamasi va axborot xavfsizligiga bog'liq bo'lmagan kibertahdidlarni aniqlashda yangi paradigma tushuncvhasi sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, biznes, raqamli platforma, xaker, virus, fishing, deepfake, DDOS, kiberhujum, axborot xavfsizligi, tizim, obyekt.

Xozirgi paytda korxona va tashkilotlar o’z biznesini tashkil qilish va rivojlantirish davomida o’z oldida turgan muammolarni hal qilmoqdalar. Tashkilotlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida o’z o’rnini topishi, rivojlanishi va kengayish boshqaruv tizimining to’g’ri yo’lga qo’yilganligi bilan bog’liqdir. Boshqaruvni to’g’ri tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish biznes jarayonlarini beto’xtov davom etishi muxim kafolatiga aylanmoqda. Biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, jarayonlar nazoratini onlain kuzatish va kerakli joylarda masofadan boshqaruv amallarini bajarish maqsadida turli hil texnologiyalar qo’llanilmoqda. Tashkilot boshqaruvida qo’llanilayotgan bunday texnologiyalardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

dasturiy ta’minotlarni yagona raqamli platformaga integratsiya qilish;

bulut texnologiyalaridan ma’lumotlar saqlash va ilovalar bajarilishida foydalanish;

biznes jarayonni samaradorligini oshiraishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.

Ushbu texnologiyalardan foydalanish biznes jarayonlarning doimiy internet tarmog’ida faoliyat yuritishini, Internetdan foydalanishni talab qiladi. Internetda biznes jarayonga oid ma’lumotlar almashinuvi turli hil raqamli qurilmalar asosida amalga oshiriladi. Jarayonlarning internet tarmog’ida amalga oshirilishi ushbu tashkilotning kibermakonda faoliyat yuritishi, kibermakonda mavjud bo’lishi bilan xarakterlanadi. Ushbu tashkilot kibermakonda virtual tashkilot sifatida faoliyat yuritadi, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv va maxsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Kibermakon tushunchasi o’z navbatida kiberfizik va kibervirtual ob’ektladan tashkil topgan bo’lib, bunday tavsiflash kiberxavfsizlik va kiberhimoyani to’g’ri tashkil qilish uchun xizmat qiladi. Tashkilotning kiberfizik va kibervirtual tashkil etuvchilarni aniq belgilash asosida kiberxavfsizlik texnologiylari va vositalari maqsadli ravishda foydalaniladi. Kiber tahdidlar boshqaruv tizimini ishdan chiarishga yo’naltirilgan bo’lib, bunda boshqaruv tizimining o’ziga hos husuiyatlariga egadir. Har qanday tashkilot boshqaruv tizimida personal, apparat-dasturiy fizik qurilmalar va dasturiy ta’minotlar ishtirok etadi.

Shu sababli boshqaruv tizimi uch hil toifada amalga oshiriladi.

1-rasm. Boshqaruv tizimi turlari.

Internet tarmog'ida boshqaruvni amalga oshirayotgan tashkilotga turli hil tahdidlar mavjud bo'lib bunday tahdidlar kibertahdidlar hisoblanadi.

Kibertahdidning mavjudligi va uning kiberhujum tarzida internet tarmog'i orqali amalga oshirilishi natijasida tashkilotning raqamli tizimiga zarar yetadi va bu zarar ikki hil ko'rinishda tashkilot faoliyatining sekinlashishi, to'xtashi yoki vazifasining o'zgarishiga olib keladi.

Tashkilot boshqaruv tizimi tarkibiga tashkilot boshqaruvi- qaror qabul qilish texnologiyasi, boshqaruvni amalga oshiruvchi dasturiy ta'minotlar-raqamli platform, boshqaruv amalga oshiruvchi apparat, apparat-dasturiy qurilmalardan tashkil topgan.

Kiberhujum boshqaruv tizimiga, boshqaruv dasturiy ta'minotlariga va ma'lumotlar bazalariga ta'sir ko'rsatadi.



2-rasm. Kiberhujumning ta'siri.

Ushbu tadqiqotimizda tashkilotning boshqaruv tizimiga virus xarakterga ega bo'lmagan kiberxujumni tahlil qilamiz.

Virus bo'lmagan kiberhujumlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: fishing (voicemishing telefon, sms va chat orqali), Man in the middle – o'rtadagi odam, DDOS, IP-sniffing-spoofing, aqlli shartnomalarni buzish, deepfakes, feyk yangiliklar, kiberbulling.

Virus bo’lmagan kiberhujumni Fishing misolida ko’radigan bo’lsak, bu oddiy telefon suxbati yoki matnli axborotlar almashish orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida shaxsning raqamli qurilmalari, bank-moliya onlayi ilovalari va internet servislar akkauntlari login va parollari o’g’irlanishi mumkin. Bunday virus bo’lmagan kiberhujum xozirgi paytda juda keng tarqalgan bo’lib tashkilotlarga katta miqdorda zarar keltirmoqda. Shunday kiberhujumlardan biri deepfake - bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda uning raqamli qiyofasini yaratish va shu tariqa shaxs haqida yolg'on ma'lumot tarqatish orqali haqiqiy inson va tashkilot hayotiga tahdiddir. Bunda axborotning yaxlitligi, maxfiyligi va mavjudligi axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan buzilmaydi. Kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan, deepfake bu shaxsning turmush tarziga ta'sir qiladi. Bu insonning ijtimoiy, iqtisodiy va hayotiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bilan birga shaxs tashkilot boshqaruvida ishtirok etuvchi yoki katta ahamiyatga ega bo’lsa ushbu kiberhujum oqibatida tashkilot ham katta zarar ko’radi.

Shunday qilib, deepfake kiberhujumni kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan baholash, axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan aholashdan ko'ra ko'proq ilmiy asosga ega bo'ladi.

Xulosa. Zamonaviy dunyoda tshkilot va korxonalarning faoliyat yuritishida axborot tizimlari muhim ahamiyatg aylandi va bunda kiberxavfsizlikni ta'minlashni birinchi o'ringa olib chiqadi. Davlat va jamiyat uchun ushbu axborot tizimlarining mavjudligi zarur bo'lib qoladi, bu esa kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun kuch vositalarni to’g’ri taqsimlash, biznes jarayonga, hususan boshqaruv tizimlariga bo’ladigan kiberhujumlarni to’g’ri tavsiflash talab qilinadi. Ilmiy yondoshgan holda kiberxavfsizlik muammolarining mohiyatini to’g’ri va tushunarli aks ettirish, ta’sir doiralarini aniq belgilash kiberxavfsizlikni tashkilot xavfsizligi uchun xizmat qilishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Wiener N . Cybernetics or Control and Communication in the Animal and the Machine. — New York: The Technology Press and John Wiley & Sons, Inc. — Paris: Hermann et Cie, 1948.
2. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurash: muammolar va yechimlar, Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami, (24 fevral 2022 yil), Toshkent: MALIK PRINT CO, 2022. -482 b.
3. Акбаров D.E., Криптографические методы обеспечения информационной безопасности и их применение, “Ташкент, издательство “O‘zbekiston markasi ", 2009 – 432 c.
4. Акбаров D.E, Мусаев А.И. Исследование основ существующих алгоритмов поточного шифрования и их классификация, Ташкент,

Axborotkommunikatsiyalar: tarmoqlar, texnologiyalar, yechimlar, “UNICON.UZ”, 2009. C. 36-45.

5. “Axloqiy xakerlar kiberxavfsizlikni ta’minlovchi mutaxassislar”, Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), ISSN (online): 2181-2454, Volume 2 | Issue 5 | May, 2022 , 98-102

VIRTUAL LABORATORIYALARNI MOBIL ILOVA YORDAMIDA TA‘LIMDA QO’LLASH

F.X.Ishkobilov
QarMII ilmiy izlanuvchi

Ta’lim sifatini tubdan oshirish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, o’quvchi va o’qituvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish bugunki kunning muhim va dolzarb masalasi bo’lib qolmoqda.

Ushbu maqolada zoologiya fanini o’rganuvchilar uchun hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan kompyuter imitatsion modellar asosida yaratilgan virtual laboratoriyalarini mobil ilova yordamida o’quv jarayonida qo’llashga qaratilgan. Mobil ilova o’z o’rnida ta’lim sifatini oshirish uchun ximat qiladi.

“Virtual laboratoriya” - o‘quv jarayonida mavjud bo‘lgan laboratoriya mashg‘ulotlarida ko‘rib chiqilayotgan laboratoriya ishlarining haqiqiy bajarilishini almashtirishi mumkin bo‘lgan kompyuter dasturiy vositalarining to‘plami tushuniladi. Shu bilan birga, albatta, o‘quvchi yoki talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish vaqtida o‘rganuvchilarni bilim doirasiga zarar yetkazilmasligi haqida fikr mulohazala yuritilishi kerak.

Bugungi kundan axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi o‘quvchi yoki talabalarga turli xil turdagi o‘quv va uslubiy hujjatlarni fayllarga ya’ni, elektron shaklda o‘tkazishning qulayligi va soddaligini ta‘minlaydi:

– uslubiy yoki o‘quv qo‘llanmalar;

– laboratoriya asbob-uskunalari va laboratoriya ishlarining turli bosqichlarining yuqori sifatli jarayonlari;

- laboratoriya ishlarining borishi jarayoni aks ettiruvchi imitatsion modellar;

- laboratoriya ma‘lumotlari va o‘lchovlarining tasdiqlangan natijalarining ma‘lumotlar bazalari;

- hisobot hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish namunalarini tezkor bajarilishini ta‘minlaydigan kompyuter dasturlari;

- kompyuterda o‘z-o‘zini tekshirishning turli shakllari.

Elketron shaklda ishlab chiqilgan fayllarni nafaqat shaxsiy kompyuter yoki noutbuklarda ko‘rish uchun mos shaklda taqdim etiladi, balki zamonaviy vositalar,

hamda yuqori aniqlikdagi raqamli televizorlarda yoki aksincha, mobil telefonlar va smartfonlarda ham foydalanish mumkin.

Bularning barchasi o‘quvchi yoki talabalarning mustaqil ishini optimallashtirish, uni katta hajmda uyda o‘tkazish, transportda sayohat vaqtidan foydalanish va shu bilan ta‘lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Ta‘lim tizimida imitatsion modellardan foydalanishni yanada takomillashtirish maqsadida Android operatsion sistemasi asosida yaratilgan mobil ilovadan foydalanamiz. Ya’ni mobil ilova yordamida 7-sinf biologiya (zoologiya) fanini o’quvchilargan o’rgatishda mobil ilovaning ham o’rni biqiyosdir. Keeling siz bilan mobil ilova bilan tanishamiz.

1. Ushbu rasmda mobil ilovaning umumiy tashqi ko’rinishi keltirilgan bo’lib, bu ilova yordamida siz 7-sinf biologiya fanining bir qancha mavzulari bo’yicha sahifalari bilan tanishamiz.

1-rasm.

2. 2-rasmda, 7-sinf biologiya (zoologiya) fanini o’qitishda kompyuter imitatsion modellar asosida yaratilgan virtual laboratoriyalardan foydalanishni android mobil ilovasining ichki tuzilmasi bilan tanishasizlar ya’ni, unda nazariy ma’lumotlar, mavzular va virtual laboratoriyalar hamda muallif haqida to’liq ma’lumotlar olishlaringiz mumkin bo'ladi.

2-rasm.

Yuqorida muhokama qilingan “virtual laboratoriya” mobil ilova ko’rinishi maktab o’quvchilariga elektron shaklda ya’ni, grafik, video, audio, animatsiyalarni o’z ichiga olgan holda o’rganuvchi yoshlar uchun ishlab chiqilgan. Ushbu

yondashuv umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o'quv va uslubiy adabiyotlarni ko'paytirish va tarqatishda moddiy hamda vaqt resurslarini sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Bu imitatsion modellar yordamida biologiya fanini amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzularini o'qitish bo’yicha batafsil ma'lumotlarni olishingiz mumkin.

O'quv jarayonidagi hozirgi tendentsiya har bir fan doirasida mavjud bo’lib masalan, biologiya dars mashg’ulotlarida o’quvchilar uchun dars, uy va mustaqil ishlarining murakkabligini inobatga olgan holda biz yaratgan biologik jarayonlarni imitatsion modellarni yaratib, ta'lim sifatini imitatsion modellar yordamida oshirishni maqsad qilib, virtual laboratoriyalarni takomillashtirilgan holda ishlab chiqdik va bu ta’lim tizi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Shuning uchun, biologiya o'quv fani bo'yicha virtual laboratoriyalar tavsiflovchi va faktlarni topuvchi xususiyatga ega bo'lib, turli xil biologik jarayonlarni vizualizatsiya holatda ishlab chiqilgan. Shu bois, amaliy va laboratoriya ishlarining ba'zilari faqat tavsifiy bo'lishi mumkin, lekin axborot maqsadida va o'rganilayotgan mavzu bo'yicha grafik, audio, video va animatsiya ma'lumotlarni ko'rishdan iborat. Bunday amaliy va laboratoriya ishlari bo'yicha o’quvchilar tomonidan axborot materiallari individual ravishda qayta ishlash uchun ham asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ф.Х.Ишқобилов “Компьютер имитацион моделлар асосида ўқувчиларнинг зооология фани бўйича билимларини ошириш методикаси” https://cyberleninka.ru/article/n/kompyuter-imitatsion-modellari-asosida-uvchilarning-zoologiya-fani-b-yicha-bilimlarini-oshirish-metodikasi
2. Ишқобилов Ф.Х. “Компьютер имитацион моделлар асосида зоология фанига доир споралилар типининг грэгарин ва коксидиялар туркумини виртуал лабораторияларини яратиш” №1 (2021) http://kimweb.uz.
3. https://cyberleninka.ru/article/n/fizika-ta-limida-virtual-laboratoriyalarni-qo-llash-va-uning-afzalliklari

THE EVOLUTION OF COLLECTIVE MANAGEMENT ORGANIZATIONS OF COPYRIGHT AND RELATED RIGHTS: FOREIGN EXPERIENCE

Iroda Yakubova,
PhD (Doctor of Philosophy),
Associate Professor Department «Intellectual property law»
of Tashkent State University of Law

Annotation. The first associations of authors in author societies appeared in the field of public performance of dramatic and musical-dramatic works. Within

the framework of the subject, it was studied in detail how right holders enter into agreements with persons using works (objects of copyright and related rights) on their own behalf on the basis of powers granted by collective management organizations, as well as collection, distribution and payment of royalties to right holders. Attention is paid to some urgent problems related to the improvement of this institution, international standards for copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other different countries. Suggestions and recommendations were put forward of scientific and practical importance for national copyright law.

Key words: to enforce copyright, copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work.

As collective management organizations flourished in their nation states, the need for international cooperation and coordination became apparent. In 1925, Romain Kulus established the committee for the organization of congresses of foreign authors' societies. This committee was formed to solve some intractable problems related to international problems[1]. Around the same time, Firmenu Geme managed to create a universal theater society. Both of these initiatives led to the convening of the Constituent Council of the International Confederation of Societies of Authors (CISAC) in 1926. The members of the Constituent Council emphasized the need to establish uniform principles and methods for the collection of royalties and the protection of works for each country, to ensure the recognition and protection of literary and artistic property throughout the world. Today, CISAC has 232 member societies in 121 countries, most of which grant licenses for the public performance and distribution of musical works or for the reproduction of these works[10]. Other CISAC members have the right to grant licenses for the display and reprographic reproduction of works of visual art and theatrical productions (so-called "substantive rights"). Many countries have contributed to the growth of collective management organizations through legislative initiatives, as these organizations in turn offer a suitable solution to the problem of individual licensing, collection and enforcement of copyright[2].

Although the formation of collective management organizations was once considered revolutionary, the key role it continues to play as an intermediary in the copyright system is described as evolutionary. Collective management promotes uniform methods of collecting and distributing royalties for organizations and negotiates licensing of works. However, while licensing and royalty payments are important, collective governance is not the only concern for organizations. Over time, the role of collective management organizations has changed to protect copyright, fight piracy, and perform various social and cultural functions[3].

Collective management has allowed organizations as well as creatives to use the power of collective bargaining to gain more leverage in their work and negotiations. However, most collective management organizations value all works in their repertoire on the same economic basis, which can be unfair to the creators of works that may be of higher value in the eyes of users[4].

Although collective management organizations were initially promoted as an effective way to raise and pay compensation to copyright owners, collective management organizations have become increasingly established nationally and internationally, and questions have been raised about their effectiveness. In addition to these important structural challenges, market conditions and copyright owners' business trends are changing, and collective management organizations must adapt[5]. Having served both creators and users adequately in the past, the system now needs to adapt to be both efficient and relevant to the community.

It was the "music sector" that became the largest sector in terms of scope: a complex repertoire necessitated collective management of rights. In 1994, the Society of French Authors, Composers and Music Publishers (SACEM) distributed 2 billion 450 million francs among 60 thousand songwriters, composers and publishers (French and foreign, authors and their heirs) for the use of 550 thousand works[6]. The society manages more than 5 million registered musical works (150,000 new works every year), cooperates with 540,000 distributors, 200,000 of whom were considered regular users (organizers of radio and television stations, show programs, concerts and discos) [7].

The network of copyright societies has gradually spread throughout the world in different ways depending on the specific characteristics and cultural environment of the country[8]. During the end of the last century and the first decade of this century, similar copyright organizations (so-called public performance rights management societies) were established in almost all of Europe and some other countries.

Today, this prestigious international organization includes both "musical" copyright societies and societies that manage rights to works of visual art and audiovisual works. In some cases, high-profile authors' societies have drawing and graphics departments (in Belgium, Italy, Portugal). The status of authors of literary, audiovisual and theatrical works is different in different countries. Organizations are being created both for different rights and for different categories of rights holders. These are foreign copyright societies: Polish ZAIKS, French SACEM, Japanese JASRAC, English PRS, American ASCAP and BMI, etc.

References

1. Yakubov O. TRADE ORGANIZATION AGREEMENTS: THE MSIN PRINCIPLES OF TRIPS AGREEMENT. Conferencea. 2022, pp. 119–123.
2. Gavrilov E.P. "Pravo intellektual‘noy sobstvennosti. Avtorskoe pravo i smejnie prava. XXI vek" [Intellectual property right. Copyright and related rights. XXI century]. Yurservitum, 2016, pp. 425–446.
3. Nasriev I.I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash [Protection of the non-property rights]. Tashkent, Mehnat, 2003, pp. 45–57.
4. Yakubova I.B. O‘zbekistonda mualliflik huquqi bo‘yicha mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi [Emergence and development of organizations of collective management of copyright property rights in Uzbekistan]. Yurisprudensiya – Jurisprudence. 2021, no. 6, pp. 66–74.
5. Leanovich, E.B. [Problems of legal regulation of Internet relations with a foreign element] Problemi pravovogo regulirovaniya internet-otnosheniy s inostrannim elementom. available at: http://www.evolution.info.
6. Yakubova I. B. Pravo na jizn-neotyemlemaya chast lichnogo neimuщestvennogo prava [The right to life is an integral part of a personal non-property right]. Voprosы sovremennoy yurisprudensii – Issues of modern jurisprudence. 2016, no. 12 (62).
7. O. Oqyulov. Intellektual mulkning huquqiy maqomi [Legal status of intellectual property]. Tashkent, 2000, pp. 36–45.12. Xudayberdiyeva G.A. Turdosh xukuklarni fukarolik-xukukiy muxofaza kilish muammolari [Turdosh khukuklarni fukarolik-khukukiy governorate kilish muammolari]. Tashkent, 2006.
8. I.Yakubova. Ponimaniyekollektivnogo upravleniya avtorskix prav v istoricheskom kontekste [Understanding Collective Copyright Management in a Historical Context]. Yurist Axborotnomasi – Legal Bulletin. 1 (6), pp. 76–80.

О.МАТЖОН ШЕЪРЛАРИДА ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ ЎХШАШЛИК ЁКИ ЁНДОШЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Раҳмонов Ҳусанбой Абжалилович
Қўқон давлат педагогика институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада О.Матжон шеърларида тил бирликларининг ўхшашлик ёки ёндошлик хусусиятлари ўрганилган.

Калит сўзлар: ассоциация, ассоциатив муносабат, ассоциатив бирлик, фразеологик бирлик, субъектив муносабат, вербал ассоциация, Стимул сўз + жавоб реакцияси.

Abstract. The features of similarity or contiguity of language units in O. Matjon's poems are studied in this article.

Key words: association, associative relation, associative unit, phraseological unit, subjective relation, verbal association, Stimulus word + response reaction.

Аннотация. В данной статье исследуются признаки сходства или смежности языковых единиц в стихотворениях О. Матжона.

Ключевые слова: ассоциация, ассоциативная связь, ассоциативная единица, фразеологизм, субъектная связь, словесная ассоциация, слово-стимул + ответная реакция.

Ассоциатив бирликлар муайян омиллар таъсирида инсон хотирасида бир-бирини тикловчи, ёдга солувчи бирликлар бўлиб, ассоциация қонунияти асосида лисоний онгда алоҳида гуруҳларга бирлашади. Д.Лутфуллаеванинг фикрича, “Турли воқеликларнинг онгда акс этган ассоциатив алоқаси тилда ҳам бир-бирини эслатувчи бирликларнинг ассоциатив боғланишини юзага келтиради. Масалан, дарахтнинг ўсиши учун тупроқ, сув кабилар зарур; дарахт ўрмон, боғ, майдонда ўсади. Дарахтнинг тупроқ, сув, боғ кабилар билан алоқаси инсон хотирасида дарахт лексемаси орқали тупроқ, сув, ўрмон, боғ, майдон лексемаларнинг ёдга тушишига сабабчи бўлади. Тил бирликларининг инсон психологик тасаввури билан боғлиқ тарзда бир-бири билан бу тарзда муносабатга киришуви ассоциатив муносабат дейилади”. 1

Англашиладики, ассоциатив бирликлар инсон тасаввурлари билан боғлиқ бўлган, хотирада бир-бирини ёдга туширувчи тил бирликларидир. Бошқача айтганда, тасаввуримизда тикланган образларнинг ўзаро алоқаси тилда уларни ифода этувчи бирликларнинг ҳам ассоциатив тарзда боғланишига сабаб бўлади. Бундай бирликлар инсон онгида ўхшашлик, ёндошлик ва шу каби бошқа умумий белгилари асосида ассоциатив боғланган бирликлар жуфтлигини ҳосил қилади.

Ёзувчи ёки шоир бадиий матн яратар экан, ўзаро алоқадорлик, боғлиқлик, ёндошлик қонунияти асосида ассоциатив алоқа-боғланишда бўлган ва лисоний онгидан тайёр ҳолда ўрин олган бундай бирликлардан унумли фойдаланади. Бундай ассоциатив алоқа турлари, рус олимаси С.М.Карпенко қайд этганидек, кўпфункцияли ҳодиса бўлиб, матнни идрок этиш, интерпретациялаш, тушуниш ҳамда муаллифнинг идиостилини акс эттириш вазифаларини бажаради. 2

Тилшуносликда тил бирликларининг ўзаро ўхшашлик ва ёндошлик асосида ассоциатив боғланиши ҳақида хулосалар берилади. Жумладан, рус

[1] Лутфуллаева Д Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 22.
[2] Карпенко С.М. Ассоциативные связи слов в узусе и поэтическом тексте (на материале творчества Н.С.Гумилева): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Томск. 2000 (а). – С. 7.

тилшуноси Н.В.Крушевский тилдаги сўзлар ўхшашлик ва ёндошликка кўра ассоциатив қаторларни ҳосил қилиши ҳақида фикр юритади.3 М.М.Покровский ҳам сўзларнинг шакли ва мазмунидаги ўхшашликка кўра ассоциатив қаторларга бирлашувини таъкидлайди.4 Бу хулоса ўзбек тилшунослари томонидан ҳам қайд этилган. Хусусан, А.Нурмонов ассоциациянинг ифодаланмиш ўхшашлиги асосида ёки акустик образлар умумийлиги асосида ёки фақат шакл, ё мазмун асосида юзага келиши ҳақида хулоса билдирган.5 Дарҳақиқат, тилдаги ассоциатив бирликлар ўхшаш умумий белгилари ёки ёндош белгилари асосида бир-бирини хотирада тиклайди, шу белгилари асосида лисоний онгда бир қаторга бирлашади. Тил бирликларининг ўхшашлик ёки ёндошлик хусусиятлари нафақат лисоний, балки нолисоний (экстралингвистик) асосларга кўра ҳам юзага келиши мумкин. Масалан, О.Матжоннинг қуйидаги шеърида сўзлар улар англатган предметларнинг умумий вазифаси асосида ассоциатив қаторларга бирлашганлиги кузатилади:

Қуёшман деб лоф уриб қолдинг,
Жинчироққа ўхшайсан, кечир.
Бўш жисмингга кимдир ёғ қуйиб,
Пилигингни кўтарар кимдир.

Ушбу шеърда қуёш – жинчироқ ассоциатив жуфтлиги юзага келган. Қуёш ва жинчироқнинг ёруғликни таъминлаши шоир хотирасида уларнинг бир-бирини тиклашига туртки берган. Бу тарзда ассоциатив бирликларнинг ҳосил бўлиши экстралингвистик омилга, яъни сўз англатган предметлар вазифасидаги ўхшашликка боғлиқ.

Шоирнинг қуйидаги шеърида эса ассоциатив алоқа ёндошлик асосида юзага келганлиги кузатилади:

Юлдузимиз бормиш иккимизнинг ҳам,
Само унгурида порлармиш гўё.
Вақт келар ва совуқ осмон қаъридан
Иккиси ҳам бўлар эмиш зим-зиё.

Ушбу шеър сарлавҳасиз бўлиб, унда юлдузнинг порлаши, вақт келиб унинг сўниши тафсилоти акс этган. Демак, шеърда юлдуз сўзи туртки сўз вазифасини ўтаган. Бу туртки сўзга нисбатан само унгури, порламоқ, совуқ осмон қаъри, зим-зиё бўлмоқ ассоциатив бирликлари юзага келган. Берилган

[3] Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883. – С. 68-69.
[4] Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959. – С.18.
[5] Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари (“Лингвистика” йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон. 2006. – Б. 58-59.

ассоциатив бирликлардан порламоқ ассоциацияси юлдуз туртки сўзининг луғавий маъносини очишга хизмат қилган.

Маълумки, юлдуз сўзи “1 Қизиган газ (плазма)лардан таркиб топган, табиатига кўра Қуёшга ўхшайдиган, кечаси нур сочувчи нуқта бўлиб кўринадиган осмон жисми”6ни англатади. Кўринадики, порламоқ ассоциацияси юлдуз сўзининг “нур сочувчи” семасига ойдинлик киритиш вазифасини бажарган. Шу жиҳатдан ушбу ассоциацияни лисоний омил асосида ҳосил бўлган дейиш мумкин.

Шеърдаги само унгури, совуқ осмон қаъри, зим-зиё бўлмоқ ассоциатив бирликлари экстралингвистик омилларга кўра ҳосил бўлган. Жумладан, само унгури, совуқ осмон қаъри, зим-зиё бўлмоқ ассоциатив бирликлари образли фикрлаш асосида ҳосил бўлган, метафорик маъноли бирликлардир. Ушбу метафораларга хос ассоциативлик уларнинг образлилик табиатни англашга ёрдам берган. Совуқ осмон қаъри ассоциатив бирлигида шоирнинг салбий баҳо муносабати акс этган.

Таҳлиллар асосида хулоса қилиш мумкинки, тил бирликларининг ассоциатив алоқаси уларга хос белгиларнинг ўхшашлиги ёки бу белги-хусусиятларнинг ёндош хусусият эканлигига кўра юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Лутфуллаева Д Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
2. Сафаров Ш. Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Хорижий филология. 2018.
3. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015.
4. Болотнова Н. С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск, 1994.
5. Rahmonov Husanboy Abjalil ogli. (2022). VERSIONS OF ASSOCIATIVE COMMUNICATION IN O. MATJON’S POEMS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1073–1075. Retrieved from https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3199

[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008. – Б. 81.

НАРОДНАЯ ПЕДАГОГИКА КАК ОСНОВА ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ В ТРУДАХ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА

Элёр Абдулвохидов
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические идеи великого писателя Чингиза Айтматова, отраженные в его художественных произведениях, в частности, повести «Пегий пёс, бегущий краем моря», перекликающиеся с народной педагогикой. В статье рассматриваются возможности использования данных идей для обогащения педагогических знаний будущих учителей.

Ключевые слова: роль окружающих в воспитании, старшее поколение, младшее поколение, народная педагогика, педагогический процесс, научное наследие, независимое мышление, педагогический контекст, мифы и легенды, ядро педагогической концепции, побеждающая доброта, духовная опора, глобализация, культура чтения.

В ряде произведений Ч. Айтматова притча выступает в виде самостоятельных рассказов-вкраплений, синтезирующих нравственную проблематику с философской, личностную с общечеловеческой, современную с «вечной». Взрослые рыбаки ведут своего ребенка на море, чтобы подготовить его к взрослой жизни. Как отметил Н. А. Сыздыкбаев, «притчевое начало Ч. Айтматова является не только качеством стиля, но и структурообразующим фактором. Оно выступает как средоточие нравственно-философской проблематики с сильным оттенком учительства» [1]. Сам автор, рассказывая об истории создания повести, акцентировал о нравственно-педагогической направленности произведения: «Я хотел заставить читателей задуматься о главных ценностях человеческой нравственности, о чувстве долга, то есть обо всем том, что делает человека человеком» [2; с. 492]. Из этих слов угадывается, что в повести большинство концептов Ч. Айтматова коснутся проблемы формирования в читателе чувства долга и чести. Выявим и рассмотрим данные воззрения.

В центре внимания всего четыре героя – трое взрослых и один ребенок, который меньше всех совершает действий. Но именно его автор делает главным героем повести, поскольку, как мы думаем, все действия предпринимаются ради него, во имя потомка рода. В подсказку читателю звучит первый концепт: «Чтобы быть кормильцем, мужчина должен с ранних лет постигать своё ремесло» [2; с. 119]. Писатель показывает, что две цели

повелевают человеком. Одна (бытовая, житейская) – добывание пищи, вторая (духовная, педагогическая) – продолжение рода.

Герои повести движимы именно этими двумя силами. Они оказываются в море для добычи пищи, но на этот раз у них педагогическая миссия – старшие должны научить ребенка охоте (физическая потребность), чтобы он, как продолжатель рода, овладел необходимыми навыками ремесла морского охотника (воспитательная или духовная потребность).

Рядом с Кириском его отец Эмрайин, дядя Мылгун и дед Орган. Мы наблюдаем за своеобразным педагогическим экспериментом – испытание нравственного потенциала на грани жизни и смерти, когда духовное богатство представлено точкой опоры нравственных потрясений. Стержневая идея заключается в том, что только правильно воспитанные, овладевшие необходимыми навыками могут удачно пройти все испытания.

Ч. Айтматов верен своей традиции – он ещё раз показывает, что подготовка личности к жизни должна осуществляться с малолетства, и к этому процессу нужно уделять отдельное серьёзное внимание. Здесь уместно вспомнить великого педагога Я. А. Коменского, говорившего, что только путем соприкосновения с природой вещей ребенок понимает истинную суть их и предназначение.

Эта охота предназначена для обучения юного Кириска не только к охоте, но и к жизни: дед учит его определять стороны Света днем и ночью, ориентироваться по звездам, охотиться за нерпами. Так сформированные знания об окружающей действительности проверены и испытаны многократно и передаются из поколения в поколение. Они живучи благодаря своей простоте, лёгкости для освоения. Автор и здесь не обходится без вкрапления своего концепта: «Каждому даны свои глаза» [2; с. 166]. То есть решение каждой педагогической проблемы уже сформировано народной мудростью, но заветы надо «приспосабливать» и придавать им такую форму, чтобы они служили ключом к современным задачам воспитания и образования. Правда, с развитием общества возникают всё новые и новые задачи, «но человек мыслит и тем восходит к величию Моря и Неба, и тем утверждает себя перед вечными стихиями, и тем он соизмерен глубине и высоте миров. И потому, пока человек жив, духом он могуч, как море и бесконечен, как небо, ибо нет предела его мысли. А когда он умрет, кто-то другой будет мыслить дальше, от него и дальше, а следующий ещё дальше и так без конца» [2; с. 130-131] . Вот почему самое важное – сформировать в молодом поколении навыки критического мышления. Значит, обладающий мыслью и мечтой человек вечен в своих порывах. Он должен продолжать

двигаться вперед, и даже мысль о смерти не остановит его, потому что он имеет возможность продолжить жизнь в другом, себе подобном, который также продолжит мыслить и мечтать.

В педагогике жизни особое место отводится урокам по выживанию в различных жизненных ситуациях. Ч. Айтматов обращает внимание читателя на важнейший аспект – народная педагогика практична, все ее правила проверены и прошли неоднократное испытание.

«Персонажи, – говорил Ч. Айтматов, – находятся в пограничной ситуации. Лодка – это мир… я вижу свою задачу в том, чтобы подвергнуть нравственную основу героя максимальному испытанию» [3; с. 236]. Если лодка – это мир, значит, речь идёт о человечестве вообще, которое должно определиться, как выходить из глобальных кризисов (постоянная угроза атомной войны, ситуация с пандемией). И надо действовать сообща, нужна некая интеграция, чтобы лодка доплыла до берега.

Горький опыт, но именно это и спасло мальчика. Сказанное вовремя слово перевоплотилось в наставление ценою в жизнь. Когда, затерявшись в тумане, один за другим взрослые жертвуют собой ради спасения самого молодого, Кириск получает самый главный урок, хотя детское воображение ещё не в состоянии в полной мере ощутить его значение. И поэтому автор не впрямую сообщает об этом уроке, а посредством чувств старших передаёт очередное наставление: «В море нет отцов и сыновей, в море все равны и подчиняются старшему. Как скажет старший, так тому и быть. Отец не станет вмешиваться. Сын не станет жаловаться отцу. Так положено» [2; с. 123].

Готовность пожертвовать собой, своим куском ради продолжения рода – один из определяющих факторов нравственного совершенствования. И этот наглядный пример сразу отражается в ребенке. Он также готов повторить подвиг взрослых – отказаться от предлагаемой воды, даже когда мучает невыносимая жажда. Здесь можно сформулировать ещё один концепт-завет по Ч. Айтматову: Найди в себе смелость пожертвовать самым дорогим ради продолжения рода. Когда время жить истекает, побеждает либо высокое человеческое, либо страх за свою жизнь. Отсюда исход: либо торжествует общечеловеческое, либо теряется смысл жизни.

До последнего вздоха герои повести стараются выполнить свои обязанности перед подрастающим поколением. И это ощущается в действиях каждого из них. Даже в самом конце жизни человек обязан думать об указании праведного пути продолжателю рода. В этом и заключается главная суть жизни, продолжения отца в сыне, от чего зависит судьба рода.

«То, что человек умом приемлет, далеко не всегда приемлет его плоть» [2; с. 163]. Учи и учись до конца своих дней – вот что доказывает данный эпизод. Обучая кого-то, мы делаем своеобразные открытия и для себя. Чтобы подготовить детей преодолевать трудности, продлить себя в будущих поколениях, мы должны вооружать их знаниями и навыками, опытом, чтобы они, не повторяя наших ошибок, пришли к счастью более близкой тропой.

«И еще хотелось Эмрайину внушить напоследок сыну, чтобы он с благодарностью думал в оставшееся для него время о старике Органе и аки-Мылгуне. Людей этих уже нет, им все равно, вспоминает ли о них кто или не вспоминает, но думать так следует для самого себя» [2; с. 332]. Тут рождается еще один важный завет-концепт Ч.Айтматова: Память об ушедших безразлична для них, но ты думай о них для самого себя.

«Пегий пёс…» помогает человеку воспитать в себе важнейшее, нужнейшее качество – волю. В данном случае она выражается в способности принять объективно нужное, истинное решение, причем если ситуация стала другой либо человек переменил свой взгляд на нее, то возможно с помощью воли изменение решения и принятие нового в соответствии с обстановкой.

Критики и исследователи (в том числе и В. Санги) утверждают, что Ч. Айтматов создал мифологическую поэму о самопожертвовании. Но наш анализ показывает, что миф – это всего лишь фон, на котором проявлялась стержневая педагогическая идея писателя о том, как расширить сузившееся, хотя и углубившееся на основе научно-технического процесса и глобализации, видения мира современников. Можно сказать, что, изображая привычную критическую ситуацию, он предлагает обширную программу целенаправленных воздействий на природу человека, и потом наблюдает за его поступками.

Ч. Айтматов создаёт в своих повестях такую ситуацию, конфликтные положения, когда человеку приходится выбирать: или пожертвовать своим благополучием, своей жизнью для благополучия и жизни других людей, или, наоборот, пожертвовать другими для сохранения своего благополучия. Если бы герои повести пошли по второму пути, то это указало бы отсутствие в них воли, как это было с Момуном в «Белом пароходе». Таким образом, Ч. Айтматов проанализировал два варианта исхода событий, и у нас появилась возможность уловить и сформулировать один важный элемент педагогической концепции великого писателя, который явился важным компонентом педагогической концепции автора: природа сотворила самое великое чудо на Земле – Человека. И никакая стихия, ничто не может убить человеческое в человеке.

Как отмечал В. Левченко, «Всё то, что предложил Чингиз Айтматов в «Пегом псе…», было… проявлением извечной человеческой потребности взглянуть вокруг себя, остановиться, осмотреться, спросить себя: кто мы? как мы живём? куда ж нам плыть?» [4; с. 196]. Как ответить на эти вопросы и чем закончится авторский миф, переросший в реалистическую повесть – опять-таки решать читателю. Автор даёт возможность каждому самому определить исход трагического повествования в зависимости от того, как он переосмыслил произведение, какие уроки извлёк от прочитанного.

Мы определили динамику педагогических идей автора, зарождавшихся еще в его публицистических выступлениях, в художественном творчестве писателя. Читатель, в том числе и читатель-учитель, читатели – учащиеся при внимательном чтении повестей Ч. Айтматова извлекут большой запас нравственной прочности для себя и потомков.

Список использованной литературы

1. Сыздыкбаев, Н.А. Специфика притчевого строения повести Ч. Айтматова «Пегий пес, бегущий краем моря» и романа А. Кима «Отец-лес» // вестник КазНУ.– Алматы: 2018.
2. Айтматов, Ч. Собр.соч. в трех томах, т. 2. – М.: «Молодая гвардия», 1983.
3. Айтматов, Ч.Т. В соавторстве с землею и водою…– Фрунзе: «Кыргызстан», 1979.
4. Левченко, В., Чингиз Айтматов. Проблемы поэтики, жанра, стиля. –М.: «Советский писатель», 1983.
5. Глинкин, П. Чингиз Айтматов. –Л.: Просвещение, 1968.
6. Левченко, А. Ч. Айтматов–правдист. – Литературный Киргизстан, 1977, №5.
7. Айтматов, Ч. Очерки, статьи и рецензии о творчестве писателя,– Ф.: «Кыргызстан», 1975.
8. Айтматов, Ч. Т. Эхо мира.– М.: Правда, 1985.
9. Айтматов, Ч. К международным проблемам // Зонтаг. 1973. № 52.
10. Носиров, К. «Имандуу адам» Чингиза Айтматова / Манас и Айтматов, – Наманган, 2019.

“АВЕСТО” – ТАРИХИМИЗ ВА МАЪНАВИЯТИМИЗНИНГ ИЛК ЁЗМА МАНБАИ

Ўролов Асилбек Абсалом ўғли
ЖДПУ Тарих йўналиши 2-босқич магистранти

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон тарихининг илк нодир ёзма манбаси “Авесто” ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Зардўштийлик, Ясна, Яшт, Виспарад, Видевдат, Сел – Унғур, Кўлбулоқ, Авесто, Ахура Мазда, Арянем – Вайжах, Спитома, Фрагард.

Аннотация. В данной статье рассказывается о первом редком письменном источнике по истории Узбекистана «Авесте».

Ключевые слова: зороастризм, Ясна, Яшт, Виспарад, Видевдат, Сель-Унгур, Колбулок, Авеста, Ахура Мазда, Арьянем-Вайджах, Спитома, Фрагард.

Annotation. This article talks about the first rare written source of the history of Uzbekistan "Avesta".

Key words: Zoroastrianism, Yasna, Yasht, Visparad, Videvdat, Sel – Ungur, Kolbuloq, Avesta, Ahura Mazda, Aryanem – Vaijakh, Spitoma, Fragard.

Малумки Ўрта Осиё халқлари тарихи жуда қадимий ҳисобланади. Унинг тарихи қадимги тош даврининг ашель босқичига (бундан 1 миллион – 200 минг йил оралиғи) бориб тақалади. Бу даврга тегишли археологик обидалар Ўзбекистон ҳудудларида Селунғур ва Кўлбулоқ ёдгорликлари мисолида ўрганилган. Селунғурда ҳатто илк аждодларимизнинг меҳнат қуроллари билан бирга одам суяк қолдиқлари ҳам топилган. У тарихда Фергантроп номи билан маълум бўлиб, унинг йил санаси 1 миллион йил, ҳатто ундан ҳам қадимийроқ сана билан белгиланмоқда7.

Ўрта Осиё, жумладан, Ўзбекистон ҳудудларида кишилик тарихининг Фергантроп одамидан кейин ўтган аждодлар тарихининг барча давр ва босқичларига оид ёдгорликлар ҳам топиб ўрганилган. Бу кўп асрлик тарихнинг юздан тўқсон тўққиз фоизи археологик манбалар асосида ўрганилади. Чунки, у даврларда ёзув бўлмаган. Ўрта Осиё халқлари қадимги тарихи ҳақида илк маълумот берувчи дастлабки манба – Авесто бўлиб, биринчи бор унинг “Видевдат” китобида Ўрта Осиёнинг қадимги вилоятлари ва халқларининг номлари тилга олинади.

Дарҳақиқат, “Авесто” ўлкамизда ислом дини ёйилгунига қадар (милодий VIII асргача) аждодларимиз эътиқод қилган зардўштийлик динининг

[7] А.Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т., Ўзбекистон, 2015, 91-б.

муқаддас китоби бўлган8. Бу китоб аждодларимиз яккахудоликка иймон келтиргунларича узоқ ўтмишдан бошлаб маънавий изланиш, ўзликни англаш йўлида босиб ўтган тафаккур босқичларининг меваси сифатида бизгача етиб келган буюк меросдир.

Зардўштийлик дини одамларга бу дин ҳақида хушхабар келтирган пайғамбар Заратуштра номи билан боғлиқ ҳолда шартли равишда шу ном билан аталиб келинади. Аслида "Авесто" китобида бу дин "маздаясна дини" деб аталган. Бу сўз "Маздага сиғинмоқ" деб таржима қилиниб, Мазда сўзи "донишманд, ақлли" маъносини англатади.9

Барча эзгу борлиқ Мазданинг иродаси билан яратилган, деб эътиқод қилинган. Мазда сўзи олдига Ахура – "улуғлаш" сўзи қўшилиб, зардўштийликнинг илоҳи худоси Ахура Мазда номи пайдо бўлган. Маздаясна (зардўштийлик) дини ўлкамизда ислом дини ёйилиши жараёнида, хусусан, VIII асрдан кейин расмий дин сифатида сўна бошлаган. Унинг муқаддас китоби, аждодларимиз исломга қадар яратган кўплаб китоблар қатори, йўқола ва унутила бошлаган.

Зардўштийлик дини мил.авв. VII-VI асрларда вужудга келган. Энг қадимий маънавий қадриятлардан бири бўлган зардўштийлик дини Ўрта Осиё, Эрон, Озарбайжон, Хоразм ва бошқа Шарқ халқларининг маънавий юксалишида муҳим аҳамиятга эга бўлган10.

Бу диннинг бош ислоҳотчиси Спитома Заратуштра бўлган. У афсонавий шахс эмас, балки тарихий шахс эди. Заратуштра номи "кекса туя эгаси" ёки "қари туя эгаси" маъносини англатади. Олимларимизнинг маълумотларига кўра, у мил.авв. II минг йилликнинг охири ва I минг йилликнинг бошларида "Арянем Вайжах" юртида Хоразм жуда юксалган бой ва маданий мамлакат бўлган. "Авесто" китобида хоразмликларнинг яшаган юрти "Арянем Вайжах", яъни арийлар юрти деган маънони англатган11.

Заратуштра таълимотининг олдинги эътиқодлардан фарқи ва моҳияти немис эроншуноси Г.Хумбах томонидан қуйидагича таърифдаланади: "... Аввалгилардан фарқли, сигирга сиғинувчи ҳамма коҳинлар ва брахманларни маҳв этган, Заратуштрани энг буюк диний ислоҳотлардан бирига айлантирган ғоянинг моҳияти нимада эди? У дунё ўз мавжудлигининг сўнгги босқичига бевосита яқинлашганлиги, энди эзгулик ва ёвузлик бир-биридан

[8] Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 1-жилд. Энг қадимги ёзма манбалар. Авесто. Т., Фан, 2014, 124-б.
[9] А.Аскаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т., Ўзбекистон, 2015, 91-б.
[10] Тарих ва қадриятлар. Т., 2015, 45-б.
[11] Матниязов М. Хоразм тарихи. Хоразм Урганч. 1997.

ажралганлиги тўғрисидаги тасаввурда мужассамлашган эди. Бу тасаввурни инсониятга Заратуштра берди”12.

Дарҳақиқат, зардўштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто” бизгача тўлиқ етиб келмаган. Унинг Ясна, Яшт, Виспарад, Видевдат деб аталган китобларидан парчалар етиб келган. “Авесто”нинг “Видевдат” китоби 22 боб бўлиб, Авесто қисмлари орасида бирмунча ёш, лекин тўлиқ сақланган китобдир. Унинг боблари “Фрагард” деб аталган. Фрагардларда Ахурумазда яратилган 16 та вилоятлар, жумладан Хваризам (Хоразм), Гава Суғудда (Суғд), Моури (Марв), Бахди (Балх) ҳақида, деҳқончилик ва чорвачиликнинг савобли шарофатлари ҳақида маълумотлар берилган.13

“Авесто” қадимий тарих, дин, этнография, ахлоқий-фалсафий қарашлар, космогония, илоҳиёт ва бошқа кўплаб соҳалар учун қизиқарли маълумотлар бера олади. Шу билан бирга “Авесто” моҳиятан илк бадиий ижод ва адабиёт обидасидир.

Унинг таркибида энг қадимги асоитралримиз, ривоятлар, қаҳрамонлик достонлари мавжуд. “Авесто”нинг асотирий образлари тизимидан ўрин олган Хушанг, Тахмурас, Жамшид, Каюмарс, Фаридун, Заҳҳок ва бошқалар ўрта аср достончилиги ва адабиётига ҳам кириб келган. Кайхусрав, Афросиёб, Сиёвуш, Рустам, Суҳроб ва бошқа сиймолар асрлар оша яшаб келмоқда.

“Авесто”да зардўштийликнинг энг муҳим ахлоқий ғояси бундай ифода топган: агар эзгу борлиқни яратган Ахурамазда қабоҳат дунёсини яратувчи Ахриман устидан ғолиб бўлиб, инсоният адабий бахту саодатга эришсин десанг, эзгу фикр юргиз, эзгу сўзингнигина сўзла, эзгу ишлар билан банд бўл. Ҳаётида шу уч қоидага амал қилган одам қабоҳат, ёвузлик йўлига оғиб кетмайди. Бу эса энг оддий ҳаётий мақсад – ҳақ йўлдаги ягона мақсад бўлмоғи керак. Зардўштийлик инсон эркин танлаш орқали эзгулик ёки қабоҳат томонида туриши мумкин, дейилади.14

Хулоса қилиб айтганда, Авестодаги қадимги географик ҳудудий тушунчалар – этник қабилалар ва вилоят номлари, ижтимоий ва иқтисодий муносабатлар, Авесто жамиятининг ижтимоий таркиби Ўрта Осиё халқлари этногенези ва илк давлатчилик тарихи учун ноёб манбадир. Унда ўзбек ва тожик, форс ва афғон, озарбайжон ва бошқа халқларнинг ибтидоий ва қадимий илоҳий тасаввурлари, коинот ва ердаги дунёнинг яратилиши билан

[12]Кляшторный С.Г., Султонов Т.И. Казахстан. Летопись трех тысячелетний. http://pddabut.com/d.php?id=34693.стр.19.

[13] Исҳақов М. Эзгу ўй, эзгу сўз ва эзгу амал. “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. Т., 2000, 14-17-бетлар.

[14] А.Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т., Ўзбекистон, 2015, 94-бет.

боғлиқ тушунчалар, афсона ва ривоятлар, фалсафий-ахлоқий қарашлар ўз аксини топган.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998.
2. А.Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т., Ўзбекистон, 2015.
3. Исҳақов М. Эзгу ўй, эзгу сўз ва эзгу амал. “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. Т., 2000.
4. Кляшторный С.Г., Султонов Т.И. Казахстан. Летопись трех тысячелетний. http://pddabut.com/d.php?id=34693.стр.
5. Матниязов М. Хоразм тарихи. Хоразм Урганч. 1997.
6. Тарих ва қадриятлар. Т., 2015.
7. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 1-жилд. Энг қадимги ёзма манбалар. Авесто. Т., Фан, 2014.

VULFILA VA UNING FAOLIYATI

Shakirova Yulduz
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Vulfila va uning faoliyati, qarashlariga doir fikr-mulohazalar aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada gotika alifbosining asoschisi bo’lgan Vulfilaning diniy qarashlarini ham yoritib berdik.

Kalit so’zlar: faoliyat, din, diniy qarashlar, gotika alifbosi, yepiskop, zakovat, aql-idrok, odob-axloq, ilm, adabiyot.

Izoh. Maqolada Vulfila va uning faoliyati va qarashlari haqidagi fikrlar aks ettirilgan. Bundan tashqari, biz vulfila diniy fikr qoplangan, general alifbosi asoschisi.

Kalit so'zlar: tarbiya, din, diniy qarashlar, gotika alifbosi, aql, aql, axloq, fan, adabiyot.

Kirish. O’rta asrlarda ijod qilgan yozuvchilarning asarlarini o’qish, uqish, o’rganish, anglash bugungi o’zbek ziyolisining ma’naviy ehtiyojiga aylandi. Boshqacha qilib aytganda, Respublikamizda har bir davr haqida to’laqonli o’rganish uchun barcha imkoniytlar yaratildi. Chunonchi, muqaddas ilohiy kitob Qur’onni o’qish, Hadislarni o’rganish, islom ta’limotini yoritgan olimlar, pirlar, aziz-avliyolar hayoti va faoliyatiga doir manbalardan xabardor bo’lish sharoitlari muhayyo qilindi. Bir necha jildli lug’atlar taqdim etildi.

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, ―Inson – tabiat gultoji. Shunday ekan, inson o’z aql-idroki, fahm-farosati, bilim va tajribasi, ong-u shuuri, teran tafakkuri, musaffo tuyg’usi, pokiza qalbi kasb-kori, hunari, fidoiyligi, vatanga sadoqati,

insonlarga mehr-muhabbati, oilasiga hurmat-ehtiromi, ota-onasiga qadr-qimmati va samimiy munosabatlari bilan tabiat gultoji bo'la oladi, demoqchi Alisher Navoiy.

Olam sirlaridan voqif bo'lish maftunkor tabiat go'zalliklaridan zavq-shavq olgan hamda bu go'zallikni o'z davri va avlodlar zamonasiga yetkazish uchun uni asrab-avaylagan, yer osti va yer usti boyliklarini tejab foydalangan va kelajak avlod nasibasini ham to'la-to'kis ularga yetkazishni bilgan, olam go'zalligini saqlagan holda uni yanada ko'rkam va obod qilib, kelajak avlodlarga taqdim etishni qat'iy maqsad qilgan insonlargina xilqat toji bo'la oladi, deydi Navoiy. Bunday ulug' vazifalar va maqsadlarni amalga oshirish uchun inson butun umri davomida ta'lim va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Dunyoga kelgan har bir inson u agar yetarli ta'lim va tarbiyaga ega bo'lsa, aql-zakovat bilan ixtirolar, kashfiyotlar yaratadi. O'zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. U dunyoda shunchaki yashab, qup-quruq o'tib ketishni istamaydi.

Bizning ushbu maqolamiz ham o'rta asrlarrda ijod qilgan Vulfila va uning faoliyati bilan bo'g'liqdir. Vulfila (Ulfila; готск. /Wulfila, qadimgi yunoncha: Οὐλφίλας, Οὐρφίλας nὺlilulas, nὺrfilias, lotincha: Ulfilas, Vulfilas, Gulfilas, UlphilasUlfilas, Vulfilas, Gulfilas, Ulfilas) - yepiskop, gotika alifbosini yaratuvchisi.

360-430-yillar, u naslli oiladan emas edi, balki kichik Osiyoga, Sadogoltinlarga reyd paytida Dunay gotlar (taxminan 267-yil) tomonidan olib borilgan Kapadokiya aryanlaridan asir bo'lgan. Biroq, uning oilasi yangi muhitga juda yaqin bo'lganligi shubhasizdir, shuning uchun mamlakatda tug'ilgan va tarbiyalangan Vulfilaning o'zi gotika millatiga a'zo bo'lishi mumkin. Bu uning Gothic nomi bilan ham ko'rsatilgan.

Dorostol yepiskopi (ya'ni Silistra) uning shogirdi Avksentiyning so'zlariga ko'ra, Vulfil o'ttiz yoshga to'lgunga qadar visigot yeridagi bir nechta xristian cherkovlaridan birida o'quvchi bo'lgan.

Taxminan 341-yilda u vatandoshlari tomonidan imperator Konstansiyaga yuborilgan elchixonada qatnashdi. Konstantinopolda bo'lganida, u got yepiskop etib saylandi va 341-yil bahoridaEusebius Nikomedius tomonidan tayinlandi.

Vataniga qaytib, u faol ravishda nasroniylikni targ'ib qildi. Visigot mamlakatida 348-yil atrofida Visigot knyazlarining eng qudratli Atanarix tomonidan nasroniylarni ta'qib qilish boshlanganida, Vulfil o'zining dindorlarining boshida bo'lib, Tuna orqali meziyaga olib keldi. Imperator konstansiya muhojirlarni juda mehr bilan qabul qildi va Nikopol yaqinidagi yerlarni olib ketdi, u yerda ular Vulfilning o'zi va uning o'limi bilan uning vorislari bo'lgan patriarxal

tuzum bilan jamoa qurdilar. 360-yilda u ehtimol Konstantinopoldagi Arian soborida qatnashgan.

Pravoslavlik yana arianizm ustidan g'alaba qozonishni boshlaganida, Vulfila, o'z xohishiga ko'ra, butun umri davomida imperator Teodosiyni pravoslavlik va arianizm o'rtasidagi nizoni hal qilish uchun soborni chaqirishga undashga urinib ko'rdi. 381-yilda arianlarga imon masalalari bo'yicha bahs-munozaralar taqiqlangan qonun chiqarildi. Shunga qaramay, 383-yilda Teodosius Arianizmni pravoslavlik bilan yarashtirishga urinib ko'rdi va Konstantinopoldagi soborni chaqirdi — unga Vulfila taklif qilindi. Konstantinopolga kelib, u bu erda, ehtimol 383-yil yozida vafot etdi. Boshqacha qilib aytganda, uning o'limi 381-yilda sodir bo'lgan.

Simeon Metafrast Vulfil haqida juda ko'p gapiradi va uni ilmiy va dono odam deb ataydi. Simeonning xabar berishicha, Vulfila 325-yilda Nikey soborida birinchi episkop tayyor Teofil bilan birga bo'lgan va keyin Vulfila 381-yilda birinchi Konstantinopol sobori yig'ilishlarida qatnashgan.

Vulfila o'z xalqining tarixida muhim rol o'ynaydi. Uning havoriysi tayyor, buyuk Konstantinning o'g'li imperator Konstantiy "Muso tayyor"deb nomlangan. Ajoyib iste'dodlar va keng stipendiya (u uchta tilda yozgan va va'z qilgan: gotik, yunon va lotin) unda ajoyib energiya bilan bog'langan. Cho'ponlik faoliati bilan cheklanib qolmasdan, u muhim siyosiy rol o'ynadi.

Vulfilning diniy qarashlari

Vulfilning episkop xizmati 341-yildan boshlanadi. Bu davrda imperator konstansiya (361-yilda vafot etgan) Nikaik e'tiqodining o'rniga "monosussiya" atamasi bilan 341-yilda Antioxiya soborida to'rtta dogmatik formulalar qabul qilindi va arianizmning kech shakli, unga ko'ra o'g'il mavjud emas, abadiydir, ammo otasiga bir xil emas, Vizantiyada rasmiy e'tiqodga aylanadi. 359-yilda Ariminskiy soborida ota, o'g'il va Muqaddas Ruh haqidagi mohiyat va gipostaz atamalarini noma'lum va vasvasaga solmaslik to'g'risida qaror qabul qilindi, chunki ular yozuvlarda yo'q.

O'g'ilga nisbatan Vulfilning e'tiqodi-bu anomaliya va erta ariya ta'limoti va Omiya ta'limoti o'rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi. Vulfilning o'g'li jonzotni (yaratilishni) chaqirmaydi, biroq ayni paytda omievning ta'limotini inkor etadi — o'g'ilning otasiga o'xshashligi: "men otaning yagona Xudosiga ishonaman, bunday narsaga ega emasman". Muqaddas Ruhga nisbatan vulfilning e'tiqodi-bu ruhshunoslarning ta'limotidir, bu esa izchil bo'ysunish tamoyilini belgilaydi — Ruh o'g'liga va o'g'lining otasiga bo'ysunadi: "men [Muqaddas Ruh] Xudo yoki Rabbiy emas, balki Masihning sodiq xizmatchisi, teng emas, balki butun o'g'liga bo'ysunuvchi va itoatkor, o'g'li esa unga bo'ysunadi va butun otasiga itoat qiladi.

Rus cherkov tarixchisi V. ga ko'ra.N.Samuilova. Vulfilning diniy tizimi muhim nuqtalarda va terminologiyada Kesariyaning Evseviy diniy tizimiga yaqin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Vulfilaning faoliyati va diniy qarashlari juda muhim hisoblanadi. U o'zining diniy qarashlarida davr adabiy muhitidan, individual hissiy kechinmalaridan ta'sirchan foydalanadi. O'z qarashlarini muayyan obrazlarda tasvirlaydi, qiyoslaydi, badiiy jihatdan mukammalshtiradi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmon Primqulov. Iztriob inkishofi yoxud Vulfila portretiga chizgilar. Ikkinchi nashr. Toshkent. 2015.- 75-b.
2. Damin To'rayev. Yoshlik adabiy-ijtimoiy jurnali [4-son, 2014. 276-b.] ning —Tadqiqot ruknida chop etilgan maqolasi (Vulffila ijodi xususida)
3. Nargiza Boymuratova. Yoshlik jurnali. Toshkent: 2013-yil. 9-son
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil.
5. Quronov D. Yo'l esdaligi. Toshkent: Sharq yulduzi. 1998. 1-son. -B. 162.

O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. BOSH VA QARATQICH KELISHIKLARI QIYOSI

M. Xudayarova
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots.

Usanova Qademay Muratbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda
o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi
qademayusanova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning kelishik kategoriyasi, bosh va qaratqich kelishiklarni qiyoslash, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Kelishik, bosh, qaratqich, qaralmish, kesim, ega, payt, nomlash, belgi, munosabat.

Аннотация. В данной статье рассмотрены категории спряжения существительных в узбекском, русском и каракалпакском языках, их сравнение, сходства и различия.

Ключевые слова и понятия: Спряжение, голова, предлог, предлог, причастие, причастие, время, имя, знак, отношение.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pıshıq) (bola-ребёнок-bala, qush-птица-qus*), narsa, predmet va

hodisalarni *(sut-молоко-su‘t), (yomg‘ir-дождь-jawın), (daftar-метрадь-da‘pter, kitob-книга-kitap), (majlis-собрание-jıynalıs)* ataydi.

Ot (yoki otlashgan so‘zning) boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltitda grammatik ma’no va uni ifoda etuvchi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bularga bosh, qaratqich, tushum, jo’nalish, o’rin-payt va chiqish kelishiklarining grammatik ma’nolari hamda bu grammatik ma’noni ifodalovchi –ning, -ni, -ga(-ka, -qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o‘z nomi, ifoda shakliga ega, ma’lum so‘roqlarga javob beradi. [15]

Har 3 tilda so‘zlarning birlik, bosh kelishik shakli dastlabki shakl bo‘lib, otlar lug‘atga shu shaklda kiritiladi.

Bosh kelishikdagi so‘z har 3 tilda ham ega vazifasini bajarib keladi: Professor leksiya o‘qiyapti. – Профессор читает лекцию. – Professor lekciya oqıp atır. Mashina to‘xtadi. – Машина оствнвыилось. – Mashina toqtadı.

Bosh kelishikdagi ot kesim bo‘lib ham keladi: Pushkin – ulug‘ rus shoiri. – Пушкин – великий русский поет. – Pushkin ulli rus shayırı.

Qoraqalpoq tilida bosh kelishikdagi otlar o‘zbek va rus tillaridan farqli tomoni otlar gapda ega va kesimdan tashqari bir qancha quyidagi sintaktik birliklarda qo’llaniladi:

Ikkita kesimning biri bo‘lib keladi: Masalan: O‘mirdegi en‘ u‘lken baxit jaqsi jasaw emes, jaqsi dos tabiw, xaliqtin xaliqqa *dos boliwi*.(T.Q.).

Atash ma’nosida keladi: *Iyul ayı. Tu’n.* Da‘ryanin’ jag‘ası sıg‘asqan keme.(K.S.)

Qaratqich a’zo bo‘lib keladi: Shıg‘ar kunnen u‘mitlenip jasa, *Sere* (T.Q.).[16]

O‘zbek tilida qaratqich kelishigi *–ning* affiksini oladi. Bu kelishikdagi ot quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigida kelgan ot *kimning? nimaning? qayerning*? kabi so‘roqlardan biriga javob beradi.

-ning affiksi bilan shakllanadi. Masalan: Bilim va donishmandlik insonning bezagidir (A.Navoiy).

Qaratqich kelishigi ikki xil - belgili yoki belgisiz shaklda qo‘llanadi.

Qaratqich kelishigi -ning (-n) affiksi bilan qo‘llansa, belgili sanaladi. Belgili qaratqich kelishigidagi ot aniq qarashlilik ma’nosini ifodalaydi: daraxtning ildizi, onaning baxti kabi. Qaratqich kelishigi -ning affiksi bilan qo‘llanmasa, belgisiz

[15] Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent , 2007 . - B. 87-88.
[16] Da‘wletov A va boshqalar. Ha’zirgi qaraqalpaq a‘debiy tili. – No’kis, 2010. - B. 102-103.

sanaladi: umid uchquni, bahor fasli kabi. Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o‘zi bog‘lanib kelgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan predmetga aloqador hodisa ekanligini ifodalaydi.

Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o‘zi bog‘langan ot bilan ma’no va grammatik jihatdan juda zich bog‘langan bo‘lib, ular orasiga boshqa so‘z kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qo‘llanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot shaxs otlari bo‘lganda: *Zulfiyaning xati, talabaning bahosi* kabi.

2 .Butunning qismini anglatgan otlar: *uzukning ko‘zi, stolning oyog‘i* kabi.

3.Qaratqich kelishigidagi so‘z o‘zi bog‘langan otdan anglashilgan

predmet bilan o‘zaro genetik aloqada bo‘lsa: *buvining nevarasi, sherning bolasi* kabi.

4.Qaratqich kelishigidagi so‘z manba ma’nosini ifodalaganda: *olimning ma’ruzasi, talabaning fikri* kabi.

5.Qaratqich kelishigidagi so‘z bilan qaralmish o‘rtasida boshqa so‘zlar kelganda: *shaharning baland imoratlari, yozning issiq shamoli* kabi.

6 . Qaratqich kelishigida ot o‘zining maxsus aniqlovchisiga ega bo’lganda: *alo’chi o‘quvchining xulqi* kabi.[17]

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgisiz qo’llanadi:

1. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot abstrakt otlar bilan ifodalanganda: *muhabbat sehri. bilim manbai. ilm ahli, tafakkur gulshani* kabi.

2. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi otlar payt ma’nosini anglatganda: *bahor fasli. oqshom payti. tong chog‘i, yakshanba kuni* kabi.

3. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot ifodalagan predmetning qaralmish ifodalagan predmetga umumiy xosligini bildirganda: *ipak qurti, er islohoti* kabi.

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot nomiga qo‘yilgan, atab qo‘yilgan otlar bilan ifodalanganda: *Navoiy teatri. Orol dengizi, Toshkent shahri* kabi.

5. Qaratqich kelishigi shaklidagi otlar bir-biriga tobe holda birin-ketin kelganda, eng so‘nggisidagi oldingilari belgisiz shaklda qo’llanadi: *Toshkent Davlat pedagogika universiteti, boshlang‘ich ta'lim va defektologiya fakulteti boshlang‘ich ta 'lim bo‘limining talabasi* kabi.[18]

Rus tilida (родительный падеж) qaratqich kelishigining ishlatilish doirasi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi ishlatilish doirasidan ancha keng. Ular quyidagicha:

[17] Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent , 2007 . - B. 90.
[18] O‘sha asar. - B. 91.

Bir predmetning boshqa predmetga qarashli ekanligini bildiradi. Bunday ma’noni o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ham ko‘rish mumkin: otamning uyi – дом моего отца – a‘kemning u‘yi, o‘qituvchining portfeli - портфель учителя – oqıtıwshınıng portfeli.

Predmet ma’nosini anglatadigan so‘znining belgi ma’nosini anglatadigan ot bilan bog‘lanishida ishlatiladi. Bunday munosabat o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ham qaratqich kelishigi bilan ko‘rsatiladi: olmaning mazasi – вкус яблока – almanıng da‘mi. ko‘lning chuqurligi – глубина озера – ko‘ldin‘ shuqırlıg‘ı.

Predmetlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini bildiradi. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida bunday ma’no odatda belgisiz qaratqich kelishigi bilan ifodalanadi: maktab direktori – директор школы – mektep direktorı, kolxoz raisi – председатель колхоза – kolxoz baslıg‘ı.

Agar harakat predmetning bir qismigagina o‘tsa, unda predmetni anglatgan so‘z rus tilida qaratqich kelishigida ishlatiladi, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida esa bu ma’noni ifodalash chiqish kelishi orqali ishlatiladi: *sutdan iching – выпейте молока – su’tten ishin‘* kabi.

Нет so‘zi bilan birikib kelgan ot rus rilida qaratqich kelishigida ishlatiladi, o‘zbek tilida *yo‘q*, qoraqalpoq tilida *joq* so’zi bilan birikib kelgan ot bosh kelishikda bo’ladi: *Stol ustida kitob yo‘q – на столе нет книги –stol u‘stinde kitap joq. Kinoga borish uchun vaqtim yo‘q – У меня нет времени пойти в кино – Kinog‘a barıw ushun waqtım joq* kabi.

Rus tilida fe’lning bo‘lishsiz shakli ham unga bog‘langan otning qaratqich kelishigida bo‘lishini talab qiladi, o‘zbek va qoraqalpoq tilida esa bo‘lishsizlik otning kelishigiga ta’sir qilmaydi. *Yosh gvardiyachilar qo‘rqichni bilmas edilar. – Молодо гвардейцы не знали страха. – Jas gvardiyashılar qorqıwdi bilmes edi.*

Rus tilida ikki va undan ortiq miqdorni anglatuvchi sanoq son bilan, много, мало, столько, несколько kabi so‘zlar bilan birikib, kelgan ot qaratqich kelishigida ishlatiladi; o‘zbek va qoraqalpoq tillarida esa bunday hollar otning kelishigiga ta’sir qilmaydi: ikkita stol – два стола – eki stol, ikkita daftar – две тетради – eki da‘pter, uch student – три студента – u‘sh student, ko‘p vaqt – много времени – ko’p waqıt, bir necha student – несколько студентов – bir neshe student . . .

Rus tilida без, от, из, с, до, для, у, из-за, кроме, после, среди, около, возле kabi old ko‘makchilar qaratqich kelishigidagi ot bilan birikib keladi. Qaratqich kelishigidagi so‘z bilan ishlatiladigan ko‘makchilar o‘zbek va qoraqalpoq tillarida deyarli yo’q. Misollar orqali qiyoslaymiz: Rustam diktantni xatosiz yozdi. – Рустам написал диктант без ошибок. – Rustam diktanttı qa‘tesiz jazdı. Mashina darvoza oldida to‘xtadi – Машина останавилось у ворот. – Mashina da‘rwaza

aldinda toqtadı. Maktabimiz yonida katta fabrika bor. – Около нашей школы есть большая фабрика. – Mektebimiz qasında u‘lken fabrika bar. Yashil yog‘ochdan yasalgan stol. – Стол из зелёного дерева. – Jasıl ag‘ashtan islengen stol.[19]

Qoraqalpoq tilida (iyelik sepligi) qaratqich kelishigi affikslari –nın‘/nin‘, -dın‘/-din‘, -tın‘/tin‘ bo’lib hisoblanadi. Qaratqich kelishigidagi otlar kimnin‘?, nenin‘?, kimlerdin‘?, nelerdin‘? savollariga javob berib, bir predmetning ikkinchi predmetga tegishliligini, uning egasini bildiradi: jazdın‘ ku‘ni, eriktin‘ gu‘li ha‘m t.b.[20]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bosh va qaratqich kelishigi bir-biriga juda yaqin. Faqat qoraqalpoq tilidagi bosh kelishik o‘zbek va rus tillaridan ko‘proq ma’no ifodalaydi. Rus tilida qaratqich kelishigining ishlatilish doirasi o‘zbek va qoraqalpoq tillariga qaraganda kengroq. Bu o’z navbatida tilni qiyoslab o‘rganishda boshqa millat vakillari uchun ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Grammatika qiyin bo‘lganligi bilan, tildagi rang-baranglikni o‘zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov O va boshqalar O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.1965.
2. Da‘wletov A va boshqalar Ha‘zirgi qaraqalpaq a‘debiy tili. No‘kis: “Bilim” nashriyoti.2010.
3. Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2007 .

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBINI YURITISH ZARURATI

Samadova Zarina Zafarjon qizi
O’zbekiston Respublikasi bank moliya akamdemiyasi tinglovchisi
tursunpulatovaz@gmail.com

Hozirgi kunda mamalakatimizda bo’layotgan islohotlarning barchasi yurtimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Ayni damda, fuqarolari ishtirokidagi mahalliy byudjetga yanada e’tibor qaratilgan. Shu sababli budjet ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Openbudget.uz portali ish faoliyati yo’lga qo’yildi. Bu portal orqali esa barcha davlat byudjetining, mahalliy byudjetlarning, davlat maqsadli jamg’armalarining daromad va xarajatlarini kuzatib boorish imkoniyati tug’ildi. Prezidentimizning 2018 yil 22

[19] Azizov O va boshqalar. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent ,1965. - B.31.
[20] Da‘wletov A va boshqalar. Ha‘zirgi qaraqalpaq a‘debiy tili. – No’kis, 2010. - B. 103.

avgustdagi “budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917 sonli Qarori bilan 2019 yildan boshlab budjet mablag‘larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar

budjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyayev shunday degan edilar: “Mahalliy byudjetda qancha ko'p daromad bo'lsa, dolzarb ijtimoiy masalalarni shuncha tezkorlik bilan hal qilish mumkin”21. Bundan ko’rinidaki, mahalliy byudjet daromadlari ko’plab masalalarni hal qilishda roli katta ekan, uning hisobini yuritish ham shu qadar muhimdir. Chunki har bir tiyin xalqimiz uchun kerak, shu bois, daromadlar hisobini yuritishda xató qilmasligimiz zarurdir.

Har bir viloyat, tuman yoki shahar mahalliy budjetining moliyaviy barqarorligi bevosita uning daromadlari va xarajatlarining tarkibiy tuzilmasi va miqdoriga bog‘liq. Mahalliy budjetlar daromadlarining shakllanish miqdori uning xarajatlariga nisbatan yetarli bo‘lsa, bunday mahalliy budjet moliyaviy barqaror budjet sanaladi. Shundan kelib chiqib, biz endi mahalliy budjetlarning daromadlari manbalari va ularning tarkibini ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining 22

Mahalliy byudjet daromadlari g’azna ijrosi hisobining maqsadi – foydalanuvchilarni Mahalliy byudjet daromadlarining g’azna ijrosi holati haqida ma’lumotlari ta’minlashdir.

Mahalliy byudjet daromadlari g’azna ijrosi hisobining vazifalari:

[21] https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/byudjet-va-eksport-tushumlari-ijtimoiy-soha-rivojining-muhim-manbai.html
[22] S.Mexmonov, I.Qo’ziyev, A.Kuliboyev, A.Ostonokulov BYUDJET G’AZNA IJROSI HISOBI Darslik TOSHKENT-2019

- ✓ Mahalliy byudjet daromadlari g’azna ijrosini amalga oshirish va natijalarini shakllantirish;
- ✓ Mahalliy byudjet daromadlari g’azna ijrosi jarayoni muomalalarini hujjatlashtirish yordamida ro’yhatga olish;
- ✓ Mahalliy byudjet daromadlari g’azna ijrosi jarayonida buxgalteriya hisobvaraqlarda byudjet mablag’larini holati va harakatini aks ettirish.

Mahalliy byudjet daromadlarining tasnifi Mahalliy byudjet hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat. Ya’ni, daromadlar tasnifi yordamida Davlat byudjetiga kelib tushayotgan barcha ko’rinishdagi daromadlar va tushumlarni turlari, kimlardan kelib tushayotganligi va respublikamizning qaysi hududlaridan kelib tushayotganligi to’g’risida yetarlicha aniq ma’lumotlarni olish mumkin.

Yigirma bir koddan iborat bo’lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to’rt qismli ko’rinishga ega:

- ✓ mablag’lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi;
- ✓ daromadlar turi;
- ✓ tashkiliy tasnif
- ✓ hududiy tasnif.

1-jadval

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko’rinishga ega:

Mablag’lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi	Daromadlar turi	Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif
XXXXXXX	XXXXXXX	XXX	XXXXX

Tekshirilgan hujjatlar kunlik ravishda daromadlar turi bo’yicha dasturiy majmuaga budjet tasnifining har bir kodi bo’yicha kiritiladi.

Budjet tasnifi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2010 yil 20 avgustda Moliya vazirining 65-son buyrug’i bilan tasdiqlangan hamda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro’yxatga olingan “O’zbekiston Respublikasi Budjet tasnifini qo’llash bo’yicha Yo’riqnoma” bilan tartibga solinadi

Mahalliy byudjet daromadlari hisobini alohida xususiyatlari buxgalteriya hisobi vazifalariga qo’shimcha yanada aniqroq vazifalar kiritilishini talab etadi. Ya’ni tasdiqlangan budjet ijrosini to’g’ri tashkil etish, moliya-budjet intizomiga rioya qilish va boshqalar.

PROSPECTS OF LOCAL BUDGET REVENUE FORMATION AND INCREASE EFFICIENCY

Samadova Zarrina Zafarjon qizi
Banking and finance of the Republic of Uzbekistan academy listener
tursunpulatovaz@gmail.com

Today, the socio-economic development and liberalization of our country, the sustainable development of the economy using an effective tax-budget policy, macroeconomic stability and the implementation of reforms aimed at increasing the competitiveness of the national economy are becoming important.

To continue the process of decentralization of state administration, to increase the responsibility of local and regional authorities in the implementation of state policy, to gradually transfer the powers of republican state authorities to local state authorities, as well as the powers of regional state authorities. district and city government.

As the President of the Republic of Uzbekistan noted:23 "It is necessary to expand the income base of the local budget due to the proportional development of sectors and regions in the financial sector. cities should serve to improve the standard of living and living conditions of the population, stability and peace in general.

In terms of ensuring the financial stability of the regions, strengthening the financial base of the regions, expanding the revenue part of the local budgets, the work in this regard is one of the priority tasks. , as well as reducing such areas due to rapid development of industry and service sectors in subsidized regions and cities.

At the level of local budgets, the priority tasks of the tax budget are to fundamentally strengthen the revenue base of local budgets by combining them with special types of taxes and other mandatory payments, to exclude regional, city and district budgets from subsidies and to gradually implement them. policy, reducing dependence on the distribution of high-income budgets, on this basis, solving the issues of socio-economic development of regions by local government bodies is defined as increasing land resources and systematically identifying additional reserves. and increase the income of local budgets.

The development of scientific proposals and practical recommendations is of great importance in the implementation of measures to increase the revenues of local budgets, achieve effective use of local budgets' expenses, ensure the

Mirziyoev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of activity of every leader. - T.: "Uzbekistan", 2017. - B.

sustainable development of regions, and further increase financial independence. and accountability of local government bodies.

In federal states, about 35% of local budget revenues are formed from taxes

(Switzerland is significantly different - there taxes make up 58% of municipal revenues). In Australia, Canada, and the United States, property tax revenue (taxing its market value) is an important part of local budgets. In Switzerland and Germany, the local budgets are dominated by the personal income tax, which is determined entirely at the federal level in Germany and partly at the local level in Switzerland. Indirect taxes play an important role in the US only at the domestic level. Russia is closest to Germany in terms of the size of its tax powers and the structure of municipal revenues, but, nevertheless, more taxes fall on local budgets.

Ensuring the stability of local budget revenues, as well as effective use of local budget expenses, depends on both economic and legal factors. Some economists recognize that these factors can be achieved by increasing the powers and responsibilities of local government bodies, and some economists recognize that they can be achieved by achieving a balance between income and expenditure. In particular, according to A. Islamkulov, local budget revenues, on the one hand, are the result of the distribution of the value of the gross domestic product among the participants of the production process, and on the other hand, this value is considered. and serves to form a fund of local importance.

M. Haydarov emphasized that the decentralization of budgets of the budget system is related to the implementation of a number of measures aimed at ensuring the balance between budget revenues and the authorities of different levels of management bodies in terms of budget expenditure obligations. As a result of decentralization, the organization and provision of public services is ensured in such a way that they must ensure full satisfaction of the needs of the local population.

Revenues of local government bodies and state budget revenues are incomes that support the permanent population and whose revenues are received in the country.

On the basis of the opinions and comments expressed by the above scientists and economists, the current financial aspects of increasing the income of local budgets and optimizing expenses in the current conditions were studied. Also, on the basis of decentralization, the ways of forming the financial resources of the local state authorities and encouraging the rational use of the economic potential of the region were opened.

In our opinion, in order to ensure the stability of the revenues of local budgets and to achieve the efficiency of the expenses of local budgets, it is important, first

of all, to increase the economic potential of the regions and to implement measures to increase the sources of taxation.

Strengthening local budget revenues, stabilizing expenses, expanding the revenue base is one of the urgent issues awaiting a solution. The income base of the local budgets directly depends on the national income generated in the regions, that is, the level of development of production, the constant and gradual decrease of income. The internal reserves of local budget revenue formation are closely related to the development of production in the regions, successful implementation of economic reforms locally. Proper organization of the activities of local state authorities is one of the main requirements for the economic and social development of each region.

In our opinion, the allocation of revenue sources between budgets should be based on the following criteria:

- Unevenly distributed taxes, resource taxes and centralized value added tax, excise tax in accordance with economic stability should be fully added to the taxation base of the republican budget;
- Currently, the main requirements for the development of entrepreneurship and support of small business are assigned to the local state authorities. This determines the necessity of full collection of income tax paid by these enterprises to local budgets;
- Personal income tax should be divided equally between republican and local budgets. Because this tax is collected on the basis of the principle of permanent residence, and the interest of local financial authorities to collect this money increases. On the other hand, these taxes occupy a significant part of the revenues of the republic budget.

Based on the above information, increasing the income of local budgets, implementing measures to ensure their stability, achieving effective use of local budget expenses, as well as increasing the responsibility of local state authorities are the most urgent problems of today.

ЎПКА ГИАЛИН МЕМБРАНАСИДА КУЗАТИЛАДИГАН МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР

Мирзабекова О.А., Нуриддинова Ф.М.
Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент, Узбекистон

Аннотация. Ушбу ишда чала ва етилиб туғилган чақалоқлар ўпкасида ривожланадиган гиалин мембрана хавфли омилларининг учраш даражаси, бир-биридан фарқи ўрганилган. Натижалар кўрсатишича, чала туғилган чақалоқлар ўпкасида гиалин мембрана ривожланишига аксарият ҳолларда

асфиксия 74,5%, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% хавфли омил эканлиги аниқланди. Етилиб туғилган болалар ўпкасида гиалин мембранаси пайдо бўлишининг асосий хавфли омили сифатида ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 %, қандли диабет касаллиги 59,3% даражали ташкил қилди. Етилиб туғилганларда хавфли омил сифатида кейинги ўринларни шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди.

Калит сўзлар: чақалоқ, чала туғилиш, етилиб туғилиш, ўпка, гиалин мембрана, хавфли омиллар.

Неонатологиянинг умумтан олинган муаммоси, бу – респиратор дистресс синдром (РДС) ва унинг морфологик белгиси сифатида бронхопульмонал дисплазия ва гиалинли мембраналар (ГМ) пайдо бўлиши ҳисобланади (1, 2). Ушбу респиратор бузилишларнинг учраш даражаси чақалоқларнинг гестацион ёшига боғлиқ. Гестация даври қанчалик кичик бўлса, бу касалликларнинг ривожланиш хавфи баланд бўлади. Респиратор бузилишлар эрта неонатал ўлимнинг асосий сабаби бўлиб қолмоқда. Нафас бузилиши синдромининг бир кўриниши, бу – гиалин мембраналар ҳисобланади ва у ўпканинг чала ривожланишига, альвеолаларда сурфактантнинг етишмаслигига боғлиқ ҳолда ривожланади (3, 4). ГМ патогенезида – ацидоз ва гипоксия ўпка артерияларини торайтиради, альвеолалар деворини шиширади, сурфактант синтезини тормозлайди, хатто тўхтатади. Ҳомила ёки чақалоқнинг сурункали гипоксияси таъсирида сурфактант синтезловчи II-пневмоцит дифференциалланиши секинлшади ва ГМ пайдо бўлиши тезлашади (5, 6). Ҳомиладорлар гипертониясида ҳомиланинг ўсиши секинлашади, натижада ўпка етилмаган ҳолатда қолиб кетиб, сурфактант кам ишлаб чиқарилади ва ГМ пайдо бўлади.

Материал ва усуллар. Материал сифатида ЎзР ССВ РПАМ болалар ва оналар патологияси бўлимида охирги 5 йил давомида текширувдан ўтган болалар аутопсия текширувининг баённомаси, касаллик тарихи ва ўпка тўқимаси ўрганилди. Текширувга жами 87 та чақалоқлар ўлими материаллари олинди, шулардан 32 таси етилиб туғилганлар, 55 таси чала туғилганлар ташкил қилди. Ҳар бир ҳолатда оналар касаллик тарихидан клиник-анамнестик маълумотлар ўрганилди, болада ателектаз ривожланишига сабабчи бўлган хавфли омиллар таҳлил қилиб чиқилди.

Тадқиқот натижалари. Гиалин мембрана ривожланишининг хавфли омилларини ўрганишда материалимиздаги 2та гуруҳ, яъни чала туғилган ва етилиб туғилган болалар гуруҳида алоҳида-алоҳида тахлил қилиб чиқдик.

Чала туғилган чақалоқлар сони 55та бўлиб, уларнинг 41тасида ҳар хил турдаги асфиксия асосий хавфли омил сифатида 74,5% ҳолатда аниқланди. Кейинги ўринларда гиалин мембрананинг хавфли омили бўлиб, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% кўрсатгични ташкил қилди. Булардан қоғоноқ суви аспирацияси оқибатида нафас йўлларига ва альвеолалар бўшлиғига қоғоноқ суви таркибида ҳар хил оқсилли моддалар тушганлиги сабабли ва альвеоляр тўқимада асфиксия ҳолати ривожланганлигидан гиалин мембраналар пайдо бўлиши кузатилади. Она организмидаги қандли диабет касаллиги оқибатида ҳомила организмида ҳам моддалар алмашинуви бузилиб, жумладан альвеолалар бўшлиғига ишлаб чиқариладиган сурфактант таркибида плазма оқсиллари миқдори кўплигидан гиалин мембрана пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда онанинг қандли диабети 41,8% ҳолларда хавфли омил сифатида аниқланди.

Бизнинг материалимизда она организми артериал гипертензияси 38,2%да аниқланиб, гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сифатида баҳоланди. Ҳомилага она қорнидаги пайтида инфекциянинг юқиши, айниқса Гр+ инфекциялар, жумладан микоплазма таъсирида сурфактант ишлаб чиқарилиши ингибирланади, ўпка тўқимасида метаболик ацидоз муҳити пайдо бўлади, натижада плазминоген дефицити юз бериб, фибринолиз амалга ошади ва таркибий жиҳатдан чала бўлган сурфактантда, фосфолипидлардан ва плазма оқсилларидан биргаликда гиалин мембраналар пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 34,5 % ҳолларда гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сиқатида баҳоланди.

Чала туғилганлар гиалин мембранаси хавфли омиллари орасида асфиксия, қоғоноқ суви билан аспирация, ҳомиланинг қориничи даврида инфекциянинг юқиши ва ўпка гипертензияси юқори даражадаги хавфли омиллар сифатида қайд қилинган бўлса, етилиб туғилган чақалоқларда гиалин мембрана пайдо бўлишига олиб келувчи хавфли омиллардан она қорнида инфекция юқиши, онанинг қандли диабети, шиддатли туғруқ, юрак нуқсонлари нисбатан юқори кўрсатгичларга эга бўлди. Чақалоқ етилиб туғилган бўлса ҳам агар она қорнидаги даврида Гр+ли инфекция юқган бўлса, унинг таъсирида сурфактант ишлаб чиқарилиши ингибирланади, ўпка тўқимасида метаболик ацидоз муҳити пайдо бўлади, натижада плазминоген дефицити юз бериб, фибринолиз амалга ошади ва таркибий жиҳатдан чала бўлган сурфактантдан, фосфолипидлардан ва плазма оқсилларидан биргаликда гиалин мембраналар пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда етилиб туғилган болалар гиалин мембранаси пайдо бўлишига, ҳомилага она

қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 % ҳолларда гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сиқатида баҳоланди. Иккинчи ўринни она организмидаги қандли диабет касаллиги эгаллади ва 59,3% даражали ташкил қилди. Кейинги ўринларни эса шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди.

Бизнинг материалимиздаги иккала гуруҳ маълумотлари қўшилиб, ўртача кўрсатгичлар таҳлил қилинганда қуйидаги натижалар олинди. Энг юқори кўрсатгични асфиксия жараёни эгаллади, яъни ўртача 60,9% даражани ташкил қилди. Кейинги, нисбатан юқори кўрсатгич она организмидаги қандли диабет касаллиги (48,3%) , она қорнидаги даврда инфекциянинг юқиши (45,9%) ва шиддатли туғруқ жараёни (44,8%) ташкил қилди (1-жадвал). Қағоноқ суви аспирацияси (37,9%, ўпка гипертензияси (37,9%) ва чақалоқлар юраги туғма нуқсонлари (34,5%) нисбатан паст кўрсатгичларга эга бўлди.

Шундай қилиб, чала туғилган чақалоқлар ўпкасида гиалин мембрана ривожланишига аксарият ҳолларда асфиксия 74,5%, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% хавфли омил эканлиги аниқланди. Етилиб туғилган болалар ўпкасида гиалин мембранаси пайдо бўлишининг асосий хавфли омили сифатида ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 %, қандли диабет касаллиги 59,3% даражали ташкил қилди. Етилиб туғилганларда хавфли омил сифатида кейинги ўринларни шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шабалов Н.П. Неонатология. Учебное пособие .- М., 2004.-Т.1 С.508-530
2. Милованов А.П. Патология системы мать-плаценты-плод.-М.: Медицина.-1999.-С.448.
3. Глуховец Б.И. Гайворонский И.В. и др. Патогенетические особенности синдрома дыхательных расстройств у новорожденных с экстремально низкой массой тела// Архив патологии.-2005.-Т.67.-№1.-С.3-5.
4. Шабалов М.П. Некоторые аспекты использования сурфактанта у новорожденных с респираторным дистресс-синдромом// Педиатрия, детская хирургия Казахстана.-2006.-№4.-С.16.
5. Ширяева И.С. и др. Функциональная диагностика дыхательной недостаточности у детей// Росс.вестник перинатологии и педиатрии.-1997.-№4.-С.24-31.

6. Самохин П.А., Дель Т.А. Перинатальный патологоанатомический диагноз// Архив патологии.-2003.-Т.65.-№5.-С.54-59.

ЎПКА ГИАЛИН МЕМБРАНАСИ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ХАВФ ОМИЛЛАРИ

Мирзабекова О.А., Нуриддинова Ф.М.
Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент, Узбекистон

Резюме. Ушбу ишда чала ва етилиб туғилган чақалоқлар ўпкасида ривожланадиган гиалин мембрана хавфли омилларининг учраш даражаси, бир-биридан фарқи ўрганилган. Материал сифатида 2017-2021 йиллар давомида РПАМ болалар патологияси бўлимида аутопсия текширувиан ўтган ва ўпкасида гиалин мембрана аниқланган ҳолатларда онасининг клиник-анамнестик таҳлили бўйича хавфли омиллари ўрганилди. Натижалар кўрсатишича, чала туғилган чақалоқлар ўпкасида гиалин мембрана ривожланишига аксарият ҳолларда асфиксия 74,5%, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% хавфли омил эканлиги аниқланди. Етилиб туғилган болалар ўпкасида гиалин мембранаси пайдо бўлишининг асосий хавфли омили сифатида ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 %, қандли диабет касаллиги 59,3% даражали ташкил қилди. Етилиб туғилганларда хавфли омил сифатида кейинги ўринларни шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди.

Калит сўзлар: чақалоқ, чала туғилиш, етилиб туғилиш, ўпка, гиалин мембрана, хавфли омиллар.

Муаммонинг долзарблиги. «Респиратор дистресс-синдром», «нафас бузилиши синдроми» ва «гиалин мембраналар касаллиги» атамалари синонимлар ҳисобланади (1, 2). Бу синдромлар клиник-морфологик жиҳатдан чақалоқларнинг бирламчи ателектази, гиалин мембраналари, аспирацион синдром, шишли-геморрагик синдром кўринишларида намоён бўлиб, уларнинг клиник дифференциал диагностикаси жуда қийин масала ҳисобланади. Ушбу респиратор бузилишларнинг учраш даражаси чақалоқларнинг гестацион ёшига боғлиқ. Гестация даври қанчалик кичик бўлса, бу касалликларнинг ривожланиш хавфи баланд бўлади. Респиратор бузилишлар эрта неонатал ўлимнинг асосий сабаби бўлиб қолмоқда. Нафас бузилиши синдромининг бир кўриниши, бу – гиалин мембраналар ҳисобланади ва у ўпканинг чала ривожланишига, альвеолаларда сурфактантнинг етишмаслигига боғлиқ ҳолда ривожланади (3, 4). ГМ патогенезида – ацидоз ва гипоксия ўпка артерияларини торайтиради,

альвеолалар деворини шиширади, сурфактант синтезини тормозлайди, хатто тўхтатади. Артериялар спазми ўпка томирларида қон босимини оширади, қон ўнгдан чапга оқа бошлайди, натижада ўпка капиллярлари девори гипоксемик шикастланади, қон ва плазма тўқимага чиқади, фибрин чўкади, ГМ пайдо бўлади. Ҳомила ёки чақалоқнинг сурункали гипоксияси таъсирида сурфактант синтезловчи II-пневмоцит дифференциалланиши секинлшади ва ГМ пайдо бўлиши тезлашади (5, 6). Ҳомиладорлар гипертониясида ҳомиланинг ўсиши секинлашади, натижада ўпка етилмаган ҳолатда қолиб кетиб, сурфактант кам ишлаб чиқарилади ва ГМ пайдо бўлади.

Материал ва усуллар. Материал сифатида ЎзР ССВ РПАМ болалар ва оналар патологияси бўлимида охирги 5 йил давомида текширувдан ўтган болалар аутопсия текширувининг баённомаси, касаллик тарихи ва ўпка тўқимаси ўрганилди. Текширувга жами 87 та чақалоқлар ўлими материаллари олинди, шулардан 32 таси етилиб туғилганлар, 55 таси чала туғилганлар ташкил қилди. Ҳар бир ҳолатда оналар касаллик тарихидан клиник-анамнестик маълумотлар ўрганилди, болада ателектаз ривожланишига сабабчи бўлган хавфли омиллар таҳлил қилиб чиқилди.

Тадқиқот натижалари. Гиалин мембрана ривожланишининг хавфли омилларини ўрганишда материалимиздаги 2та гуруҳ, яъни чала туғилган ва етилиб туғилган болалар гуруҳида алоҳида-алоҳида тахлил қилиб чиқдик. Чала туғилган чақалоқлар сони 55та бўлиб, уларнинг 41тасида ҳар хил турдаги асфиксия асосий хавфли омил сифатида 74,5% ҳолатда аниқланди. Кейинги ўринларда гиалин мембрананинг хавфли омили бўлиб, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% кўрсатгични ташкил қилди. Булардан қоғоноқ суви аспирацияси оқибатида нафас йўлларига ва альвеолалар бўшлиғига қоғоноқ суви таркибида ҳар хил оқсилли моддалар тушганлиги сабабли ва альвеоляр тўқимада асфиксия ҳолати ривожланганлигидан гиалин мембраналар пайдо бўлиши кузатилади. Она организмидаги қандли диабет касаллиги оқибатида ҳомила организмида ҳам моддалар алмашинуви бузилиб, жумладан альвеолалар бўшлиғига ишлаб чиқариладиган сурфактант таркибида плазма оқсиллари миқдори кўплигидан гиалин мембрана пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда онанинг қандли диабети 41,8% ҳолларда хавфли омил сифатида аниқланди.

Маълумки, ҳомиладор аёл организмидаги артериал гипертензия ҳолати ҳомиланинг ўсишини секинлаштиради, деярлик барча ички аъзолар, жумладан нафас тизими аъзолари ҳам ўсишдан орқада қолиб, етилмаган ҳолатда бўлганлигидан сурфактант ишлаб чиқазадиган II-типдаги альвеолоцитлар ўз вазифасини тўлиқ бажара олмаслигидан, сурфактант кам

ишлаб чиқарилади ва альвеолалар бўшлиғида плазма оқсилларининг кўп ажралишидан ГМ пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда она организми артериал гипертензияси 38,2%да аниқланиб, гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сифатида баҳоланди. Ҳомилага она қорнидаги пайтида инфекциянинг юқиши, айниқса Гр+ инфекциялар, жумладан микоплазма таъсирида сурфактант ишлаб чиқарилиши ингибирланади, ўпка тўқимасида метаболик ацидоз муҳити пайдо бўлади, натижада плазминоген дефицити юз бериб, фибринолиз амалга ошади ва таркибий жиҳатдан чала бўлган сурфактантда, фосфолипидлардан ва плазма оқсилларидан биргаликда гиалин мембраналар пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 34,5 % ҳолларда гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сиқатида баҳоланди.

Навбатдаги таҳлилимиз етилиб туғилган ва ўпкасида гиалин мембраналар пайдо бўлиб, нобуд бўлган чақалоқларда ўпканинг бу “ўткир нафас бузилиши синдроми”га олиб келувчи хавфли омиллар ўрганилганда қуйидаги маълумотлар олинди. Чала туғилганлар гиалин мембранаси хавфли омиллари орасида асфиксия, қоғоноқ суви билан аспирация, ҳомиланинг қориничи даврида инфекциянинг юқиши ва ўпка гипертензияси юқори даражадаги хавфли омиллар сифатида қайд қилинган бўлса, етилиб туғилган чақалоқларда гиалин мембрана пайдо бўлишига олиб келувчи хавфли омиллардан она қорнида инфекция юқиши, онанинг қандли диабети, шиддатли туғруқ, юрак нуқсонлари нисбатан юқори кўрсатгичларга эга бўлди. Чақалоқ етилиб туғилган бўлса ҳам агар она қорнидаги даврида Гр+ли инфекция юқган бўлса, унинг таъсирида сурфактант ишлаб чиқарилиши ингибирланади, ўпка тўқимасида метаболик ацидоз муҳити пайдо бўлади, натижада плазминоген дефицити юз бериб, фибринолиз амалга ошади ва таркибий жиҳатдан чала бўлган сурфактантдан, фосфолипидлардан ва плазма оқсилларидан биргаликда гиалин мембраналар пайдо бўлади. Бизнинг материалимизда етилиб туғилган болалар гиалин мембранаси пайдо бўлишига, ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 % ҳолларда гиалин мембрана пайдо бўлишининг хавфли омили сиқатида баҳоланди. Иккинчи ўринни она организмидаги қандли диабет касаллиги эгаллади ва 59,3% даражали ташкил қилди. Кейинги ўринларни эса шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди.

Бизнинг материалимиздаги иккала гуруҳ маълумотлари қўшилиб, ўртача кўрсатгичлар таҳлил қилинганда қуйидаги натижалар олинди. Энг юқори кўрсатгични асфиксия жараёни эгаллади, яъни ўртача 60,9% даражани

ташкил қилди. Кейинги, нисбатан юқори кўрсатгич она организмидаги қандли диабет касаллиги (48,3%) , она қорнидаги даврда инфекциянинг юқиши (45,9%) ва шиддатли туғруқ жараёни (44,8%) ташкил қилди (1-жадвал). Қағоноқ суви аспирацияси (37,9%, ўпка гипертензияси (37,9%) ва чақалоқлар юраги туғма нуқсонлари (34,5%) нисбатан паст кўрсатгичларга эга бўлди.

Шундай қилиб, чала туғилган чақалоқлар ўпкасида гиалин мембрана ривожланишига аксарият ҳолларда асфиксия 74,5%, қоғоноқ суви аспирацияси 43,6%, шиддатли туғриқ жараёни 45,5% хавфли омил эканлиги аниқланди. Етилиб туғилган болалар ўпкасида гиалин мембранаси пайдо бўлишининг асосий хавфли омили сифатида ҳомилага она қорнидаги даврда инфекция юқиши 69,6 %, қандли диабет касаллиги 59,3% даражали ташкил қилди. Етилиб туғилганларда хавфли омил сифатида кейинги ўринларни шиддатли туғруқ жараёни (43,7%), юракнинг туғма нуқсонлари (40,6%), ўпка гипертензияси (34,3%) даражада хавфли омил эканлиги аниқланди

Адабиётлар

1. Шабалов Н.П. Неонатология. Учебное пособие .- М., 2004.-Т.1 С.508-530
2. Милованов А.П. Патология системы мать-плаценты-плод.-М.: Медицина.-1999.-С.448.
3. Глуховец Б.И. Гайворонский И.В. и др. Патогенетические особенности синдрома дыхательных расстройств у новорожденных с экстремально низкой массой тела// Архив патологии.-2005.-Т.67.-№1.-С.3-5.
4. Шабалов М.П. Некоторые аспекты использования сурфактанта у новорожденных с респираторным дистресс-синдромом// Педиатрия, детская хирургия Казахстана.-2006.-№4.-С.16.
5. Ширяева И.С. и др. Функциональная диагностика дыхательной недостаточности у детей// Росс.вестник перинатологии и педиатрии.-1997.-№4.-С.24-31.
6. Самохин П.А., Дель Т.А. Перинатальный патологоанатомический диагноз// Архив патологии.-2003.-Т.65.-№5.-С.54-59.

КОМПОЗИТОР ЭНМАРК САЛИХОВ ИЖОДИГА БИР НАЗАР
(Умид ва Соғинди жон қўшиқлари мисолида)

Бобур Уразалиев
O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti Estrada honandaligi kafedrasi magistratura 2 bosqich talabasi

Аннотация. Ушбу мақолада композитор Энмарк Салиховнинг босиб ўтган ҳаёт йўли ва беқиёс ижоди ёритишга ҳаракат қилинган. Ижодкорнинг ўзбек миллий эстрада санъатига қўшган улкан ҳиссаси ва ижодий меҳнатлари ёритилган. Айниқса композиторнинг "Умид" ва "Соғинди жон" қўшиқларининг назарий таҳлили янада фикримизни тўлиқ баён этиш имконини берди.

Калит сўзлар: Композитор, эстрада, ижодкор, қўшиқ,санъат,

Инсон дунёда яшар экан, босиб ўтган йилларини ўз-ўзига ҳисоб қилиб, беихтиёр ортига бир қарайди. Энг муҳими мана шу бурилиб қараш вақтида бекорга яшамаганлигини, одамларга оз бўлсада маънифати текканлигини, жамият ва халқ учун керакли ишлар қилганлигини ичидан сезиш қанчалар бахт эканлигини билган билади.

Ба ҳаққи савоб бир ниҳол эксангизу бир неча йил ўтиб, одамлар меваларидан баҳраманд бўлишса унинг ҳосили йилларга татийди ва раҳматлар айтадилар. Яна кимдир кўприк қуради у ҳам кони савобдир ва ундан ўтиб қайтганлар доуда бўладилар. Буларнингку бари хайрли ишдир. Лекин ҳаётда маънавий савоб, маънавий мерос деган гаплар ҳам бор, албатта. Мана шундай катта маънавий-ижодий мерос қолдирган улуғ ижодкорларимиздан бири Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби, машҳур ва суюкли композиторимиз Энмарк Салиховдир.

XX аср ўрталарида Э.Салихов билан бир қаторда ўзбек композиторларидан Икром Акбаров, Манас Левиев, Сулаймон Юдаков, Мутал Бурхонов, улуғ хонандаларимиздан эса Ботир Зокиров, Юнус Тўраев, Эсон Қандов, Муҳаббат Шамаева, сўнгра Фаррух Зокиров, Юлдуз Усмонова, Насиба Абдуллаева каби ижодкорларимиз бу санъат турига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшдилар.

XX асрнинг охири XXI аср бошига келиб эса ўзбек эстрада санъатида ўзига хос йўналишларига эга бўлган бетакрор қирралар шаклланди. Илман эса бу соҳа узоқ вақт давомида енгил жанр сифатида эътибордан четда қолиб келаётган эди. Жиддий муносабат ва изланишлар 90-йиллар охиридан бошлаб жадаллашди. Айни шу даврда ижодкорларимиздан Надим Нархўжаев, Аваз Мансуров, Ҳабибулла Раҳимов, Алишер Икромов,

Муҳаммаджон Отажонов, Лайло Муждабоева, Дилором Амануллаева сингари композиторларимиз эстрада санъатининг қўшиқ жанрида самарали ижод қилиб, соҳа ривожига муносиб ҳиссаларини қўшдилар. Бу ўринда эса, икки асрни ўз ижодида мужассам эта олган ва икки асрда ҳам эстрада йўналишида ўзига хос мувафаққиятли ва ёқимли ижод этган улуғ композитор Энмарк Салиховнинг хизмати алоҳида таҳсинга сазовордир.

Аввало, бу комозиторимизнинг саъй-ҳаракати билан 1996 йил Тошкент давлат консерваториясида илк бор “Эстрада ижрочилиги” бўлимининг очилиши ва самарали фаолият олиб бориши ўзбек миллий эстрадасининг келажагига замин яратди, қолаверса Энмарк Салиховнинг ўзи айни шу кафедранинг биринчи мудири сифатида бу бўлим ва жанрнинг мавқеини юқорига кўтаришда ва тарғиб этилишида катта улушини қўшди.

Э.Салихов (1934)

Энмарк Шакирович Салихов 1934 йил 12-сентиябрь куни Самарқанд шаҳрида, зиёли оилада дунёга келди. Композитор 1942-1953 йиллар умумтаълим мактабини ўқиб, 1954-1958 йиллари Ҳамза номидаги Тошкент мусиқа билим юртининг мусиқа назарияси бўлмини тугатди. 1958-1963 йиллар Тошкент далат консерваториясининг “Композиция ва чолғулаштириш” факулътетида профессор Б.И.Зейдман синфида таҳсил олди. У талабалик йиллариданоқ турли жанр ва шакилларда асарларлар ёзди. 1960 йили ёзган “Генерал Собир Раҳимов хотирасига” симфоник поэмаси учун Ўзбекистон Композиторлар уюшмаси мукофотига сазовор бўлди.

Композитор ижодий фаолиятида эстрада ва кино мусиқаси устувор туради. У замонавий ўзбек эстрада санъатининг ривожланиш жараёнига

ўзига хос услуби билан турли мавзуларда ранг-баранг, жозибали асарлар яратиб, жанр ривожига муносиб ҳисса қўшди. Шуни мамнуният билан айтиш жоизки, Э.Салиховнинг 1964 йилда яратган “Қиз бола” (Пўлат Мўмин сўзи) эстрада хонандалари Н.Нурмуҳаммедова, Болгариялик Коцева, “Ялла” ансамбли ижросида Германия, Польша, Чехия, Словакия, Россияда машҳур бўлиб кетган эди.

Энмарк Салихов ижодини дунёга танитишда ва уни тарғиб қилишда ўзбек эстрадасининг асосчиси, халқимизнинг улуғ эстрада хонандаси Ботир Зокировнинг ўрни алоҳида аҳамият касб этади.

Б.Зокиров (1936-1985)

Ботир Зокиров ижросида Энмарк Салиховнинг “Бу оқшом”, (М.Қориев сўзи), “Қайдасан” ва “Ажабо” (М.Ҳайдар сўзи), “Соғинди жон” (Э.Воҳидов сўзи), “Умид” (А.Мухтор сўзи) каби қўшиқлари, мана ярим асрдан ортиқ вақт ўтибдики, ҳали ҳамон халқимиз томонидан тинглаб келинмоқда. Бугунги кунда бу қўшиқлар юртимиздаги мусиқа коллеж ва лицей ҳамда олий таълим муассасаларидаги эстрада кафедралари учун энг ноёб ва афсонавий қўшиқларга айланиб кетган десак, бу ҳам айни ҳақиқатдир. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, композиторнинг барча муаллифлик асарларида классик андозавий, европача куйлаш услублари сақланган ҳолда уларни миллий оҳанг ва анъанавий ижрочилигимизга хос бўлган қирралар билан пайванд этишга ҳаракат қилганини кўришимиз мумкин.

Энмарк Салиховнинг Ботир Зокиров ижро этган машхур икки асари яъни “Умид” ва “Соғинди жон” қўшиқларни таҳлил этишни мақсад қилдик.

Таҳлил жараёнида хар иккала асарнинг гармонияси, аккордикаси ва аккордларнинг ўзига хос хусуситлари хақида батафсил тўхталиб ўтамиз.

Таҳлил тариқасида кўриб чиқишимиз керак бўлган биринчи асар Э.Салиховнинг Ўзбекистон халқ шоири Асқад Мухтор қаламига мансуб “Умид” номли пиъесаси Andante суръатида f-moll тоналлиги 6.8 ўлчовида баён этилган.

Асарнинг ноодатий шакли эътиборни ўзига жалб этади. Шу сабабли биз асарни шартли равишта 2 қисмга ажратдик.



Асар 10 тактли кириш қисми билан бошланади. Бу қисм секвенция кўринишида турли септаккордлар орқали баён этилган. Бошланиш ўн такити асарнинг кириш қисми ҳисобланади. Бу кириш секвенсия кўринишидаги турли септаккордлар орқали кўрсатилган.

Мазкур кириш қисмида қатламли фактурани кўришимиз мумкин. Мелодия ўзининг индивидуаллиги билан ажралиб турганлиги учун кириш қисмини мелодик мавзуийлик деб белгилашимиз мумкин.

Классик мусиқада учта функция ишлатилган бўлса T, S, D романтизм гармониясига келиб медианта, кварта ва квинта алоқалари билан бир қаторда

секунда ва терция алоқалари пайдо бўлган. Айнан асарнинг ушбу қисмида шундай қонуниятларни кўришимиз мумкин. Қисман классик конуниятлар ҳам сақланиб қолган.

“Соғинди жон”

Тахлил учун кўриб чиқишимиз керак бўлган иккинчи асар Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин Воҳидов қаламига мансуб “Соғинди жон” асари d–moll тоналлиги 6.8 суратида баён этлган.

Мазкур аср ҳам худди 1–асарга ўхшаб ноодатий шаклда яратилган.

Бу қисмни шартли равишда 2 қисмли шаклга ажратилади.

Мазкур кириш қисмининг ўзидаёқ ҳам классик ва ҳам романтик гармония қонуниятларини учратишимиз мумкин. Кичкина доминанта, медианта аккордари қўлланилиши II_7 ва унинг барча айланмалари қўлланилиши, Плогал айланмалар қўлланилиши кузатилади.

Булардан ташқари эски ладларни янги (6 –тактда кўришимиз мумкин) гармония- оҳангдорлик асосида шаклланганлиги орқали ромартик гармония қонуниятлврини кўрсак, коденцион нуқталарда доминантанинг келиши ва тоника таянч билан якунланишида классик гормония қонуниятларини кўрамиз.

Ёдингдадур ул навбаҳор,
Гул боғ аро илк висол.
Кўзлар хумор юз лолазор,
Мен термулиб гунг ва лол.
Нақорат
Ҳамон-ҳамон сенда хаёл
Баҳорим қайдасан...
Соғинди жон, соғинди жон
Кел эй Дилрабо.
Дил талпинур сен томон,
Сенда хаёл ҳамон-ҳамон.

Очдим сенга кўнглим нигор,
Сен ташладинг ўт нигоҳ...

Улуғ композиторнинг мана шундай мукаммал, профессионал ёзилган асарлари, бугунги кун қўшиқчилик санъатида ноёб хазина бўлиб турибти. Ҳозирги ёш хонандаларимиз мутахасисларни маслахатисиз ҳар қанақа қўшиқлар ижро этаётгани ачинарли ҳолатнинг ўзгинаси. Шу билан

биргаликда бугунги хонандаларнинг қўшиқларини юқоридаги икки мукаммал асар мисолида, ҳар томонлама таҳлил қиладиган бўлсак, куп-қуруқ ҳеч қандай маъно аҳамиятга эга бўлмаган матнларга термулиб ўтиришдан бошқа нарса эмаслиги аниқ гап.

Бугнги ёш композитор ва бастакорларимизга қарата айтамизки, ижодлари йиллар оша яшайдиган ижод бўлиб, миллатни ҳам маънавий озуқа, ҳам маъданий завқ бершга хизмат қиладиган асарлар бўлсин.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING MUHIM OMILLARI VA XARAJATLAR

Choriyev Suhrob
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakultiteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi
5mm-2021 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi dunyoda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilishda davlatning roli va ahamiyati keskin o’zgarishi va boshqa shu kabi muhim jarayonlar yoritilib berilgan. Bozor sharoitida boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan farqli o'laroq, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ancha cheklangan va birinchi navbatda bozor mexanizmining uzluksiz ishlashini ta'minlash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan oqilona taqsimlash va qayta taqsimlash orqali aholining eng zaif qatlamlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish. ijtimoiy mahsulot va milliy daromadlarni muhim yo’naltirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan davlat byudjetini samarali shakllantirish bilan bir qatorda soliq va majburiyatlarda ham yengilliklar yaratilib berilmoqda.

Kalit so’zlar : Taqsimlash; nazorat qilish; bevosita soliqlar; bilvosita soliqlar; byudjet daromadlari shakllanishi; byudjet sohasidagi islohotlar.

O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti asosan soliq va yig’imlarlardan tashkil topadi. Davlat byudjetining 90% dan ortig’ini soliqlar tashkil qiladi. Bozordagi ijtimoiy, siyosiy, ishlab chiqarish, ekologik muammolarni hal qilishda iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim vositasi bu byudjet mexanizmi.Davlat yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni byudjetga qayta taqsimlash orqali davlatning bozor mexanizmiga mos keladigan ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy nisbatlarini shunday tuzilishini yaratishga intiladi.

Byudjet mexanizmi orqali davlat mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy sohani kuchaytirish, ilmiy-texnikaviy rivojlanish sur'atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini tubdan qayta jihozlash, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish va bandlikni oshirish kabi makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish byudjet siyosatining ustuvorliklarini o'zgartirish asosida amalga oshirilishi mumkin, ular tobora tezkor va mavjud muammolarni hal qilishdan jamoat faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi uzoq muddatli va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va izchil amalga oshirishga o'tishi kerak.

Bozor sharoitida byudjet mexanizmini ishlab chiqish byudjetning ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlarning ishbilarmonlik faolligi darajasiga tobora ta'sir ko'rsatishi, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, uning xususiy sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarishni xususiylashtirish va hokazo soliq, davlat investitsiyalari, byudjet ssudalari kabi moliyaviy vositalar orqali amalga oshirilishi kerak. , byudjetni moliyalashtirish hajmi davlatning boshqaruvning turli jihatlariga ta'sir qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va bu tezkor yangilanishga yordam beradi novnyh ishlab chiqarish aktivlari, infratuzilma, ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat bozorida ish o'rinlari tarkibida rivojlantirish, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim davlat tizimini takomillashtirish moliyalashtirish va qayta tayyorlash yangi mexanizmini yaratish.

Har qanday zamonaviy jamiyatning iqtisodiy tuzilishi shakllanishida va rivojlanishida etakchi, hal qiluvchi rolni hukumat tanlagan iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartibga solish o'ynaydi. Davlatga iqtisodiy va ijtimoiy tartibga solishni amalga oshirishga imkon beradigan eng muhim mexanizmlardan biri bu moliyaviy mexanizm – jamiyatning moliyaviy tizimi bo'lib, uning asosiy bo'g'ini davlat byudjetidir. Davlat moliya tizimi orqali markazlashtirilgan shakllantiradi va davlat organlariga yuklangan funktsiyalarni bajarish qobiliyatini ta'minlab, markazlashtirilmagan mablag'larning shakllanishiga ta'sir qiladi. 90-yillarning boshlarida amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar ham davlat moliya sohasiga, birinchi navbatda byudjet tizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin emas edi. Davlat byudjeti davlat resurslarini jalb qilish va sarflashning asosiy vositasi bo'lib, siyosiy kuchga iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish, uning tarkibiy tuzilishini moliyalashtirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirish, aholining kam himoyalangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun real imkoniyat beradi. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan

jamiyatning moliyaviy tizimini o’zgartirish yo’nalishi, davlat byudjet siyosati zamon talablariga qanchalar javob berishiga bog’liq.

Moliyaviy ulkan xilma-xillikda ma’lum umumiy xususiyatlarda farq qiluvchi alohida sohalarni ajratish mumkin. Shunday qilib, yalpi ijtimoiy mahsulotning tannarxini taqsimlashning alohida sohasi davlatda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi bilan rivojlanayotgan moliyaviy munosabatlar natijasida shakllanadi. Ushbu munosabatlar umumiy bo’lib, ular taqsimot jarayonida vujudga keladi, davlat ajralmas ishtirokchidir va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo’ljallangan mablag’larning markazlashtirilgan fondini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog’liq . Moliyaviy munosabatlarning ushbu umumiyligi davlat byudjeti deb ataladigan kontseptsiyaning iqtisodiy tarkibini tashkil etadi . Davlat byudjeti chunki iqtisodiy munosabatlar majmui ob’ektivdir. Taqsimotning mustaqil sohasi sifatida mavjudligi ob’ektiv ravishda ijtimoiy ishlab chiqarishni o’zi tomonidan belgilanadi, uning rivojlanishi uchun tegishli markazlashtirilgan resurslar kerak bo’ladi. Mablag’larning markazlashtirilishi umuman iqtisodiyotning ishlashini ta’minlash uchun xalq xo’jaligida uzluksiz aylanishni tashkil qilish uchun zarurdir. Xarajatlarni taqsimlashning aniq byudjet sohasi mavjudligi ham davlatning tabiati va funktsiyalari bilan belgilanadi. Davlat ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirish, butun jamiyatda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o’tkazish, mudofaa muammolarini hal qilish va davlat boshqaruvining umumiy xarajatlarini qoplash uchun markazlashtirilgan mablag’larga muhtoj. Shunday qilib,iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida markazlashtirilgan moliyaviy resurslar davlatga ijtimoiy ishlab chiqarishning zarur sur’atlari va nisbatlarini ta’minlashga, uning tarmoq va hududiy tuzilishini yaxshilashga, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor dasturlari uchun zarur mablag’larni shakllantirishga va katta ijtimoiy o’zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Moliyaviy markazlashtirish tufayli mablag’lar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim sohalariga, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tayyorlashga yo’naltirilmoqda. Shunday qilib, xarajatlarni taqsimlashning alohida qismi sifatida davlat byudjeti aniq ijtimoiy maqsadni amalga oshiradi – bu milliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Xarajatlarni taqsimlashning ma’lum bosqichlaridan o’tgan va aholiga kengaytirilgan ko’payish, ijtimoiy va madaniy xizmatlar, mudofaa va boshqaruv uchun kengaytirilgan ehtiyojlarni qondirish uchun davlatga kirgan, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning muayyan qismini bajaradigan ob’ektiv taqsimot munosabatlarining mavjudligining iqtisodiy shakli. Budjet fondini shakllantirish va undan foydalanish uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi munosabati bilan qiymat harakati jarayonini ifodalaydi.Davlat byudjeti, boshqa iqtisodiy toifalar

singari, ishlab chiqarish munosabatlarini ifoda etadi va tegishli moddiy timsolga ega: byudjet munosabatlari markazlashtirilgan davlat fondlarida – byudjet fondida shakllantiriladi. Natijada jamiyatda ro'y berayotgan real iqtisodiy (taqsimlash) jarayonlar davlat tomonidan jalb qilingan va foydalanilayotgan mablag'lar oqimida o'z ifodasini topmoqda. Byudjet fondi- Bu ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning harakatlanishining ob'ektiv ravishda aniqlangan iqtisodiy shakli bo'lib, u xarajatlarni taqsimlashning taniqli bosqichlaridan o'tgan va aholiga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mudofaa va boshqaruv uchun kengaytirilgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun davlatga kelgan. Budjet fondini shakllantirish va undan foydalanish uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi munosabati bilan qiymat harakati jarayonini ifodalaydi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishda davlat byudjetining roli, avvalambor, davlat byudjetining yordami bilan milliy daromadning qariyb 30 foizi va yalpi ijtimoiy mahsulot (xarajatlar) ning 10 dan 15 foizigacha taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan belgilanadi. U mablag'larni milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ishlab chiqarish tarmoqlari, ijtimoiy faoliyat sohalari, iqtisodiy mintaqalar va mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlaydi. Davlat byudjeti iqtisodiyotga umuman ta'sir qiladi, chunki u butun xalq xo'jaligining byudjeti funksiyasini bajaradi. Davlat byudjeti uning ishlab chiqarishini rag'batlantiruvchi rol o'ynab, moddiy ishlab chiqarish sohasida katta rol o'ynaydi. Budjet mablag'lari ham jismoniy (ham alohida korxonalar doirasida), ham jamoat (xalq xo'jaligida) mablag'larning aylanishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Amaldagi va boshqa xarajatlarni ta'minlab, mavjud va yangidan ishga tushirilgan korxonalarda kapital qo'yilmalar va aylanma mablag'larni byudjet tomonidan moliyalashtirish, uning uzluksiz ishlashi va bir xilligini ta'minlab, alohida korxonalardagi mablag'larning aylanishiga kiritilishi mumkin.Noishlab chiqarish sohasiga ajratiladigan byudjet mablag'lari uning ishlashi va rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu sohadagi muassasa va tashkilotlarning aksariyati o'z daromad manbalariga ega emas va byudjet mablag'lari hisobidan ishlaydi. Davlatning ta'lim va sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan, madaniyat va san'at sohasiga sarflaydigan xarajatlari moliyaviy asos bo'lib, ularsiz milliy miqyosdagi ijtimoiy va madaniy tadbirlarni o'tkazish mumkin emas.Byudjet daromadlarini shakllantirish va byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonida mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish funksiyalari hal etiladi . Byudjet daromadlari – bu, bir tomondan, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Shu bilan birga, byudjet daromadlari bu davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi nazorat qilish organlari ixtiyorida olingan mablag'lardir. Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonida milliy daromadning bir qismini

davlat foydasiga majburiy ravishda olib qo'yish amalga oshiriladi. Shu asosda davlat bilan korxonalar va aholi o'rtasida moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Byudjet korxonalar va biznes tashkilotlarining daromadlarini taqsimlashda faol ishtirok etmoqda. Korxonalar foydasining bir qismini byudjetga tortib olish shakllari va hajmi va ularning ish natijalariga bo'lgan qiziqishlari o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud. Daromadning bir qismini byudjetga tushirish shakli korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, rentabellikni oshirish va daromadlarni oshirishga bo'lgan qiziqishlariga bog'liqdir.

Byudjet orqali milliy daromad butun hududga, shuningdek ishlab chiqarishdan noishlab chiqarish tarmoqlariga qayta taqsimlanadi , buning uchun sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, boshqaruv va mudofaa sohalaridagi ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun byudjetdan mablag'lar yaratiladi.

Byudjetdan milliy daromadlarni qayta taqsimlashning asosiy vositasi sifatida foydalangan holda, davlat mablag'larni avvalambor milliy iqtisodiyotning tarmoqlariga va ushbu bosqichda ustuvor rivojlanishni talab qiladigan iqtisodiy sohalarga yo'naltiradi, ya'ni byudjet orqali, milliy daromadlarni hududlararo va tarmoqlararo qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Shunday qilib, umuman mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va mintaqalarning mutanosib rivojlanishi manfaatlariga rioya qilinadi. Davlat byudjeti hisobidan fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilmiy muassasalarni moliyalashtirish ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida amaliy fanni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni yaratish uchun asosdir. Davlat byudjet orqali zarur mablag'ni ilm-fanning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirish orqali shu orqali mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Bularning barchasi davlatning iqtisodiy hayotini muvofiqlashtirish, milliy iqtisodiyotda moliyaviy va moddiy resurslarni oqilona aralashtirish, texnologik taraqqiyotga ko'maklashish va davlatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2023-yil uchun" O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti" to'g'risidagi qonuni 5-moddasi
2. Studfile.net
3. Inlibrary.uz
4. Daryo.uz

ПАРЛАМЕНТ ФАОЛИЯТИДА ОЧИҚЛИК ВА ШАФФОФЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА “ЭЛЕКТРОН ПАРЛАМЕНТ”НИНГ ЎРНИ

Тўхтаев Бобир-Мирзо Авазович
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Меҳнат ва ижтимоий масалалар қўмитаси котибияти Катта референти. Мустақил изланувчи

Очиқлик ва шаффофликни таъминлаш, халқ билан самарали мулоқотни йўлга қўйиш электрон парламент фаолиятининг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Мазкур вазифани амалга ошириш парламент фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, турли онлайн платформа ҳамда дастурларни жорий этиш орқали амалга оширилади.

Парламентлараро иттифоқнинг 2022 йилги дунё электрон парламент ҳисоботида халқ билан мулоқотда электрон парламент институтининг аҳамияти ошиб бораётганлигини таъкидланади. Хусусан, дунёдаги 100 дан ортиқ давлат парламентлари ўртасида ўтказилган сўровномада қатнашганларнинг 87 фоизи ялпи мажлис ва қўмита мажлисларининг аудио ва видео материаллари веб-саҳифада юклаб борилишини, 78 фоизи эса жонли веб-трансляциядан фойдаланиши қайд этган. Шунингдек, сўровномага кўра, дунёдаги парламентларнинг 50 фоизи ёшларга мурожаат қилиш учун рақамли воситалардан фойдаланишини ва 30 фоизи эса буни режалаштирганлигини билдирган.24

Халқ билан мулоқотда Интернетдан фойдаланиш йил сайин ўсиб бормоқда. Жумладан, Парламентлараро иттифоқнинг 2020 йилги дунё электрон парламент ҳисоботида дунё давлатлари парламентларининг 81 фоизи мазкур жараёнда ўсишни таъкидлайди. Шунингдек, парламентларнинг 76 фоизи электрон почтадан фойдаланишини, 43 фоизи веб-саҳифага эга эканлигини ва 56 фоизи фуқаролар билан мулоқотда ижтимоий тармоқлардан фойдаланиши билдирган.

Бундан ташқари мазкур ҳисобот парламент қўмиталари томонидан ҳам рақамли мулоқотдан фойдаланиш ўсиб бораётганини кўрсатган. Хусусан, 2020 йилдан 82 фоиз қўмиталари аъзолари мазкур рақамли технологиядан фойдаланишини таъкидлаган бўлса, мазкур кўрсатгич 2018 йилда 75 фоизни, 2016 йилда эса 67 фоизни ташкил этган. Қўмиталарнинг 45 фоизи эса ижтимоий тармоқлардан фойдаланишини билдирган.

Сўнгги йилларда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти очиқлигини ва шаффофлиги таъминлаш, шунингдек, ҳисобдорлиги ошириш ҳамда халқ билан мулоқотни йўлга қўйиш борасида ислоҳотлар олиб

[24] World e-Parliament Report 2022. –p. 23 www.ipu.org

борилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг 2014-йил 5-майдаги “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги қонуни бу борадаги ишларнинг муҳим ҳуқуқий асосларидан бири бўлиб хизмат қилди.25

Мазкур соҳа қаратилган эътибор мамлакатимизда қабул қилинган стратегияларда ҳам ўз аксини топди. Хусусан, 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясида давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш, шунингдек, халқ билан мулоқотнинг самарали механизмларини жорий этиш каби вазифалар белгиланиб қўйилади.26

Бундан ташқари, 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг 6-мақсадида давлат бошқарувини номарказлаштириш ишларини жадаллаштириш ҳамда давлат органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш белгиланган.27 Шунингдек, мазкур соҳа ҳуқуқий асосини янада мустаҳкамлашда “Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент фармони муҳим аҳамиятга эга бўлди.28

Фармон билан Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенати мажлислари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши сессияларини телеканаллар, шунингдек, Интернет тармоғи орқали жонли эфирга узатилишини таъминлаш белгиланди. Бу эса фуқароларнинг ҳуқуқий хабардорлик даражасини оширишга, халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашининг давлат бошқарувидаги роли ва нуфузини юксалтиришга хизмат қилиш билан бирга, вакиллик органларида кўриб чиқилиб, қарор қабул қилинган масалалар юзасидан фуқароларнинг ўз вақтида муносабат билдириши имконини яратди.

---

[25] Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майдаги “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-369-сон Қонун // https://lex.uz/docs/2381133

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сон Фармони // https://lex.uz/docs/4168749

[27] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5841063

[28] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июндаги “Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6247-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5459107

Шуни таъкидлаш керакки, "очиқлик" ва "ошкоралик" тушунчалари тўлиқ синоним сифатида қўлланилмайди. Очиқлик - бу коммуникатив хусусиятга эга бўлган ҳодиса бўлиб, унинг моҳияти жамиятнинг барча сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳокимият органларига ҳуқуқий кириб бориш ва таъсир қилиш каналларининг мавжудлиги билан ифодаланилади.

Шаффофлик эса фуқароларни давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти тўғрисидаги маълумотлардан қонун билан мустаҳкамланган ва кафолатланган ҳолда фойдаланиш имконияти билан тавсифланади.

Мамлакатимизда очиқлик ва шаффофликни таъминлашда ҳамда халқ билан мулоқотни йўлга қўйишда парламент институти муҳим ўрин эгаллаб келган. Хусусан, Westminster foundation for democracyнинг “Ўзбекистонда онлайн электрон парламент платформасини яратиш бўйича таҳлилий ҳисоботи”да Ўзбекистонда 2000 йилдан бошлаб очиқликни таъминлаш борасида чора-тадбирлар амалга оширила бошланганлиги эътироф этилади. Ўша йили парламент ўз тарихида илк биринчи бор “фуқаролар куни”ни ташкиллаштириб, табдир орқали фуқароларни парламентга мурожаат қилишлари имконияти яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майдаги “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-369-сон Қонун // https://lex.uz/docs/2381133
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сон Фармони // https://lex.uz/docs/4168749
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5841063
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июндаги “Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6247-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5459107

ИЛҒОР ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА “ЭЛЕКТРОН ПАРЛАМЕНТ” ТИЗИМИ

Тўхтаев Бобир-Мирзо Авазович
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Меҳнат ва ижтимоий масалалар қўмитаси котибияти Катта референти. Мустақил изланувчи

Бугунги кунда Ғарбий Европа мамлакатлари, АҚШ, Канада, Скандинавия мамлакатлари, Болтиқ бўйи мамлакатлари ва Жануби-шарқий Осиё мамлакатларида электрон парламент тизими тараққий этган.

АҚШ Вакиллар палатасининг расмий веб-саҳифаси www.house.gov ни олиб қарайдиган бўлсак, унда вакиллар, етакчилар, қўмиталар, қонунчилик фаолияти, умумий тушунтирув рукнлари мавжуд.29 Эътиборли томони шундан иборатки, вакиллар бўлимида конгрессменлар рўйхати алифбо тартибида келтирилган бўлиб, бирор вакил устига босилганда унинг алоҳида саҳифаси очилади. Мазкур саҳифада вакил ҳақида маълумотлар, конгрессмен билан алоқа, унинг ижтимоий тармоқдаги саҳифаларига ҳавола ҳамда жонли ёритилиб борилиши каби рукнлар мавжуд. Исталган фойдаланувчи конгресменнинг таржимаи холи, фаолият юритаётган қўмитаси, офислар, ОАВ даги чиқишлари билан танишиши, вакилнинг қонунчилик ташаббуслари ва сайтдаги камчиликлар хусусида фикр билдириш, мурожаат қилиш имконияти бор.

АҚШ Сенатининг расмий веб-саҳифаси www.senate.gov таҳлил қилинганда қўйидагилар аниқланди. Хусусан, расмий саҳифа сенаторлар, қўмиталар, қонунчилик, тарих ва манбалар каби рукнлардан иборат бўлиб, ҳар бир рукн алоҳида бир қанча бўлимлардан иборат.30 Саҳифанинг эътиборли томони шундан иборатки, унда собиқ сенаторлар рўйхати ҳам мавжуддир. Сенаторларни сайланган ҳудуд бўйича қидириш имконияти жуда осон. Хусусан, АҚШ харитасида штат устига босилганда ушбу ҳудуд сенаторларини кўрсатади. Шунингдек, саҳифада фойдаланувчиларга тушунарли бўлишлари учун атамалар ва изоҳлар бўлими ҳам мавжуд.

Бундан ташқари, керакли маълумотни осон қидириб топиш учун маълумотлар столида калит сўзлар келтирилган бўлиб, унга кирилганда мазкур калит сўзга алоқадор барча маълумотлар тақдим этилади. Шунингдек, саҳифада “қандай қилиб....” бўлими бўлиб, у орқали фойдаланувчиларга зарур бўлган маълумотни қидириб топиш имкониятини беради.

[29] АҚШ Вакиллар палатасининг расмий веб-саҳифаси. https://www.house.gov/
[30] АҚШ Сенатининг расмий веб-саҳифаси. https://www.senate.gov/

Буюк Британия парламент фаолиятига аҳолини жалб этишга ҳамда электрон парламент имкониятларини кенг тарғиб этишга катта аҳамият қаратади. Электрон парламент ҳар қанча такомиллашмасин, аҳоли билан самарали мулоқот ташкил қилинмаса ҳамда парламент фаолиятига кенг жалб этилмаса кўзланган натижани бермайди. Шу сабабли, электрон парламент имкониятни кенг тарғиб этиш мақсадга мувофиқдир.

Хусусан, Буюк Британия парламенти (Жамоатлар ва Лордлар палатаси) таълим ва тарғибот тадбирларига йиллик 10 миллион фунт стерлинг сарфланади. Мисол учун, 2019–2020-йилларда бундай ташаббусларга 1,89 миллион киши жалб этилган. Таълим марказларига 2711 мактабдан 70238 нафар ўқувчи ташриф буюрган бўлиб, бу Буюк Британиядаги мактабларнинг 41 фоизини ташкил этган.

Германияда электрон парламент ривожланишида ҳам асосий эътиборлардан бири фуқароларни парламент фаолиятига жалб этишга ва улар билан муносабатларни янада ривожлантиришга эътибор қаратилади. Мисол учун, мамлакатда болалар учун www.kuppelkucker.de сайти 5 ёшдан 12 ёшгача бўлган болалар учун мўлжалланган сайт яратилган бўлиб, кўплаб интерактив ўйинлар билан тўлдирилган, ёркин катта графикалар билан яратилган ҳамда тақдим этилган матнларнинг аксарияти интерактив ёрдамчи томонидан товушли тарзда айтилади. Сайт Бундестагнинг тарихи, унинг ички тузилиши, немис парламентаризми асослари ва бошқа кўп нарсалар ҳақида ҳикоя қилади. Сайт битта муҳаррир томонидан бошқарилади, янгиликлар ҳафтада икки марта чиқади, сайт доимий таркибга эга, вақти-вақти билан янги контент қўшилади.31

Францияда Ковид-19 пандемияси даврида Франция Миллий Ассамблеяси аъзолари томонидан Le Jour d’Après (кейинги кун) платформасини ишлаб чиқилади. Платформа пандемиядан кейинги инқироздан чиқиш юзасидан жамоатчилик муҳокамаси учун яратилган эди. Платформа ишга туширилгандан сўнг илк ҳафтада 15 миллион марта кўрилади. Рўйхатдан ўтган 26 минг фойдаланувчидан 8.7 минг таклиф келиб тушади.32 Хусусан, соғлиқни сақлаш тизими, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, озиқ-овқат чиқиндиларини қайта ишлаш, қадоқлашни қисқартириш ва мажбурий экологик таълимни жорий этиш билан боғлиқ каби таклифлар.

Платформага келиб тушган таклифлар асосида Франция Миллий Ассамблеяси аъзолари томонидан “инқироздан кейинги ҳаракатлар режаси” доирасида 30 дан ортиқ чора-тадбирлар ишлаб чиқишади.

[31] Болалар учун мўлжаллаган Бундестаг бўйча маълумотлар сайти. https://www.kuppelkucker.de/
[32] *Global Parliamentary Report 2022. -p 33* https://www.ipu.org/our-impact/strong-parliaments/setting-standards/global-parliamentary-report/global-parliamentary-report-2022-public-engagement-in-work-parliament

Бир қатор Европа мамлакатларида парламентларнинг веб-сайтларида махсус қонун лойиҳасига фуқароларнинг фикр-мулоҳазалари электрон шаклда жойлаштириш имконияти мавжуд. Хусусан, Австрияда парламентга матнли ҳужжат ёки pdf файлни юбориш мумкин. Ушбу шарҳ, қонун лойиҳаси билан биргаликда вакиллик органининг веб-сайтида эълон қилинади.

Данияда эса фуқаролар қонун лойиҳаси бўйича ўз фикр-мулоҳазаларини парламент веб-сайтидаги электрон шакл орқали юборишлари мумкин. Шу билан бирга, веб-сайт мавжуд бўлиб, унда ҳукумат ёки Фолькетинг (Дания парламенти) вакиллари ўзларининг қонунчилик ташаббусларини тақдим этишдан парламентда кўриб чиқишдан олдин юклашлари мумкин.33 Мазкур тизимда фуқаролар қонун лойиҳаси муаллифи номига ўз фикр-мулоҳазаларини қолдиришлари мумкин.

Баъзи мамлакатларда парламентга виртуал ташриф ва саёҳат дастури ишга туширилган. Унга кўра парламент биноси ва ички кўринишини кўришни истаган аммо келиш имкониятига эга бўлмаган аҳоли учун веб-саҳифага кириб кўришлари мумкин. Хусусан, 2018 йилда Янги Зеландия парламенти “Parliament XR” деб номланган VR иловасини ишлаб чиқади. У институт тарихини ҳикоя қилиш билан парламентга 360 градуслик саёҳатни тақдим этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. АҚШ Вакиллар палатасининг расмий веб-саҳифаси. https://www.house.gov/
2. АҚШ Сенатининг расмий веб-саҳифаси. https://www.senate.gov/
3. Болалар учун мўлжаллаган Бундестаг бўйча маълумотлар сайти. https://www.kuppelkucker.de/
4. Дания парламенти расмий веб-саҳифаси. https://www.ft.dk/
5. Global Parliamentary Report 2022. -p 33 https://www.ipu.org/our-impact/strong-parliaments/setting-standards/global-parliamentary-report/global-parliamentary-report-2022-public-engagement-in-work-parliament

[33] Дания парламенти расмий веб-саҳифаси. https://www.ft.dk/

SHAXS SO‘ROVNOMALARINI TATBIQ ETISH XUSUSIYATLARI

G‘ulomqodirov E.A.
O'zbekiston Milliy universiteti Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Rezyume. Maqolada shaxs so‘rovnomalarining tarixiy kelib chiqishi, ularni ishlab chiqish va tatbiq etishning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Muallif muammoni bosqichma-bosqich o‘rganishga erishgan. Shaxs so‘rovnomalarini qo‘llashda yuzaga keladigan muammolarni yechish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: psixologiya, psixodiagnostika, test, shaxs, validlilik, standartlashtirish .

Резюме. Данная статья посвящена проблемам применения и разработки личностных опросников. В статье на научной основе поэтапно авторы рассматривали проблемы. Также было предложено, решение существующих проблем в применении личностных опросников.

Ключевые слова: психология, психодиагностика, тест, личность, валидность, стандартизация.

Resume. The problem of the application and development of personality inventories are analyzed in this article. The authors have considered the problem in stage and in a scientific manner. Also a solution of the existing problems on the application of diagnostic instruments was suggested.

Keywords: psychology, psycho-diagnostic, test, person, validity, standardize

Shaxs so'rovnomalari psixologiyaga tabiiy fanlardan kirib kelgan psixodiagnostik usul bo‘lib, dastlab Charlz Darvin tomonidan qo‘llanilgan. Shaxs so‘rovnomalari individda ma’lum bir shaxsiy xususiyatlarning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Qator savollar, tasdiqlar ro‘yhatidan iborat bo‘lib, sinaluvchining ularga bergan javoblari, maxsus ishlab chiqilgan kalit , izohlar orqali miqdoran qayta ishlanadi.34 Dastlabki so‘rovnomalar shaxs xususiyatlarini o‘rganish uchun emas, balki insonning kognitiv sohasini baholash uchun ishlatilgan. So‘rovnomalar respondentlarning uy manzillariga yuborilgan yoki jurnallarda chop qilish orqali o‘tkazilgan. Birinchi shaxs so'rovnomasi 1917-yilda amerikalik psixolog Robert Vudvorst tomonidan ishlab chiqilgan. “Shaxsiy ma'lumotlar varog‘i” nomli ushbu so’rovnoma harbiy xizmatchilarda normal bo‘lmagan xulq-atvor ko‘rinishlarini aniqlash va o’lchash uchun foydalanilgan. Hozirda shaxs so‘rovnomalari psixodiagnostikada eng keng tarqalgan usul hisoblanadi35.

[34]Psixologik atamalar ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.
[35] Бурлачук Л.Ф. Психологика. Спб: “Питер”, 2002.

Shaxs so‘rovnomalarini ishlab chiqishdagi yondashuvlardan kelib chiqb, Burlachuk shaxs so‘rovnomalari quyidagi guruhlarga bo‘lgan:

- Shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar;
- Tipologik so‘rovnomalar;
- Motivlarni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar;
- Qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar;
- Qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar;
- Ustanovkalarni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalar;
- Faktorli tahlil asosiga qurilgan so‘rovnomalar;
- Asosiy kriteriyalar asosida yaratilgan empirik so‘rovnomalar.

Shaxs so‘rovnomalari keng miqyosda qo‘llanilayotganiga qaramay, uni tatbiq etish va ishonchli javoblar olishda bir qancha muammolar bor. So‘rovnoma natijalarini falsifikatsiya qilishdan va ustanovka bo‘lgan xulq-atvor ta’sirini oldini olish diagnostika uchun tashkiliy vazifalardan va asosiy muammolardan hisoblanadi. Test jarayoniga salbiy munosabatda bo‘lish va topshiriqlar mohiyatini tushunmaslik respondent shaxsi haqida yolg‘on ma’lumotlarni beradi. Faktorlar orasida “Men”ligini himoya qilish va ijtimoiy ma’qullanish, shubhalanish va kutilayotgan diagnostik javoblarga sezgirlik, ortiqcha motivatsiyalsh yoki metodika topshiriqlarini yechishga bo‘lgan loqaydlik ishonchsiz test natijalarini olishga xizmat qiladi. Javoblarga nisbatan ustanovka bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Javoblarning ijtimoiy ma’qullanishga nisbatan ustanovka: respondent ijtimoiy jihatdan ma’qullangan va ijtimoiy normalarga mos kelgan javob variantining tanlashidir. A.Edvards buni “fasad effekti” deb ataydi36. Simulyatsiya ustanovkasi- sinaluvchi o‘zini tasvirlashda faqat salbiy javoblarni tanlash istagi bo‘lib, bu test jarayoniga nisbatan loqaydlik natijasida kelib chiqadi. Dissimulatsiya ustanovkasi- bu sinaluvchining diagnostika natijalari bo‘yicha mutlaqo ijobiy javob variantlarini tanlashi hisoblanadi. Rozilik ustanovkasi – sinaluvchining “ha”, “ishonaman” tarzidagi ijobiy javob variantlarini tanlashidir. Yoki buning aksi bo‘lgan qo‘shilmaslik ustanovkasida esa faqat “yo‘q” yoki “qo‘shilmayman” tarzidagi javob variantlarini tanlaydi. Mavhum yoki noaniq javoblarni tanlashga asoslangan ustanovkada respondent kompromisstik yondashuv ustunlik qiladi, shaxsiy sirlarini saqlashga intiladi. Ekstremal javoblar berishga nisbatan ustanovka va kutilmagan, noodatiy javoblarni tanlashga nisbatan ustanovka ham diagnost mutaxassisni validligi yuqori bolgan javoblarni olishga to‘sqinlik qiladi. Ishonchsiz ma’lumotlarni katta qismini og‘ir psixopatalogik holatda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabat tendensiyasi katta

[36] Edwards AL. The social desirability variable in personality assessment and research. New York: Dryden Press; 1957.

miqdor tashkil etadi. N.Osin va uning hammualliflari shaxs so‘rovnomalariga berilgan javoblarning ikki turini ajratadi:

Egoistik xohish- subyektiv sifatlarini namoyish qilish(“Men doim o‘z xatti-harakatlarimga ishonaman”);

Ma’naviy xohish- ma’naviy fazilatlarini namoyish etish(“Men hech qachon noto‘g‘ri gapirmaganman”)37.

Respondentlarnng MMPI kabi klinik so‘rovnomalarga nisbatan ijobiy javob berishga harakat qilishi natijasida shaxsiy xususiyatlari patalogik ko‘rinish kasb etadi.

Shaxs so‘rovnomalaridan foydalanishda yuzaga keladigan yuqorida sanab o‘tilgan muammolar mualliflar uchun psixodiagnostik vositalarning turi, uning afzallik va kamchiliklarini tushunish muhum ekanligini ko‘rsatadi. Muallif sinaluvchining tafakkur tarzi va javoblar ko‘rinishini taxmin qiladi va sinaluvchi esa muallifning tafakkur tarzini taxmin qiladi. Natijada sinaluvchi va muallif o‘rtasida refleksiv o‘yin yuzaga keladi. Shaxs so‘rovnomalari ko‘rsatkichlari diagnostik jarayonda respondentni o‘zini qanday tutgani, ruhiy holatining real ko‘rsatib berishi va yolg‘on shkalasi ko‘rsatkichlari, javoblar qanday motiv va ta’sir ostida berilganiga qarab tafovutlanadi. Shaxs so‘rovnomalari yordamida olingan sinaluvchilar diagnostik ma’lumotlariga nisbatan tanqidiy va diqqat bilan munosabatda bo‘lish psixolog mutaxassisdan talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Psixologik atamalar ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.
2. Бурлачук Л.Ф. Психологика. Спб: “Питер”, 2002.
3. Edwards AL. The social desirability variable in personality assessment and research. New York: Dryden Press; 1957.
4. Осин Е.Н, Рассказова Е.И, НЕяскина Ю.Ю, Дорфман Л.Я, Александрова Л.А, Операционализация пятифакторной модели личностных на российской выборкею Психологическая диагностика. 2015;3:80-104.

TA’LIM JARAYONIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Sh.X.Eshqobilov
QarDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis kadrlar tayyorlash va sifatini oshirishda ta’lim texnologiyalari asosiy omillardan biridir. Shu jumladan oliy ta’lim muassasalarida axborot tizimlari fanini “Mobile learning”

[37] Осин Ен, Рассказова ЕИ, НЕяскина ЮЮ, Дорфман ЛЯ, Александрова ЛА, Операционализация пятифакторной модели личностных на российской выборкею Психологическая диагностика. 2015;3:80-104.

texnologiyasidan foydalanib o‘qitishni takomillashtirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Ushbu fikrlarda ko’rinib turibtiki, kadrlarni tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish jarayonida yangicha yondashish bilan ta’lim samaradorligini oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun zamin yaratadi.

Калит сўзлар: WAP, GPRS, EDGE, Bluetooth, Wi-Fi, Mobil, BOYD.

"Ta’lim to‘g‘risida" gi Qonunning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini keng miqyosda isloh qilishning boshlanishi bo‘ldi. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadal joriy yetilishi bilan u ta’lim sifatini oshirishning yeng qulay vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda[3]. Ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish ushbu islohotning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida ham ham axborotlashtirish sodir bo‘lmoqda, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati "Axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan" [1].

Shuning uchun ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimi doimiy ravishda kompyuter texnologiyalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi [4].

Jarayonlar-bu belgilangan maqsadga yerishish uchun aniq harakatlar to‘plamidir.

Mobil ta’lim-bu individual, guruhli va jamoaviy ta’limni mobil texnologiyalardan foydalangan holda akademik va darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan birlashtirish qobiliyatiga yega bo‘lgan ta’limning maxsus shakli. Ta’lim jarayonida "mobil ta’lim" iborasini quyidagicha talqin qilish mumkin: ta’limdagi qurilma (ixtiyoriy mobil qurilmalar va tarmoq texnologiyalari); o‘qituvchi (mashg‘ulot paytida qurilma sinfda yoki undan tashqarida bo‘lishi mumkin); dars turiga qarab o‘quv jarayoniga ariza (boshqa maktab, shaharning ikki tumanidan internetda virtual o‘qituvchi).

O‘quv jarayonida mobil ta’limni ommaviy qo‘llash uchun quyidagi tashkiliy va pedagogik talablarga ye’tibor berish kerak: o‘quv amaliyotida planshetlar, netbuklar va noutbuklar asosida mobil darslarni tashkil yetish; BOYD (Bring your own device- shaxsiy qurilmangni olib kel) usuli yordamida o‘qitish.

Ta’lim muassasalarida nafaqat sinflarda, balki koridorlarda, kutubxonada, faollar zalida ham bepul Internetga kirishga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir [5].

Mobil ta’limning afzalliklari:

- Ta’lim oluvchilarga joyni erkin o‘zgartirish imkoniyatini beradi;

- Imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarga mobil vositalardan foydalangan holda o‘qish imkoniyatini beradi;
- Shaxsiy kompyuter va qog‘ozli o‘quv adabiyotiga ehtiyoj bo‘lmaydi;
- Zamonaviy simsiz texnologiyalar yordamida foydalanuvchilar orasida o‘quv resurslar tarqalishi yengillashadi (WAP, GPRS, EDGE, Bluetooth, Wi-Fi);

Mobil o‘qitishda multimediyali kontentdan foydalaniladi, ya’ni, axborotlar turli shakllarda ifoda etiladi: matnli, grafik, ovozli.

Bunday holda, o‘quv resurslarini o‘rganish va yodlash samaradorligi oshadi va o‘rganish motivatsiyasi rivojlanadi. Agar talabalar topshiriqlarni bajarishdan manfaatdor bo‘lsa, bu holda ko‘ngilli o‘qituvchi ikkilanmasdan auditoriya jonlanishini, o‘rganish motivatsiyasi yaxshilanishini va o‘rganish samaradorligi oshishini aytishi mumkin [2].

Endi siz mashg‘ulot uchun qaysi dasturni tanlash va treningning qaysi qismida undan foydalanish haqida o‘ylashingiz kerak. Darsga tayyorgarlik jarayonida shuni yesda tutish kerakki, butun dars davomida mobil ilovadan foydalanish maqsadga muvofiq yemas. Shuning uchun bunday dasturlardan birini tanlash va ushbu dasturdan darsning bir qismida foydalanish maqbuldir. Quyidagi holatlarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi: ilovaning imkoniyati; ilovani turli xil mobil qurilmalarga o‘rnatishda ruxsat berilishini hisobga olish; bepul ruxsatning mavjudligi; ilovani oxirgi marta qachon yangilanganligi; ilovaga berilgan salbiy fikr va mulohazalarni e’tiborga olinganligi; ilovani shaxsiy mobil qurilmada testdan o‘tganligi.

Mobil ilovalardan ixtiyoriy mashg‘ulot turida foydalanish mumkin: yangi mavzuni o‘zlashtirish-o‘quv materialdan iborat ilova (elektron darsliklar); mustaqil ta’lim olish–kontentlarni yaratish uchun ilovalar tadqiqot faoliyati-virtual laboratoriya ilovalari; o‘z-o‘zini tekshirish yoki nazorat qilish–mashq qildiruvchi ilovalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayonida mobil qurilmalardagi ilovalardan foydalanish bo‘yicha tajriba o‘tkazildi va batafsil statistik ma’lumotlarni tahlil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ЎРҚ-637 23.09.2020 Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. М.Х.Лутфиллаев, Э.А.Абдуллаев, Ф.Эшкобилов, «Разработка выртуальных лабораторий по тему «изучение строения и развития губок на примере пресноводной бадяги». тип spongia, класс demospongia, отряд spongillidae, педставитель spongilla» DOI:10.31618/asj.2707-9864.2021.1.46.81

3. Gafurovich, M. K. (2021). Axonometry New Practical Graphical Methods For Determining System Parameters. Psychology and Education Journal, 58(2), 5710-5718.
4. F.X.Ishkobilov, Sh.X.Eshqobilov Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun vizual dasturlashni o'qitish metodologiyasining asosiy omillari JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 21 ISSUE - 4 JANUARY-2023. 223-226.
5. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2023). Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 16, 42–45.

KOMPYUTER LINGVISTIKASINING TILSHUNOSLIKDAGI AMALIY AHAMIYATI VA MUAMMOLARI

Eshqulova Nargiza Normo'minovna
Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan Kompyuter lingvistikasining tilshunoslikdagi amaliy ahamiyati va uning muammolari haqida qisqacha fikrlar bayon qilingan. Davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash hamda o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish dolzarb masalari o'z aksini topgan.

Kalit so'z: lingvistika, kompyuter, korpus, dasturlash, mashina tarjimoni

Annotation. This article provides a brief overview of the practical significance of Computer Linguistics in Linguistics, one of the main areas of modern linguistics, and its problems. Information and communication technologies of the state language, in particular, ensuring the worthy place of the Internet in the global information network, as well as the creation of computer programs in the Uzbek language are reflected in the current issues.

Keywords: linguistics. computer, programming, machine translator

Аннотация. В данной статье представлен краткий обзор практического значения компьютерной лингвистики в языкознании, одного из основных направлений современной лингвистики, и ее проблем. Информационно-коммуникационные технологии государственного языка, в частности, обеспечение достойного места сети Интернет в глобальной информационной сети, а также создание компьютерных программ на узбекском языке нашли отражение в текущих вопросах.

Ключевые слова: лингвистика, компьютер, корпус, программирование, машинный перевод.

Respublikamizda davlat tiliga e’tibor milliy qadriyatlarni e’zozlashning ustuvor yo’nalishlaridan biri darajasiga ko’tarildi. Milliy tilni asrab-avaylash, undan amaliy foydalanish ko’nikma hamda malakalarini shakllantirish, shu bilan bir qatorda, o’zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo’llanishini ta’minlash dolzarb vazifaga aylandi. Korpus tilshunosligi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechish uchun kompyuter dasturlarini ishlab chiqishdir. Korpus tilshunosligining asosiy vazifalari tillarni o'rgatish, bilimlarni sinab ko'rish, matnlarni tahrirlash va mashina tarjimasi dasturlarini ishlab chiqishdir.

XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda “mashina tarjimasi”, “mashina lingvistikasi” atamalari qo‘llanila boshlandi. Bu asrning buyuk ixtirosi hisoblangan hisoblash texnologiyasi tilshunoslikka ham kirib kelganining isboti edi. Mashina tarjimasi yoki avtomatik tarjima deganda kompyuter dasturlari yoki elektron lug‘atlar yordamida matnni bir tildan ikkinchi tilga tez tarjima qilish tushuniladi. Mashina tarjimasining asoschilari muhandislar va matematiklar bo'lib, keyinchalik bu sohada tilshunoslar ham faol qatnashdilar. Shunday qilib, mashina tarjimasi g‘oyalari butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslik rivojida muhim rol o‘ynadi. Formal grammatika nazariyasi paydo bo‘lgandan keyin asosiy e’tibor til modeli va uning o‘ziga xos tomonlarini yaratishga qaratildi. Tilning bu jihatlari matematik tilshunoslik fanida rivojlanib bordi, bu esa o‘z navbatida hisoblash tilshunosligi fanining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Demak, shu asosda tilshunoslikning yangi yo‘nalishi kompyuter lingvistikasi, tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliy yo‘nalishlari vujudga keldi.

Kompyuter tilshunosligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) til o‘rgatish;

b) bilimlarni tekshirish;

v) matnlarni turli usullarda avtomatik tahrirlash;

g) mashina tarjimasi uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

d) lug'atlar va matnlarni kompyuterda statistik tahlil qilish.

Bular ham hisoblash tilshunosligining o‘ziga xos sohalaridir. Xorijda va Rossiyada mashina tilshunosligi bo'yicha tadqiqotlar doirasi keng. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham kompyuter tilshunosligi rivojlanib, ko‘plab ilovalar, mobil ilovalar, lingvodidaktik platformalar, tarjimonlar uchun elektron lug‘atlar, eng muhimi, milliy korpus va uning ichki korpuslari yaratilmoqda.

Amaliy lingvistikaning alohida sohasi hisoblangan Korpus lingvistikasi o’qitish metodikasini takomillashtirishga asoslangani, grammatik xususiyatlarni tushuntirishda ko’nikma hamda malakaga e’tibor qaratilgani, chet tillarini, milliy tilni ona tili va chet tili sifatida o’qitish masalalari, avtomatik tarjima bilan

shug'ullangani uchun unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu soha o'zbek tilshunosligi uchun yangi soha bo'lganligi sababli qator kamchilik va muammolardan holi emas, albatta. Davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash hamda o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish dolzarb masalardan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda korpus lingvistikasining taraqqiyot tamoyillarini, korpus yaratishning kompyuter usullari, matematik modellarini belgilash, parallel korpuslar, kompyuter lug'atlarining ma'lumotlar bazasi sifatidagi ahamiyatini yoritish, korpus turlarini tahlil qilish, milliy til taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatish, ijtimoiy sohalar rivojidagi, ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash muhim qiymatga ega bo'lmoqda. So'nggi yillarda amaliy tilshunoslik sohalarini rivojlantirish, kompyuter lingvistikasi yo'nalishlarini, lingvistik masalalarni kompyuter imkoniyatlari asosida hal qilish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi funksional doirasini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor berila boshlansada, bu borada sanoqli ishlar amalga oshirildi, tizimli faoliyat olib borilmadi. Kirill alifbosidan yangi lotin alifbosiga o'tish, alifboni o'zgartirish, yangi imlo qoidalarini o'zlashtirish, o'zbek tili grammatikasini rus tili qolipidan farqlash bilan bog'liq vazifalar amalga oshirildi. Bu holat esa o'zbek tilini kompyuter tiliga aylantirish, o'zbek tili milliy korpusini shakllantirish, kompyuter va tarjima lug'atlarini yaratish jarayonini tezlashtirishga monelik qildi. Amaliy tilshunoslikni rivojlantirish, o'zbek tilini internet tiliga aylantirish, til masalalarini kompyuter yordamida hal qilish muammoligicha qolaverdi. So'nggi yillarda esa kompyuter yordamida tilni o'rganishni yengillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Oxirgi o'n yillikda korpus tilshunosligini jadal rivojlanishi leksikografiya sohasidagi tib o'zgarishlarga, so'ngra til o'qitish (lingvodidaktika) sihasidagi o'zgarishlarga olib keldi. Tahlilga asoslangan korpusning maqsadi tilda qanday hodisalar yuz berishi mumkinligi haqidagi nazariyalarni yaratish emas, balki empirik ma'lumotlarning tuzilishidan foydalanish hamda bu ma'lumotlar tilning o'ziga xos xususiyatlari tog'risida nimani anglatishini bilishdan iborat.

Korpus lingvistikasi Amaliy tilshunoslikning alohida rivojlantirilishi kerak bo'lgan sohalaridan biridir. Milliy korpuslarning har bir ko'rinishi milliy til taraqqiyotiga xizmat qiladi. O'zbek tili va qardosh bo'lmagan tillar korpusi madaniyatlar o'rtasidagi universal hamda farqli jihatlarni namoyon qilishga xizmat qiladi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar

2. Krieger Daniel. Corpus Linguistics: What It Is and How It Can Be Applied to Teaching Siebold University of Nagasaki [Text] / Daniel Krieger (Nagasaki, Japan), 2003. URL: http://iteslj.org/Articles/Krieger-Corpus.html
3. Mengliyev. B., Xolyorov. O'., Abdurahmonova.N. O'zbek tilidan universal qo'llanma (8-nashr).- Akademnashr, 2020.
4. Xolyorov. O' "O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari" nomli dissertatsiyasi. 2021
5. http://compling.navoiy-uni.uz/46
6. http://www.ziyonet.uz
7. http://www.disscat.uz
8. http://www. dissnatlib.uz
9. http://www. Academia.com

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING SAMARADORLIGI

Asamiddinov Erkin Ziyodillayevich
Bank-Moliya akademiyasi tinglovchisi

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolotsion taraqqiyot va inqilobiy to'fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo'jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o'zgarib boradi. Davlat moliyaviy nazorati-davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o'z ichiga oladi.

Xususan, mamlakatimizda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan progressiv makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati natijasida davlat moliyasini isloh qilish hamda davlat moliyaviy nazorati sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning amaliy tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida ham: "makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish" 38kabi yo'nalishlarga jiddiy e'tibor qaratildi. Mazkur vazifalarni bajarish uchun bir qator muhim vazifalar belgilandi va ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

[38] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Moliyaviy nazorat tizimi sub’ektlar, ob’ektlar, nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o’z ichiga oladi. Ular nazorat ob’ektining xolatini, ijroning kutilgan natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash, tuzatish kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar yo’sinini ishlab chiqish uchun yaxlit uyg’unlikda hamkorlik qiladi. O‘zbekistonda Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etiladi. Inspeksiya Davlat budjeti mablag‘larini sarflash samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishida ishlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy nazorati faoliyatning alohida sohasiga aylanib, uni samarali tashkil etishga bo‘lgan talab kuchaymoqda. Shundan kelib chiqqan holda, bu sohani yanada chuqurroq o‘rganish, uni amaliyotga joriy etish hamda doimiy tartibda takomillashtirib boorish lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda, Davlat moliyaviy nazorati tashkilotlari tomonidan 2017–2021-yillarda olib borilgan nazorat ishlarining tahliliga e’tibor qaratamiz



1 – rasm. 2017–2021-yillarda budjet intizomining buzilishi natijasida budjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi[39]

Budjet intizomining buzilishi va boshqa noqonuniy xarajatlarni oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi tomonidan 2017-yilda 11 510 ta tadbir o‘tkazilib, 534,1 mrld. so‘mlik, 2018-yilda amalga oshirilgan 7047 ta tadbir natijasida 539,3 mlrd. so‘mlik, 2019-yilda o‘tkazilgan 8074 ta tadbirda

[39] www.mf.uz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

142,6 mlrd. so‘mlik, 2020-yilda 4729 ta tadbir o‘tkazilib 246,0 mlrd. so‘mlik, 2021-yilda 7133 ta tadbir natijasida bu ko‘rsatkich 1072,1 mlrd. so‘mlik budjet mablag‘larining noqonuniy ishlatilganligi aniqlangan. 2021-yildagi 1072,1 mlrd. so‘mlik budjet kamomadining 931,2 mlrd. so‘mi yoki 86,9 foizi budjetga tiklanishi ta’minlangan. Mazkur aniqlangan holatlar yuzasidan budjet mablag‘larini qonuniy sarflagan yoki xato va kamchilikka yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan tegishli tartibda qonuniy choralar ko‘rilgan.

Binobarin, moliyaviy nazorat uslubini kuzatish, qiyoslash, taxlil qilish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish va uiumiy holatdan xususiy xulosalarga kelishvi o’z ichiga olgan o’ziga xos uslubiy yo’sinlar, yo’l va vositalar yordamida moliya-iqtisodiy axborotni va nazorat ob’ektshshng xaqiqiy holatini o’zaro bog’liklikda o’rganish deb tushunish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari daromadlarini shakllantirishda hamda ushbu budjetlarning mablag‘larini samarali, oqilona va aniq maqsadlarga sarflash, budjet intizomiga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash hamda budjet qonunchiligi profilaktikasi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida davlat moliyasini boshqarish sohasida ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni ta’kidlash joizki, davlat moliyasini boshqarishda davlat moliyaviy nazorat organlarining o‘rni va roli muhim ahamiyatga ega. Chunki, nazorat bor joyda o‘sish va samaradorlik bo‘lishi aniq.

SOHALARGA OID MATNLARNI NEMISCHADAN O’ZBEKCHAGA TARJIMASI XUSUSIYATLARI VA QIYINCHILIKLARI

Oltinoy Xushvaqtova
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sohalarga oid matnlarni nemischadan o’zbekchaga tarjimasi xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, tarjimashunoslikning hozirgi davrdagi talabi va uning jamiyatdagi o’rni ko’rsatilib ketilgan.

Kalit so’zlar: matn, tarjima, leksika, atama, tarjima muammolari, transformasiya (o’zgarish), ma’lumot.

Soxalarga oid matnlarni nemis tilidan o’zbek tiliga tajimasi.

Tavsif. Ushbu maqola sohalarga oid matnlarning nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimasiga bag‘ishlangan. Shuningdek, tarjimashunoslikka bo‘lgan talab va uning jamiyatdagi o‘rni ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: matn, tarjima, lug'at, terminologiya, tarjima muammolari, transformatsiya, ma'lumot.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, Yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalq vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Bilim va texnologiyalar jadal rivojlanishi oqibatida zamonaviy davr bugungi jamiyatda barcha jihatlarni qamrab olgan holda va zamonaviy iqtisodiyot o'zgarib boraytgan sharoit davrida, shuningdek turli xil sohalariga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlar – mutaxassislar bugungi kunda alohida e'tirofga munosibdir. Shu sababli keng bilimli tarjimon mutaxassislarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilm-fanda misli ko'rilmagan natijalarga erishilmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobliyatini oshirib borish va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

Shuning uchun ilmiy-texnik atamalarni tarjima qilishda tarjimon avvalam bor ilmiy-texnik nuqtai nazardan ma'noga katta e'tibor berishi lozim, keyinchalik esa ilmiy-texnik tor atamalari bilan solishtirilish ko'nikmasiga ega bo'lish lozim[1.B.303].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Har xil sohalarga matnlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi talablarga amal qilinishi lozim: tarjima ekvivalentiga, tarjima aniqligiga, tarjima ma'lumotlar sifatiga, tarjima mantiqiyligiga va uning yoritilish sifatiga. Ilmiy-texnik matn sifatli tarjimaga ega bo'lishi uchun, tarjimon quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- Chet tili nazariyasi, tilning fonetikasiga, leksikasiga va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega bo'lishi lozim;
- Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish xususiyatlar ko'nikmasi amalyotiga;

- Lingvistik amaliy bilimga (tarjima usullari, transformasiya, so'zlar ekvivalentini almashtirish ko'nikmasi, so'zlar qo'shish ko'nikmasi, atamalar bilan tasvirlash ko'nikmasi va hakozo);
- Matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jumlalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobliyatiga ega bo'lish lozim (bunda maxsus ilmiy – texnik matnni tarjima qilishda yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinadi)[5.B.253259].

Eng asosiysi tarjimada bilinmas muammolardan biri bu tarjimon "ilmiy tarjima" nima ekanligi haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmaslik. Ilmiy tarjimani muvaffaqiyatli bajarish uchun, uni boshqa tarjima turlaridan farqi nimada ekanligi haqida tarjimon tasavvurga ega bo'lishi shart. Umuman olganda, ilmiy uslub tarjimasi, tadqiqot mavzusiga oid ko'plab matnlarni o'z ichiga oladi – tezislardan boshlab, referatlar va maqola taqrizlarini, diplom, dissertatsiya va monografiya qo'l yozmalari o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagi ish turlarini tarjima qilishda quyidagi faktorlarga e'tibor berilishi lozim: tarjima maqsadi, tarjima uslubi, tarjimadagi matnni tashkil qilish va uning qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik munosabatlar.

Akademik matnlarning tashqi tuzilishidan tashqari (Boblar, bo'limlar, paragraflar), uning ichki tizilishi ham mavjud. Ilmiy matnlarni tarjima qilishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud - bu umumiy ma'lumotlardan material muammolarni belgilab olish va ularning yechimini taqdim etish usulidir. Misol uchun Nemis tilida matn qismlarini bir-biriga bog'lash uchun, shuningdek, bitta ibora ma'nosidan boshqa ibora ma'nosiga o'tish uchun, turli maqsadlarda ishlatiladigan bir qancha so'zlar va iboralar mavjud. Misol uchun:

- Also;
- Außerdem;
- Im Allgemeinen;
- Zum Beispiel, Als Beispiel

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarjimada atamalarga oid muammolar.

Tarjima ilmiy tafakkurning yetakchi shakllaridan biridir va u ma'noni anglash va idrok etish tushunchalari bilan bog'liqdir. Ilmiy matndagi deyarli har bir atama leksik birlik bo'lib turib, u maxsus leksik birliklar ma'nolaridan birini ifodalaydi. Bu leksik birliklar esa atamalar kategoriyasiga mansubdir.

Umuman olganda atama bu fan va texnologiyalar kesimida ma'lum bir sohaga xos bo'lgan so'z yoki iboradir. Atama tilshunoslikda aniq semantik chegaralarga ega. Shundan kelib chiqadiki, atamalar bu ma'lum bir fanga tegishli og'zaki iboralar bilan mustahkamlangan tushunchalar tizimidir. Agar umumiy tilda

(atamadan tashqari) so’z ko’p manoga ega bo’lsada, u atamalar kategoriyasiga tushib qolsa, ushbu so’z aniq ma’noga ega bo’lib qolib, tarjimada esa uning atamadagi ma’nosi qo’llaniladi.

Shu sababli, tarjimonning ilmiy matnni tarjima qilishda yo’l qo’yadigan asosiy xatolaridan biri bu ilmiy lug’atlardan foydalanish qobliyati yetarlicha ko’nikmalar mavjud emasligi yoki atamaga xos bo’lgan mavzu haqida aniq ma’lumotga ega emasligidir - bu xolat xatto o’z ona tilida ham kuzatilishi mumkin. Qo’llanilish va miqdoriy jihatdan, ilmiy uslub matnlarida atamalar maxsus lug’atlari boshqa turdagi lug’atlardan kengroq foydalaniladi. Ular quyidagilar: nomenklatura nomlari, professionallik lug’at va atamalar, kasbga oid jargon va boshqalar. Ushbu leksika ilmiy matndagi barcha sohalarida keng qo’llaniladi (yani matn klassifikasiyasida, matn tuzulishida va uning funksiyasida, matn komponentlarida va faktorlari ham inobatga olinadi). O’rtacha hisobda, atamalarga oid yoki terminologik lug’at ilmiy matnlarning umumiy lug’at boyligidan 20 foizini tashkil qiladi.

Tarjimada grammatikaga oid muammolar.

Ilmiy muloqot uslubida o’ziga xos grammatik xususiyatlar mavjud.

Masalan nemis tilidan o’zbek tiliga ayrim matnlar tarjima qilinganda, bazi hollarda leksik ma’no yo’qolishi va fe’llar mavhum ma’noga ega bo’lish holatlari kuzatiladi. Misol uchun:

- Es sieht sehr Interessant aus – Bu juda qiziq ko’rinadi.
- Vielleicht, hat er sich erkältet – Balki u shamollab qolgan.
- Ali fühlt sich seltsam – Ali o’zini g’alati his qilayapti.

Bu hollarda ot birikmalarining o’rniga semantik yuklama fe’llarga tushushini ko’rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda fe’llar ushbu gaplarda muhim grammatik vazifani bajarib kelmoqda.

Shuningdek, nemis tilidagi ilmiy uslub matnlarda mavhum fe’llar ham ko’p hollarda ishlatiladi:

- Viele Häuser wurden im kurzen Schlamm gebaut– Ko’pgina uylar qisqa mudatda qurilgan;
- In den 2000er Jahren wurden viele neu Planeten entdeckt (gefunden) – 2000-yillarda bir qancha yangi sayyoralar kashf qilingan (topilgan).

Yuqorida ko’rsatilgan misollarda ko’rinib turibdiki bunda mavhum otlar nemis tilida ham keng qo’llaniladi va asosiy yuklama fe’llarga qaratilgan yani majhul nisbat fe’llariga.

Tadqiqotni yana qiziqarli tarafi shundaki, bugungi kungi lingvistikasida nemis tilida hozirgi zamon fe’llarning qo’llanilish foizi o’tgan zamon fe’llari bilan teng, bunda albatta ilmiy matnning kontekstiga bog’liq.

Umuman olganda ilmiy matn aniq mantiq bayoniga ega bo'lishi shart va ushbu mantiqni to'g'ri va sifatli tarjima qilib berish esa tarjimonning eng asosiy vazifalaridan biridir. Ilmiy uslubdagi matnlar ko'p hollarda bir hil ko'rinishga ega bo'lib turib, ushbu matnlar ifodalash xususiyatlariga ega. Bu kabi matnlarda so'roq gaplar kam ishlatiladi, ishlatilsa ham matn bilan tanishayotgan o'quvchini e'tiborini qaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ilmiy matnlarning xususiyatlaridan biri, unda his tuyg'u hislatlari qo'llanilmaydi.

Tarjimaning umumiy nazariyasi.

Tarjima umumiy nazariyasi, tarjimaning aniq tajribasidan kelib chiqqan xulosalarni tizimlashtiradi va unga asos yaratadi. Tarjima jarayonida, tarjimaning natijalari va uning g'oyalari umumlashtiriladi, shu bilan birgalikda tarjima faoliyatida tarjimaga xos bo'lgan shart-sharoitlar va omillar hisobga olinadi.

Tarjimaning umumiy nazariyasi konsepsiyasi rus tilshunosi va lingvisti A.V. Fedorov asarlarida keng va to'liq yoritilgan. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, har qanday sifatli tarjima matni, uning lingvistik asosini filologik tahlil qilinish bilan boshlanib, badiiy ijod yoki ilmiy tahrir bilan yakunlanishi lozim.

Tarjimaning maxsus nazariyasi.

Tarjimaning maxsus nazariyasi (yoki tilshunoslikda bir juftlikka qaratilgan tarjima bo'yicha tadqiqotlar) ikki til o'rtasidagi yozishmalarning ekvivalentlari, variantlari, shuningdek, muayyan vaziyatda ularni tanlash omillari va mezonlarini hisobga olinishi lozim. Ushbu nazariya doirasida tarjima hodisalarini o'rganishning asosiy usuli - bu ikki tilni taqqoslashdir. Misol uchun: O'zbek va Rus tilini, yoki Rus va Nemis tilini, yoki Nemis va Nemis tilini.

Tarjimaning transformatsion nazariyasi

Tarjimaning transformatsion nazariyasi (modeli), tarjima faoliyati davomida tarjima matniga o'zgartirish kiritish bilan ifodalanadi. Sabab ba'zi hollarda matn ma'nosini to'liqligicha tarjima qilib bo'lmaydi yoki tarjima qilish mushkul.

Xulosa. Misol uchun:

In der Vergangenheit galten die Computer als hervorragende Erfindung. Heute sind sie Teil des unseres täglichen Lebens. Eine der lezten Erfindungen ist die virtuelle Realität. Das Virtulley-Reality-System hat die Fähigkeit, Benutzer an exotischen Orte wie in Maldivs zu bringen wie Zum Beispiel den Strand oder das Innere des menschlichen Körpers.

O'zbek tili tarjimasi:

O'tgan davrda kompyuterlar ajoyib ixtiro deb hisoblanar edi. Bugungi kunda ular bizning kundalik hayotimizning bir qismini tashkil qiladi. Oxirgi ixtrolardan biri - bu Virtual haqiqat. Virtual haqiqat tizimi foydalanuvchlarni Maldivdagi plyaj

yoki inson tanasining ichki qismi kabi ekzotik joylarga olib borish imkoniyatiga ega.

Misolda ko'rib turganimizdek nemis tilidan o'zbek tiliga bajarilgan tarjima to'liq tarjima qilinmagan, aksincha transformaiyaga duch kelgan. Yani original matn o'zbek tilida boshqa so'zlar bilan ma'nosi yoritilgan.

Tarjimaning transformatsion modeli amerikalik tilshunos N. Xomskiyning "transformatsion yoki generativ grammatika" g'oyalari bilan bog'liq. Ushbu nazariya doirasida tarjima matni yaratish jarayoni boshlang'ich tilning birliklari va tuzilmalarini tarjima tilining birliklari va tuzilmalariga sintaktik ravishda aylantirish sifatida ko'rib chiqiladi, bunda tarjima jarayonining bosqichlari va usullariga katta e'tibor beriladi. Shuningdek, ushbu nazariya amerikalik tarjimashunoslari K. Nayde, B.O. Kads va V. Koller asarlarida ham eslatilib o'tilgan.

Umuman olganda, transformatsion nazariya g'oyalari tarjima bilan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va tillar juftligini tarjima qilish jarayonida o'zaro bog'liq bo'lgan tuzilmalar va birliklarni aniqlashda tarjimashunosikdagi imkon beruvchi muhum usullaridan biri.

Adabiyotlar

1. Ogli, Kuvonov Zarifjon Maxsiddin. "Die vorteile und nachteile der online-bildung." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 2 (2021): 478-481.
2. Зариф, Кувонов (2020). Немис тилига француз тилидан ўзлашган сўзларнинг структурал-семантик тадқиқи, XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация
3. Кувонов, Зарифжон (2020). Немис тилига ўзлашган сўзларнинг келиб чиқиш тарихи. Проблемы и перспективы развития современной науки в странах Европы и Азии – XXIV Международной научно-практической интернетконференции.
4. Муродкосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. (2020). Немис ва узбек тилларида суз ясаш усуллари (композицион усул мисолида). Academic research in educational sciences, (2).
5. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. НЕМИС ВА
6. ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ ЯСАШ УСУЛЛАРИ (КОМПОЗИЦИОН УСУЛ МИСОЛИДА).

SURXON NASRIDA DAVR MUAMMOSINING YORITILISHI
(Safar Kokilov hikoyasi misolida)

Mo‘minova Aziza
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim va sport
tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi

Ubaydullayeva Shohista
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, o‘simlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari karantini yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada surxon adabiy muhitida yashab, o‘z davrining muammolarini keskin tanqid etgan Safar Kokilovning “Bir majlisda” hikoyasida davr muammolarining satirik ko‘rsatib berilishi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: majlis, shifokor, dehqonchilik, paxta, satira, muammo, davr.

Istiqlol davri adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o‘rni va milliy madaniy me’rosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojidagi munosib o‘rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan ijodkorlar me’rosini o‘rganishni taqazo etmoqda. Bugungi madaniy-ma’rifiy sohalardagi amalga oshirilayotgan islohotlar va kechayotgan jarayonlar o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo‘ymoqda. *“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”*[40]. Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma’naviy olamini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Har qanday badiiy asar ham o‘z davrining xoh maishiy, xoh ijtimoiy, xoh siyosiy bo‘lsin qandaydir muammolarini aks ettiradi. Chunki ijodkor borliqni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, o‘z dunyoqarashi, tafakkuri, bilim darajasi, tuyg‘ulari, kayfiyatidan kelib chiqib asarini yozadi. *“Albatta, adabiyot o‘z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko‘rsatishi kerak. U bu bilan kishilarning diqqat-e’tiborini ma’lum masalaga jalb etadi.”,*[41] deydi professor Abdulla Ulug‘ov.

Dunyo adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qaysi mavzuda yozilgan bo‘lmasin, shuhrat topgan badiiy asarlar davr muammolarini yoritib berganligining

[40] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи. –Тошкент: 2017. 23-декабрь
[41] Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2018. 49-b.

guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘zimizning adabiyotimizda ham shu holatga ko‘zimiz tushadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” yoki bo‘lmasam “Kecha va kunduz” romanlari misolida qaraydigan bo‘lsak, har ikki asar ham o‘z davrining dolzarb masalasini aks ettirishga xizmat qilgan.

Surxon nasri namoyandalarining ham davrning turli muammolarini aks ettirgan asarlari mavjud. Shular sirasiga safar Kokilovning qator asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Adib ijodiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, aksariyat asarlarida shifokorlar yoxud shifoxona bilan bog‘liq voqealar qalamga olinganligining guvohi bo‘lamiz. Bu narsa uning shu sohada ishlagani va bu muhitni ich-ichidan bilganligi uchun bo‘lsa kerak. Safar Kokilovning davr muammolarini aks ettirgan yumoristik ruhda yozilgan hikoyalari ham bor. Ulardan biri “Bir majlisda” deb nomlangan hajviyasidir. Hajviya shifoxona bo‘lim boshlig‘i Qodirovning hikoya qahramoni ham so‘zlovchisi bo‘lmish shifokordan o‘zining o‘rnidan majlisga borib kelishini iltimos qilishi bilan boshlanadi. Tuman miqyosida o‘tkazilayotgan majlisda tuymandagi barcha sohalaridagi insonlar, asosan, boshliqlar yig‘ilgan bo‘ladi. Bosh qahramon majlisda ko‘plab ziyolilar qatnashayotganini ko‘rib majlis madaniy-ma’rifiy mavzuda bo‘lsa kerak deb uzoq kutadi, gap esa faqat suv va dehqonchilik xususida boradi. Majlis raisi barchani bir-bir turg‘izib hisob so‘raydi, navbat qahramonimizga yetganida “Ishimiz yaxshi. Tez yordam mashinalarimiz barisi soz. Yaqinda g‘ildiraklarini almashtirdik. Chaqiriqlarga o‘z vaqtida borib turibmiz. Shikoyatlar tushmayapti. Hozir gripp ko‘paygan. Kuniga yetmish-saksonta chaqiriqqa borib, bemorlarga baholi qudrat yordam beryapmiz”,[42] deb javob beradi. Uning javobidan majlis raisining fig‘oni falakka chiqadi va “hoy do‘xtur, kasalingni ishxonangga borib davolaysan. Bu yerda sen bizga, o‘zingga berkitilgan fermer xo‘jaliklardagi ahvol to‘g‘risida axborot ber. G‘allaning o‘sishi qanday? Gul davrida dori berildimi? Paxtani navbatdagi suvdan chiqardilaringmi? Suvni sharbat usulida beryapsilarmi? Menga ana shulardan gapir, o‘rtoq do‘xtur” – deya shifokorni “tuzlaydi”.

Shu paytgacha davlat yig‘ilishlarida qatnashmagan qahramonimiz endi majlisning mavzusi nima ekanini anglab yetadi. Shu holatda asar qahramoni o‘zining holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Boshimga tayoq tekkanday karaxt bo‘lib joyimga cho‘kdim. Bir kulgim keladi, bir jahlim chiqadi”. To‘g‘ri mantiqan olib qaraganda uning kulgisi kelishiga ham, jahli chiqishiga ham haqqi bor. Axir shifokorlar, o‘qituvchilar dehqonchilik bilan shug‘ullanib, soatlab majlislarda o‘tirsa, bemorlarga kim qaraydi, tibbiyot qachon rivojlanadi?!

Hikoya shunday tugaydi “Yuz yil yasha –yuz yil o‘rgan” deganlari bejiz emas-da. Shunday qilib majlis yana ikki soatlar cho‘zildi. Paxtasini suvga bostirib

[42] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/safar-kokilov/safar-kokilov-bir-mazhlisda-azhviya/

zaxlatgan bir-ikki maktab direktori va terapiya bo‘limining boshlig‘iga “Hayfsan” e’lon qilindi. Bir artist ishdan haydaldi. Bir maktab direktori paxta ko‘chatlari tekis o‘sib chiqmaganligi uchun chigitni ekmay sotgan degan gumonda ishi prokuraturaga oshirildi.

Majlis oxirida viloyatdan kelgan vakil paxta va g‘allaning ahamiyati haqida yana bir soat va’z aytib;

-Ishga ma’suliyat bilan yondoshmagan kishilarni jinoiy javobgarlikgacha tortishimiz mumkin. Hamma ishini yig‘ishtirib dalaga chiqsin. Kerak bo‘lsa, o‘sha yerga ko‘chib borib yashaysizlar ham…-deb dag‘dag‘a qildi.

Shu bilan majlis tugab tashqariga chiqqanimizda soat tungi uchni ko‘rsatayotgan edi. Yo‘limiz bir bo‘lsa ham bosh hakim meni kutmay jo‘nab qopdi. Zarda qilganda. Esnay-esnay uyga piyoda yetib keldim. Xo‘rozlar qichqirayotgan edi”.[43]

Ushbu hajviyada hikoya qilingan voqealar yaqin yaqingacha bor edi. Maktab o‘quvchilaridan tortib, shifokorlargacha barcha soha vakillari terimga jalb qilgan kunlarni ko‘pchilik yodidan chiqarganicha yo‘q. Adib o‘z davrida urchigan mana shu illatni mahorat bilan qalamga olgan, fosh qilgan. Hajviya oxirida majlisning tungi soat uchda tugaganligi ham “nishonga aniq urilgan o‘q” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda shaxsan davlat rahbarimiz tomonidan majlisbozlikka qarshi kurash boshlangan va jamiyatimiz bu illatdan qutilib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “*Keraksiz majlislarni o‘tkazishni tugatish kerak. Otbozorga aylanib ketyapti. Ba’zi rahbarlar majlisbozlik bilan kasal. Keraksiz majlislar o‘tkazadigan… 40 daqiqadan ko‘proq (majlis) o‘tkazadiganlar ishdan ketadi*”[44] deya ta’kidlab o‘tgandilar.

Iste’dodli adib Safar Kokilovning har bir hajviyasiga nazar tashlasangiz jamiyatimiz, insonlar hayotidagi qaysidir muammoni qo‘rqmasdan olib chiqqanligining guvohi bo‘lasiz. Shu jihatdan adib ijodi chuqur o‘rganilishga, tadqiq qilinishga muxtoj. Adib hajviyalarida o‘zi eshitgan va ko‘rgan voqealarni, insonlarda uchraydigan qusur va illatlarni shunday borligicha, chetdan turib, hikoya qilib beradiki, qahramonning holati, so‘zi, qiliqlari sizda beixtiyor kulgi uyg’otadi, shu bilan birgalikda tafakkur qilishga chorlaydi. Aynan shuning uchun ham Safar Kokilov ijodi adabiyotimizdan munosib o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи. –Тошкент, 2017. 23-декабрь.

[43] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/safar-kokilov/safar-kokilov-bir-mazhlisda-azhviya/
[44] https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/27/meetings/

2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2018. - 308 b.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. - 408 б.
4. Namozova S. Safar Kokilov ijodida inson taqdiri muammosi. Bitiruv malakaviy ishi. –Termiz, 2021. -52 b.
5. Foydalanilgan internet saytlari
6. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/safar-kokilov/safar-kokilov-bir-mazhlisda-azhviya/
7. https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/27/meetings/

SPARK IGNITION ENGINE EMISSIONS AND METHODS OF THEIR MITIGATION

Usmanov Umidjon Ravshan o'g'li
Master of science, Lecturer in Mechanical and Aerospace department in Turin Polytechnic University in Tashkent

Abstract. The increase in the number of transports, propelled by internal combustion engines will naturally lead to the increase of the amount of poisonous exhaust pollutant gases, which reduces the quality of air, especially in crowded areas. As a result, this induces different diseases that people are suffering from. In this article, different pollutant gases, emitted by spark-ignition (SI) engine, their formation mechanism and effects are discussed. Currently available technologies to mitigate these pollutants, i.e., engine aftertreatment system is considered as well.

Keywords: SI engine pollutants, carbon-monoxide, nitrogen oxides, particulate matter, unburned hydrocarbons, three-way catalyst

Introduction. Nowadays, in general, the following exhaust pollutants are created by combustion system: carbon monoxide (CO), nitrogen oxides (NOx), particulate matter (PM), unburned hydrocarbons (HC) and sulphur oxides (SOx) [1]. Sulphur oxides are released due to the sulphur content of the fuel. Currently, in majority of cases, sulphur content in the fuel is filtered in the refining stage and its content becomes negligible [2]. Therefore, SOx emissions are also considered negligible and is not included in this article. In addition, PM emissions in SI engine are also almost null since the average temperature of the gases are higher and more uniform than in compression ignition (CI) engine. [2] The conditions (temperature, pressure, ambient air content, fuel content and quality as well as EGR amount) and engine design (compression ratio, engine layout and configuration, injection timing, spark advance) as well as processes running inside the combustion chamber directly influences the amount of pollutants. Chemical reaction kinetics plays a major role in defining the concentration of pollutants since their values

differs from values calculated assuming chemical equilibrium. A number of solutions are available to limit the formation pollutant gases resulting from the combustion system. An aftertreatment system, which is usually used in SI engines is called three-way catalyst (TWC), which can oxidize both unburned hydrocarbon and carbon monoxide and reduce nitrogen oxides, while working in stoichiometric air-fuel ratio condition [3].

NOx pollutant formation mechanism

Although NOx formation processes are not part of fuel combustion process, the chemical reactions, through which it is produced take place in an environment, that is the result of combustion process. There are in general two formation mechanisms: thermal and prompt [3]. According to thermal mechanism, NOx is formed throughout high temperature burned gas behind the flame front due to oxidation reactions of nitrogen, contained in air, that occur at high temperature environment (above 1800 K) without attaining chemical equilibrium. The burned gas temperature is directly proportional to NOx formation rate. In SI engines, NOx is mainly constituted by nitrogen monoxide NO (98-99 %), whereas NO2 share is around 1-2 %. The following chemical reactions can take place inside combustion chamber as a result of high temperature, that lead to the formation of NOx pollutants:

$$N_2 + O \rightarrow NO + N$$
$$N + O_2 \rightarrow NO + O$$
$$N + OH \rightarrow NO + H$$

The part of mixture, that burns in the initial phase contributes to larger share of NOx formation since it reaches higher temperature as a result of extensive compression after being compressed compared to part of mixture that burns later [3]. Prompt formation mechanism contribution is usually negligible and becomes important for low temperature combustion conditions

$$CH + N_2 \rightarrow HCN + N$$

The nitrogen molecule can be broken by means of CH radicals. As a result, atomic nitrogen and HCN are produced, that can further react to form nitrogen oxides. This mechanism is essential in the region, where HC concentration is high [4]. Since activation energy for this reaction is low, it is rapid and has low sensitivity to temperature.

Usually, main controlling or operating parameters are air-fuel ratio, spark timing and the amount of residuals. Although maximum combustion temperatures are reached for slightly rich mixture, the absence of oxygen prevents the excessive formation of nitrogen oxides. Therefore, NOx amount becomes maximum for slightly lean mixtures, when air-fuel equivalence ratio reaches the value of 1.1

($\lambda = 1.1$), where temperature is still high and oxygen is still available behind the flame front. Concerning the timing, NOx amount scales with spark advance due to the direct relation of spark advance with peak pressure and temperatures. On the other side, spark retard may worsen the overall engine efficiency, so trade-off between fuel consumption of NOx amount should be taken into account. Residual gases may act as a diluents in the unburned mixture that causes the reduction of peak temperature, reached during the combustion process. Moreover, other operating and design parameters like engine speed/load and engine design and geometry directly affect NOx concentration.

CO formation mechanism

CO formation mechanism is complex and consist of several steps. CO formation mechanism occurs during the oxidation process of hydrocarbons. In the final step, CO is oxidized to CO2 [3].

$$CO + OH \rightarrow CO_2 + H$$

In rich environment, all the hydrocarbons start the oxidation process, but not all can proceed final oxidation reaction due to the lack of oxygen. At high temperatures inside the combustion chamber, reaction kinetics allows the reaching the chemical equilibrium, thus, some amount of CO is expected to be produced as a result of dissociation of CO2 into CO (reverse reaction). During the expansion stroke, the freeze of chemical kinetics results in further formation of CO. Therefore, actual concentration of CO is different from those calculated from chemical equilibrium. CO concentration, calculated on the basis of chemical equilibrium is around 1 % for stoichiometric air-fuel ratio. The main operating parameter for CO formation is air-fuel ratio, that dramatically increases when air-fuel ratio is reduced (rich environment). Finally, all the working phases, that induces the engine operation with rich mixture (transient, start-up, wide open throttle WOT) cause the increase in CO emissions.

HC formation mechanism

Unburned fuel undergoes several processes until it reaches tailpipe in the form HC emission. Almost one tenth of fuel doesn't participate in the combustion process for the following reasons: presence of crevice regions, flame quenching near the combustion chamber walls, oil layer absorption/desorption phenomenon, bulk quenching and fuel absorption by deposits [4]. More than half of unburned fuel is oxidized through post combustion. Finally, the half of exhausted HC is oxidized in exhaust port. At the end, 1-2 % of fuel is exhausted at the tailpipe. The main controlling parameters are air-fuel ratio, spark timing and the amount of residuals. HC emissions becomes significant both for rich and lean mixtures. In rich environment, crevice trapping, oil layer absorption and wall quenching

phenomenon become important, while in lean environment bulk quenching and misfire are dominating. A pressure increase, induced by spark advance forces the mixture to trap more in crevices and oil layer absorption more important. In addition, low temperature in final combustion phases, resulted by spark advance makes postflame oxidation more difficult and slower [5]. The rise in the amount residuals makes bulk quenching and misfire essential, and thus HC concentration increases.

Moreover, secondary operating and design parameters like engine speed/load, wall temperature and engine geometrical parameters affect the concentration of HC emission. Unburned hydrocarbons usually reduce at and high engine speed and high laod due to the enhancement of postflame oxidation reactions. Combustion chamber wall chamber directly influences the significance of wall quenching phenomena, while chamber chape, compression ratio and valve phasing impact on HC emissions as well.

SI aftertreatment system



Figure 1. Three-way catalyst

Automotive catalyst, usually called three-way catalyst (TWC) can influence the rate of chemical reaction, but doesn't participate in it. Throughout the transformation reaction, a catalyst can provide a path with lower activation energy, which increases the rate of reaction. TWC conversion efficiency is not constant and strongly depends on operating temperature [5]. The catalyst light-off temperature is the minimum above which catalytic reactions are initiated ($\eta_{conv} > 50$ %). TWC is able at the same time to oxidize CO and HC and reduce NOx pollutants. In lean environment, NOx conversion efficiency dramatically reduces, while in rich environment, CO and HC conversion efficiency decreases. Therefore, it is important to maintain stoichiometric air-fuel ratio for the TWC to efficiently operate with three pollutants simultaneously. For this reason, two lambda sensors are installed at the input and exit of TWC to control the air-fuel ratio.

Conclusion. Overall, there are three major pollutants, emitted by gasoline (SI) engine, that are CO, HC, NOx. While CO is produced in rich environment due to the lack of oxygen in combustion chamber, HC and NOx formation mechanism are more complex and requires deeper analysis of combustion process. Several factors, like engine working point (speed and load), intake air and fuel condition, air-fuel ratio spark timing and amount of residuals affect the concentration of these pollutant, which highlight the importance of controlling these parameters. Finally, three-way catalyst is used in automotive industry for SI engines to mitigate gasoline exhaust pollutants.

Bibliography

1. W. Addy Majewski, Hannu Jääskeläinen. Engine emission control. DieselNet technology guide. March 2021
2. Takada, Y., et al., 2007. “Improvement of Fuel Economy by Eco-Driving with Devices for Freight Vehicles in Real Traffic Conditions”, SAE Technical Paper 2007-01-1323, doi:10.4271/2007-01-1323
3. Millo F, Postrioti L. Internal combustion engines. Improving performance, fuel economy and emissions. MDPI AG (2 October 2020). ISBN: 3039361686
4. Cenk Sayin, H. Metin Ertunc, Murat Hosoz, Ibrahim Kilicaslan, Mustafa Canakci, Performance and exhaust emissions of a gasoline engine using artificial neural network, Applied Thermal Engineering, Volume 27, Issue 1, 2007, Pages 46-54.
5. Towoju, Olumide & Ishola, Felix. (2020). A case for the internal combustion engine powered vehicle. Energy Reports. 6. 10.1016/j.egyr.2019.11.082.

АКТУАЛЬНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ГЕННО-ИНЖЕНЕРНЫХ ПРЕПАРАТОВ XXI ВЕКЕ

Шигакова.Л.А Бобумуродова М.М
Ташкентской медицинской академия г. Ташкент Студентка лечебного факультета

Аннотация. В настоящее время применение генно-инженерных препаратов являются эффективным лечением клинических заболеваний.Генно-инженерные биологические препараты используется при лечение воспалительных и аутоиммунных заболеваниях. Применение генно-инженерных препаратов дает возможности улучшить качество жизни пациента и предотвратить их от инвалидности. Актуальность применение генно-инженерных биологических препаратов клинической лабораторной медицине усовершенствовало благодаря развитие технологий полученными путем генной терапии.

Ключевые слова: генная инженерия, артрит, биологические препараты, биоинженерия, патогенез.

Развитие генной терапии началась с 1890 года Behring и Kitasao опубликовали данные о нейтрализующей способностью сыворотки животных в отношение дифтерийного токсина. Конец 19 века P.Ehrlich впервые выдвинул гипотезе о специфических magische kugel которые направлено действуют на отдельные звенья патогенеза заболевания, не повреждая здоровые клетки. В 1975 Кохлер и Мильштейн впервые описали способ получения очищенных моноклональных антител с использованием гибридомной технологии. Так 1990 году активно было разработано генно-инженерные методы и таким путем было получено генно-инженерные биологические препараты. Применение генно-инженерных препаратов привело к эффективному лечение ревматоидного артрита.

При лечении ГИБП необходимо помнить о возможности развития пневмоцистной пневмонии, которая по клиническим и рентгенологическим характеристикам может практически не отличаться от «метотрексатного пневмонита» [1, 2]. Госпитальная летальность от пневмоцистной пневмонии у больных РА составляет 30,8%. Подчеркивается, что в целом летальность от этого заболевания среди ВИЧ-негативных пациентов втрое выше, чем у больных СПИДом (30–60 и 10–20% соответственно). Исходя из этого считают крайне необходимой разработку международного консенсуса по профилактике пневмоцистной пневмонии при РЗ с четким определением показаний и лекарственных схем [3].

Применение генно-инженерных биологических препаратов (ГИБП) у больных ревматоидным артритом позволило предупреждать раннюю инвалидизацию таких пациентов [4]. Наиболее важной группой ГИБП до настоящего времени остаются ингибиторы фактора некроза опухоли (ФНО) – α-цитокина, играющего ведущую роль в иммунопатогенезе ревматоидного артрита, с которым связывают развитие синовиального воспаления и остеокласт-опосредованной костной деструкции [4]. Внедрение в клиническую практику моноклональных антител к ФНО-α рассматривается как одно из наиболее крупных достижений в лечении ревматоидного артрита за последнее десятилетие [5]. Клинический эффект при применении ингибиторов ФНО-α достигается также за счет опосредованного снижения биологической активности интерлейкина (ИЛ)-1 и других прововоспалительных цитокинов, в частности, ИЛ-6, ИЛ-8 и гранулоцитарномакрофагального колониестимулирующего фактора (ГМ-КСФ) [5]. В настоящее время в России для лечения ревматоидного артрита

зарегистрировано 4 препарата, блокирующих ФНО-α – инфликсимаб (Ремикейд), адалимумаб (Хумира), цертолизумаба пэгол (Симзия) и этанерцепт (Энбрел).

Список литературы

1. Mori S, Sugimoto M. Pneumocystis jirovecii infection: an emerging threat to patients with rheumatoid arthritis. Rheumatology (Oxford). 2012;51(12):2120–30. DOI: 10.1093/rheumatology/kes244.
2. Watanabe K, Sakai R, Koike R, et al. Clinical characteristics and risk factors for Pneumocystis jirovecii pneumonia in patients with rheumatoid arthritis receiving adalimumab: a retrospective review and case-control study of 17 patients. Mod Rheumatol. 2013;23(6):1085–93. DOI: 10.1007/s10165-012-0796-5.
3. Stamp LK, Hurst M. Is there a role for consensus guidelines for P. jiroveci pneumonia prophylaxis in immunosuppressed patients with rheumatic diseases? J Rheumatol. 2010;37(4):686–8. DOI: 10.3899/jrheum.091426.
4. Каратеев, Д.Е. Вопросы иммуногенности биологических препаратов: теория и практика / Д.Е. Каратеев // Современная ревматология. – 2009. – № 1. – С. 67–72.
5. Сигидин, Я.А. Биологическая терапия в ревматологии / Я.А. Сигидин, Г.В. Лукина. – М.: 2007. – 179 с.

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA TATBIQ ETISH

Jumamuratov Doniyor Mansurbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son bilan rasmiylashtirilgan “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida” buyrug‘i asosida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni tizish tartibi, uning amaliyotda qo‘llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarining amaliy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xalqaro bozor, investitsiya.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida turli mamlakatlarda sifatli, taqqoslanadigan va ishonchli hamda uyg’un axborotlarni shakllantirishda yagona yondashuvni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va

raqobatbardosh tizim yaratish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub’ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash bilan bog‘liq. Xususan, so‘nggi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo‘yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda ushbu ulkan ishlarning navbatdagi istiqbolli bosqichiga o‘tildi desak bo‘ladi.

Mazkur bosqich bo‘yicha respublikamizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda va o‘z -o‘zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan BHMS bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXSga muvofiq o‘zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MHXSni qabul qilish va unga muvofiq hisobot taqdim etish global bozorda yagona moliyaviy axborot almashish muhitini yaratadi. Bu jarayon o‘z navbatida, axborot shaffofligi, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXS qo‘llanishi bozor likvidligi yaxshilanishi, kapital bozorlarining rivojlanishi, qimmatli qog‘ozlar bozorlarida savdolar ko‘lamining kengayishi, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishiga olib keladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu ijobiy natijalarga erishish uchun MHXSni milliy bozorda samarali tatbiq etish chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi45.

Prezidentimizning 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”46gi qarori MHXSga o‘tishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur qaror bilan 2021-yildan boshlab MHXSga o‘tishi kerak bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati tasdiqlandi va shu ro‘yxatda belgilangan tashkilotlarning buxgalteriya xizmati bo‘limida MHXS ko‘nikmasiga ega bo‘lgan kamida uchta sertifikatlangan mutaxassis bo‘lishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ro‘yxatga ko‘ra 2021-yil 1-yanvardan boshlab yurtimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirishlari belgilandi.

[45] H. Irgashev, “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020
[46] SH.Mirziyoyev, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari har yili hisobchilarning malakasini talab etiladigan darajada oshirishi, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning tegishli sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassis tomonidan imzolanishi, sertifikatlangan xodimlar mehnatini munosib rag‘batlantirish tizimini joriy etishi lozim.

MHXSni tatbiq etish bo‘yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o‘rganish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O‘zbekistondagi kompaniyalarning MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o‘tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

MHXSga o‘tishning jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, axborot shaffofligini oshirish – shaffoflik xususiyati sifatli moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta’minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, hisobdorlik oshishi – bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o‘rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o‘z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo‘yicha to‘laqonli axborotga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik oshishi – yagona moliyaviy tildagi hisobotlarni tahlil qilish asosida, investorlar kapitalni xalqaro miqyosda yo‘naltirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi – moliyaviy axborotlarning batafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.

Beshinchidan, kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog‘ozlar bozorlarida savdolar ko‘lamining kengayishi – bo‘sh kapital mablag‘laridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning turli sohalari zarur kapital bilan ta’minlanishi, kapital bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, qimmatli qog‘ozlar bozorining muayyan mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko‘payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma’lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi – milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning uchun milliy bozorda xorijiy investorlarga

ijobiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo‘lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e’lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yettinchidan, moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik – moliyaviy axborotning sifati va qiyosiyligini ta’minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo‘yicha to‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi47.

Tadbirkorlik subyektining MHXS bo‘yicha dastlabki moliyaviy hisobotlari – tadbirkorlik subyekti o‘z moliyaviy hisobotlarining MHXSlarga muvofiqligi to‘g‘risida aniq va shartsiz bildirib, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini qo‘llagan birinchi yillik moliyaviy hisobotlaridir.

Xalqaro standartlarga o‘tishning keng ko‘lamli va sifatli ijrosida kadrlar masalasi asosiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, biznes subyektlarining xalqaro biznes tillashuvida o‘z nomidan axborotlar oqimini barcha uchun tushunarli hamda aniq shakllarda ochib berishga qodir bo‘lgan buxgalteriya hisobi, audit sohasining professional mahoratli, shaxsiy tajribalar va intuitsiyalarda aldanmaydigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lmog‘i lozimdir.

MHXSga o‘tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklar quyidagilardan iborat:

– Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o‘zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;

– moliyaviy instrumentlarni qo‘llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo‘nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko‘rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

– Aktivlar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo‘yicha choralar ko‘rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko‘rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo‘yadi;

Shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar – foydalanuvchilar to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan

[47] H. Irgashev, “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020

operatsiyalar to‘g‘risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

– Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko‘pchilik yirik kompaniyalar o‘zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko‘rinmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, MHXSga o‘tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta’minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 24.02.2020.
2. H. Irgashev, “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishi: yangicha yondashuv va imkoniyatlar” uza.uz 30.11.2020
3. Jo‘lmatov N. https://zarnews.uz/uz/post/akciyadorlikjamiyatlari-2021-yildan-mhxs-tizimiga-otishi-shart, 20.11.2020
4. IFRS Foundation web sites

BUDJETLARARO HISOBLASHUVLAR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Haydarova Shahzoda Avlayorovna
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi budjetlararo hisoblashuvlar hisobi va nazorati takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan fikr almashilgan. Budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, budjet ssudasi, budjet taqchilligi, dotatsiya, davlat xaridlari, daromadlar va xarajatar smetasi.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budjet va soliq siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budjet tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirishni qisqartirih uchun olib borilayotgan tadbirlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg`armalari ahamiyatining yuqori ekanligini

ko`rsatib bermoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me`yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiq etilishida davlat budjetining ijtimoiy funktsiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi.

Budjet ijrosi jarayonida Davlat budjeti mablag`lari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari shakillanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budjet mablag`laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o`lchovsiz emas, mablag`larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta`minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo`lmaydigan haqiqat"48- deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag`lar yuzasidan tashkil bo`lish manbalari va foydalanish yo`nalishlari ko`rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so`nggi natijaga yo`naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g`azna ijrosiga o`tilishi, o`rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o`z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Budjet mablag'larini sarflanishini to'g'ri rejalashtirish, undan samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatib bu budjet tizimi hamda jarayonini qayta ko'rib chiqish ahamiyatini oshiradi. Avvalambor, budjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, "Budjet jarayoni-davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon49". Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning

[48] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2017.

[49] O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. N°52-I-son

budjet huquqlari bilan belgilanadi hamda budjet jarayonining mazmunini belgilashda budjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat budjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi.

2022-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorga ko'ra "Moliya vazirligi tegishli vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda budjet tizimi budjetlaridan asosiy vositalarni xarid qilish hamda bino va inshootlarni ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni joriy yil yakuniga qadar to'xtatish (xarid qilish tartib-taomillari boshlangan, shuningdek ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik majburiyatlar bundan mustasno) va ushbu maqsadlar uchun joriy yilda rejalashtirilgan mablag'larni qisqartirish yoki 2023-yilga o'tkazish choralarini ko'rsin.

Bunda, ushbu band talablari Vazirlar Mahkamasi va mahalliy budjetlarning zaxira jamg'armalari mablag'lariga, shuningdek maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tibbiyot va tibbiy-ijtimoiy muassasalar, "Mehribonlik" uylari, sport-ta'lim muassasalariga hamda tarmoqni rivojlantirish davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilab qo'yilsin50".

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

-budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);

-budjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;

-budjetni ijro etish;

-budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash. Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni ijro etishga (budjet davri) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Budjetlararo munosabatlarni nazoratga olish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

Dastlabki nazorat – Budjet tizimida reja, dastur va smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida Budjet intizomiga rioya qilinishi shuningdek, qonunchilik talablari buzilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat – Budjet ijrosi jarayonida maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirilib, sodir bo'lgan muomalalarini qonuniyligi, pul mablag'larini

[50] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.04.2022 yildagi PQ-208-son

oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo‘yicha hisob ma‘lumotlarini haqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi. Masalan buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri nazorat bo‘lib, ko‘p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to‘g’ri tashkil qilinishiga bog’liq.

Keyingi nazorat – bu o‘tgan moliya davridagi zarur hisob va hisobot axborotlarining qonuniyligini, Budjet intizomiga rioya qilinganligini aniqlash va faoliyat natijalarini umumlashtirish uchun amalga oshiriladi. Bunda Budjet tashkiloti faoliyatini kompleks taftish qilinishi yoki moliyaviy audit o‘tkazilishi mumkin51.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O’zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko’plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko’rsatkichlarga o’zining ta’sirini ko’rsatayotgan bir davrda davlat budjeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Budjet tizimida pul mablag‘larini nazorat qilish borasida amaliy ishlar davom etmoqda va budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tubdan isloh qilish orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta’minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to’liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

ВЛИЯНИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА

Халиков Пулат Хужамкулович
д.б.н., профессор кафедры гистологии и медицинской биологии Ташкентской Медицинской Академии

Фозлиева Махлиё
Студентка лечебного факультета Ташкентской Медицинской Академии

Аннотация. Генетический эффект пестицидов немаловажное значение имеет комбинированное действие их на организм. В опытах использовались половозрелые самцы лабораторных мышей. Цитогенетический эффект пестицидов изучали в клетках костного мозга и семенников с помощью тестов учета аберрации хромосом в метафазе в клетках костного мозга;

[51] I.N.Qo’ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.

микроядер в полихроматофильных эритроцитах (ПХЭ); аберраций хромосом в диакинез - метафазе в клетках семенников.

Ключевые слова: генетический эффект, пестициды, костной мозг, сперматоциты, аберрации хромосом, метафаза.

Введение. При оценке генетического эффекта пестицидов немаловажное значение имеет комбинированное действие их на организм, так как при использовании и хранении препаратов в организм человека может попасть одновременно несколько пестицидов. Причем пестициды могут давать аддитивный (суммированный), синергичный (усиление) и антагонистический (ослабление) эффект. Однако в литературе данные о генетическом эффекте пестицидов при их комбинированном воздействии встречаются очень редко. [1] Исходя из этого в данной работе изучен цитогенетический эффект хлората магния (дефолиант), фозалона (инсектицид) и которана (гербицид).

Материалы и методы В опытах использовались половозрелые самцы лабораторных мышей. Животные были разделены на 10 групп. Первая группа -контрольная. Животным второй, третьей и четвертой групп однократно раздельно вводили которан (330 мг/кг), фозалон (27 мг/кг) и хлорат магния (1745 мг/кг); животным пятой группы- хлорат магния (1745 мг/кг) и фозалон (27 мг/кг) вместе один раз; шестой группы-три препарата вместе однократно; в опытах с комбинированным введением препаратов соотношения объема препаратов составило 1:1. Животным седьмой, восьмой и девятой групп многократно (в течение 3 месяцев) вводили хлорат магния (52 мг/кг), которан (10 мг/кг), фозалон (0.8 мг/кг); животным десятой - вместе хлорат магния (52 мг/кг) и фозалон (0,8 мг/кг); животным одиннадцатой - вместе хлората магния (52 мг/ кг); фозалон (0,8 мг/кг) и которан (10 мг/кг).

Результаты Данные частоты аберраций хромосом и число ПХЭ с микроядрами в клетках костного мозга мышей при раздельных и комбинированных воздействиях которана, фозалона и хлората магния при их однократном введении приведены в табл. 1

Которан, фозалон и хлорат магния в дозе 1/3 ЛD50, каждый при раздельном однократном использовании не влияет на генетический аппарат клеток костного мозга мышей. Частота мутаций хромосом (0,37; 0,35; 0,44%), а также число ПЭХ с микроядрами (1,14; 1,08; 0^83%) после действия этих пестицидов оказались на уровне контроля. В таблице 2 представлены данные о частоте аберраций хромосом и число ПХЭ с микроядрами в клетках костного мозга мышей после раздельного и комбинированного действия которана, фозалона и хлората магния, вводимых многократно (в течение 3 месяцев). При раздельном многократном введении каждого пестицида

частота аберрации хромосом и число ПХЭ с микроядрами увеличивались в 6-7 раз по сравнению с контролем. Такая частота аберраций хромосом и число ПХЭ с микроядрами наблюдались и в опытах, в которых животным вводили комбинации из двух (хлорат магния + фозалон) и трех (которан + фозалон + хлорат магния) пестицидов в соотношении 1:1.

Список литературы

1. Грушко, Я. М. (1971). Токсические вещества органического происхождения в промышленных водах и проблема санитарной охраны водоемов. Гигиена и санитария, (10), 82-85.
2. Имамалиев.И.Х, Весманова.О.Я, Эргашев.А.К. Дифференциальная чувствительность хромосом к действию дефолианта и пестицидов. “Всесоюз совешание”Эколого-генетический мониторинг состояние окружаюшей среды.Караганда.1990.С-54.
3. Куринный.А.И,Пилинская.М.А.Исследование пестицидов как мутагенов внешной среды.Киев.Наукова Думка,1976-С,113
4. Курбанов А.К., Халиков П.К., Шигакова Л.А., Исламова С.А., Ж.К.К. (2022). условий труда и загрязнения окружающей среды при применении гербицида Зеллек. Международный журнал научных тенденций, 1 (2), 91-94.
5. Халиков П. Х., Курбанов А. К., Шигакова Л. А. Коррекция генетического результата далапона (ГЕРБИЦИД) с помощью экстактов растений: дис. – Ўзбекистон, Тошкент, 2022.

TOG‘AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA’SIRI

Sherkulov Sardor Komilovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

XX asrning 60-yillaridan keyin adabiyotga yangi bir epkin kirib keldi. Bu yangilikning ta’siri dastlab she’riyatda A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfilar ijodida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, nasrda O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, U.Nazarov, O‘.Umarbekov, O.Muxtor, O‘.Hoshimovlar ijodida yangi izlanishlarning maydonga kelishini ta’minladi. XX asrning 80-yillarida bir qator o‘zbek yozuvchilari Moskvadagi adabiyot instituti va Oliy adabiyot kursida ta’lim oldilar. Natijada nafaqat rus adabiyoti bilan, shu bilan birga Yevropa va Amerika adabiyoti namunalari bilan chuqur tanishish, ularni tarjima qilish, ijodiy o‘zlashtirish jarayoni tezlashdi.

U.Folkner nasri an’analdaridan bevosita ta’sirlangan, bu ta’sirni, obrazlar, syujet motivlari, psixologik holatlar, hikoyalash shakliga ko‘ra yaqqol ifoda etgan

yozuvchilar sifatida hech ikkilanmasdan T.Murod, M.M.Do‘st, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamov asarlarini ko‘rsatishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

T.Murod nasri bir tomondan Sharq nasrchiligi an’analaridan suv ichsa, boshqa tomondan g‘arb adabiyoti bilan hamohang. Ko‘p tomonlama U.Folkner asarlarining ham ta’siri bor. Vafo Fayzullo T.Murod nasri haqida yozar ekan, bu boradagi musiqiylik haqidagi qiziq fikrlarni ilgari suradi: “Bu fazilat adabiyotning dong‘il yo‘li nasrda noyoblashib, kam kuzatiladigan bo‘ldi. G‘arbda bunga chuchmal, ortiqcha narsa deb qaraydiganlar katta kuch. Va shuning uchun ham XIX – XX asr G‘arb, Amriqo nasrining so‘zi sovuq, ruhni ezadi. Ko‘ngil bilan hisoblashganda Joys, Kafka, Folkner, Kamyu kabi kabi jahonshumul yozuvchilarning nasri qancha zo‘r bo‘lgani bilan tinka-madoringizni quritib, nafasingizni qisadi. Bitikda kuy, ohang, she’riyat nash’asiga ochlik seziladi. Hartugul bu borada G‘arbga nisbatan Sharqning imkoni ham, ehtiyoji ham tosh bosadi... Tog‘ay Murod nasri ham shunday shoirona. Uning qora so‘zi she’riyat ruhi bilan sug‘orilgan... Har bir imlosi, so‘z qurilishi she’riy, o‘ynoqi termalari, tashviq va taronalari borki, bir yo‘la ham nasrdan, ham nazmdan bahramand bo‘lamiz”52. Maqola muallifining T.Murodga xos nasr uslubi haqida aytgan fikrlariga to‘la qo‘shilamiz. Haqiqatdan ham yozuvchining nasriy uslubi lirik uslubga yaqin. Hikoya, qissalarigina emas, hatto romanlarida ham yozuvchi shu uslubni muttasil saqlashga uringan. Uslubda she’riyatga xoslik uning “Askar mukofoti”, “O‘layotgan chog‘imda”, “Avessalom, Avessalom”, “Shovqin va g‘azab” romanlarida etakchi xususiyat hisoblanadi. Oxirgi romandagi Benji monologlarining barchasida she’r ritmi bor. U.Folkner shu tomonlama T.Murod nasri bilan hamohang. Hatto Moskvada o‘qib yurgan paytlari mutolaa qilganda T.Murod qalbidan o‘rin olgan deyishimiz haqiqatga zid kelmaydi.

T.Murodning “otamdan qolgan dalalar”dagi Dehqonqul obrazi asosiy hikoyachi vazifasini o‘tagan. U hamma voqealarni o‘zi so‘zlab beradi. So‘zlaganda ham boshqa adabiy obrazlarga o‘xshagan, ega-kesimi ravon, an’ana uslubda so‘zlamaydi. O‘z naqtai nazarini, o‘ziga xos til bilan bayon etadi.

U.Folknerning “Askar mukofoti”, “Sartoris”, “Avgust yog‘dusi”, “Shovqin va g‘azab” kabi romanlarining barchasida fuqarolik urushi ruhi kezib yuradi. Bu urushda o‘zi ishtirok etish yoshiga etmagan qahramonlar urush va ta’qib xavfini otalarida, barcha kattalarda his etadilar. T.Murod asaridagi mazkur ko‘chirmada xuddi shu ruhiyat kuzatiladi. O‘z uyiga yashirincha kelayotgan ota, fuqarolik urushi xavfi, otaning ta’qib etilishi bola Dehqonqulning ruhiyatida aniq seziladi. “Shovqin va g‘azab” qahramoni Benji singari Dehqonqul ham bo‘layotgan

[52]В.Файзуллоҳ. Абадият /Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Роман, қиссалар китобида. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 692.

voqealarga nisbatan kuzatuvchi pozitsiyasida turadi. Dehqonqul ham Benji ham bu xatarli, sirli voqealar ortida otaning omonat ekanini his etadilar. Qolaversa, Dehqonqul tildan voqelikning hikoya qilinish usuli ham U.Folkner boshqa qahramonlariga nisbatan Benjiga yaqinroq.

Yoki adibning “Momo er qo‘shig‘i” qissasida Pahlavon Daho obrazi bor. Uning bobosi fuqarolar urushi qatnashchisi. Nagan taqib, qishlog‘ida qizillar tartibini o‘rnatishga hissa qo‘shgan. Otasi Serjant Orziqulov degan hazil-kinoyali nom olgan, askarlikdan kelib qilgan eldan tashqari qiliqlari uchun shu nomga erishgan. Aslida Tursin, keyinchalik Pahlavon Daho nomini olgan qissa qahramoni serjant Orziqulov urushdan qaytgandan so‘ng tug‘ilgan yolg‘iz o‘g‘li. Oliygohda o‘qib, otasining yoshligidagidek havolanib, shaharda buyuklik da’vosida yurib, oyog‘i erdan uzilgan Pahlavon Dahoning o‘zini tutishlari, hatti-harakatlari, ota-onasiga bepisandligi, sadizmga moyilligi “Shovqin va g‘azab” romani qahramoni Kventinga o‘xshab ketadi. Kventin telba ukasini xo‘rlash bilan bolalikning kichik jamiyatida o‘z mavqeini ko‘tarmoqchi bo‘ladi. Ukasini qiynab rohatlanadi. Pahlavon Daho esa butun jamiyatdan o‘zini baland tutadi. Ota-onasi, atrofidagilarni mensimaslik bilan o‘zini yuksak mavqedagi odam ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Asarda bir jaydari podachi, urush qatnashchisi, turmushning achchiq-chuchugini ko‘rgan odam Serjant Orziqulovning o‘g‘li daholik kasaliga yo‘liqib, o‘z iste’dodsizligi sabab fitnachi, ig‘vogar, tekinxo‘r odamga aylangani yoritilgan. Uning yuho nafsi tufayli urush azoblari ham o‘zgartira olmagan Orziqulov arizabozga aylanadi. O‘z ishidan o‘zi uyalib oxirida shuning alamida olamdan o‘tadi. Bularning hammasi milliy an’analarga sodiq yashagan qishloq kishilarining keyingi avlodi axloqi, ma’naviyatida buzilish, inqiroz yuz berganini ko‘rsatadi. U.Folkner romanlaridagi “Janub inqirozi” falsafasida ham shunga yaqin holatlar badiiy tasvir etiladi. Bularning hammasi Moskvadagi Oliy adabiyot kursida ta’lim olish jarayonida jahon adabiyoti, shu jumladan, U.Folkner ijodi bilan mukammal tanishgan T.Murodning badiiy ta’sirlanish ko‘lamidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Fayzulloh. Abadiyat /Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Roman, qissalar kitobida. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 692.
2. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Roman, qissalar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 27.
3. Miliyev Suvonqul (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 110.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2015.

КУЗГИ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ҚУРУҚ МАССА ТЎПЛАШИГА УРУҒЛАРНИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Сиддиқов Равшанбек Иномжонович
Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти директори қ.х.ф.д профессор

Адашев Илхомжон Қобулович
таянч докторант

Аннотация. Кузги буғдой навларини етиштириш агротехникаси эълементлари уруғ экиш муддати, экиш меъёрларини тўғри белигилаш ғалла майдонларидан қуруқ масса ва юқори дон ҳосили олишни таъминлайди.

Калит сўзлар: кузги юмшоқ буғдой, ҳосилдорлик, мақбул экиш муддатлари, ўсимлик, уруғ, гектар, агротехник тадбирлар.

Суғориладиган майдонларнинг тупроқ-иқлим шароитларини ҳисобга олган холда кузги юмшоқ, буғдой навларининг ҳосилдорлик, доннинг сифат кўрсаткичларлари юқори бўлган истиқболли навларни етиштириш агротехнологияси элементларини ишлаб чиқиш ва тадқиқот натижаларига асосланиб ҳар бир минтақа учун кузги юмшоқ буғдой навлари танланиб уларнинг энг мақбул экиш муддатлари ва кўчат қалинликларини, табақалаштирилган ўғитлаш меъёрларини амалга ошириш борасида илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Илмий адабиётлардан барчага маълумки, қишлоқ хўжалиги экинларини қуруқ масса тўплаши энг аввало етиштирилган минтақанинг тупроқ ва иқлим шароитига, навнинг биологик хусусиятларига ҳамда қўлланилган агротехник тадбирларга боғлиқдир.

2015-2017 йиллар мобайнида олиб борган тадқиқотларимизда ҳам юқоридаги фикрлар ўз исботини топганлиги кузатилиб, кузги буғдой ўсимлигини қуруқ масса тўплашига уруғларни экиш муддатлари ва уруғ сарф меъёрларининг таъсири сезиларли бўлганлиги кузатилди.

Жумладан, кузги буғдойнинг “Давр” нави уруғлари экиш муддатлари ва уруғ экиш меъёрлари бўйича вариантлар кесимида кузги буғдойнинг биологик қуруқ масса тўплаши ўрганиб чиқилганида, уруғлар 1 ва 15 октябр муддатларида гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 4-7 вариантларда, уруғлар 15-сентябр муддатида гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 1-вариантга нисбатан туплаш фазасида 1,12-2,07 ц/га, найчалаш фазасида 1,08-3,62 ц/га, бошоқлаш фазасида 2,96-10,28 ц/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 3,66-13,99 ц/га камайганлиги аниқланган бўлса, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 5-8

вариантларда парвариш қилинган кузги буғдойнинг биологик қуруқ масса тўплаши таҳлил қилинганида, 15-сентябр муддатида гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 2-вариантга нисбатан туплаш фазасида 1,30-2,31 ц/га, найчалаш фазасида 1,31-4,04 ц/га, бошоқлаш фазасида 3,26-11,04 ц/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 3,91-14,89 ц/га, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 6-9 вариантларда ўсимликнинг қуруқ масса йиғиши 15-сентябр муддатида гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 3-вариантга нисбатан туплаш фазасида 1,46-2,77 ц/га, найчалаш фазасида 1,57-5,10 ц/га, бошоқлаш фазасида 3,66-14,81 ц/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 4,02-18,49 ц/га гача кам бўлганлиги аниқланди.

Кузги буғдойнинг “Звезда” нави уруғлари экилган вариантларда парвариш қилинган кузги буғдой ўсимликларининг биологик қуруқ масса тўплаши ўрганилганида, уруғлар 1 ва 15 октябр муддатларида гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 13-16 вариантларда 15-сентябр муддатида гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 10-вариантга нисбатан қуруқ масса тўплаши туплаш фазасида 1,20-1,94 ц/га, найчалаш фазасида 1,30-3,38 ц/га, бошоқлаш фазасида 3,75-9,89 $м^2$/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 4,62-13,06 ц/га кам бўлганлиги кузатилган бўлса, гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 14-17 вариантларда ўсимликларнинг қуруқ масса тўплаши 15-сентябр муддатида гектарига 5,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 11-вариантга нисбатан туплаш фазасида 1,58-2,45 ц/га, найчалаш фазасида 1,86-4,12 ц/га, бошоқлаш фазасида 2,46-10,45 ц/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 5,76-15,30 ц/га, гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 15-18 вариантларда эса 15-сентябр муддатида гектарига 6,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида экилган 12-вариантга нисбатан туплаш фазасида 1,67-2,95 ц/га, найчалаш фазасида 1,60-5,17 ц/га, бошоқлаш фазасида 3,30-13,95 ц/га, пишиш фазасининг мум пишиш даврида 4,39-18,65 ц/га гача қуруқ масса кам тўпланганлиги аниқланди.

3.11.-жадвал

Кузги буғдой навларининг қуруқ масса тўплашига уруғларни экиш муддатлари ва меъёрларининг таъсири, 2015-2017 йил

№	Кузги буғдой навлари	Уруғ экиш муддатлари	Уруғ экиш меъёри, млн дона/га	Пишиш фазасининг мум пишиш даврида (10 та ўсимликда)						1 м² майдонда, кг	1 га майдонда ц.
				Илдиз	Барг	Поя	Бошоқ	Жами	1 та ўсимликда		
1	Давр	15-сентябр	4,0	8,82	9,49	16,75	14,15	49,21	4,92	1,32	131,54
2			5,0	8,06	8,69	15,03	12,81	44,58	4,46	1,48	148,11
3			6,0	7,53	8,12	13,79	11,86	41,31	4,13	1,61	160,68
4		1-октябр	4,0	8,35	8,93	15,52	13,21	46,01	4,60	1,28	127,87
5			5,0	7,59	8,23	14,04	12,04	41,89	4,19	1,44	144,20
6			6,0	7,06	7,63	12,74	11,05	38,48	3,85	1,57	156,66
7		15-октябр	4,0	7,94	8,55	14,71	12,58	43,78	4,38	1,18	117,55
8			5,0	7,18	7,89	13,36	11,48	39,91	3,99	1,33	133,22
9			6,0	6,59	7,20	12,10	10,32	36,20	3,62	1,42	142,18
10	Звезда	15-сентябр	4,0	8,72	8,88	15,77	12,95	46,32	4,63	1,20	119,60
11			5,0	7,93	8,08	14,62	12,00	42,63	4,26	1,37	136,89
12			6,0	7,37	7,52	13,40	11,29	39,58	3,96	1,49	148,53
13		1-октябр	4,0	8,19	8,33	14,96	12,17	43,65	4,37	1,15	114,98
14			5,0	7,46	7,62	13,27	11,48	39,83	3,98	1,31	131,13
15			6,0	6,88	7,04	12,42	10,59	36,94	3,69	1,44	144,13
16		15-октябр	4,0	7,79	7,95	14,23	11,53	41,50	4,15	1,07	106,54
17			5,0	7,09	7,28	12,74	10,75	37,87	3,79	1,22	121,58
18			6,0	6,43	6,60	11,67	9,88	34,58	3,46	1,30	129,88

Хулоса. Тажриба вариантларидан олинган натижалардан шуни кўриш мумкинки, кузги буғдой навларининг биологик қуруқ масса тўплашига экиш муддатлари ва уруғ экиш меъёрларининг таъсири сезиларли таъсир кўрсатиб, уруғ экиш муддатларининг кечиктириб борилиши барча навларда ўсимликларнинг қуруқ масса тўплашига ўзининг салбий таъсирини кўрсатганлиги кузатилди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Абдурахмонов А. “Донни экиш, ҳосилни йиғиш, топшириш, қайта ишлаш ва уни сақлашда намликни ўлчашнинг метрологик таъминоти” Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали № 9. 2022 йил. Б. 37-38.
2. Абдурахмонов С., Абдуллаев И. ва бош. Мақбул экиш муддати-дон ҳосили гарови // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналининг Агро илм илмий иловаси. №5(37) сон, 2015 йил. 32-бет.
3. Абдурахмонов С., Абдуллаев И. ва бош. Мақбул экиш муддати-мўл ҳосил гарови // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналининг Агро илм илмий иловаси. №6(38) сон, 2015 йил. 20-21-бетлар.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Qo'ldoshev Sherzod Mansur o'g'li
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Ochilova Gulioyim Dilshod qizi
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi
sherzodbek6572@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari batafsil tadqiq etilgan. Shuningdek korrupsiyaning davlat va jamiyat manfaatlari uchun qanchalik zararli ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: mansabdor shaxs, qonun, poraxo'rlik, davlat xizmati, huquqni muhofaza qilish organlari, adolat, qonuniylik.

Bugungi kunda milliy qonunchiligimizni yanada takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, mamlakatimiz tarixida ilk marotaba 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 1-bobi umumiy qoidalardan boshlanadi va uni qabul qilishdan maqsad, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, qonunda qo'llanilgan asosiy tushunchalarning ta'rifi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari belgilangan.

Unga ko'ra, ushbu qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Unda quyidagi asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni:

Korrupsiya- shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik- korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunhujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

Qonuniylik;

Fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

Ochiqlik va shaffoflik;

Tizimlilik;

Davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

Javobgarlikning muqarrarligi

Qonunning 2-bobida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchidavlat organlari va ularning korrupsiyaga qarshi

kurashish sohasidagi vakolatlari aniq belgilangan. Unga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliaytni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat rganlari, sh jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida:

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amlga oshiradi;

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752 sonli qarori bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 27-may kuni "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Farmon bilan 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'I Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etildi.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarni joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarini birinchi darajadagi vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida mamlakatimiz qonunchiligi yildan-yilga takomillashtirilib, huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni huquqiy baholash. O'quv-amaliy qo'llanma. I.ASottiev, S.I. Hamrayev:-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008.
2. M.X.Rustambayev. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik.-T., TDYI, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining " Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi. 2017-yil 3-yanvar.

DAVLAT BUDJETI HISOBOTI VA UNING AXBOROT IMKONIYATLARI TAHLILI

Tursunboyev Tohir G'ofur o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjetning axborot va budjet tizimi funksiyalarini avtomatlashtirish bir necha bosqichni o'z ichiga olagan va bu bosqichlarni izchil amalga oshirish, pul resurslari harakatini nazorat qilish imkoniyatini tug'diruvchi tizimni yaratish imkoniyatlari tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: budjet, budjet so'rovi, budjet tashkiloti, budjet ajratmalari, davlat xaridlari, budjet jarayoni.

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, iqtisodiy qonunlarni bir me'yor doirasida amal qilishi ko'p jihatdan davlatni moliyaviy siyosatini asosiy bo'g'ini Davlat budjetiga bog'liqdir. Davlat budjeti o'zida davlat daromadlari va xarajatlarni mujassamlashtirgan moliyaviy rejadir. Demak xalq xo'jaligini butun tarmoqlarida, xususan noishlab chiqarish tarmoqlari (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mudofaa va h.k.)da davlat budjetini roli beqiyosdir. Shu o'rinda mamlakatimiz prezidenti Sh. M. Mirziyoyev quyidagi so'zlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir: "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu - hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat[53]".

Vahobov A.V., Malikov T.S. larning tahlil qilishicha Budjet jarayoni budjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Budjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizmi bo'g'inlari

[53] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2017-y. Xalq so'zi gazetasi.

o’rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash proporsiyalarini to’g’ri belgilashdan iboratdir.

Ba’zi bir mamlakatlarda budjet loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimyati boshlig’i (rahbari)ning kelgusi yilga mo’ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy yo’nalishlari bo’yicha chiqishidan (ma’ruzasidan) boshlanadi. Masalan AQSh da prezidenti amerika xalqiga Budjetnoma bilan murojaat qilib, unda pul-moliya siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi budjet yili va navbatdagi to’rt yil uchun federal budjet daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi[54].

Budjet ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag’larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, soliqli daromadlarning to’liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Davlat budjetining ijrosim ta’minlashda quyidagi masaMaming hal etilishiga jiddiy e’tibor bermoq lozim:

- Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish;
- Davlat budjeti mablagdarim sarflash;
- Qabul qilingan davlat budjeti bo’lmagan taqdirda budjetni ijro etish;
- Budjetdan ajratiladigan mablag’larga o’zgartirishlar kiritish;
- Davlat budjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish;
- Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish;
- Davlat budjetining kassa ijrosini ta’minlash;
- Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi №PQ-5349 sonli “O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini majmuaviy rivojlantirish Respublika muvofiqlashtirish komissiyasining bayonnomasi asosida 2013-2020-yillarga mo‘ljallangan “Byudjet” axborot tizimi majmui loyihasini tuzish va integrasiyalashuvini amalga oshirish bo’yicha tegishli muddatlar belgilangan.

Byudjet tizimi funksiyalarini avtomatlashtirish bir necha bosqichni o’z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarni izchil amalga oshirish pul resurslari harakatini nazorat qilish imkoniyatini tug’diruvchi tizimni yaratish imkonini beradi. Ular ichidan quyidagilarni ko’rib chiqamiz:

1- bosqich. Dolzarb ma‘lumotlar bilan ta‘minlanish. Byudjet tizimi funkstiyalarini avtomatlashtirishda ma‘lumotlar bazalarini yaratish va uni keyinchalik yangilab borishda yoki, boshqacha aytganda, xizmat ko’rsatuvchi bank

[54] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya.-T: “Sharq”,2010y., 470-bet.

va mazkur bankdagi hisobraqamlar ro’yxati haqidagi dolzarb ma‘lumotlarni ta‘minlashdan boshlash zarur.

2- bosqich. Pul mablag_ini hisobga olish hisobvaraqlarida qiymatlarni to’plash. Ikkinchi qadam – tizimda operastiya kuni boshlanishi holatiga ko’ra, pul mablag’larini hisobga olish hisobvaraqlari bo’yicha qiymatlarni to’plashning tashkil etilishi.

3- bosqich. Operatsion moliyaviy rejalashtirish tizimini barpo etish. To’lov taqvimi, ya‘ni operatsion moliyaviy rejalashtirish tizimi pul mablag’lari hisobvaraqlarida qiymatlarni to’plash tashkil etilganidan keyin shakllanadi.

4- bosqich. Tashqi qarz haqidagi axborotni tizimlashtirish. Operatsiya davri uchun to’lov taqvimi ma‘lumotlaridan kelib chiqib, tashqi qarzning holati va uning dinamikasi haqidagi tezkor axborot tizimlashtiriladi.

5- bosqich. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining yaratilishi. Byudjet tizimini avtomatlashtirish tizimi yordamida tavakkalchilikning uch asosiy turi: kredit, valyuta va foiz tavakkalchiliklarini boshqarish mumkin.

Davlat budjet tasdiqlangandan so‘ng davlat va mahalliy soliqlar va daromadlar to‘g’risida, ma‘muriy-xududiy bo‘linishdagi, korxonalar, tashkilotlar va xo‘jalik birlashmalarining bo‘ysunishidagi o‘zgarishlar, turli xildagi bo‘ysunishidagi qurilish obyektlari o‘rtasida kapital qo‘yilmalar limitlarini qaytadan taqsimlanishdagi o‘zgarishlar bo‘yicha qabul qilingan yangi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari qabul qilinishi natijasida alohida olingan budjetlarga o‘zgarishlar kiritilgan hollarda Budjet ijrosi jarayonida Budjetlar o‘rtasida o‘zaro hisoblashuvlar amalga oshiriladi

Budjet tashkilotlari joriy yilga moliyaviy natijalarni mablag’larni shakllanishi manbalari bo’yicha shakllantiradi va yakuniy moliyaviy natijani aniqlaydi. Budjet hisobini tashkil etish moliya organlari va budjet tashkilotlarini rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O’zbekiston Respublikasida Davlat budjetini boshqarishni takomillashtirish, budjet jarayonini tizimlashtirish, budjet tasnifini mukammallashtirish bo’yicha nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolmasligi uchun budjet tasnifi bo’yicha aniq tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish zarur. Respublikamizda amalga oshirilgan tadbirlar qatorida bank, moliya, budjet g’aznachilik tizimini mustahkamlash masalasiga qaratilgan. Shunday sharoitda Davlat budjetidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi bilan birga mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Budjet hisobi va uni nazorat qilish mexanizmlarini qo‘llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga shuningdek davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, budjet mablag’larining samaradorligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta’minlaydi, davlat budjeti mablag’larini aniq maqsadlar va rejalar yo‘lida sarf qilish va uni yetarlicha tahlil qilish bu albatta mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini berishi tabiiydir.

BUYUK DAHO IBN SINO

Raximjonova Ra’noxon Muhammadulla qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti magistranti

Bu shaxs tafakkur olamining buyuk siymosi hisoblanadi. Yurtimizda bunday allomalar, shaxslar talaygina. Bunday tafakkur durdonalari to’g’risida yosh avlodga ma’lumot berish ham farz, ham qarz hisoblanadi. Ulug’ allomalar, mutafakkirlar haqida qancha yozilsa ham kam. Ular to’g’risida asarlar yaratish ancha katta mas’uliyat talab etadi. Ulug’ alloma haqida shu damgacha chop etilgan ilmiy kitoblar anchagina bor. Nafaqat O’zbekistonda balki, xorijiy davlatlarda bosilgan risolalar, yodnomalar, kitoblarning ko’lami undan ham ko’p. Mirkarim Osim Ibn Sinoni badiiy talqinda yoritishga harakat qilgan adiblardan. Buyuk daholar ozod, istiqloli buyuk, porloq O’zbekistonning davlat mustaqilligiga bir oddiy fuqaro sifatida o’z tarixiy asarlari bilan ma’lum darajada hissa qo’shgan. Zero,O’zbekiston qadimdan jahon madaniyati, ma’rifatiga qancha-qancha buyuk allomalarni yetkazib bergan buyuk yurtdir.

Adibning tarixiy asarlarini o’qiganimizda bir ajib his-tuyg’ular chulg’ab oladi. O’zga bir olamga tushib qolganday bo’lamiz. Asarlardagi badiiy to’qima o’z o’rnida davr haqiqatini teran ifoda etish uchun qo’llangan. Badiiy to’qima imkoniyatlarisiz o’sha davr, ya’ni alloma yashagan muhit, tarixiy shaxslar siymosini obrazini to’laqonli tarzda ifoda etib bo’lmaydi. To’qima badiiy asarni ta’sirli chiqishiga imkon beradi. Xo’sh, Ibn Sino tarixiy shaxsini asarlardagi haqiqati va badiiy to’qimasini qaysi o’rinlarda ko’rishimiz mumkin.

Avvalo, buyuk siymoni oilaviy hayotini haqiqatlar sirasiga kiritamiz. Chunki, oilasi, hayoti haqida allomani o’zidan yozib olingan ma’lumotlar va shogirdi Juzjoniy tomonidan keltirilgan ma’lumotlar orqali bu ma’lumotlarni haqiqatlar deb ayta olamiz. Tarixdagi bosqinlar orqali ham mutafakkir to’g’risida haqiqatlar oydinlashadi. Olimning asarlarini yozilish tarixini ham, barcha yozgan asarlarini ham olsak bo’ladi. Olimning yurtma-yut kezgan sargardonliklari, tanishgan

olimlar, mutafakkirlar bularning barchasini olimning umumiy holatdagi haqiqatlari desak mubolag'a bo'lmaydi.

Asarni badiiyatini oshirish maqsadida to'qima obrazlar, voqealar keltirilgan. To'qima obrazlar orqali yana bir ulug' mutafakkir shaxsiyati yuqori darajada ochib berilgan. Olim Sino yunon faylasufi Arastuning "Mobadat Tabia" kitobini ko'p bora o'qib, mag'zini chaqa olmaydi. Qirq marotaba o'qilgan kitob natijada yod bo'lib ketadi. Oradan vaqtlar o'tib, kitobfurush tomonidan unga shunday kitob taqdim etiladiki, bu kitob bilan butun bir sirlarni ochganday bo'ladi. Kitobni kitobfurushga sotgan ayol to'qima obraz sifatida berilgan. Ayol nochorlikdan qimmati yuksak darajadagi kitobni sotishga majbur bo'lgan. Kitob Abu Nasr Forobiyning faylasuf Arastuning kitobiga sharhi edi. Vaholanki, bu kitob allomaning qo'liga kelib tushadi. Ibn Sino orqali yurtimizda buyuk iste'dod egalari ko'p bo'lganligini ko'ramiz. Ya'ni Forobiydek ulug' mutafakkir shaxsiyati yuksak darajada ko'tarilgan. Bunday mutafakkir allomalar bilan faxrlansak arziydi. Ibn Sino yunon faylasufini asarini o'qib tushunmagan. Yangi olgan kitobi esa aynan ana shu kitobning sharhi edi. Bu kitob Olloh tomonidan yuksak bir ilohiy kuch, aql-idrok egasi bo'lgan Ibn Sino uchun noyob topilma edi.

Ulug' tabibning hayoti haqida yana bir voqeani ko'rsak. Olimni kuchli bilim va qobiliyatga ega ekanligidan shubha qilgan shaxslar uni sehr bilan shug'ullanadi, kofir deya tuhmat balosini yog'diradilar. Lekin Ibn Sino bunday gaplarga parvo ham qilmay ijod etishda davom etadi. Adib Mirkarim Osim asarni badiiyligini oshirish maqsadida tarixga yuzlangan holatda bir suhbatni kiritadi. Mo'ysafid va yigit suhbatini. Bu shaxslar zamonaning notinchligidan, yoshlarning o'zgarib ketganligidan, ular ilmi holni emas zamonaviy darslarni ko'p mutolaa qilayotganlaridan nolishar edi. Yoshlarning oldida Qur'oni Karim emas yangi ilmlar ya'ni kofirlarning kitoblari turibdi deya suhbatlashar edilar. Ular olim kutubxonadan qaytayotganda uni suhbatga tortadi. Tolibi ilmga ma'rifat darvozalari ochilganidan g'azablanar edilar. Ibn Sino bilan musulmonlar, Qur'oni Karim to'g'risida munozara olib boradilar. Bunday holatda Ibn Sino ularga ko'plab kitoblarni o'qib ularni mag'zini miyasiga joylab olganini, agarda kutubxonaga o't ketib barcha kitoblar yonib ketsa ham kutubxonani bemalol qayta tiklashga qodir ekanini aytib yo'lida davom etadi. Bu suhbatdan anglashiladiki, noyob aql egasi bo'lgan olimning qay darajada bilimga ega ekanini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta Olloh tomonidan berilgan in'omdir.

Tabibi hoziq qayerga bormasin doim muhtojlarga yordam qo'lini cho'zar edi. Har bir kasalga muolaja qilar edi. Har bir jonga malham bo'lish bilan dong taratgan olim Jurjon shahrida ham bemorlarning dardiga davo topar edi. Bir qarashda davosi yo'qdek tuyulgan kasallarni ham davolagan. Masalan, bir

mo’ysafid o’g’lining betobligini aytadi. O’g’li ho’kizman deya jar solayotganini aytib yurganini aytadi. Odamlar ko’ziga kulguli holat bo’lib tuyulsa ham olim shunday narsa o’ylab topadiki, o’g’ir ahvoldagi bemor berilgan dorilar ta’sirida sog’ayib ketadi. Tabib bemor oldiga xuddi qassob ko’rinishida kirib keladi. Uni davolaydi. Bunday holatlar o’quvchi kitobxon uchun adibning hayoloti mahsuli sifatida ko’rinishi mumkin. Endi buni haqiqat yoki to’qima ekanligini shogirdining asari orqali bilib olamiz. Tabibning o’z ishiga mas’uliyat bilan yondoshishi hozirgi yoshlarni sabrli bo’lishga, o’z ishiga mehr qo’yishga, mas’uliyatli bo’lishga undaydi. Tabibi hoziqning hayoti to’g’risida bunday afsonalarga juda ko’p misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, tomir urishidan sevgining dardiga davo topgani, telbalikka chalinganlarni asl holatiga qaytarganini keltirishimiz mumkin. Tabib bir soha bilangina cheklanib qolmasdan boshqa sohalarni ham mukammal tarzda egallab olgan. Turli o’lkalardagi mutafakkirlar, olimlar bilan turli sohalarda yozishmalar olib boradi.

Xalqparvar olim sargardonlikda yursa ham doim ijod bilan mashg’ul bo’lgan. Asarlar yaratgan. Istiqlol, xurriyat uchun intilgan. Hech qachon zolimlarga bo’yin egmagan. U hamisha o’z yurti istiqbolini yuqori cho’qqilarda ko’rishga intilgan. Olimning qilgan ishlarini, yozgan asarlarini avlodlarga ibrat tarzida ko’rsata olamiz. Ibn sino to’g’risida ko’plab afsonalar bor. Ularning ko’pi oddiy xalq vakillari tomonidan aytilgan. Ulardan yana biri olim hayotining so’ngi paytlarida yangi shogirdi tomonidan tayyorlangan dorining ko’proq berilishi oqibatida olimning hayot yo’liga nuqta qo’yilgani to’g’risidadir. Shunday qilib, muallif tarixiy shaxs siymosini mukammal tarzda ifodalashga harakat qilgan. Adib asarini o’qigan har bir yosh qalblarda bizning yurtimizda ulug’ daholar o’tgani to’g’risida g’urur, iftixor tuyg’ulari mavj uradi. Mana shunday bobolarimiz borligidan faxrlanamiz.

ИНФЕКЦИЯ COVID-19 У ПАЦИЕНТОВ С БИПОЛЯРНЫМ РАССТРОЙСТВОМ И БИПОЛЯРНЫМ РАССТРОЙСТВОМ В АНАМНЕЗЕ НАБЛЮДАЮТСЯ ЛИХОРАДКИ И ИХ ОСЛОЖНЕНИЯ

Проф Боймурадов Ш.А .,
Максудов Д.Д.,
Рахмонова Б.К.,
Холмаматов Ф.З
Самаркандский Государственный Медицинский Университет.
Самарканд Узбекистан.

Абстракт. В этой статье обсуждается история инфекции COVID-19 у пациентов с биполярным расстройством и лихорадкой и их осложнениями.

Ключевые слова: медицина, биполярное расстройство, пациент, COVID-19, инфекция, биполярное расстройство в анамнезе, лихорадка.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bipolyar buzilishi bo'lgan bemorlarda COVID-19 infeksiyasi va bipolyar buzilish tarixida isitma va ularning asoratlari haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: tibbiyot, bipolyar buzilishi, bemor, COVID-19, infeksiya, bipolyar buzilish tarixi, isitma.

Abstract. This article discusses the history of COVID-19 infection in patients with bipolar disorder and fever and their complications.

Key words: medicine, bipolar disorder, patient, COVID-19, infection, history of bipolar disorder, fever.

Актуальность: Всемирной организацией здравоохранения COVID-19 было объявлено, что распространение коронавируса достигло стадии пандемии во всем мире с марта 2020 года вирус охватил все континенты мира. Об этом сообщил генеральный директор организации Тедрос Гебрейесус. Он настаивал на этом: "Мы пришли к выводу, что нынешнюю ситуацию с COVID-19 - коронавирусной инфекцией - можно назвать пандемией". Пандемия - это распространение массового заболевания (эпидемии), которое охватило несколько стран по всему миру и распространилось на тысячи людей. В больницах тысячи людей борются за свои жизни. Который оценивает ситуацию днем и ночью. Весь мир обеспокоен быстрым распространением вируса.

Коронавирусы COVID — 19 (тип бетакоронавируса s) - в основном птицы, кошки, собаки, крупные рогатые животные и свиньи, представляют собой семейство болезнетворных РНК-сохраняющих вирусов, в случае 2020 года их 40 видов дифференцированы. С момента появления COVID-19 была сформирована команда экспертов, состоящая из врачей отделения инфекционных заболеваний, респираторного тиббита, реанимации и

интенсивной терапии, медицинской лаборатории, радиологии, ультразвуковой диагностики, фармацевтики, традиционной китайской народной медицины, психологии, респираторной терапии, реабилитации, диетологии, сестринское дело и другие отделения медицины. Для диагностики и лечения врачей создан межотраслевой комплексный механизм в формате видеоконференцсвязи, который позволяет обсуждать и консультировать обстоятельства пациентов даже в ситуациях из изоляторов и за их пределами. Эти возможности расширили возможности методов лечения с преимуществом предоставления врачам возможности делать автономные выводы, поддерживая сложные и индивидуальные стратегии для каждого пациента, как в тяжелых, так и в экстремальных случаях. Тем не менее, были зафиксированы случаи, когда пациенты, перенесшие легкую форму COVID-19, умирали в результате осложнений заболевания различных проявлений из-за несоблюдения карантинных правил. Из них осложнения со стороны головного мозга наблюдались в результате острых нарушений кровообращения в мягких лицево-челюстных разливах. В период пандемии были зарегистрированы пациенты с острыми нарушениями кровообращения, невралгическими болями как осложнением заболевания в мягких тканях челюстно-лицевой области и слизистой оболочки полости рта.

Цель обследования: изучить процессы, происходящие в челюстно-лицевой области и слизистой оболочке полости рта у пациентов с covid-19-инфекцией огриганом и их осложнениями.

Материал и методы: среди пациентов с инфекцией COVID-19 пациенты, проходившие лечение в специальных специализированных больницах: в течение 2020-го года были изучены различные патологические изменения, которые наблюдались в челюстно-лицевой области и слизистой оболочке полости рта у 26 пациентов, которые были доставлены на наблюдение в челюстно-лицевую хирургию. Как осложнение вследствие заболевания тромбофлебит лицевых вен, тромбоз, в результате которого возникла диффузная ишемия в мешке мягких тканей, процесс некроза в области под глазами, крыла носа, выпада, кожи и слизистых оболочек.

Результаты обследования: в начальный период заболевания у всех пациентов, которым проводился муроаджат, было обследовано несколько узких специалистов и проведено интенсивное лечение. У 14 наблюдаемых пациентов (53,8%) ишемия и ограниченные некротические процессы наблюдались в результате различных уровней нарушений кровообращения в правом и левом под глазами, верхней губе, выпаде, коже и слизистых оболочках. Из них у 4 (28,5%) пациентов был дефект, вызванный некрозом

крыла носа и кожи верхней губы. У 5 (19,2%) из 26 пациентов, перенесших операцию, был случай смерти, вызванный тромбозом кавернозного синуса головного мозга.

Заключение: в позднем периоде болезни пациентов, перенесших огриган и выздоровевших с инфекцией COVID-19, наличие отложений в челюстно-лицевой полости и полости глотки в полости глотки и нарушение метаболических процессов приводит к возникновению ишемии, процессов некроза в полости глотки. полости рта и мягких волосков При обращении к специалистам на начальных стадиях заболевания предотвращается возможность излечения заболевания без осложнений и возникновения деформаций и дефектов в тканях лица и челюстной кости.

Использованная литература

1. Временные методические рекомендации. "Профилактика, диагностика и лечение новой коронавирусной инфекции (COVID-19)"версия 7(03.06.2020 г)
2. Национальный центр иммунизации и респираторного заболевания (NCIRD), отдел вирусного заболевания; "Обзор нового коронавируса
3. 2019 года (2019-nCoV)". 1 февраля 2020 года
4. Оксана Кальнина "Коронавирус. Обучение по виживанию" 2020.
5. Сугралиев А.Б. "Тромбо-воспалительный синдром при COVID-19. Место и роль антикоагулянтной терапии в лечении COVID-19". J.Medisina (Алматы)- 2020 г.]
6. Лабораторное тестирование на новый коронавирус 2019 года (2019-nCoV) в приостановленных случаях заболевания людей Временное руководство 17 января 2020 года.

BUDJETI TIZIMIDA QARZLAR BO'YICHA HISOB-KITOBLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Norbekov Temurbek Shuhrat o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi

Mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va daromad bazasini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha manbalarni jalb etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar Davlat byudjeti parametrlarining ijro etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda hududlarning real imkoniyatlaridan kelib chiqib, yechimini kutayotgan mavjud muammolarni va joylardagi ishlarning haqiqiy holatini o'rgangan holda ishlab chiqilgan kelgusi yil mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari, byudjet daromadlari va xarajatlari parametrlari, ularni byudjetlararo taqsimlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Budjet tashkilotlarida har bir olib borilayorgan munosabat yoki operatsiya jarayonida ma’lum bir maqsad yoki vazifa yotishi sir emas. Huddi shu kabi hududlararo munosabatlarning ham maqsadi va ushbu maqsadlardan kelib chiqqan vazifalari mavjuddir. Moliya organlari, g’aznachilik va uning hududiy bo’limlarida budjet ssudalari hisobini tashkil etishdan ko’zlangan asosiy maqsad foydalanuvchiga budjet ssudalari bo’yicha asoslangan buxgalteriya axborotlarini shakllantirib berishdan iboratdir.

Davlat budjeti daromadlarini budjetlararo taqsimlash, mahalliy budjetlarni samarali boshqarish masalalari xorijlik olimlardan E.A.Morozova, Y.N.Lyubimsev, O.G.Bejaev, X.V.Bogovlarning ilmiy ishlarida o’rganilgan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi davlat budjet daromadlarini shakllantirish, ularni budjetlararo taqsimlash usullari, mahalliy budjetlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.Malikov, N.Xaydarov, Sh.Toshmatov, A.Jo’raev, Q.Usmonov A.Islomqulovlarning ishlarida yoritilgan.

I.N.Qo‘ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonovlarning ta’kidlashicha: Budjet hisobi va nazorati davlat budjeti, davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg’armalari budjeti ijrosi bo‘yicha yuritiladi va budjetlar ijrosi holati haqida ma‘lumotlarni shakllanishini ta‘minlaydi[55].

Budjet mablag’larini sarflanishini to’g’ri rejalashtirish, undan samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ahvoliga bevosita ta’sir ko’rsatib bu budjet tizimi hamda jarayonini qayta ko’rib chiqish ahamiyatini oshiradi. Avvalambor, budjet jarayoniga ta’rif beradigan bo’lsak, “Budjet jarayoni-davlat budjetini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon. Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va budjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi hamda budjet jarayonining mazmunini belgilashda budjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat budjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o’ynaydi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar to’g’risida ma‘lumot tashkilotning hisobot davri oxiriga byudjet va byudjetdan tashqari mablag’lari hisobidan mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlari to’g’risidagi axborotni umumlashtirish va tahlil

[55] I.N.Qo’ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.

qilish uchun tuziladi. "Debitor qarzdorlik" qismida tashkilotning barcha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Jumladan:

“1-guruh jami. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 1-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo’yicha mavjud debitorlik qarzlar aks ettiriladi;

“2-guruh jami. Ish haqiga qo’shimchalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 2-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo’yicha mavjud debitorlik qarzlar aks ettiriladi;

“3-guruh jami. Kapital qo’yilmalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 3-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo’yicha mavjud debitorlik qarzlar aks ettiriladi;

“4-ruguh jami. Boshqa xarajatlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 4-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo’yicha mavjud debitorlik qarzlar aks ettiriladi;

“Xarajatlar guruhlari bo’yicha jami” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo’yicha jami debitorlik qarzlar aks ettiriladi;

“To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo’yicha” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo’yicha aks ettirishning imkoni bo’lmaydigan quyidagi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan debitorlik qarzlar aks ettiriladi:

a) bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasalarida (bolalar bog’chalari va yaslilarda) saqlanganligi;

b) bolalarning musiqa va san‘at maktablarida o’qitilganligi;

v)tarbiyalanuvchilarning maktab-internatlarda va boshqa ta‘lim muassasalarida saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar;

g) ish joyida ovqat bilan ta‘minlanganligi uchun xodimlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar va boshqa shu kabi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan debitorlik qarzlar.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, Mamlakatda budjetlararo mutanosiblikni ta’minlash, hududlarning budjet bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan siyosat yuritilishi va shu bilan birga mahalliy budjetlar uchun soliqlarni o’zida qoldirish tizimini joriy etilgani bugungi kun uchun juda ham muhim qadam hisoblanadi.

Mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini oshirish, ular mustaqilligini ta’minlash uchun soliqlardan berilayotgan ajratmalar budjet qonunchiligiga muvofiq hududlarning viloyat budjetida qoldirilmoqda. Qayd etish joizki, mahalliy budjetlar balansligini ta’minlash ular daromadlarining xarajatlariga mutanosib bo‘lishini taqozo etadi va xarajatlar tarkibini tahlil qilish, shu asosda ularni

optimallashtirish mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

МЕТОДЫ И СПОСОБЫ ПАРЕНТЕРАЛЬНОГО КОРМЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ В ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОМ ВОЗДЕЙСТВИИ

Ибрагимов Санжар
Врач-реаниматолог Ферганской центральной детской больницы

Парентеральное питание (ПП) — это внутривенное питание, которое подается через катетер, установленный в вену. Оно применяется в том случае, если пациент не в состоянии получать все необходимые питательные вещества перорально или через зонд для энтерального питания. Парентеральное питание вводится в виде жидкости напрямую в кровоток. Оно обеспечивает поступление необходимых калорий и питательных веществ в организм пациента.

Парентеральное питание используется для частичной или полной нутритивной поддержки. Полная нутритивная поддержка называется полным парентеральным питанием (ППП).

Для парентерального питания могут использоваться внутривенные катетеры различных типов. К ним относятся:

- Периферический венозный катетер. Для кратковременного парентерального питания катетер помещают в вену на руке. Такой способ установки называется внутривенным или периферическим внутривенным.
- Центральный венозный катетер. Хирург может установить катетер в крупную вену, ведущую прямо к сердцу. К центральным венозным катетерам относятся ПВЦК, центральные катетеры и порт-системы. Многим детям с онкологическими заболеваниями центральный венозный катетер устанавливают для проведения процедур, так что они могут получать питательные вещества через просвет катетера. Центральные венозные катетеры — предпочтительный вариант для долгосрочного парентерального питания.

По возможности питание лучше всего осуществлять обычным способом (перорально) или через зонд. В этом случае пищеварение происходит более естественным способом. Для детей с онкологическими заболеваниями это не всегда возможно. Парентеральное питание может потребоваться в следующих случаях:

- Пищеварительная система ребенка не способна правильно всасывать питательные вещества.
- Ребенку выполнена операция на пищеварительной системе.
- У ребенка непроходимость кишечника.
- У ребенка тяжелая рвота или диарея.
- У ребенка имеются затруднения с энтеральным питанием (питанием через зонд).

Питательные вещества в растворе для парентерального питания

Kirish. Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining eng asosiy xususiyatlari - bu uning yaxlitligi, tizimliligi, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasa-da, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash birinchi navbatda shaxsning iste'mol sohasiga

aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq atvoriga ta'sir ko'rsatadi va uning rivojlanishiga olib keladi. Bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasi va didaktikada alohida ko'rib chiqadi. Bunda zamonaviy shart-sharoitlarda uslubiy tamoyil va ayniqsa dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish jarayonning tuzilmasini, shuningdek ular o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. Bu har birining o'ziga xos xususiyati, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishga yordam beradi. Masalan, o'qitishning maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, o'zlashtirganlik darajasi esa o'qitish usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va h.k. [1].

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, o'quv materiallarini yaratishning turli:

• kompyuter o'rgatuvchi tizimlarini yaratish;

• amaliy o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;

• o'qitishning turli usullari va vositalari orqali kasbiy ta'lim jarayonini shakllantirish bosqichlarida moslanuvchanlik tamoyilining bo'lishini talab etadi. Bunday tamoyil asosida tayyorlangan o'quv resurslari talabaning bilim darajasi, ma-lakasi, psixologik xususiyatlari, guruhlarning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim ber-ishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Kasbiy ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish - pedagogik-psixologik maqsad-larni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tashkil etish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari, omillashtirishni hamda talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140 - son qarori. www.lex.uz. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari ("O'zstandart" Davlat agentligida 2013 yil 5 martda O'zDSt 2767:2013 3523-qayd raqami bilan ro'yxatga olingan).- Toshkent, 2012, 250 b. Karimov I.A. Tinchlik va xavsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.

-Toshkent: O'zbekiston, 2004. - 400 b. V.A.Adolf Teoreticheskiye osnovi formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: dis. ped. nauk. M., 1998. 356 s. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. - T.: 2006. - 182 b. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: "Moliya", 2003, -B.192. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподвателей для профессиональной подготовки учащихся // Сов. Педагогика. - Москва, 1985. - №2. - С.54-57. Авазбоев А. И. Совершенствование подготовки учителей трудового, и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебних предметов. Автореф. канд. пед. наук — Т.: 2001. - 21 с.

MUHOKAMA

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha darsning rivojlantiruvchi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq [1]. Talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarini aniqlash, takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda talabalar uchun faol ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Talabalar o'qishini nazorat qilishning boshqa bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, ularda o'qishga javobgarlik, intizom, saranjomlik va soflik his-tuyg'ularini tarbiya qiladi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmani shakllantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining kasbiy ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois kasbiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvni amalga oshirish boshlandi. Ta'lim va tarbiya ishlar jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va talabalarning o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron formatdagi o'quv resurslari - rasmiy veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda kasbiy ta'lim jarayonlari ko'proq talabaning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Elektron formatdagi o'quv resurslarining afzalliklari qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlarini kiritish mumkin. Bu resurslar talabada ijodiy fikrlashni, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishda asosiy vazifalar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

• yangi axborot texnologiyalarini kasbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish;

• kasbiy ta'lim jarayoni uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyihalash va qo'llash;

• foydalanuvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

• zamonaviy texnologiyalar negizida kasbiy ta'lim jarayonlaridagi samaradorlikni kafolatlash.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1-jadval

№ Bosqichlar mazmuni Kutiladigan natija

1. Kasbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish va baholash Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holati haqidagi dastlabki xulosalar olinadi

2. Kasbiy ta'lim moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo'llarini belgilash Kasbiy ta'lim jarayonlarining moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi

3. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish va vazifalarini belgilash Resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar shakllantiriladi, vazifalar belgilab beriladi

4. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish va foydalanish uchun tayyorlash Kasbiy ta'limga oid elektron resurslar yaratiladi

5. Elektron resurslardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish Elektron resurslardan foydalanish mexanizmi ishlab chiqiladi

6. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish samaradorligi monitoringini tashkil etish Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish monitoringi tizimi yaratiladi

1-jadvalda bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

• axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda samarali foydalaniladi;

• bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning zamonaviy vositalari - elektron resurslarni joriy etish tizimla-ri yaratiladi.

Kasbiy ta'lim bo'yicha elektron resurslarni yaratishdagi didaktik tamoyillarga tayaniladi: ta'lim jarayonining kasbiy yo'nalganligi; texnologik dunyoqarashni shakllantirish; ilmiylik; tushunarlilik va qiziqarlilik; amaliyot bilan bog'langanlik; talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; kasbiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligi; aniq va abstrakt tushuncha va faktlarning birligi; bilimlarni ongli rav-ishda o'zlashtirish; ko'rgazmalilik.

Ishlab chiqilgan elektron resurslarni kasbiy ta'lim jarayoniga qo'llashdan oldin mutaxassislar guruhi uni o'rganadi. Bizning fikrimizcha, yaratilgan elektron resurs-larning ilmiylik va taqdimot sifatini baholashda quyidagi holatlarga tayangan tizimni taklif etish mumkin:

• kasbiy ta'lim maqsadiga mosligi;
• o'quv faoliyati bayoni;
• axborotlarni taqdim etish darajasi;
• manba tuzilishi;

• ko'rinishi va dizayni;
• qo'shimcha illyustratsiya.

Elektron resurslar muayyan yo'nalishda bilimlar berishdan tashqari talabalarda kasbiy fanlarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak [4].

Elektron resurslar kasbiy ta'limning kundalik turmush va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonda, tabiat va jamiyatning ilmiy muammolarini tushunishda talabalarga ko'maklashishi, ularni rivojlantirishi lozim. Shuningdek, talabalarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini yaratishga yordam berishi kerak [3].

Ta'lim-tarbiya elektron resurslarining yaratilish jarayonini quyidagi bos-qichlarga bo'lish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya elektron resurslarini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish.
2. Loyihalashtirish.
3. Taqdim etish shakllari va axborot bloklarining dizayni (interfeys).
4. Ta'lim-tarbiyaviy resurslarni joylashtirishga tayyorlash.
5. Tayyorlangan resurslarning tuzilmali elementlarini to'ldirish.
6. Yaratilgan ta'lim-tarbiya elektron resurslarini tajribada sinash.
7. Elektron resurslarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Kasbiy ta'lim elektron resurslarini yaratishda quyidagi talablar e'tiborga olinadi:

• resurslarning to'liqligi, uzviyligi va kasbiy ta'lim mazmuniga mosligi;
• kasbiy ta'lim o'quv jarayonini individuallashtirish darajasi (yakkalashtirish);
• kasbiy ta'limning uzviyligi va izchilligini hisobga olish zarurligi;
• resurslarda zarur bo'lgan axborotlarning taqdim etilishi shakllari;
• resurslarni tez moslashuvchan va yangilab borish imkoniyatlari;
• asosiy bloklar va ular orasidagi o'zaro aloqa usullarining tarkibi.

Tatbiq jarayoni pedagogik va dasturiy darajalarda amalga oshiriladi. Pedagogik tatbiq darajasi resurslar va ulardan foydalanish harakat algoritmini o'z ichiga oladi.

Dasturiy tatbiq darajasi bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining har bir bosqichida resurslardan om-maviy foydalanish darajasini aniqlab beradi. Dasturiy tatbiq darajasida resurslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• jarayonda qatnashuvchilarning barchasiga tushunarli bo'lishi;
• kasbiy ta'limning istalgan bosqichida tizimning har bir qadamini yetarlicha aniq yoritishni ta'minlashi;

• kasbiy ta'lim jarayonining har qanday bosqichida, hatto eng murakkab bo'g'inida ham adekvat ta'sirga ega bo'lishi;

• o'quv jarayonining barcha bosqichlarida psixologik-pedagogik o'ziga xoslikni hisobga olish;

• boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqa imkonini ta'minlash.

Elektron resurslarini tizimlashtirish - mazmun, uslub, tashkiliy, shakl va axborot texnologiyalari vositalarining tahliliga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning samaradorligiga quyida keltirilgan shartlar bajarilgandagina erishish mumkin:

• o'quv jarayonini axborotlashtirishning o'zi kasbiy ta'lim maqsadini o'rnatishdan tortib, yakunlash natijasigacha bo'lgan bosqichlarni loyihalashtirish tizimi sifatida namoyon bo'lsa;

• kasbiy ta'lim jarayonining axborotlashtirilishi uning barcha tashkil etuvchilariga yo'naltirilgan bo'lsa;

• elektron resurslardan foydalanish kasbiy ta'lim mazmuniga qo'yilgan talabga hamda talabaning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lsa.

O'quv jarayonida individual yondashuvni tatbiq qilish ta'limning rivojlanuvchi modelini o'z ichiga olishi kerak:

• mantiqiy va tizimli fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish: ijodiy fikrlovchi qarama-qarshiliklarni ko'ra olishga layoqatli, shuningdek, mustaqil ravishda muammolarni qo'ya oluvchi va hal qila oluvchi mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlashi;

• tizimli qaytar aloqani ta'minlash: qaytar aloqa pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilishi kerak, ya'ni u nafaqat yo'l qo'yilgan xatoliklar haqida, balki ularni bartaraf etish borasidagi axborotlarni ham o'z ichiga qamrab olishi;

• rivojlangan yordam tizimining mavjudligi: yordam tizimi ko'p darajali, pedagogik nuqtai nazardan asoslangan, masalaning ifodalari va uni yechish usulining o'zlashtirilishi uchun yetarli bo'lishi;

• ta'limiy resurslarning to'liqligi: axborotlar bazasi, vazifalar bankini ko'p darajali tashkil etishning mavjudligiga oid qo'yilgan talablarga rioya qilish;

• intellektual yadroning mavjudligi: dasturiy vositalar bunday yadroning ekspert tizimlari va sun'iy intellekt vositalarini qurishda berilganlarni qayta ishlash usullarini tatbiq qilish hisobiga ta'minlash;

• pedagogik moslashuvchanlik: resurslar foydalanuvchiga faoliyat strategiyalarini ixtiyoriy tanlash, axborotlarning uzatilish tezligiga mos faoliyatni tashkil etish hamda mustaqil qaror qabul qilishga imkon berishi kerak. Avval

o'zlashtirilgan resurslarga kirish, ulardan ixtiyoriy vaqtda chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi;

• ikki tomonlama muloqotni ta'minlash: foydalanuvchi savol bera olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bunda boshqarish nafaqat kompyuter tomonidan, balki o'rganuvchi tomonidan ham amalga oshirilishi;

• orqaga qaytish imkoniyati: mustaqil ishlash davomida foydalanuvchi yo'l qo'ygan xato harakatlarini ortga qaytarish hollari ko'rib chiqilgan bo'lishi;

• foydalanuvchining refleksiyasi uchun maxsus ajratilgan joyning mavjudligi: dastur o'rgatilayotgan harakatlarni ketma-ket to'g'rilash maqsadida refleksiyaning natijalarini to'plashi;

• o'quv faoliyatining borishini va uning natijalarini hujjatlashtirish imkoniyati: dasturni tuzuvchi dasturga zaruriy axborotni to'plashi va qayta ishlashiga mo'ljallangan modullarga ega bo'lishi;

• tushunarli, qulay interfeysning mavjudligi: dastur axborotni matn, grafika,

animatsiya, gipermatn, multimedia ko'rinishida namoyon qilishning barcha usullaridan adekvat foydalanilgan holda tuzilgan bo'lishi kerak. Foydalanuvchi axborot materialini har ikki tomonlama, "oldinga", "orqaga" tarzda varaqlash imkoniga ega bo'lishi kerak. Foydalanuvchi shriftning o'lchami va tipini o'rnatish, shuningdek, ixtiyoriy fragmentni istalgan marotaba qaytarish imkoniga ega bo'lishi;

• dasturning statistik (matnli, grafik, illyustrativ) qismlarining aniq nusxasini olish imkoniyatini ta'minlash: tanlangan axborotni shaxsiy elektron konspektga nusxalash, uni tahrirlash va dasturiy mahsulotdan chiqmagan holda chop etish imkoniyati.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140 - son qarori. www.lex.uz
2. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari ("O'zstandart" Davlat agentligida 2013 yil 5 martda O'zDSt 2767:2013 3523-qayd raqami bilan ro'yxatga olingan).- Toshkent, 2012, 250 b.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. - Toshkent: O'zbekiston, 2004. - 400 b.
4. V.A.Adolf Teoreticheskiye osnovi formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: dis. ped. nauk. M., 1998. 356 s.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda
6. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. -T.: 2006. - 182 b.
7. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b.
8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: — Moliya", 2003, -B.192.
9. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподвателей для профессиональной подготовки учащихся // Сов. Педагогика. - Москва, 1985. - №2. - С.54-57.
10. Авазбоев А. И. Совершенствование подготовки учителей трудового, и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебних предметов. Автореф. канд. пед. наук — Т.: 2001. - 21 с.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISH JARAYONI IZCHILLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Sh.Abdullayev
Farg‘ona Davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish imkoniyatlari, ularning ta’lim sifati samaradorligini oshirish imkoniyatlari yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik imkoniyat, interfaol metodlar, AKT kompetensiya, texnologik va didaktik imkoniyat.

An’anaga ko‘ra, izchillik tabiat, jamiyat va bilishdagi rivojlanish jarayonida hodisalar o‘rtasidagi, yangilari eskilarining o‘rnini egallab, o‘zida ularning ba’zi unsurlarini saqlab qolgandagi bog‘liqlik sifatida qabul qilinadi. Ushbu ta’rif pedagogika jarayonining o‘ziga xosligi sababli o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan pedagogik izchillikning mohiyatini tushunish uchun asos bo‘ladi.

Ta’limda izchillik g‘oyasi A. Disterveg, YA. A. Komenskiy, I. G. Pestalotssi, K. D. Ushinskiy kabi chet ellik va mamlakatimiz pedagoglarining asarlarida aks etgan[1].

Izchillikni pedagogika muammosi sifatida tushunib etish ushbu masalani falsafiy anglamasdan turib mumkin emas, shuning uchun maktabda va oliy ta’lim muassasalarida informatikani o‘qitishda axborot madaniyatini izchillikning mohiyati inkorning inkor etilishi to‘g‘risidagi dialektika qonuni jihatlaridan birining namoyon bo‘lishi sifatida qabul qilinadi hamda rivojlanishning turli davrlari va bosqichlari o‘rtasidagi, mohiyati butunning tizim sifatida o‘zgarishida butunning u yoki bu unsurlarini yoxud uning tuzilishining ayrim jihatlarini saqlab qolishdan iborat bo‘lgan bog‘liqlik” sifatida tushuniladi[3].

Izchillik mohiyatini dialektikaning rivojlanish konsepsiyasi asosida kengaytirilgan tahlil qilish ilk marta G. Gegel tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u inkorni inkor qonunini ishlab chiqar ekan, rivojlanish jarayonida izchillikning ob’ektiv zarurligi haqidagi masalani chuqur tahlil qiladi, biroq tabiat rivojlanishini rad etadi va bu bilan moddiy dunyo rivojining belgisi sifatida izchillikni inkor qiladi[2].

Dialektik materializm nuqtai nazaridan izchillik “taraqqiyot jarayonida yangilik va eskilik o‘rtasidagi ob’ektiv bog‘liqlik, inkorni inkor qonunining eng muhim xossalaridan biri” sifatida, “materiya o‘z-o‘zini rivojlantirishi cheksiz jarayonining zaruriy ko‘rinishi, borliqning bilish rivojlanayotgan jarayonda aks etadigan ob’ektiv qonuniyati” sifatida tushuniladi].

V. S. Baturinning ta’kidlashicha, izchillik borliqning o‘zgaruvchanlik va barqarorlik kabi bir-birini inkor etuvchi xususiyatlarini dialektik jihatdan birlashtirib, bizni rivojlanishning tanlash xususiyatiga e’tibor qaratishga majbur qiladi, rivojlanishning nisbatan yo‘nalganligini ta’minlovchi “bosh yo‘nalishning” belgilanishi va mustahkamlanishi jarayonini tushunishga imkon beradi”.

Izchillik tamoyili metodologik jihatining mohiyati shundan iboratki, inkorni inkor qonuni butun borliq rivojlanishining umumiy qonuni bo‘lgani holda, bilish qonuni sifatida ham, ilmiy va o‘quv bilimlari rivojlanishining qonuni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Rivojlanishni jarayonda bilib olish – uning ob’ektiv moyilliklarini anglab etish, unda yuz berayotgan o‘zgarishlarning umumiy yo‘nalishini aniqlab olish demakdir.

Izchillik metodologik tamoyil sifatida dialektik materializmning boshqa ikkita qonuni – qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi hamda miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonunlarining muhim belgilarini aks ettiradi. SH. I. Ganelinning tadqiqotida ushbu qonunning tasdig‘ini topamiz: “Bitta darajadagi izchillik miqdor o‘zgarishlari, ya’ni berilgan, nisbatan o‘zgarmas sifat doirasida yuz beradigan o‘zgarishlar jarayonida kuzatiladi. Turli darajalardagi izchillik sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Miqdor o‘zgarishlarida izchillikning asosiy mazmunini strukturaning o‘zi tashkil qiladi, saqlanib qoladi, tuzilishini

ushlab qoladi. Sifat o‘zgarishlarida, ob’ektning strukturasi, qanday bo‘lmasin, o‘zgarganda, ob’ektning aloqalarini tashkil etuvchi alohida unsurlarigina izchillikning mazmuni bo‘ladi”.

Olg‘a qarab rivojlanish va regressiv o‘zgarishlarga xos bo‘lgan involyusion izchillik jarayonida izchillik turlarini farqlash maqsadga muvofiqdir. “Progressiv izchillikning mohiyati jonli tabiat yoki insoniyat jamiyati tarixining oldingi bosqichlarida erishilgan ijobiy natijalarni saqlab qolish va sifat jihatidan yangi darajalarda rivojlantirishdan iborat... Involyusion izchillikning o‘ziga xosligi shundan iboratki, o‘zgarayotgan ob’ekt muayyan sifatlarining saqlanishi ayni paytda progressiv rivojlanish jarayonida avval erishilgan ayrim natijalarning, u yoki bu belgilarning barham topishi, yo‘qotilishi bilan birga kechadi” [4].

N. G. Barishnikova, L. A. Gorshunova, V. E. Tamarin va N. V. YAshchenkolarning ilmiy ishlarida izchillik o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, uslublari, vositalari o‘rtasida har bir yangi bosqichni o‘quvchilarning avvalgi tajribasiga tayangan holda qurishga imkon beradigan va shu tarzda ularning navbatdagi ta’lim bosqichida o‘qish sharoitlariga moslashuvini engillashtiradigan o‘zaro nisbatlarini o‘rnatishni ta’minlovchi sharoit sifatida ta’riflanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va kasb–hunar kolleji o‘qiguvchilarining malakasini oshirishda masofali o‘qitish metodikasi // Uzluksiz ta`lim. IMJ. –№5. –T.: 2004. –B. 3–12.
2. Абросимов А.Г. Информационно–образовательная среда учебного процесса в ВУЗе. –М.: Образование и информатика. 2004. –256 с.
3. Aripov M., Internet va elektron aloqa asoslari.–T.:
4. “Universitet”, 2000.– 104 b.
5. Везиров Т.Г. Теория и практика использования информационных и коммуникационных технологий в педагогическом образование. Автор. дисс. …д.п.н. –Ставрополь, 2001. -42 с.
6. Jaloliddinov Z. Individual ta’limda zamonaviy axborot resurslarining o‘rni // Пятая международная конференция “Образование через всю жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития”. –Том II. –Санкт–Петербург –T.: 2007. –C. 92–94.
7. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti. p.f.d..... diss. avtor. –T.: 2012. –46 b.

TALABALARDA XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK MODELI

Esanova Sarvinoz Uktamovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Tel: +998 91 510 83 80
E-mail: esanovas@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik modeli ishlab chiqilgan va asoslab berilgan. Tadqiqotda ijtimoiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning xalq hunarmandchiligi bilan uzviy bog'liqligi hamda ta'lim jarayonida shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ilmiy-metodik modelning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, mazmuniy, faoliyatli va natijaviy komponentlari aniqlangan. Model talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, jamoada ishlash, muloqot madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va kasbiy moslashuv kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asos qilib olingan. Shuningdek, xalq hunarmandchiligi asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar, loyiha faoliyati va ustoz-shogird an'analarining pedagogik samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: xalq hunarmandchiligi, ijtimoiy kompetensiya, ilmiy-metodik model, kompetensiyaviy yondashuv, talaba, milliy qadriyatlar, ta'lim jarayoni.

Xalq san'ati, xalq hunarmandchiligi va dekorativ-amaliy san'atdagi an'analar chuqur milliy hamda tarixiy ildizlarga ega. Asrlar davomida turli materiallarga ishlov berishning ijodiy usullari takomillashib, an'analar shakllangan bo'lib, bu jarayonda buyumlarning utilitar vazifasi ularning shakl ifodaviyligi va bezakdorligi bilan uzviy birlikda namoyon bo'lgan. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq hunarmandchiligi jiddiy inqiroz davrini boshdan kechirmoqda. Xalq hunarmandchiligining ayrim turlarining parokanda holda mavjud bo'lishi, ularga bo'lgan qiziqishning pasayishi va boshqa ko'plab omillar zamonaviy jamiyatning tarixiy va madaniy meros sohasida qayta tiklab bo'lmaydigan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Xalq amaliy san'atida mujassam bo'lgan tarbiyaviy salohiyat, agar pedagoglar bolalik davridan boshlab shaxsda xalq badiiy madaniyati materiallari bilan muloqot qilish ehtiyojini shakllantira olsalar, muvaffaqiyatli amalga

oshirilishi mumkin. Ta’lim jarayonida xalq madaniyati materiallaridan foydalanish samaradorligi uning alohida unsurlarini qo‘llashda emas, balki yaxlit, tizimli faoliyatni tashkil etishda namoyon bo‘ladi.

Vujudga kelayotgan vaziyat dekorativ-amaliy san’at va xalq hunarmandchiligi an’analarini saqlashning alohida muhimligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonni boshlang‘ich badiiy ta’lim bosqichidan (bolalar san’at maktablari, bolalar rassomlik maktablari va bolalar hunarmandchilik maktablari) boshlab, keyinchalik o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida mazkur yo‘nalishlarni rivojlantirish zarur. Hunarmandchilik maktabini bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim tizimidagi yangi institut sifatida baholash mumkin.

Xalq hunarmandchiligining turli turlariga oid texnologiyalar I.V. Lovtsova, P.D. Bobikov, T.A. Matveyeva, I.I. Yakovlev, Yu.D. Orlovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Bolalarni xalq hunarmandchiligiga o‘qitish metodikasi masalalari bilan E.I. Abakumova, S.M. Aglaeva, S.V. Belous, A.V. Bychkov, G.N. Ivanov, D.M. Skilskiy, I.M. Fadeeva shug‘ullanganlar. Ushbu muammoga nisbatan ilmiy jamoatchilik va amaliyotchi pedagoglarning har tomonlama qiziqishiga qaramay, bolalar qo‘shimcha ta’limi tizimida xalq hunarmandchiligini qayta tiklashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash masalasi alohida o‘rganishni talab etadi [1].

Milliy tasviriy san’at, xalq badiiy hunarlari, hunarmandchilik va dekorativ-amaliy ijod an’analari chuqur madaniy va tarixiy ildizlarga ega. Qo‘l mehnatining texnologik usullari hamda xalqning madaniy o‘zligini saqlab qolish xalq ustalarining ijodida jamoaviylik va an’analar davomiyligi natijasida yuzaga kelgan.

Xalq hunarmandchiligining ayrim turlariga bo‘lgan qiziqishning pasayishi, ularning tarqoq holda mavjud bo‘lishi va boshqa ko‘plab sabablar zamonaviy jamiyatning madaniy va tarixiy merosi sohasida o‘rnini qoplab bo‘lmaydigan yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Xalq dekorativ-amaliy ijodining pedagogik imkoniyatlaridan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish inson ongiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Chunki u o‘z mazmunida bilish, badiiy va mehnat faoliyatini birlashtiradi. Shu sababli u ta’lim oluvchilarda turli ijodiy qiziqishlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaralib, ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy badiiy hunarmandchilik turlari — ilgari e’tirof etilgan “kustar hunarlar”ni almashtirgan, avvalo badiiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan badiiy ishlab chiqarish shakllaridir. Badiiy funksiyaning bunday ustuvorligi ko‘p jihatdan madaniyatimiz rivoji, zamonaviy buyumlar muhitidagi muammolarga javob sifatida namoyon bo‘lmoqda. Albatta, bu holat o‘tmishdagi an’anaviy

madaniyatning sinkretik tabiatiga to‘liq mos kelmaydi va jamiyatimizda yuz bergan katta o‘zgarishlarni aks ettiradi [1].

Biroq ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga qarab materialni o‘zlashtirish darajasi, demakki hunarmandchilik malakalarini egallash darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Eng qulay o‘rganuvchilar toifasi bolalar ekanligi sir emas. Ammo hunarmandchilikni o‘rgatishda shuni inobatga olish lozimki, u diqqatni jamlashni, sabr-toqatni, muayyan jismoniy kuch va bilimlarni talab etadi. Bu esa eng to‘liq tarzda o‘smirlik yoshiga mos keladi.

Shu tariqa, bugungi kunda xalq hunarmandchiligi va badiiy hunarlarni qayta tiklash hamda rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma’muriy shart-sharoitlar mavjud, deb aytish mumkin. Ushbu jarayon jamoatchilik va ma’muriy resurslarning o‘zaro aniq va samarali hamkorligi yo‘lga qo‘yilgandagina amalga oshishi mumkin. Biroq hunarmand ustalarning kadrlar salohiyati masalasi hanuz to‘liq hal etilmagan. Xalq hunarmandchiligini puxta egallagan ustalar soni kam, yangi avlod ustalari esa sust shakllanmoqda. Shu bois kelajakda nafaqat xalq madaniyatining tashuvchilari, balki uning targ‘ibotchilariga aylanishi mumkin bo‘lgan bolalar va yoshlarni hunarmandchilikka o‘rgatish zarurati yuzaga kelmoqda [2].

Xalq hunarmandchiligini o‘qitishning eng samarali texnologiyalarini aniqlash uchun turli tipdagi muassasalar faoliyatini tahlil qilish lozim. Axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i — internetda bugungi kunda deyarli har bir ta’lim muassasasi o‘z rasmiy saytiga ega bo‘lib, ularni o‘rganish jarayonida hunarmandchilikni o‘qitish bo‘yicha bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi yo‘nalish — qo‘shimcha ta’lim muassasalaridagi dekorativ-amaliy ijod to‘garaklaridir. Ta’kidlash joizki, bolalar qo‘shimcha ta’lim muassasalari o‘z oldiga hunarmandchilikni kasbga yo‘naltirilgan darajada o‘rgatish emas, balki xalq dekorativ-amaliy ijodining muayyan turi bilan tanishtirishni maqsad qilib qo‘yadi. Shu bilan birga, ularning bolalarda bilishga va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishdagi yetakchi roli alohida e’tirof etilishi lozim. Ko‘plab tashkilotlar o‘z saytlarida bunday to‘garaklar mavjudligini faqat bilvosita tilga olib, ularning natijadorligi va metodik ta’minotini to‘liq yoritmaydi. Agar bolalar qo‘shimcha ta’lim muassasasining rasmiy saytida hunarmandchilikka o‘rgatishga oid umumiy rivojlantiruvchi ta’lim dasturi joylashtirilgan bo‘lsa, bu to‘garak faoliyatining mazmuni va to‘liqligini kuzatish imkonini beradi [3].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bolalar qo‘shimcha ta’lim muassasalaridagi dekorativ-amaliy yo‘nalishdagi to‘garaklar ko‘pincha mazmunan soddalashtirilgan mashg‘ulotlarni taklif etadi. Ularning mohiyati, asosan, xalqona motivlar asosida turli buyumlar yasash bilan cheklanadi. Ko‘pincha uslub va texnikalarning

aralashtirib yuborilishiga yo‘l qo‘yiladi, tezroq natijaga erishish maqsadida ayrim muhim texnologik jarayonlar chetlab o‘tiladi. Bunday holatlar ko‘p jihatdan pedagogning o‘zi mazkur faoliyat turi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga, ya’ni uning kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu maqolada talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq hunarmandchiligi nafaqat milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish, balki talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Ilmiy-metodik modelning asosiy komponentlari — mazmuniy, faoliyatli va natijaviy qismlar talabalarda jamoada ishlash ko‘nikmalari, muloqot madaniyati, ijtimoiy mas’uliyat, milliy qadriyatlarga hurmat va kasbiy moslashuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Modelga ko‘ra, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati va ustoz-shogird an’anasi asosida ta’lim jarayoni talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga imkon yaratadi [4].

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, bolalar va o‘smirlar yoshida hunarmandchilik bilan tanishtirish ularning ijodiy qiziqishlarini rivojlantiradi va kelajakda hunarmandlikni kasbiy darajada egallash uchun asos bo‘ladi. Shu bilan birga, qo‘shimcha ta’lim muassasalari, Hunarmandchilik maktabi va masofaviy kurslar kabi institutlar xalq hunarmandchiligi asosida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali platforma sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, talabalarda xalq hunarmandchiligi orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat pedagogik va ilmiy ahamiyatga ega, balki milliy madaniyatni saqlash va yosh avlodda ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amanjonova D.A. O‘zbekistonning qo‘l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari. – Toshkent. 2011. – 78 b.
2. Boboyeva Y.V. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda rekreativ texnologiyalar vositalari orqali yondashuv. Zamonaviy fan va ta’lim muammolari. 2017. – № 3. – B. 132-137.
3. Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. – Berlin: Springer, 1935.
4. Потапов, Л. П. Очерки народного быта тувинцев[Текст]: монография/ Л. П. Потапов. – М.: Просвещение, 1989. – 322 с.

MUNDARIJA

Б.К.Хожанов Дарсдан ташқари машғулотларда экологик тарбиянинг аҳамияти.....2
Хаитов М.А. Ички ишларда фаолият юритувчи ходимларнинг психоэмоционал холатини баҳолаш.....6
Axmedov A., Po'latov L.T. Boshlang'ich taekvondochilarga oyoq udarlarini órgatishda murabbiyning salohiyati.....8
Axmedov A., Po'latov L.T. Boshlang'ich taekvondochilarda oyoq udarlarini tarbiyalashda ahamiyatli jihatlar.....9
Turganbekov O. Taktikani o'rgatishning asosiy vositalari.....11
Turganbekov O. Taktik tayyorgarlikda musobaqaning ahamiyati.....13
Abriqulov O. Taekvondochilarning egiluvchanlik sifatini tarbiyalash usullari.....15
Abriqulov O. Taekvondoda egiluvchanlik sifatini foydali jihatlari.....17
Abriqulov O. Taekvondoda egiluvchanlik sifatini shakllantirishda noto'g'ri yuklamalarning oqibatlari.....19
Abriqulov O. Taekvondo sportida egiluvchanlik sifatining ahamiyati.....21
Abriqulov O. Taekvondo sportida egiluvchanlik sifatini yoshga doir xususiyatlari.....23
Saloxiddinova M.N., Isroilova M.O. Transformatsiya usulida bolalar kiyimini loyihalashning afzalligi.....25
Islamov A.Z. Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosining mohiyati va ahamiyati.....29
Алмаматова З.Х. Олий таълим муассасаларида талабаларни валеологик ва экологик тайёргарлигини такомиллаштириш.....32
Axmedova Y.Q. Maktablarda umumta'lim fanlarini o'qitishda interfaol metodlaridan foydalanish va zamonaviy darslarni tashkil etishning samaradorligi.....35
Zakhidova Z.Kh. Mechanisms for increasing the economic efficiency of exporting enterprises through bank loans.....40
Ахмедова М.Х. Психолингвистикада нутқни шаклланиш жараёни.....43
Axmedov M. Musobaqa oldi taekvondochilarning psixologik tayyorgarligi.....45
Axmedov M. Taekvondo sport turida boshlang'ich tayyorgarlik.....47
Axmedov M. O'smir yoshdagi taekvondochilarda iroda va kuch sifatlarini rivojlantirish.....49
Axmedov M. Mashg'ulot jarayonlarida murabbiy va sportchining o'zaro munosabatlari.....52
Axmedov M. 13 - 14 yoshdagi taekvondochilarda tezlik sifatini takomillashtirish.....54
Musayev A.I. Kiberxavfsizlik va virus bo'lmagan kibertahdidlarning biznes jarayonlarga ta'siri.....56
F.X.Ishkobilov Virtual laboratoriyalarni mobil ilova yordamida ta'limda qo'llash.....60
I. Yakubova The evolution of collective management organizations of copyright and related rights: foreign experience.....62
Раҳмонов Ҳ.А. О.Матжон шеърларида тил бирликларининг ўхшашлик ёки ёндошлик хусусиятлари.....65
Э. Абдулвохидов Народная педагогика как основа воспитания и образования в трудах Чингиза Айтматова.....69
Ўролов А.А. "Авесто" – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи.....74
Shakirova Y. Vulfila va uning faoliyati.....77

M. Xudayarova, Usanova Q.M. O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning kelishik kategoriyalari. bosh va qaratqich kelishiklari qiyosi 80
Samadova Z.Z. Mahalliy budjet daromadlari hisobini yuritish zarurati 84
Samadova Z.Z. Prospects of local budget revenue formation and increase efficiency.....87
Мирзабекова О.А., Нуриддинова Ф.М. Ўпка гиалин мембранасида кузатиладиган морфологик ўзгаришлар.....89
Мирзабекова О.А., Нуриддинова Ф.М. Ўпка гиалин мембранаси ривожланишидаги хавф омиллари.....93
Б. Уразалиев Композитор энмарк салихов ижодига бир назар (Умид ва Соғинди жон қўшиқлари мисолида).....97
Choriyev S. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillari va xarajatlar.....103
Тўхтаев Б-М.А. Парламент фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлашда "электрон парламент"нинг ўрни 108
Тўхтаев Б-М.А. Илғор хорижий мамлакатларда "электрон парламент" тизими.....111
G'ulomqodirov E.A. Shaxs so'rovnomalarini tatbiq etish xususiyatlari 114
Sh.X.Eshqobilov Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish metodikasi.....116
Eshqulova N.N. Kompyuter lingvistikasining tilshunoslikdagi amaliy ahamiyati va muammolari 119
Asamiddinov E.Z. Davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi.....122
Xushvaqtova O. Sohalarga oid matnlarni nemischadan o'zbekchaga tarjimasi xususiyatlari va qiyinchiliklari.....124
Mo'minova A., Ubaydullayeva Sh. Surxon nasrida davr muammosining yoritilishi (Safar Kokilov hikoyasi misolida) 130
Usmanov U.R. Spark ignition engine emissions and methods of their mitigation 133
Шигакова.Л.А Бобумуродова М.М. Актуальность применения генно-инженерных препаратов xxi веке.....137
Jumamuratov D.M. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini aksiyadorlik jamiyatlariga tatbiq etish.....139
Haydarova Sh.A. Budjetlararo hisoblashuvlar nazoratini takomillashtirish.....143
Халиков П.Х., Фозлиева М. Влияние пестицидов на организм человека.....146
Sherkulov S.K. Tog'ay Murod ijodida Uilyam Folkner asarlari ta'siri 148
Сиддиқов Р.И., Адашев И.Қ. Кузги буғдой навларининг биологик қуруқ масса тўплашига уруғларни экиш муддатлари ва меъёрларининг таъсири 151
Qo'ldoshev Sh.M., Ochilova G.D. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari 154
Tursunboyev T.G'. Davlat budjeti hisoboti va uning axborot imkoniyatlari tahlili 156
Raximjonova R.M. Buyuk daho Ibn Sino.....159
Боймурадов Ш.А ., Максудов Д.Д., Рахмонова Б.К., Холмаматов Ф.З Инфекция COVID-19 у пациентов с биполярным расстройством и биполярным расстройством в анамнезе наблюдаются лихорадки и их осложнения 162
Norbekov T.Sh. Budjeti tizimida qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish164
Ибрагимов С. Методы и способы парентерального кормления у детей в послеоперационном воздействии.....167
Ibragimov S. Methods of parenteral feeding in infants postoperatively 172

Асатуллаев М.И. Годовой отчет о работе школ Самаркандского областного отдела народного образования за 1958-1959 учебный год 175
Б.Б.Адизов Олий таълим тизимида корпоратив бошқарувнинг ўзига хос хусусиятлари 178
Abdullayev B.D., Shamsiyev M.T., Xolmuradova M.X. Qarshi janubiy g`arbiy cho`li hududida barpo etilgan uzgtl zavodining qurilish va eksplatatsiya qilish jarayonida yerosti suvlariga ta`sirini baxolash uchun monitoringni ishlab chiqish 182
Ergasheva B.B. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida oila munosabatlarini tartibga solish va bola huquqlari 187
Normatov Z. The possibility of performing an action in the verb system of the pashto language 190
Saydullayeva N.I. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv 194
Tyukmaeva A.M. Theoretical and methodological foundations of the hermeneutic approach in the philosophy of m. heidegger 197
Akmalova M.Z. Zamonaviy formatsiyadagi maktabgacha ta'lim menejerini tarkib toptirish 201
Хожаева М.Н. Хорижий тил ўқитувчиларида «факт-чекинг» кўникмаларини ривожлантиришнинг мазмун-моҳияти 204
Narbayeva M. Iqtisodiyot oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til leksikasini o'qitish tadqiqot obyekti sifatida.....207
Abdullayev Sh. Oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayoni izchilligini ta'minlashning pedagogik va psixologik imkoniyatlari 215
Esanova S.U. Talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik modeli.....218